TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY - METODIK JURNALI

PEDAGOGIKA, IQTISODIYOT, FILOLOGIYA, TARIX



№1 2026-yil

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKSI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY-METODIK JURNALI

№ 1 (2026)

SCIENTIFIC-METODICAL JOURNAL OF TASHKENT ECONOMIC AND PEDAGOGICAL UNIVERSITY

№ 1 (2026)

ISSN 3060-4877 | TIPI-JOURNAL.UZ

Toshkent — 2026

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY-METODIK JURNALI

TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat kengashi raisi	Adilov Sanjar Anvarovich Rektor, iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tahririyat kengashi mas’ul kotibi	Israilova Sayera Tashpulat qizi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tahririyat a’zolari	
Jabborov Eliboy Jabborovich	iqtisod fanlari doktori, professor
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	iqtisod fanlari doktori, professor
Kayumov Erkin Kayumovich	iqtisod fanlari nomzodi , dotsent
Fayziyev Axtam Asrayevich	fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Rasulov Saodaddin Shavkatovich	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fatma Sema Barutchi	filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Yılmaz Özkaya	filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Ibrahimov Elchin Ali o‘g‘li	filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Qozoqboy Yo‘ldoshev	filologiya fanlari doktori, professor
Almaz Ulvi Binnatova	filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon)
Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich	filologiya fanlari doktori, professor
Yuldashev Ma’rufjon	filologiya fanlari doktori, professor
Saparova Gulnaz Kalbayevna	pedagogika fanlari nomzodi, professor
Sabirova Zebo Baxramovna	pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nazarov Nurali Normirzayevich	falsafa fanlari nomzodi, professor
Abduraxmanova Jummagul Nomazovna	tarix-pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY-METODIK JURNALI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2024-yil 1-avgustda ro‘yxatga olingan,
guvohnoma raqami **№335218**

Ushbu jurnalda iqtisod, pedagogika, filologiya, tarix yo‘nalishlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar nashr etiladi.

Jurnal xalqaro ilmiy bazalarda indekslanadi va elektron holatda nashr etib boriladi.

Ushbu ba’zalar:

- Google scholar
- Slib.uz
- Index Copernicus (OAK 12)
- Zenodo

Jurnalning rasmiy tillari: ***o'zbek, rus, ingliz***

Maqola muallifiga nashr etilganlik haqida sertifikat beriladi. Jurnal ikki oyda bir marta nashr qilinadi.

Maqola elektron shaklda +998 50 055 17 05 (https://t.me/Science_qabul2) telegram profili orqali qabul qilinadi. Shuningdek, maqolalar info@scientists.uz elektron manzillariga yuborilishi mumkin.

NOMUTAXASSISLIK FANLARINI SIFATLI VA JOZIBALI O‘QITISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693454

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar, usul va uslublar haqida fikr-mulohazalar yoritilgan. Fanlarga oid yangi atamalarga ilmiy terminologiyada berilayotgan ta’riflar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitish; ilmiy-amaliy asoslar; mantiqiy izchil,ixcham.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные подходы, инноватsионные методы и методики обучения студентов в системе высшего образования. Приводятся определения новых профильных понятий, представленных в научной терминологии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Привлекательное преподавание непрофильных дисциплин: научно-практические основы; логическая последовательность и лаконичность

ABSTRACT

The article discusses modern approaches, innovative methods, methods and techniques in teaching students in the higher education system. The definitions of new terms in scientific terminology are presented.

KEY WORDS

Engaging teaching of non-specialty subjects: scientific-practical foundations; logically consistent and concise

XXI asr - raqamli texnologiyalar hayratli darajada tez rivojlanayotgan, xususan, sun’iy intellekt yaratilinib va takomillashtirilib borilayotgan, ushbu texnologiyalar inson faoliyati va jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan, моҳиятан zamonaviy yangi davr бўлиб, kishilik jamiyati barcha

sohalarining taraqqiyoti bilan birga fanlar mazmuni, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash yo‘llarining ham tubdan yangilanib borilishini taqozo etmoqda[1: 14].

O‘quv adabiyotlar zamonaviy ta’limga hamnafas bo‘lishi kerak. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarning talaba yoshlar uchun jozibadorligini ta’minlash juda muhim bo‘lib, endi zerikarli dars o‘tib biror bir ijobiy natijaga erishib bo‘lmay qoldi. Talabalar zerikarli darsni qabul qila olmaydi. Bu degani dars o‘tayotgan domlaning ham, talabaning ham vaqti behuda sarf bo‘lgan bo‘ladi.

Chunki “informatsion inqilobiy portlash davrida” yoshlarning aksariyati kitob o‘qimay qo‘yishdi, topshiriqlarni bitgi (ruchka) bilan qo‘lda yozib bajarishni eng zerikarli va yoqimsiz mashg‘ulot degan xulosaga kelib qolishdi.

Yetti yoshdan yetmish yoshgacha, degan qadim iborani, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zgartirib: yetti oylikdan yetmish yoshgacha hamma “aqltel”-smartfonga bog‘lanib qoldi shakliga keltirish mumkin bo‘lib qoldi. Aholining aksariyati bugungi kunda uyali telefonlarga ega va ularning ko‘pchiligi biror bir berilgan savol yoki qo‘yilgan masalaning javobini soatlab kitob izlab, tintib topgandan ko‘ra, bu isni bir necha soniyada internetda qidiruv portali orqali yoki sun’iy internet yordamida bajarishni afzal biladi.

Shu bois, universitetlarda nomutaxassislik fanlari sifatida o‘qitilayotgan filologiya sohasiga oid fanlarning, shu jumladan, axborot texnologiyalari yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun yangi tashkil etilgan “Akadimik yozuv” fanining sifatli o‘tilishini ta’minlashning eng yaxshi omillaridan biri bu – talaba yoshlarning ta’lim va tarbiyasi uchun dars va mashg‘ulotlarni maroqli tarzda zamonaviy texnologiyalar va eng sara milliy qadriyatlarimizni o‘zida qamrab olgan o‘quv adabiyotlari hamda ushbu maqola muallifi – kamina tomonidan ishlab chiqilgan yangi kompleks metodika asosida oqilona hamda maqsadli tashkil etish yangi davr talabidir [4: 95].

Ayniqsa, dars mazmuni bayoni professor-o‘qituvchilar tomonidan nafaqat to‘g‘ri, endi, e’tiborni qaratamiz, , talabalar, tinglovchilar diqqatini o‘ziga tortadigan darajada jozibali, ta’bir joyiz bo‘lsa, yaxshi bayon, etgusi rom tutumiga monand bo‘lib, talabalarda mustahkam bilimlar bilan birga chuqur unutilmas taassurot qoldirishi kerak.

Jumladan, kamina qalamiga mansub quyidagi qofiyali qoidalar uslubida:

Jozibali bayon qil/ Aniq, tiniq ayon qil.
Oddiy, sodda va ravon/ Tushunarli va oson.
Mantiqiy izchil, ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan [5: 15].

Ushbu qofiyali qoidalarda Jozibali bayon nima? degan savolga mantiqiy ketma-ketma ketlikda aniq, javoblar berilgan:

Jozibali bayon talabani (tinglovchini, suhbatdoshni, adresatni va hokazo) darsga faol jalb qila olishdir. Buning uchun domla talabaga yangi mavzuni, dars mazmunini “oddiy, sodda va ravon, tushunarli va oson, aniq, tiniq – ochiq oydin, mantiqiy ketma-ketlikda, ixcham, yaxlit ayon qiladigan uslubda anglatishi lozim. Shundagina domla darsning maqsadiga erishib, mashg‘ulotlarning talabalar uchun ham tushunarli, ham qiziqarli va ta’sirchanligini ta’minlaydi.

Shungdek, ushbu qofiyali qoidalar jamlanmasidan iborat jozibali bayon uslubi talabalarga nutqiy vaziyat va muloqot maqsadidan hamda adresat (tinglovchi, suhbatdosh va hokazo)ning bilim darajasi, ularning tanlagan kasb sohasidan kelib chiqqan holda nihoyatda boy bo‘lgan adabiy tilimizdan so‘zlarni саралаб олишни, фикр ва ҳис-туйғуларни aniq, содда ва ravon, tushunarli va oson, o‘rinli va ихчам қилиб ифодалашni o‘rgatadi.

Savol berib qiziqtir,/ javob izlab miriqsin qoidasi talabalarga qiziqarli savol berishni va unga ilmi toliblarning maroq bilan izlanib, mantiqiy izchil, ixcham javob berishlarini o‘rgatadi.

Mantiqiy ketma-ketlikda berilgan savollar assotsiativ bog‘lanishlarni faollashtiradi, qidirilmishlarning – xotiradan izlanilayotgan narsalarning yodda tushishini tezlashtiradi. Kalit so‘zlar matndagi eng asosiy so‘zlar bo‘lib, matnning mazmun mohiyatini yodga soladi. Yana ham oddiyroq qilib aytganda, kalit so‘zlar esga tushadigan va boshqa izlanilayotgan so‘zlarni ham tez esga tushiradigan asosiy so‘zlardir.

O‘rgan – o‘rgat. O‘rgansa shaxdam/ Tez olar mahkam. Varianti: O‘rgansa, shaxdam, yodda qolar mahkam.

Qofiyali qoidalardagi har bir so‘zning ma’nosini bolalarga aniq, sodda qilib tahlil qilib berish kerak. Masalan,

Shaxdam so‘zining ma’nosi nima? Javob: Shaxdam – tez va dadillik bilan; tetik va dadil.

Quyidagi iboralarining qaysi biri so‘zlashuv uslubiga xos:

Eslab qoldi, yodlab qoldi, xotirasida qoldi, xotirasida saqlab qoldi, “bittada oldi”

O‘rgansa, o‘rgata oladi. / O‘rgatsa, yodida qoladi qofiyali qoida bo‘lib, uning mazmun-mohiyatini tushunib olishlaring uchun quyidagi matnni diqqat bilan o‘qib chiqing. Matnni o‘qish jarayonida savol tug‘ilsa, qo‘l ko‘tarib murojaat qilsangiz javobini birgalikda topamiz.

Xotirada mustahkam saqlab qolishning eng samarali usullaridan biri qiziqib o‘rganish bo‘lsa, yana biri o‘rganganini qiziqtirib o‘rgata olishdir.

Kompyuter texnologiyalarining asosini algoritm tashkil qiladi. Algoritm – amallarni ketma-ketlikda bajarishdir. Buning uchun ularni eslab qolish kerak.

Eslab qolish uchun esa, masalan, zamonaviy gajet – qurilmalar funksiyalarini bilish va ularni qo‘llay olish uchun bu qurilmalar bajaradigan amallarning bajarilishi ketma-ketligini o‘rganib, ularni amalda takror va takror qo‘llash kerak. “O‘rgan – o‘rgat” qodiasining asosiy mazmuni: O‘rgan – o‘zing o‘rgan, o‘rgat – o‘zingga va boshqalarga ham o‘rgat, degani - o‘rganganlariningni amalda, o‘rganish jarayonida ham, o‘rgatish jarayonida ham mantiqiy ketma-ketlikda, izchil qayta va qayta takrorlab borib amaliy ko‘nikmalarni hosil qilish. Shundagina o‘rganganlaring avtomatlashganlik darajasiga yetadi.

Qiyoslang “toy-toy”lab endigina yurishni o‘rganiyotgan chaqoloqning, ulg‘ayganida bosayotgan shaxdam qadamlarini, yoki moshina ruliga birinchi ,marta o‘tirgan o‘rganuvchining moshina haydashini uning tajribali bo‘lib, rulda atrofni tomosha qilib, yoki hamrohi bilan bemalol suhbat qilib, moshinani malakali boshqarishini.

Takror va takror bajariladigan amallar jozibali va maroqli, foydali va kerakli bo‘lsagina, inson (domla, talaba, o‘rgatuvchi, o‘rganuvchi va hokaz) zerikmay o‘rganadi va zerikmay o‘rgatadi.

Zero, talabalar, va umuman, tinglovchilar ular uchun tushunarsiz bo‘lgan murakkab, chigal, noaniq bayon, ifoda va ta’rif¬lar¬ni qabul qila olmaydilar [10: 315].

Misol uchun, A.Avloniy nomidagi pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirih markaziy institut tinglovchilari (maktab direktorlari, xalq ta’limi hududiy boshqaruv idoralari, pedagoglari) ishtirokida 2011-2014 yillarda, hamda oliygohlar talabalari ishtirokida 2017-2025 yillarda o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasidan, shunungdek, xizmat faoliyatim yuzasidan olib borilgan tajribadan ma’lim bo‘ladiki, “pedagogic texnologiya” tushunchasiga berilgan quyidagicha pedagogik atamalar yig‘ndisidan iborat mujmal ta’rif nafaqat pedagoglarning, balkim har qanday soha mutaxassislarining ham tushunib olishlari uchun murakkablik qiladi:

“Педагогик технология – ўқув жараёнини технологиялаштиришни яхлит аниқловчи тизимли категория. Технологияларнинг барча бошқа тушунчаларини белгилаш учун синоним сифатида таълим технологияси, ўқитиш технологияси кабиларни ишлатиш мумкин.

Ўқитиш технологияси, биринчидан, педагогик технологияларнинг жараёнли – ҳаракат аспектини англатади. Бу таълим жараёнининг ўзгарувчан шароитларда, ажратилган вақт давомида истиқболлаштирилган натижаларига кафолатли эришишга ва аниқ таълим-тарбия жараёнларини амалга оширишни инструментал таъминловчи усул ва воситаларнинг тартибли бирлигини ўзида

мужассамлаштирилган таълим моделини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг технологик жараёнидир;

–иккинчидан, педагогик технологияларнинг жараёнли – баёнли аспектини ифодалайди. Бу мақсадни амалга ошириш ва истиқболда белгиланган натижаларга эришиш бўйича педагогик ҳамда ўқув фаолияти лойиҳасини бажаришнинг баёнидир (технологик харита).” (Педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. Тошкент: “Иқтисод-Молия”, 2009, 75-бет)”.

Pedagogik texnologiyalar ta’rifini talabalarga oddiy qilib quyidagicha aytish kifoya:

Pedagogik texnologiyalar – bu ta’lim va tarbiya maqsadlariga samarali erishish uchun o‘qitish jarayonini oldindan to‘g‘ri rejalashtirish, mantiqiy izchil ketma-ketligida tashkil etish va natijani tekshirib borish.

Yanada qisqa va sodda qilib aytganda:

Qanday qilib o‘qitsak, talabalar aniq natijaga erishadi?- degan savolga javob beradigan usullar majmuasi pedagogik texnologiyalardir.

Demak, pedagogik texnologiya – bu ilmiy asoslangan, rejali o‘qitishdir.

Kelajagini ilmiy pedagogik faoliyat bilan bog‘layotgan talabalar uchun ushbu atamani ular uchun yanada jozibaliroq tushuntirish mumkin:

Pedagogik texnologiyalar - bu ilmiy asoslangan ta’lim-tarbiya berishning, samarali o‘qitishning zamonaviy usul, tutum, uslublari tizimi.

Imiy asoslangan atamasi –tajribada muvaffaqiyatli sinalgan, ijobiy natijalar olingan, dalil, faktlar bilan isbotlangan, ko‘zlangan maqsadga erishilgan degan ma’nolarni anglatadi.

Akademik yozuv fani domlasi nofilologik yo‘nalishlarda, jumladan, texnika yoki iqtisod sohalari kasblarini ko‘zlab ta’lim olayotgan talabalarga sinonimlar tushunchasini quyidagicha ifoda etib, tushuntirishga harakat qilishi behuda urinish bo‘lardi:

“Tadqiqot natijalari asosida o‘zbek tili leksik sinonimlarini asosiy denotativ ma’nosi bo‘yicha mos, lekin konnotativ ma’no komponentlari xususiyatlari va qo‘llanishi, funksional imkoniyatlarining o‘ziga xosligi bilan farqlanadigan lug‘aviy birliklar - sinonimlar deb tavsiflash maqsadga muvofiq. Sinonimlar leksik va kontekst birikuvi hamda derivatsiyaviy xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ham farqlanadi” [2: 175].

Zero, ma’nodosh so‘zlarning ushbu ta’rifi ilmiy asoslangan, juda to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa-da, sinonimlarga oid bu ilmiy xulosa o‘zbek tilshunosligi sohasida qalam tebratayotgan olimlar, soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan, tilshunos olimlar uchun sinonimlarning ushbu ta’rifi ochiq-oydin tushunarlidir.

Zamonaviy texnologiyalarini egallab yetuk mutaxassis bo‘lishni niyat qilgan ilmi toliblarga domlalari sinonimlar ta’rifini sodda va tushunarli, ular uchun jozibali tarzda yetkazmog‘i lozim, jumladan, quyidagicha:

“Sinonimlar bu – ma’nodosh so‘zlar”, yoki “sinonimlar ma’nosi juda yaqin bo‘lgan so‘zlar”, deb oddiy va lo‘nda qilib talabalarga tushuntirib berish maqsadga muvofiq. Masalan, yuz, bet, chehra, aft, turq, bashara, ozar, uzor, jamol, ruxsor kabi. Sinonimlar asosiy ma’nosiga ko‘ra bir xil so‘zlar bo‘lib, ma’no nozikliklari bilan farqlanadi, masalan, ochiq chehra deb aytish mumkin, lekin ochiq bashara deb aytib bo‘lmaydi; oy yuzli zebo, deb aytish mumkin, lekin oy turqli zebo deb aytib bo‘lmaydi”, bezbet, deb aytish mumkin, biroq bezyuz, yoki bezchehra deyilmaydi.

Yuzsiz, tuban, muttaham birikmasidagi yuzsiz so‘zi ma’nosini uning ma’nodoshlari (bet, chehra, turq, bashara) bilan ifodalab bo‘lmaydi.

Badiiy asardan misol keltiramiz:

U (Madaminxo‘ja) bir ko‘ngli borib, muttaham qozining tumshug‘iga tushurgisi yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (Mirzakalon Ismoliliy Farg‘ona tong otguncha)

E’tibor bering, yuz, bet, chehra... insonga xos, hayvonlarda tananing ushbu qismi tumshuq deb ataladi. Asar personaji Madaminxo‘ja muttaham qozidan shunchalik nafratlanadiki, qozining yuzini hayvon tumshug‘iga o‘xshatadi va uning iflos basharasiga tupurgisi keladi. Qiyoslang: iflos chehrasiga, iflos siymosiga... deb bo‘lmaydi.

Demak, nomutaxassislik fanlarini o‘tayotgan domla kimlarga darslik yozayotganligi, talabalarning qaysi sohani tanlaganliklarini, ularning dunyo qarashi, qiziqishlari, bilim darajalarini yaxshi bilishi, o‘rganishi kerak. Talabalarning tanlagan mutaxassisliklari, ta’lim yo‘nalishlariga qarab matnlarni tanlash kerak, misollar keltirish kerak.

Shu o‘rinda “Akademik ayrim filologlarda e’tiroz paydo bo‘lishi mumkin; “Ona tili va adabiyoti domlalari axborot texnologiyalariga oid fanlardan maxsus bilimlarga ega emaslar-ku!”

Ana shu yerda “Akademik yozuv” kabi fanlarni o‘qitayotgan domlalar uchun axborot texnologiyalari, internet, shu jumladan, smartfonlar asqotadi. Ayti (IT) texnologiyalari asosida yaratilgan zamonaviy smartfonlar ham ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bilan bilan birga, o‘rganilayotgan fanning jozibadorligini hamda vaqtdan unumli va samarali foydalanishni ham ta’minlashi lozim. Ushbu fanni o‘tayotgan domla zamonaviy texnologiyalar vositasida darsga oid ma’ruza va matnlarni, o‘quv-metodik majmualarini talabalar tanlagan soha yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlashlari, topshiriqlarni ham shunga monand talabalar uchun

tushunarli, sodda va ravon, ilmiy asoslangan, lekin ommabop va hammabop uslubda yetkazishlari zarur.

Jumladan, Mantiqiy izchil, ixcham/ Qiziqarli ta’sirchan universal qoida bo‘lib, u ilmiy muhit va faoliyatning hamma bosqichida qo‘llaniladi. Referat, kurs ishi, diplom ishi tayyorlaganda ham, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilganda ham, masalan, ilmiy maqola, tezislar, dissertatsiya, monografiya yozilayotganda ham, anjumanlarda ma’ruza bilan chiqish qilinganida, muhokamalarda ishtirok etilganida ham mantiqiy izchil ixcham tutumiga qat’iy rioya qilish kerak.

Axborot texnologiyalari yo‘nalishini tanlagan talabalarga ham ular uchun qiziqarli bo‘lgan mavzular tushuntirilganda, masalan, algoritm, kod kabi kabi maxsus atamalar, terminlar, ushbu Mantiqiy izchil, ixcham, / Qiziqarli ta’sirchan tutumiga rioya qilingan holda aniq, sodda va ravon, anglab olishga oson usulida tushuntiriladi, masalan, quyidagi usulda:

“Ayti”ni o‘rgan jadal.
Algoritm, bilsang agar,
Mantiqiy izchil, ixcham
Koddir to‘g‘ri tizilgan.

E’tibor qiling, kodlar dasturchi tomonidan tuziladimi, yoziladimi, ishlanadimi, tiziladimi, teriladimi? Shulardan qaysi biri to‘g‘ri? Masalan, quyidagi kabi jumlada: Kodlar to‘g‘ri tuzilgan.

Dasturlash kontekstida bu so‘zlarning hammasi ishlatilishi mumkin, lekin ularning ma’nosi va нутқий вазиятга мослашуви турлича.

Kodlar to‘g‘ri tuzilgan jumlasida "tuzilgan" so‘zi eng to‘g‘ri va tabiiy variant hisoblanadi. Keling, farqlarini ko‘rib chiqamiz:

Yoziladi: Bu ko‘proq jarayonning o‘ziga (klaviaturada matn terishga) tegishli. Masalan: "Bugun 100 qator kod yozdim."

Tuziladi: Bu kodning mantiqiy arxitekturasi va strukturasiga urg‘u beradi. Siz aytgan "Kodlar to‘g‘ri tuzilgan" iborasi kodning algoritmi (to‘g’ri ketma-ketligi) va mantiqi (tartibli, “ma’nili”, ixcham bog‘langanligi) xatosiz ekanini bildiradi.

Ishlanadi: Bu odatda loyiha yoki dastur ustida ishlash ma’nosida keladi. "Dastur kodi ustida ishlanmoqda."

Tiziladi: Bu so‘z dasturlash ma’nosida deyarli ishlatilmaydi.

Teriladi: Bu so‘z dasturchilar nutqida dasturlash ma’nosida kam qo‘llaniladi.

Biroq tizilgan (tiziladi) so‘zi badiiy uslubda ishlatilsa, jumlaga badiiylik, estetik zavq bag‘ishlaydi:

Mantiqiy izchil, ixcham, / Kodlar to‘g‘ri tizilgan

Ma’no nozikliklariga e’tibor qarating: Kodlar to‘g‘ri va marvaridday tizilgan; kodlar to‘g‘ri va sayqal berilgan javohirday terilgan.

Estetik zavq olish, badiiy go‘zallikni his qilish xususiyati nafaqat filologlarga, bu umuminsoniy xususiyat dasturchilarda ham kuchli bo‘lib, ularni rag‘bat, motivatsiya bag‘ishlaydi. Qiyoslang:

To‘g‘ri kod - javohir, zar,
Dasturchi - mohir zargar!

Yoki yanada tiniqroq va ta’sirliroq:

To‘g‘ri kod, gar – javohir
Dasturchi - zargar mohir!

Gap bu yerda har qanday kod haqida emas, balki o‘z kasbining zo‘r ustasi bo‘lgan dasturchi va u tomonidan tuzilgan bejirim kod to‘g‘risidir.

Shu o‘rinda noto‘g‘ri tuzilgan kodni dasturchilar qanday maxsus so‘z, termin bilan atashadi, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Qani kim aytadi?

Bu termin – Debagging deb ataladi. Debagging inglizcha Debugging so‘zining o‘zbekcha talaffuzi bo‘lib, kod ichidagi xatolarni qidirish va ularni bartaraf etish jarayonidir. Buni bilish va amalda qo‘llay olish juda muhim.

Akademik yozuvda Рақамли технологияларни ўрганаётган talaba "kodimdagi xatolarni tozaladim" deyish o'rniga, "dasturda debagging jarayonini amalga oshirdim", deb ta’kidlasa, bu uning sohaning professionali ekanligidan, shuningdek akademik yozuv usludida fikrini bayon eta olishini ko'rsatadi.

Yanada soddaroq va batafsilroq qilib aytganda, Debugging (debagging) — bu dasturdagi xatolarni (baglarni) topish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish jarayonidir. Dasturchilar bu jarayonda ko‘pincha debugger deb ataladigan maxsus dasturiy vositalardan foydalanishadi.Бу дастур тизимнинг нима учун нотўғри ишлаётганини аниқлаш ва уни тузатиш устида ишлаш жараёнидир.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Xatoni topish: Muammo qayerda ekanligini aniqlash.

Sababini izlash: Kodning qaysi qismi noto‘g‘ri yozilganini tahlil qilish.

Tuzatish: Xatoni to‘g‘rilab, dasturni qayta tekshirish.

Akademik yozuv nuqtayi nazaridan, IT sohasi talabalari uchun tushunchalarni aniqlashtirib olish ularning kelajakdagi texnik hujjatlar (documentation) yozish mahoratiga poydevor bo'ladi.

IT sohasini o‘rganishda ingliz tilini bilish juda muhim ahamiyatga talabalaringiz ko'p ishlatadigan asosiy tushunchalarni lotin alifbosida qisqacha tushuntirib o'taman:

Bug (bag) — dasturdagi xato. Bu so'z inglizchadan olingan bo'lib, "hasharot" degan ma'noni bildiradi.

Debugging (debagging) — o'sha "hasharot"ni, ya'ni xatoni qidirib topish va o'chirish jarayoni.

Debagging atamasini oson va yengil yodda saqlab qolish uchun ushbu hazil mutoyiba tarzida keltirilgan qofiyali qoidaga talabalarning e’tiborini qaratamiz:

Debagging demaging,
Kodni to‘g‘i ishlagin.

Ushbu qoidaning yana bir varianti:

Debagging demaging emas
Kodni to‘g‘ri tuzsang, bas.

Xulosa shuki, agar gap kodning sifati va mantiqiy izchilligi haqida ketsa, matnning umumiy va xos ma’nosidan kelib chiqib tuzilgan, yozilgan, ishlangan variantlaridan biridan foydalangan ma'qul.

Nomutaxassislik fanlarining, jumladan, akademik yozuv fanining jozibadorligini ta’minlash, mashg‘ulotlarni talabalar tanlagan sohalarga yo‘naltirgan holda original va, albatta, qiziqarli metodika asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim-tarbiya sohasida axborot texnologiyalari (IT), xususan, ushbu texnologiyalar asosida yaratilgan, zamonaviy kompyuter, noutbuk, smartfonlar, ushbu qurulmalar uchun mo‘ljallangan dasturiy ilovalar, masalan, “ChatGPT”, birinchi navbatda ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bilan bilan birga, ta’lim-tarbiya jarayonining maroqli bo‘lishini hamda vaqtdan unumli va samarali foydalanishni ham ta’minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Данияров Б.Х. Yangi fanlarni o‘qitishning yangi tutum, usul va uslublari xususida. - “Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Maqola va tezislar to‘plami. – Chirchiq: Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti nashriyoti, 2025, 509 b. B.14.
2. Данияров Б. Х. Ўзбек тили лексик синонимларининг лисоний ва нутқий муносабати, лексикографик тадқиқи. Монография.- Тошкент: “Sano-Standart” нашриёти, 2019.- 200 б. В.175.
3. Данияров Б.Х. Комплексный анализ семантической структуры и функционирования лексических синонимов. Монография / Б. Х. Данияров. – Ташкент: Издательство Bookmany print, 2022. – 156 с. – С. 120-121.
4. Данияров Б.Х. Инноватsion технологиялар асосида таълим жараёнлари сифат ва самарадорлигини ошириш. Монография. -“Sano-Standart” нашриёти, 2014.- 160 б. - Б. 95

5. Данияров Б.Х. Жозибали дарс – ҳам қарз, ҳам фарз. // Тошкент иқтисодиёт ва педагогика институти илмий-методик журнали, №1 (2024 йил, сентябрь): – Т.: ТИПИ,2024, Б. 14.
6. Данияров Б.Х. Академик ёзув дарсларида замонавий смартфонлардан самарали фойдаланиш.- Компьютер лингвистикасининг замоновий технологиялари. Вазирлик миқёсидаги илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами (2023-yil 14 апрель). –Т.: ЎзМУ, 2023. – B.135.
7. Данияров Б.Х. Иследование лексической синонимии, возникшей на базе заимствований в современном узбекском языке. Автореферат диссертатsiи... канд. филол. н. - Москва: Институт языкознания РАН, 1993.
8. Данияров Б.Х. Dars sifati va jozibadorligini oshirishga zamonaviy yondashuvlar UDK 37.02Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya: zamonaviy vazifalari va istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman (2024-yil 3-may)/ O‘zR OTFIV,Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, O‘zR FA Yosh olimlar kengashi. –Toshkent: TIPI, 2024. -301 b. Б. 111.
9. Данияров Б.Х. Talabalarda professional ko‘nikmalarni rivojlantirishda nomutaxassislik fanlarini jozibali o‘qitishning ahamiyati. - Lomonosov Moscow State University Branch in Tashkent and the International Scientific Journal “Science and Innovation” for participation in the VIII International Scientific and Practical Conference titled “Professional Development of Personality: Global Trends in the Formation of 21st Century Competencies” held on December 19, 2025. P.16.
10. Данияров Б.Х. Jozibali bayon xotirada bilimlarning mustahkam saqlanib qolinishining omili sifatida. - “Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2026 yil, 13-14-mart. –Chirchiq: Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti nashriyoti, 2026. – 673 b. B.315.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYAT

Gulnaz Kalbayevna Saparova
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika, psixologiya va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi professori, p.f.n.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693560

ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning aksiologik yondashuvga asoslangan texnologiyalari, zamonaviy pedagogik metodlar, davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonun va dasturlar, shuningdek o‘quvchilarda ekologik qadriyat va ongni rivojlantirishning amaliy usullari tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Aksiologiya, ekologik madaniyat, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, ekologik qadriyat, davlat dasturlari

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются технологии формирования экологической культуры у младших школьников на основе аксиологического подхода, современные педагогические методы, государственные законы и программы, а также практические способы развития экологических ценностей и сознания у учащихся.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Аксиология, экологическая культура, начальное образование, педагогические технологии, инновационный подход, экологические ценности, государственные программы

ABSTRACT

The article analyzes the technologies for forming ecological culture in primary school students based on an axiological approach, modern pedagogical methods, state laws and programs, as well as practical ways to develop ecological values and consciousness in students.

KEY WORDS

Axiology, ecological culture, primary education, pedagogical technologies, innovative approach, ecological values, state programs

Bugungi kunda kuzatilayotgan ekologik muammolar nafaqat ekologik tusdagi masaladir, balki insoniyat taraqqiyoti, ishlab chiqarish jarayonlari va tafakkur tarzining ma’lum bir yo‘nalishiga xos muammolar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, bu jarayon aslida qadriyatlar tizimining muammosi hisoblanadi. Ekologik inqiroz kuch va bilimning ma’lum shakllariga asoslangan, ijtimoiy hamda ekologik jarayonlardagi nomutanosiblik oqibatida yuzaga keladi. So‘nggi o‘n yilliklar davomida mamlakatimizda ham, dunyoning aksariyat mamlakatlarida ham ta’lim tizimida olib borilgan islohotlar ekologik ta’limni turli darajadagi o‘quv dasturlariga kiritdi. Bu esa ekologik masalalarni o‘rgatishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Global ekologik muammolar va barqaror rivojlanish masalalari zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni ekologik ong bilan tarbiyalashni dolzarb vazifaga aylantirgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotga ilk qadam tashlaydigan davrda ekologik qadriyatlarni shakllantirish aksiyologik yondashuv orqali eng samarali bo‘ladi [1]. Shu bois pedagogik jarayonlarda aksiologik yondashuvni qo‘llash katta ahamiyatga ega, chunki u ekologik bilimni shaxsiy qadriyatlarga aylantirish imkonini beradi .

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda aksiologik (qadriyatli) yondashuv tabiatni shunchaki o‘rganish emas, balki uni oliy qadriyat sifatida his etishni o‘rgatadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mas’uliyat, muhabbat va g‘amxo‘rlik tuyg‘ularini shakllantirib, ekologik ongni shaxsiy e’tiqodga aylantiradi.

Ekologik madaniyat shaxsning tabiat va atrof-muhitga bo‘lgan bilim, qadriyat va xulq-atvor tizimini ifodalaydi [5]. Aksiologik yondashuv esa o‘quvchining shaxsiy qadriyatlari orqali ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik vazifalari:

1. O‘quvchilarda tabiatga bo‘lgan hurmat va mas’uliyatni shakllantirish [5]
2. Ekologik bilimlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqish [6]
3. Amaliy ekologik xulq-atvorni rivojlantirish [7]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik qadriyatlarni shakllantirishning asosiy prinsiplari. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilar dunyoni obrazlar va his-tuyg‘ular orqali anglaydilar. Shuning uchun ekologik qadriyatlarni shakllantirishda quyidagi prinsiplarga amal qilish ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

1. Shaxsiy tajriba prinsipi. Ekologik bilimlar shunchaki nazariy ma’lumot bo‘lib qolmasdan, o‘quvchining bevosita tabiat bilan muloqoti orqali o‘zlashtirilishi lozim. O‘quvchi o‘simlikni o‘zi ekishi, uning o‘sishini kuzatishi va parvarish qilishi

orqali tabiatga nisbatan mas’uliyatni his qiladi. Bu jarayonda hosil bo‘lgan hissiy bog‘liqlik qadriyatning poydevori bo‘lib xizmat qiladi [6].

2. Integratsiya prinsipi. Ekologik tarbiya faqat bitta fan doirasida cheklanib qolmasligi, barcha fanlararo bog‘liqlikni qamrab olishi zarur.

Matematika: Suv isrofini raqamlarda hisoblash.

San’at:Tabiat go‘zalligini rasm yoki ijodiy ishlar orqali ifodalash.

Ona tili: Tabiatni asrash haqida insholar yozish. Ushbu yondashuv o‘quvchida ekologik muammolarning yaxlit tasvirini shakllantiradi [7].

3. Amaliyot prinsipi. Bilimlarni ko‘nikmaga aylantirishning eng samarali yo‘li — bu real amaliy harakatlardir. Maktab hududini tozalash, chiqindilarni turlariga qarab saralash (qog‘oz, plastik, shisha) va maktabdagi energiya tejovchi qurilmalar bilan tanishish. Amaliyot orqali o‘quvchi o‘zining kichik bo‘lsa-da, tabiat uchun foydali ish qilayotganini anglaydi [5].

4. Barqarorlik prinsipi. Ekologik xulq-atvor bir martalik aksiya emas, balki hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. O‘quvchi maktabda o‘rgangan tejash (suvni yopish, chiroqni o‘chirish) va tabiatga g‘amxo‘rlik qilish odatlarini uyda ham, ko‘chada ham davom ettirishi nazarda tutiladi. Maqsad — ekologik mas’uliyatni o‘quvchining barqaror xarakter xususiyatiga aylantirishdir [6].

O‘zbekiston Respublikasida ekologik tarbiya va ta’limni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy hujjatlar:

1. “2030-yilgacha ekologik xavfsizlik konsepsiyasi”

Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan barqaror ekologik rivojlanish va atrof-muhit xavfsizligini ta’minlash strategiyasi sifatida ishlab chiqilgan [1]. Asosiy maqsadlar:

Atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlash

Ta’lim tizimida ekologik ongni shakllantirish va yosh avlodni ekologik mas’uliyatga o‘rgatish

Maktab, texnikum va universitetlarda ekologik ta’limni integratsiyalashgan shaklda olib borish

Davlat organlari, jamoat tashkilotlari va mahalliy hokimiyatni ekologik tarbiya jarayoniga jalb qilish

Boshlang‘ich sinflarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun konsepsiya quyidagi amaliy yo‘nalishlarni belgilaydi: ekologik qadriyatlarni bolalikdan shakllantirish, amaliy ekologik faoliyatlarni joriy etish (bog‘, o‘simliklarni parvarishlash, chiqindilarni saralash), o‘qituvchilar va ota-onalarni ekologik ta’lim jarayonida jalb qilish [1].

2. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)”

Ushbu strategiya O‘zbekistonning barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishidagi davlat siyosatini belgilaydi [2]. Asosiy yo‘nalishlar:

Ta’lim muassasalarida ekologik loyihalarni rag‘batlantirish

Yoshlarni ekologik tadbirlarda faol ishtirok etishga jalb qilish

Innovatsion texnologiyalar yordamida atrof-muhitni asrash va chiqindilarni kamaytirish

Ekologik xulq-atvorni iqtisodiy va ijtimoiy rag‘batlar bilan mustahkamlash

O‘quvchilarda ekologik ongni amaliy loyihalar orqali shakllantirish (masalan, maktab bog‘larini ekish, chiqindilarni ajratish loyihalari)

STEAM va interfaol metodlar yordamida ekologik bilimlarni qiziqarli shaklda o‘rgatish [7]

3. “Yashil makon” umummilliy loyihasi

Maktablarda yashil hududlar yaratish, o‘simliklar va daraxtlarni ekish

Ekologik faoliyat va loyihalarni maktab kun tartibiga kiritish

O‘quvchilarni ekologik tadbirlarda (aksiyalar, ekskursiyalar, konkurslar) jalb qilish

Ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ekologik madaniyatni targ‘ib qilish

4. “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun

Ushbu qonun chiqindilarni boshqarish va ekologik xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirilgan [4]. Ushbu qonundan ko‘zlangan asosiy maqsadlar:

Qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish tizimini joriy etish, ta’lim muassasalarida chiqindilarni ajratish va ekologik tarbiyani amalga oshirish, davlat organlari, maktablar va mahalliy jamoalarni ekologik xulq-atvorni nazorat qilishga jalb qilish, o‘quvchilarga ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanish tamoyillarini tushuntirish

Ta’limda innovatsion texnologiyalar va STEAM yondashuvi ekologik bilimlarni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynaydi [7]. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg‘otib, mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi.

STEAM yondashuvi fanlararo integratsiyani ta’minlab, ekologik muammolarni tahlil qilishda turli fanlardan olingan bilimlarni uyg‘unlashtiradi.

Multimedia va interaktiv resurslar ekologik mavzularni jonli va qiziqarli tarzda taqdim etadi [8]

Virtual ekskursiyalar va laboratoriyalar tabiat hodisalarini va ekologik jarayonlarni masofadan turib kuzatish imkonini beradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish aksiologik yondashuv orqali samarali bo‘ladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va davlat dasturlari bilan uyg‘unlashtirilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarda barqaror ekologik qadriyat va xulq-atvorni shakllantiradi [6]. Shuningdek, ekologik madaniyatni baholash va monitoring tizimini joriy etish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va oila-maktab hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2030-yilgacha ekologik xavfsizlik konsepsiyasi, Toshkent, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi qarori. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030), Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Yashil makon umummilliy loyihasi, Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Chiqindilar to‘g‘risidagi Qonun, Toshkent, 2020.
5. Amonov, S., Mirzaev, R. Ekologik tarbiya va ta’lim: nazariya va amaliyot, Toshkent: Fan va Ta’lim, 2022.
6. Tursunov, D. Aksiologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalash, Toshkent: Pedagogika, 2021.
7. Karimov, N. STEAM yondashuvi va ekologik ta’lim, Toshkent: Ilm-fan, 2020.
8. Rustamova, L. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ekologik madaniyat, Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСЛАРИ.

Nazarov Nurali Normirzaevich
TIPU "Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasi professori
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815802

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillari va ularning mohiyat va mazmuni falsafiy jihatdan yoritib berilgan. O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari ko'p qirrali va bir-biri bilan uzviy bog'liqligi ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR

Yangi O'zbekiston, rivojlanish, O'zbekiston taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, siyosiy barqarorlik, davlat boshqaruvining samarali tashkil etilishi, iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti, aholi farovonligini oshirish, qonun ustuvorligi va adolatli jamiyat qurish, ta'lim va ilm-fan sohasi, ijtimoiy soha, transport va axborot texnologiyalarini takomillashtirish

АННОТАЦИЯ

В статье с философской точки зрения освещены основные принципы развития Нового Узбекистана, а также раскрыты их сущность и содержание. Основы развития Узбекистана научно-теоретически проанализированы как многогранная и взаимосвязанная система.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Новый Узбекистан, развитие, основы развития Узбекистана, политическая стабильность, эффективная организация государственного управления, экономические реформы,рыночная экономика, повышение благосостояния населения,верховенство закона и построение, справедливого общества,сфера образования и науки,социальная сфера,совершенствование транспорта и информационных технологий

ABSTRACT

The article provides a philosophical analysis of the key principles underlying the

KEY WORDS

New Uzbekistan, Development, foundations of Uzbekistan's development, political stability, effective organization of state

development of New Uzbekistan, highlighting their essence and substantive content. It further offers a scientific and theoretical examination of the foundations of Uzbekistan's development, presenting them as a complex and inherently interconnected phenomenon.

governance, economic reforms, market economy, improvement of public welfare / enhancing citizens' well-being, rule of law and the establishment of a just society, the field of education and science, the social sector, advancement of transport and information technologies / improvement of transportation and IT systems

Tadqiqot natijalari: Dunyo mamlakatlarining rivojlanish tarixlariga nazar tashlasak, ularning har biri o‘ziga xos va mos bo‘lgan muayyan asoslarga tayanganligini ko‘ramiz. Respublikamiz ham mustaqillikka erishgach, o‘z taraqqiyotini amalga oshirish yo‘lining asosiy tamoyillarini belgilab oldi. Mamlakatning barqaror o‘sishi va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi bugungi kunda aynan shu asoslarning qanday amalga oshirilishi, ularning samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati bilan namoyon bo‘ladi. Davlatimizning barqaror rivojlanishi tanlagan taraqqiyot yo‘limiz, oldimizga qo‘ygan keng-ko‘lamli maqsadlarimiz va ularni amalga oshirishni belgilab beruvchi vazifalarga bog‘liqligi sababli mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab milliy taraqqiyot modeli shakllantirildi. Tanlangan modelga asosan kuchli davlat va faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston rivojlanishi, aholi turmush darajasining o‘sib borishi, ishlab chiqarishning jadallashishi bo‘yicha nafaqat Markaziy Osiyoda, balki, jahon miqyosida ham o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lib, kundan-kunga yangi marralar sari odimlamoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asoslarini davlat boshqaruvining samarali tashkil etilgani, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy sohada qilinayotgan islohotlar, barcha uchun teng bo‘lgan qonun ustuvorligi, ta'lim tizimi, kam ta'minlanganlarning ijtimoiy himoya qilish va xalqaro hamkorlik va tashqi siyosat kabi muhim yo‘nalishlar tashkil etadi.[1,2]

Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik har qanday davlatning rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy omillaridan biri ekanligi inobatga olinib, mustaqillik yillarida tinchlik va osoyishtalikni saqlash uchun aniq rejalar asosida harakatlar amalga oshirildi. Avvalo davlat boshqaruv tizimining samarali tashkil etilishi, hokimiyat tarmoqlari o’rtasidagi muvozanat va hamkorlik mamlakat barqarorligini ta’minlash, fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishi, ochiqlik va oshkoralik printsiplarining joriy qilinishi demokratik jamiyat qurishda muhim ahamiyat kasb

etdi. Iqtisodiyotning rivojlanishi – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi sababli mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Davlat tomonidan xususiy mulkni himoya qilinishi, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy sektorni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligi oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ham ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Bir so'z bilan aytganda iqtisodiyot rivojlangan sari quyidagi jihatlar yaxshilandi:

1. Aholi farovonligi – aholi jon boshiga yillik daromadlar oshdi, ishsizlar soni kamayib ish o'rinlari soni ko'paydi, yildan yilga odamlarning yashash darajasi yaxshilanib bormoqda.

2. Infratuzilma rivoji – Yo'llar, transport, aloqa tizimlari, ta'lim va tibbiyot sohalarida ijobiy o'zgarishlar bo'lmoqda.

3. Innovatsiya va texnologiyalar – ishlab chiqarish ta'lim tizimi va barcha sohalarda yangi texnologiyalar joriy etilmoqda, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyati kundan-kunga oshib bormoqda.

4. Davlat mustaqilligi va barqarorligi –mamlakatning kuchli iqtisodiyoti uning siyosiy va ijtimoiy barqarorligining asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

5. Xalqaro nufuz – mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosati tufayli xalqaro maydonda O'zbekistonning mavqega ko'tarilib bormoqda. Yuqorida qayd etilgan jihatlarning ijobiy hal etib borish bugungi davrning eng dolzarb talablaridan biridir.

Taraqqiyotning muhim shartlaridan yana bir huquqiy davlat qurishdir. Shuning uchun ham O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Sud-huquq tizimidagi islohotlar, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zbekistonda sud-huquq tizimidagi islohotlar so'nggi yillarda keng qamrovli va tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi quyida asosiy yo'nalishlardan iborat. [3]

1.Sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash– Sudlarning ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyatdan mustaqilligi mustahkamlandi. Sudьyalarni tayinlash va lavozimdan ozod qilish tartibi takomillashtirildi.

2.Sudyalar korpusini isloh qilish – Sudьyalarni tanlash, tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yangilandi. Sudьyalarning mas'uliyati va javobgarligi oshirildi.

3.Fuqarolar huquqlarini himoya qilish – “Habeas korpus” instituti kengaytirildi, ya’ni shaxsni hibsga olish faqat sud qarori bilan amalga oshiriladi. Tergov jarayonida advokat ishtirokining ahamiyati kuchaytirildi.

4.Sud jarayonlarining ochiqligi va shaffofligi – Sud majlislari ochiq o’tkazilishi, onlayn kuzatish imkoniyatlari joriy etildi. Qarorlar elektron tarzda e’lon qilinishi amaliyoti yo’lga qo’yildi.

5.Ma’muriy va iqtisodiy sudlar tizimini rivojlantirish – Fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari bilan nizolarini hal qilish uchun alohida ma’muriy sudlar tashkil etildi.

6.Raqamlashtirish (digitalizatsiya) -“Elektron sud” tizimi joriy qilinib, arizalarni onlayn topshirish, ishlarni kuzatish imkoni yaratildi.

7.Jazo siyosatini liberallashtirish–Ayrim jinoyatlar uchun jazo yengillashtirildi, ozodlikdan mahrum qilish jazosi o’rniga muqobil jazo turlari kengaytirildi. Qonunlar barcha uchun teng amal qilishi jamiyatda adolat va ishonch muhitini shakllantiradi.

Ombudsman institutining inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo’yicha mustaqil milliy institut sifatidagi ahamiyatini yanada oshirish, Ombudsman faoliyatining institutsional asoslarini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta’minlash borasidagi vakolatlarini va hududlardagi ishtirokini kengaytirish, Ombudsman faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo’yicha vakili (Ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 10.09.2021 yil PF-6312-sonli Farmoni qabul qilingan bo’lib, Yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga erishishning yagona yo’li – huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani isloh qilish va rivojlantirishdir. Chunki huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyat asosidir. Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo’lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, u jamiyat uchun katta zarar bo’lib, bu huquqiy madaniyatsizlikni keltirib chiqaradi.[4]

O’zbekiston taraqqiyotining asosiy ustunlaridan yana biri ta’lim tizimini isloh qilishdir. Ta’lim tizimining to’g’ri yo’lga qo’yilishi har bir mamlakatning jumladan, O’zbekistonning ham – kelajak poydevoridir. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimini isloh qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo’lgan barcha bosqichlarda sifatni oshirish choralari ko’rilmoqda. Yangi universitetlar tashkil etilmoqda, xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kengaymoqda. Ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlash orqali mamlakatning intellektual salohiyati oshirilmoqda.

Aholining turmush darajasini oshirish davlat siyosatida muhim o’rin tutadi. Kam ta’minlangan oilalarni qo’llab-quvvatlash, pensiya va nafaqalarni oshirish, sog’liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo’yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Sog’lom avlodni tarbiyalash, aholi salomatligini muhofaza qilish mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omildir. O’zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik va o’zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga amal qilmoqda. Ko’plab davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari yo’lga qo’yilgan. Bu esa investitsiyalar jalb qilish, savdo aloqalarini rivojlantirish va mamlakat nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Milliy qadriyatlar va ma’naviyat jamiyat taraqqiyotida muhim o’rin tutadi. O’zbekistonda milliy an’analarni saqlash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy qadriyatlar va ma’naviyat jamiyat taraqqiyotida beqiyos ahamiyatga ega. O’zbekistonda bu masala ham davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Milliy qadriyatlar — bu xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, an’analari, madaniyati va turmush tarzidir. Ma’naviyat esa insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari va ma’rifiy darajasini ifoda etadi. O’zbekistonda milliy qadriyatlar va ma’naviyatni rivojlantirish quyidagi yo’nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1.Milliy an’ana va urf-odatlarni asrash—navro’z, hashar, mehmondo’stlik kabi an’analar keng nishonlanmoqda va yosh avlodga yetkazilmoqda.

2.Ta’lim va tarbiya tizimida ma’naviyat—maktab va oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ma’naviyat soatlari” orqali yoshlarda vatanparvarlik va milliy g’urur shakllantirilmoqda.

3. Madaniy merosni himoya qilish—tarixiy obidalar, milliy san’at va adabiyot namunalari asrab-avaylanmoqda va tiklanmoqda.

4.Oila institutini mustahkamlash— oila ma’naviyatning asosiy manbai sifatida qo’llab-quvvatlanmoqda. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi qadriyatlar targ’ib etilmoqda.

5.Axborot maydonida ma’naviyatni himoya qilish—yoshlarni zararli g’oyalardan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ’ib qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Shuningdek, milliy qadriyatlar jamiyatda birlik, hamjihatlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Ma’naviyatli jamiyatda jinoyatchilik kamayadi, insonlar o’rtasida o’zaro hurmat va ishonch ortadi. O’zbekistonda milliy qadriyatlar va ma’naviyatni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo’lib, barqaror kelajakni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy boy va barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim vazifalardan hisoblanadi. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Sharq Uyg’onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o’rni beqiyos bo’lgan. Shu jihatdan

muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. [5,6,7,8,9]

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston taraqqiyotining asoslari ko'p qirrali va bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Siyosiy barqarorlik, iqtisodiy islohotlar, qonun ustuvorligi, ta'lim, infratuzilma va xalqaro hamkorlik mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Kelgusida ham ushbu yo'nalishlarda izchil islohotlarni davom ettirish O'zbekistonning yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш, юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. - Тошкент.:Ўзбекистон, 2017. - Б. 25.
2. "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси". – Тошкент, 2017.
3. "Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси". – Тошкент, 2022.
4. Ҳусейнова Абира Амановна Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакилининг (Омбудсманнинг) Бухоро вилояти минтақавий вакили, фалсафа фанлари доктори, профессор. Янги ўзбекистон шароитида инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий омиллари. https://ombudsman.uz/uz/docs/yangi-ozbekiston-sharoitida-inson-huquqlarini-himoya-qilishning-asosiy-omillari
5. Абдурахмонова Нигора Қаландаровна. Педагогик инновациялар ва касб-ҳунар таълимини бошқарув ҳамда педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти бош мутахассиси. Инсон капиталига сармоя Янги Ўзбекистон тараққиёти кафолати. https://review.uz/oz/post/inson-kapitaliga-sarmoya-yangi-ozbekiston-taraqqiyoti-kafolati
6. Амирова Г. Б. Миллий ўз-ўзини англаш миллий ўзига хосликни сақлаш омили сифатида Замонавий таълим илмий амалий оммабоп журнал 2016 йил 8-сон 4-8 бетлар
7. Тохириён А. Миллий-маънавий мероснинг ёшлар тарихий онгини шакллантиришдаги аҳамияти замонавий таълим илмий амалий оммабоп журнал 2014 йил 3-сон 24-29 бетлар
8. Мўминов А.Г. Миллий сиёсат ва маданий сохадаги ислоҳотлар. -Тошкент.: "Akademiya", 2010. - 193 б.

Turkiston o‘lkasiga aksiyadorlik jamiyatlari kirib kelishi..

O.N.Nasirov
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat”
kafedrasi professori v/b
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815909

ANNOTATSIYA

Maqolada XIX asrning ikkinchi yarimi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin, o‘lkaga o‘z faoliyatini yoygan aksiyadorlik jamiyatlari va Turkistonni o‘zida tashkil qilingan jamiyatlarning faoliyati yoritib berilgan. Shu bilan birga ularning faoliyatini o‘lkada kengayishiga sabablari ko‘rsatib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Aksiyadorlik jamiyatlari, fond birjasi, savdo, sanoat,bank, paxta, tog‘ sanoati.

АННОТАЦИЯ

В статье освещается деятельность акционерных обществ и компаний, созданных в Туркестанском крае после завоевания Российской империей во второй половине XIX и начале XX веков. Одновременно указываются причины расширения их деятельности в крае.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Акционерные общества, фондовая биржа, торговля, промышленность, банковское дело, хлопок, горная промышленность

ABSTRACT

This article examines the activities of joint-stock companies and enterprises established in the Turkestan region after its conquest by the Russian Empire in the second half of the 19th and early 20th centuries. It also identifies the reasons for their expansion in the region.

KEY WORDS

Joint-stock companies, stock exchange, trade, industry, banking, cotton, mining

XIX asrning 50-80 yillarida Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasining katta qismini egallab olgandan keyin, bu yerdagi boyliklardan samarali foydalanish

chora-tadbirlarini izlay boshladi. Bu davr ichida o‘lkada mavjud bo‘lgan yer osti va yer usti boyliklaridan foydalanish maqsadida korxonalar, temir yo‘llar qurila boshlandi. Bu esa o‘z navbatida bank tizimini paydo bo‘lishiga olib keldi. XIX asrning oxirlarida xalqaro miqyosda kapital jamg‘arilishining kuchayishi Rossiya imperiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Turkiston o‘lkasi ham Rossiyaning mustamlakasi sifatida bu jarayonlardan chetda qolmadi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining katta qismini bosib olinishi ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat shirkatlari ta’sis etilayotgan yoki yangidan tashkil topayotgan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Bu haqda moliya ministri M.X.Reytern “Tadbirkorlik, birja faoliyatini jadallashuvi davri bo‘lgan oxirgi o‘n yillik (1860-1870) da ko‘plab aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlar tashkil topdi.

Faoliyatiga ko‘ra Rossiyada aksiyadorlik jamiyatlari 3 turga bo‘lingan: 1) Savdo tashkilotlari - kemasozlik, suv va elektr ta’minoti hamda turli savdo uyushmalari; 2) Sanoat tashkilotlari - junni matolash, paxtadan tayyor mahsulotlar tayyorlash, bo‘yash va qadoqlash, qog‘oz ishlab chiqarish, ipakchilik, teri va hayvon mahsulotlarini qayta ishlash, mashinasozlik, neft, tog‘, toshko‘mir, ohak, kimyo mahsulotlarini, paxta tozalash, shakar, oziq - ovqat, ichimlik suvi, tamaki ishlab chiqarish va boshqalar; 3) Kredit tashkilotlari-

tijorat, yer, yer kredit, shahar jamoa, qishloq jamiyat banklari va boshqalar{1}. Bularni ichida Turkiston o‘lkasida ko‘proq kredit va sanoat sohalaridagi aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlar faoliyat ko‘rsatdilar. XIX asrning ohirlaridan boshlab sanoat sohasida ta’sis etilgan aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlari ustav loyihasiga faqat “sanoat” emas, balki “savdo-sanoat” so‘zini kirita boshladilar. Bunga ularni Rossiyaning g‘arbiy qismida joylashgan korxonalariga vositachilarsiz, arzon narxda xom ashyoni yetkazib berish majbur qildi. Shu sababli ular Turkiston o‘lkasida qayta ishlash korxonalari qurish bilan cheklanib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonini Rossiyaning Yevropa qismidagi korxonalarida amalga oshirgan. Korxonalarda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar esa Turkiston va Uzoq Sharqqa yuborilgan.

Turkiston o‘lkasida faqat savdo bilan ish yuritgan aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlar kam bo‘lgan, bu ish bilan ko‘proq savdo uylari shug‘ullanganlar. XX asr boshlaridan ko‘plab savdo uylari ishlab chiqarishni kengaytirish va kapitalini ko‘paytirish maqsadida, o‘zlarini savdo-sanoat shirkatlariga (asosan paxtachilik sohasida) aylantira boshladilar. Tog‘-kon yo‘nalishida ham aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lib, ular ko‘proq sanoat tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatdilar.

Turkiston o‘lkasida kredit sohasida ko‘proq aksiyadorlik-tijorat banklari ish yuritgan. Bu yerda yer, melioratsiya va boshqa sohalarga ixtisoslashgan banklar deyarli faoliyat ko‘rsatmadilar.

Boshqarmalari Moskva, Sankt-Peterburg va Rossiyaning Markaziy qismidagi shaharlarda joylashgan aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat shirkatlarining kapitali turlicha bo‘lib, savdo sohasida 10 mln rublga, sanoat sohasida 15 mln rublga, kredit sohasida esa 20 mln rublgacha yetgan{2}. Turkiston o‘lkasi bilan bog‘liq holda ish yuritgan jamiyatlarning aksariyat qismining mablag‘i 1 mln rubldan kam bo‘lmagan. Aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat shirkatlarining deyarli hammasining boshqarmasi Rossiyaning Yevropa qismida joylashganligi sababli, fond birjasi ham Sankt-Peterburg shahrida bo‘lgan.

Turkistonga mustamlaka sifatida qaralishi, o‘lkada qimmatbaxo qog‘ozlar bozori, ya’ni fond birjasini ochilishiga imkon bermadi. Faqatgina 1906 yili o‘lkada tovar birjasini ochilishiga imperator tomonidan ruxsat etildi{3}. 1907 yili Qo‘qonda o‘z ishini boshlagan birja, faqat mahsulotlar savdosi ishlarini amalga oshirgan. U yerda asosan Rossiyadan keltirilgan tayyor mahsulotlar (gips, alebastr, sement, moy-bo‘yoq va boshqalar) va Turkistondan olingan xom ashyo (asosan paxta) sotilgan.{4}

O‘lkadan olingan xom ashyoning ma’lum bir miqdori savdo-sanoat shirkatlari, aksiyadorlik jamiyatlari va savdo uylari orqali Yevropa qismidagi korxonalariga olib ketilgan bo‘lsa, qolgani Rossiyaning Moskvadagi asosiy tovar birjasida va Nijegorodsk yarmarkasida sotilgan. Qisman yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ham ushbu yarmarkaga xom ashyo yetkazib berilgan. Nijegorodsk yarmarkasi o‘zining faoliyatini kengligi jihatidan Rossiyaning boshqa yarmarkalaridan 25-50 % ga ko‘proq mahsulot sotilganligi bilan belgilanadi. Yarmarkada ko‘proq non, paxta, neft va neft mahsulotlari sotilgan. 1900 - 1913 yillar mobaynida ushbu yarmarkada amalga oshirilgan savdo ishlari faqat birja aylanmasida 5 mln rubl dan 7,5 mln rublgacha yetgan. XIX asrning 80 yillarigacha Knoplar savdo uyi tovar birjasi vazifasini bajargan Nijegorodsk yarmarkasida paxta mahsulotlari savdosi bo‘yicha asosiy mavqega ega bo‘lgan.

XIX asrning 90 yillaridan Uzoq Sharq va O‘rta Osiyoga rus sarmoyalarining kirib kelishi imperiya hukumati tomonidan har tomonlama qo‘llab quvvatlandi. O‘lkada mavjud bo‘lgan va yangidan ochilgan xom ashyo manbalarini o‘zlashtirish niyatida, hukumat tomonidan katta to‘lovlar hisobida buyurtmalar berilgan. O‘z navbatida Rossiyada ishlab chiqarilgan maxsulotlarga Turkiston bozorida raqobat holatlarini cheklash maqsadida, chet el tadbirkorlariga katta soliqlar solingan.

Yevropa davlatlari ichida import mahsulotlariga boj to‘lovining balandligi jihatidan Rossiya birinchi o‘rinda turgan. U Rossiyada 31 % ni, AQSH da 21% ni,

Germaniyada esa 8% ni tashkil qilgan{5}. Xolbuki, 1892 yili Rossiya korxonalariga Turkistonda paxtani olib ketiladigan paxta uchun boj to‘lovlari bekor qilindi. Bu esa to‘qimachilik korxonalarini, shu asosda aksiyadorlik turdagi va savdo-sanoat shirkatlarini ushbu tarmoqda ko‘payishiga olib keldi. Buning natijasida 1900 yilga kelib, Rossiyaning butun sanoat ishlab chiqarishning 27,3% to‘qimachilik sanoati sohasiga to‘g‘ri keldi{6}. Chet el sarmoyalari ko‘proq tog‘-kon, yoqilg‘i ishlab chiqarish, ximiya sanoatiga kiritilib, faqat tog‘-kon sanoatida 1890-1900 yillarda ularning ulushi 58 % dan 70 % gacha ko‘tarildi{7}.

1888-1896 yillari Peterburg fond birjasida foiz hisobida Rossiya rubli ustunligi 59,5 % dan 66,7 % ga ko‘tarilgan. Bu davrda Turkistonda Poznanskiy, Zaverse aksiyadorlik jamiyatlarining paxta tozalash va teri maxsulotlarini tayyorlash bo‘yicha Lui Zalm va boshqa jamiyatlarning korxonalari qurilgan.

1893-1908 yillar davomida aksiyadorlik jamiyatlarining ko‘payishi tog‘ - kon, cho‘yan quyish, to‘qimachilik va oziq-ovqat tarmoqlarida keskin o‘sishi bilan ajralib turdi.

1893-1908 yillar mobaynida Turkistonda ko‘plab aksiyadorlik turdagi jamiyatlar va savdo-sanoat shirkatlari o‘zining korxonalarini ko‘paytira boshladilar. Ayniqsa bu jarayon tog‘ sanoati va neftni qazib olish sohasida ko‘rindi. Neft qazib olish bo‘yicha 1896 yil 16 ta aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lsa, 1902 yilga kelib ularning soni 45 taga yetdi{8}.

1897-1908 yillarda Turkistonda tog‘-kon sanoati sohasida Turkiston tog‘-kon sanoati, Turkiston sanoati Nazarov va K, Toshko‘mir va tog‘ sanoati, Noyob metallar qazib olish, Sirdaryo tog‘-kon sanoati, Novikov va K, neft qazib olish bo‘yicha “Chimyon”, SANTO, “Farg‘ona” neft sanoati aksiyadorlik jamiyatlari o‘z korxonalarini ishga tushirdilar.

1900 yilga kelib, sanoat maxsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat shirkatlarining foizi sezilarli darajaga ko‘tarildi. Jumladan, paxta matolari ishlab chiqarishda aksiyadorlik jamiyatlari 19,5% ni, savdo-sanoat shirkatlari 60,3% ni, savdo uylarining ulushi esa faqat 4,5% ni tashkil qilgan. Neft ishlab chiqarish sanoatida esa 43,6 %, 21,2 %, va 2,8 % ga to‘g‘ri kelgan.

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida aksiyadorlik turdagi banklarni ta’sis etishga kirishildi. 1897-yili imperiya bo‘yicha jami 35 ta bo‘lsa, 1913 yilga kelib faqat 45 taga yetdi{9}. 1917 yilni boshlariga kelib, ularning soni 43 taga tushib qoldi. Bunga asosiy sabab XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatib kelgan aksiyadorlik-tijorat banklarining aksiyadorlik kapitalining ko‘payishi bo‘ldi. Masalan, 1875 yilga nisbatan 1900 yili aksiyadorlik kapitalining o‘sishi 87% tashkil qilgan bo‘lsa, 1917

yilga kelib 498 %ga yetdi{10}. Ushbu turdagi banklar Rossiya imperiyasining barcha hududlarida bo‘limlarini ko‘paytirdilar.

1911-1913 yillarda Rossiya imperiyasida 1899 ta aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lib, shundan 300 tasi to‘qimachilik sanoatida bo‘lgan. Vaholanki, imperiya bo‘yicha soni jihatidan faqat oziq-ovqat sanotidan (368 ta bo‘lgan) keyingi o‘rinni egallagan. O‘rmonchilik sohasida esa faqat 78 tani tashkil qilgan{11}.

1914-yili Birinchi jahon urushining boshlanishi oqibatida, aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlarning ta’sis etilishi kamaydi. Faqat 1916 yildan boshlab, ba’zi aksiyadorlik jamiyatlari va savdo-sanoat shirkatlari harbiy vaziyatga moslashgach yana ko‘paya boshladilar. Ular o‘zlarining asosiy mashg‘ulotlari bilan bir qatorda, front uchun mahsulotlar ishlab chiqara boshladilar. Masalan, Lui Zalm aksiyadorlik jamiyati harbiylar uchun kiyimlar tikish korxonasini ishga tushirgan{12}. Qizilqiya jamiyati korxonalarida urush yillari portlovchi moddalar ham ishlab chiqarilgan. Faqat shu yili Rossiyada 381,7 mln. rubl aksiyadorlik kapitali bilan 244 ta yangi savdo va sanoat aksiyadorlik jamiyatlari o‘z faoliyatini boshladilar{13}.

Bu davrda tashkil topgan aksiyadorlik jamiyatlari va savdo sanoat shirkatlarining aksariyat qismi tog‘-kon, cho‘yan eritish va kimyo sohalarida ta’sis etildi. 1917 yili 1 avgustga kelib, Peterburg aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyadorlik kapitali 1.056 mln rublni tashkil qilgan. Bu boshqa manbalarda berilgan raqamlardan farq qiladi. Masalan, Y. Metelyova “1916 yili Rossiya imperiyasida 2956 ta aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lib, ularning jami kapitali 5,5 mlrd rublga yetgan”, degan fikrni bildiradi{14}. Bundan aksiyadorlik jamiyatlarining faqat savdo-sanoat sohasidagi umumiy mablag‘i ko‘rsatilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Mayevskiyning ma’lumotlaridan esa 1916 yili banklarning jami aylanma kapitaliga jamiyatning aksiyalar, obligatsiyalar, zahiradagi va boshqa mablag‘larini jamlashtirishi umumiy holda berilgan, degan xulosaga kelish mumkin. 1917 yilgi ma’lumotda aksiyadorlik jamiyatlari faqat aksiyadorlik kapitali bo‘yicha berilib, unda ham faqat savdo-sanoat sohasida bo‘lganlari ko‘rsatilgan.

1917 yili fevral oyidan boshlab aksiyadorlik jamiyatlar va shirkatlarning keskin sur’atlar bilan ko‘payishiga olib keldi. Faqat 1917 yilning yanvar-fevral oylarida 88 mln rubl aksiyadorlik kapitali bilan 64 ta, mart - aprelda 37 ta va may-iyunda 256.000.000 rubllik aksiyadorlik kapitaliga ega bo‘lgan 105 ta yangi aksiyadorlik jamiyatlari ta’sis etilgan{15}.

Shunday qilib jahonda bozor munosabatlari sharoitidagi xo‘jalik yuritish jarayonlari Rossiya imperiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib, ishlab chiqarish, savdo, kredit va boshqa sohalarda yangicha yondashishga majbur etdi. Ushbu davr ichida Turkistonga yoyilgan aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlarning asosiy maqsadi

o‘lkadan xom ashyo tashib ketish, uning bozorlari va tabiiy boyliklardan unumli foydalanishdan iborat bo‘lgan. Bu davrda Turkistonda tashkil topgan aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlar metropoliyada tashkil topgan bunday tashkilotlar bilan raqobatga bardosh bera olmas edilar. Shuning uchun ham ular metropoliya hamda xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari va shirkatlari bilan hamkorlik qilishga (paxtachilikdan tashqari) majbur edilar. Ayni paytda, Rossiya imperiyasi hukumati imkoni boricha o‘lkaga chet el kompaniyalarning kirib kelishiga qarshilik ko‘rsatishga urindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Министерство финансов. Департамент торговли и мануфактур. Сведения об акционерных обществах, взаимного страхования и биржевых артелях, действовавших в России в 1891 – 1892 операционных годах. - СП б.,1894. – С. 3–4.
2. Министерство финансов. Департамент торговли и мануфактур. Сведения об акционерных обществах, компаниях, обществах взаимного страхования и биржевых артелях, действовавших в России в 1891-1892 операционных годах. – С.Петербург: 1894. – С.4
3. Кокандский биржевой комитет за 1915 год. – Коканд:1916. – С 18 – 25; Абдурахимова Н, Эргашев.Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими.- Т., Академия. 2002.- Б. 102
4. Ўз. МА, ф.- 90. 1- рўйхат, 1- иш, 26 –варақ
5. Балабанов М. Царская Россия XX века. – Харьков: 1927, – С. 28
6. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. – Т., 1969, – С. 96
7. Варга Е. Мировые экономические кризисы. – М., 1939, - С 802.
8. Бовыкин В.И. Формирование финансового капитала в России. М.: Наука, 1984, - С.120
9. Шепелев Л.Е. Акционерное учредительство в России. – М - Л: Академия наук, 1959, - С. 160.
10. Шепелев Л.Е. Акционерное учредительство в России. – М - Л: 1959, - С. 150.
11. Ўз. МА. Ф.И-1, 12 – рўйхат, 1525 – иш, 62- варақ
12. Маевский И. Экономика русской промышленности в условиях первой мировой войны. – М., 1957, - С. 256.
13. Метелёва Ю.А. Правовое положение акционера в акционерном обществе. – М., 1999, - С. 23.
14. Маевский И. Экономика русской промышленности в условиях первой мировой войны. – М., 1957, - С. 26.

RAUF PARFI SHE'RIYATINING METAFORIK TADQIQI

Xabibjonov Ikromjon Toshpulat o'g'li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,Tillar va maktabgacha ta'lim kafedrasi professori v.b.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693497

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Rauf Parfi she'riyatining metaforik tabiatiga xos yetakchi belgilar tahlil qilinadi. Shoir poetikasida metafora oddiy bezak emas, balki poetik tafakkur va falsafiy mushohadaning asosiy shakli ekani ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda tabiat obrazlari, rang, fasl, osmon, yomg'ir, shamol, xazon, bahor kabi timsollarning lirik kechinma, tarixiy xotira, milliy og'riq va ruhiy iztirobni ifodalashdagi vazifasi ochib beriladi. Shuningdek, Rauf Parfi metaforasining individual-estetik xususiyati uning ichki "sir", erk va Turkiston g'oyasi bilan uzviy bog'liqligi misollar asosida yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR

Rauf Parfi, metafora, poetik tafakkur, obraz, ramz, tabiat tasviri, lirik qahramon, milliy ruh, Turkiston, modern she'riyat

XX asr o'zbek she'riyatida Rauf Parfi nomi metaforik tafakkurning eng yuksak namoyandalaridan biri sifatida alohida ajralib turadi. Uning she'rlarida so'z faqat voqelikni ifodalovchi birlik emas, balki hissiy, falsafiy va tarixiy yukni ko'taruvchi tirik poetik organizmga aylanadi. Shu bois Rauf Parfi poetikasini metaforasiz tasavvur etish qiyin. N.Rahimjonov Rauf Parfi she'riyati xususida so'z yuritar ekan, "metafora eng baland bosh figura" degan qarashni bejiz emasligini ta'kidlaydi . Bu mulohaza shoirning butun ijodiy olamiga kalit bo'la oladi: Parfida metafora bezak emas, balki borliqni ko'rish usuli, ruhiy tajribani ifodalash vositasi, hatto fikrning o'zidir.

Rauf Parfi poetikasining yana bir muhim jihati shundaki, unda metafora ko'pincha tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Shoir osmon, shamol, yomg'ir, xazon, bahor, tong, yulduz kabi ko'rinishlarni tashqi manzara sifatida emas, ichki holatning ko'chma shakli sifatida talqin etadi. Shu ma'noda uning she'riyati botiniy tajribaning tabiat tiliga ko'chirilgan matniga o'xshaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Rauf Parfi ijodidagi noan'anaviy

modernistik so‘z-obrazlar qatorida aynan “yomg‘ir, shamol, daraxt, nur, xazon, osmon, quyosh, oy, tong, so‘z” kabi birliklar yetakchi timsollar sifatida ko‘rsatiladi.

Rauf Parfi she’riyatida metafora borliqning ichki qonuniyatini kashf etishga xizmat qiladi. N.Rahimjonov shoir dunyoqarashini sharhlar ekan, inson, tabiat, jamiyat va haqiqat birligi Parfi tafakkurining asosiy tayanchi ekanini qayd etadi . Demak, shoir uchun tashqi olam va ichki kechinma orasida qat’iy chegara yo‘q: biri ikkinchisiga aylanadi, ikkinchisi birinchisida ko‘rinadi. Aynan shu nuqtada metafora estetik usuldan ontologik tamoyilga ko‘tariladi.

S.Tojamatova va D.Toychiyeva ham Rauf Parfi ijodida “takrorlanmas metaforalar” alohida o‘rin tutishini, shoir ruhiy kechinmalarni nozik ifodalashda tabiat hodisalari va borliqdagi mavjudotlarga suyanishini ta’kidlaydilar . Bu kuzatish muhim: Parfi metaforasi ko‘pincha biror hissiyotning tayyor nomini aytmaydi; uning o‘rniga shu hissiyotning tabiatdagi ekvivalentini yaratadi. Natijada she’r xabar berishdan ko‘ra sezdirishga, izohlashdan ko‘ra ruhiy holatni yashatishga intiladi.

Masalan, “Тонг оқарди. Тонг сочим менинг” misrasi oddiy o‘xshatish emas. Bu yerda tong tashqi vaqt birligi bo‘lib qolmaydi; u lirik “men”ning yoshligi, pokligi va o‘tkinchi hayot fasliga aylanadi. “Sochim mening” deyish orqali tong insonlashtiriladi, ayni vaqtda insonning o‘zi ham tabiat aylanishiga singdiriladi. Birgina satrda vaqt, jism va ruh birlashadi. Shoirning kuchi ham shunda: u hissiyotni ta’riflamaydi, uni rang va holatga aylantiradi.

Rauf Parfi lirikasida bahor, qor, yomg‘ir, shamol va tong juda faol metaforik qatlamni tashkil qiladi. “Нигоҳинг кўринур, кўзларинг...” she’ridagi “Қор остида мудраган баҳор” obrazi bunga yorqin misoldir . Mazkur satrda bahor shunchaki fasl emas; u hali yuzaga chiqmagan iliqlik, muhabbatning ichki quvvati, sovuq qatlam ostida yashirin turgan hayot ramzidir. Keyingi satrdagi “Порлаб турар баҳор кўзларинг” ifodasi esa bu yashirin bahorni bevosita yor nigohiga ko‘chiradi. Shunday qilib, bahor ikki bosqichli metaforik harakatda namoyon bo‘ladi: avval qor ostidagi pinhon imkoniyat, so‘ngra ko‘zlarda porlagan tiriklik.

Tojamatova va Toychiyeva Parfi poetikasining aynan mana shunday ko‘pqatlamli tabiat tasvirlari bilan kuchayishini ko‘rsatadilar: bir qarashda oddiy manzara ko‘ringan misralar zamirida chuqur ruhiy-falsafiy ma’no yashirinadi . Haqiqatan ham, Parfi satrini bir marta o‘qish bilan undagi mazmun tugamaydi; u takror mutolaada yangidan ochiladi.

Shoirning yomg‘ir obraziga murojaati ham nihoyatda xarakterlidir. “Ёмғир ёғиб чиқди тун бўйи, / ... / Бузилгандек осмоннинг уйи — / Ерга қараб йиғлайди оғир” misralarida yomg‘ir tabiat hodisasi sifatida emas, osmonga tegishli iztirobning ko‘rinishi sifatida beriladi . “Osmonning uyi buzilishi” mantiqan mumkin bo‘lmagan holat, ammo poetik jihatdan nihoyatda ta’sirchan metaforadir.

Bu yerda kosmik miqyosdagi izdan chiqish inson qalbidagi anduh bilan birlashadi. She’rning keyingi satrlarida “Юрагимда кўҳна андуҳлар” deyilishi ham shu metaforaning ichki manzilini ochadi: tashqaridagi yomg‘ir ichkaridagi vayronalikning aks-sadosidir .

Yana bir she’rda esa yomg‘ir ruhiy holat bilan yozuv jarayonini bog‘laydi: “Ёмғир ёғар, шиғалаб ёғар, / ... / Ёға бошлар қоғозга кўнгил” . Bu yerda ko‘ngilning qog‘ozga “yog‘ishi” favqulodda topilma. Shoir dardni yozish demaydi; balki ko‘ngilning yomg‘ir singari yog‘ishini tasvirlaydi. Demak, yozish Parfida hissiy to‘kilish, ruhiy bosimning tabiiy oqimga aylanishi demakdir. Metafora bu yerda ijodning o‘z mohiyatini ochadi.

Shamol va xazon bilan bog‘liq tasvirlar ham lirik qahramonning ichki bo‘shlig‘ini chuqur anglatadi. “Шивирлайди оёғимда яшаб ўтган хазонлар, / Кўзларимга игна янглиғ санчилмоқда мезонлар” satrlarida vaqt, xotira va iztirob bir nechta timsol orqali zichlashtirilgan . Xazon umrning o‘tgan fasli; mezonning ko‘zga ignadek sanchilishi esa kuz faslining oddiy kelishi emas, ruhiy og‘riqning jismoniy sezimga aylanishidir. Bu she’rni tahlil qilgan D.Nomozova huvillagan qishloqni qalbning huvillashi, nayni esa ilohiy ishq va ichki sog‘inch bilan bog‘laydi. Bu talqin Parfi metaforasining ochiqligini ko‘rsatadi: uning obrazi faqat bir ma’noga qamalib qolmaydi, balki ma’no qatlamlarini ko‘paytiradi.

Rauf Parfi metaforasining eng muhim jihatlaridan biri uning falsafiy va milliy ruh bilan chambarchas bog‘liq ekanidir. Buni “Осмон нақ бошимнинг устида турар, / Ичаётган чойимга булутлар қўнар” satrlarida yaqqol ko‘rish mumkin . Mazkur beshlikni sharhlagan tadqiqotchilar shoir yiroqdagi osmonni insonning boshiga tushirib, makrokosmos bilan mikrokosmosni bir nuqtaga jamlaganini ta’kidlaydilar . Darhaqiqat, choydagi bug‘ bilan bulut orasidagi yashirin yaqinlik Parfi tasavvurida favqulodda poetik kashfiyotga aylanadi. Olamdagi uzoq va yaqin, katta va kichik, yuqori va past qarama-qarshiliklari bekor bo‘ladi. Natijada inson dunyoning markaziga emas, uning ichki tarkibiga aylanadi.

Bu yerda metafora nafaqat tasvir, balki tasavvufiy tusdagi tafakkur shaklidir. Tojamatova va Toychiyeva ushbu she’rda “olamdagi barcha narsa va hodisalar o‘ziga qaytadi” degan so‘fiyona tushunchaning ifodasini ko‘radilar . Bu fikrni Parfi poetikasining muhim belgisi sifatida qabul qilish mumkin. Chunki shoirda narsa va hodisalar alohida yashamaydi; ular bir-birining ichiga o‘tadi, bir-birida ma’no topadi.

Shoir metaforasining milliy va tarixiy qatlamini “Синиқ осмон, бир юлдуз мудрар” she’ri ayniqsa yorqin ko‘rsatadi. “Туркий дунё чил-чил бўлинган...” satri bunda asosiy semantik markazdir . Siniq osmon shunchaki g‘amli manzara emas; u bo‘lingan tarix, parchalangan xotira va iztirob chekayotgan Turk dunyosining

umumlashgan timsolidir. Tanho yulduz esa shu bo‘linish ichida qolgan umid, ehtimol, yagona saqlanib turgan ruhiy markaz sifatida ko‘rinadi. Bu metafora individual kechinmadan chiqib, milliy fojiaga ko‘tariladi.

D.Nomozova ham Parfi poetikasida shamol, xazon, daraxt va bahor singari obrazlar milliy ozodlik, Turkiston va ruhiy uyg‘onish ma’nolari bilan kengayishini qayd etadi . Xususan, “kuygan daraxt”ni Turkiston timsoli sifatida talqin etishi shoir obrazlaridagi tarixiy xotira qatlamini yanada ravshanlashtiradi . Demak, Rauf Parfi metaforasida tabiat manzarasi deyarli hech qachon “sof tabiat” emas; u doim tarix, erk, ayriliq, sog‘inch yoki milliy og‘riq bilan kesishadi.

Rauf Parfi metaforasining yana bir alohida belgisi uning semantik tejamkorligidir. Shoir ko‘pincha juda ixcham misrada keng ruhiy maydon yaratadi. “Нима қилиб қўйдинг, қуёш, / ... / Такрорланмас мўъжизани / Дарчамда” parchasi shunday poetik zichlikka ega . S.Tojamatova va D.Toychiyeva ushbu to‘rtlikdagi “takrorlanmas mo‘jiza”ni bir tomondan tabiat manzarasi, ikkinchi tomondan inson umrining qordek musaffo yoshlik davri, hatto sevgi ramzi sifatida sharhlaydilar . Bu talqin bejiz emas. Parfi metaforasining kuchi shundaki, u bitta obrazni birdaniga bir necha ma’no qatlamida ishlatadi. Quyosh shu yerda oddiy nur manbai emas; u vaqtning shafqatsizligi, hayotning qaytmas harakati, ba’zan esa hislarning sinovchisi sifatida ko‘rinadi.

Shuningdek, Rauf Parfi metaforasi ko‘pincha tilning grammatik va sintaktik me’yorlarini ham estetik maqsad bilan keskinlashtiradi. Unda gaplar ko‘pincha uziluvchan, hissiy bosim ostida quriladi, natijada obraz tayyor izoh emas, “ochiq semantik maydon” holida qoladi. Shu sababli Rauf Parfi she’rini o‘qigan kitobxon ma’noni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni poetik jarayon ichida qayta yaratadi. Bu xususiyat shoirning modernistik uslubiga hamohangdir. D.Nomozova qayd etganidek, Rauf Parfi she’riyatida tun, shamol, xazon, daraxt, bahor kabi obrazlar muntazam takrorlansa-da, ular bir xil ma’noni qaytarmaydi; har gal yangi ruhiy vaziyatga kiradi . Demak, Rauf Parfi poetikasida metafora statik emas, harakatdagi ma’no markazidir.

Bu jihat shoirning “sir”ga munosabati bilan ham bog‘liq. Rahimjonov Rauf Parfi dunyoqarashida insonning ichki “siri” moddiylikdan ruhiyatga evrilish bilan anglashilishini alohida ta’kidlaydi . Aslida Rauf Parfi metaforasi ham ana shu ichki sirni bevosita aytmay, uning atrofida ma’no maydoni yaratadi. Shoirning ko‘pgina satrlari “men qayg‘udaman” yoki “men yolg‘izman” degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayonotdan qochadi; buning o‘rniga u siniq osmonni, quyuq tumanni, izg‘ib yurgan shamolni, ko‘nglini to‘kayotgan nayni gapirtiradi. Natijada she’r tanho kechinmani umumlashgan estetik haqiqat darajasiga ko‘taradi.

Rauf Parfi she’riyatining metaforik tabiatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shoir poetikasida metafora badiiy bezak darajasidan ancha yuksak turadi. U fikrning asosiy shakli, botiniy tajribaning tashqi ko‘rinishi, ruhiy va tarixiy haqiqatni ochuvchi estetik mexanizmdir. Rauf Parfi tabiat hodisalarini inson ruhiyatiga, inson kechinmalarini esa osmon, yomg‘ir, tong, shamol, bahor va xazon tiliga ko‘chiradi. Shu tariqa uning she’rida manzara psixologiyaga, psixologiya esa falsafaga ulanadi.

Shoirning metaforik tafakkuri uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchisi, lirik kechinmaning tabiat obrazlari orqali berilishi; ikkinchisi, oddiy manzaraga chuqur ontologik-falsafiy ma’no yuklanishi; uchinchisi esa milliy tarix va erk g‘oyasining ramziy obrazlar bilan ifodalanishidir. “Qor ostida mudragan bahor”, “osmonning uyi”, “qog‘ozga yog‘gan ko‘ngil”, “siniq osmon” kabi topilmalar Parfi she’riyatining aynan shu poetik kuchini namoyon etadi.

Shunday qilib, Rauf Parfi she’riyati metafora vositasida ichki “sir”ni, insoniy iztirobni va milliy xotirani bir butun poetik makonga aylantirgan noyob hodisadir. Uning metaforalari o‘quvchini faqat go‘zal tasvir bilan emas, balki og‘riqli tafakkur, ruhiy hushyorlik va ma’naviy uyg‘oqlik bilan ham yuzlashtiradi. Shu jihatdan Rauf Parfi she’riyati o‘zbek adabiyotida metaforik fikrlashning yuksak namunasi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Parfi R. Sakina: saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 376 b.
2. Rahimjonov N. Eng go‘zal sir (She’riyat va shaxsiyat) // Parfi R. Sakina: saylanma. – Toshkent: Muharrir, 2013. – B. 5–47.
3. Tojamatova S. R., Toychiyeva, D. I. Rauf Parfi ijodida metaforik ifoda // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. – 2022. – B. 75–78. – DOI: 10.5281/zenodo.6668180.
4. Nomozova D. S. Rauf Parfi she’riyatining o‘ziga xos xususiyatlari // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Vol. 3, Special Issue 2. – B. 392–396.7, Б. 89.

OLIY TA'LIMDA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI YARATISH VA UNDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Rasulov Saodaddin Shavkatovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
Sirojiddinov Shuxrat Nuriddin o'g'li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693264

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim professor-o'qituvchilari tomonidan talabalarga fanlarni o'qitish jarayonida axborot-ta'lim muhitini yaratish hamda undan ta'lim jarayonida foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan

KALIT SO'ZLAR

axborot-ta'lim muhitini loyihalash, telekommunikitsiya texnologiyalari, kompyuter dasturlari, ta'lim kontenti, Internet tarmog'i, ta'limiy veb-sayt.

KIRISH

Bugungi kun universitetlarida ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr va magistrlarga potensial ish beruvchilarning professional mezonlariga muvofiq amalga oshirilayotgan o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish orqali axborot-ta'lim muhitini rivojlantirib, ta'lim sifatini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Universitetlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida axborot-ta'lim muhitini tashkil etish, talabalar hissiyotlarini shakllantirish tizimi sifatida ijtimoiy-madaniy, o'quv, kasbiy va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini birlashtirib, ularda tegishli kompetentliklarni shakllantirib, muayyan individual o'quv dasturi doirasiga yo'naltiradi.

Axborot-ta'lim muhiti (ATM) – bu foydalanuvchilarning axborot xizmatlari va ta'lim resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'lumotlar uzatish vositalari, axborot manbalari, o'zaro ta'sir protokollari, dasturiy ta'minot va tashkiliy-uslubiy ta'minotning tizimli ravishda tashkil etilgan to'plamidir. Shuningdek, axborot-ta'lim muhitini an'anaviy va elektron ommaviy axborot vositalari, o'zaro aloqa qilishning kompyuter va telekommunikatsion

texnologiyalari, shu jumladan virtual kutubxonalar, elektron ma’lumotlar bazalari, o‘quv-uslubiy majmualar va kengaytirilgan didaktik apparatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirgan yagona axborot-ta’lim makoni deb tushunish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– oliy ta’limning vazifasini aniqlash;

– o‘quv jarayonining umumiy maqsadlarini shakllantirish;

– oliy ta’limning vazifalariga mos keladigan va asosiy tamoyillarga rioya qilgan holda umumiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan ta’lim tizimlarini loyihalashtirish;

– oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish istiqbollarini bashorat qilish va h.k.

MAQSAD.

Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini yaratishning maqsadi ta’lim muassasasida sodir bo‘layotgan barcha axborot jarayonlarini yangi texnologik bosqichga o‘tkazish, talabalarga fanlarni o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zarur shartlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 3-bobining ikkinchi paragrafida “... raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish» kabi tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida professor-o‘qituvchilar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan samarali foydalangan holda, fan-larni o‘qitishda axborot-ta’lim muhiti yaratish talab qilinadi. Bu o‘quv jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot va mustaqil faoliyatini amalga oshirishda axborot resurslari bilan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydigan psixologik, pedagogik, didaktik va tashkiliy sharoitlar tizimi yaratadi. Axborot-ta’lim muhitini yaratishning texnologik vazifasi - bu axborot-ta’lim muhiti arxitekturasini yaratish va uni keyinchalik boshqarish uchun dasturiy ta’minotni

tanlash, ta’lim mazmunini shakllantirish, axborotlarni saqlash va unga kirishni ta’minlash, talabalar va o‘qituvchilarning resurslariga tezkor kirish imkoniyatini oshirish hamda ular o‘rtasida aloqani o‘rnatishdan iboratdir.

Bugungi kunda oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini yaratish sxemalari juda xilma-xil bo‘lib, ta’limga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar orasida elektron ta’limni qo‘llab-quvvatlashning bir qator maxsus vositalarini ajratish, ulardan axborotni yaratishning texnologik muammosini hal qilish uchun foydalanish mumkin. Ularga:

– mualliflik dasturiy mahsulotlar (Authoring Packages-AP) - individual mavzularni yoki fanlar bo‘limlarini o‘rganishga qaratilgan va o‘quv jarayonining ishtirokchilari o‘rtasida interfaol aloqaga ega bo‘lmagan dasturlar (MS Power Point, HTML va boshqalar);

– kontentni boshqaruvchi tizimlar (Content Management Systems - CMS) - dastlab veb-saytlarni yaratishga yo‘naltirilgan, ma’lumotlar bazasi interfeysi (WordPress, Joomla, uCoz, Drupal va boshqa) orqali o‘quv tarkibini boshqarish jarayonini ta’minlaydigan axborot tizimlari;

– ta’limni boshqaruvchi tizimlar (Learning Management Systems-LMS) - korporativ va ta’lim muassasalarida foydalanishga yo‘naltirilgan, o‘quv tadbirlarini rejalashtirish, o‘tkazish, boshqarish, ta’lim mazmunini taqdim etish vazifalarini avtomatlashtirish, ta’lim resurslaridan foydalanishni boshqarish, individual talabalarni va guruhlarni boshqarish, o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqalarni tashkil etish, hisobotning turli shakllarini taqdim qilishda foydalaniladigan (Moodle, Prometey, Blackboard, WebTutor va boshqa) tizimlar;

– ta’lim kontentini boshqaruvchi tizimlari (Learning Content Management Systems - LCMS) – bu tizim LMS-dan farqli o‘laroq, o‘quv jarayonini emas, balki o‘quv dasturi tarkibini boshqarish muammolarini hal qilishga qaratilgan va kontentni ishlab chiquvchilar hamda o‘quv loyihalari boshqaruvchilariga tegishli (LCMS). OpenCMS, Geolearning, 1C: Elektron ta’lim, kurs dizayneri va boshqa) tizimlar;

– ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar (Learning Support Systems-LSS) - bu talabalar o‘rtasida interfaol, o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun o‘quv muhitini yaratish, ularda bilim, ko‘nikma va malakalar olish jarayonini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan (kompyuterli laboratoriya, elektron portfolio va boshqa) vositalar to‘plami;

– ta’limiy platformalar (Learning Platforms - LP) - dunyodagi yetakchi universitetlarning bepul onlayn kurslarini taklif qiluvchi Internetdagi (Coursera, edX, Udacity, Universarium va boshqa) axborot platformalari;


– virtual o‘quv muhitlari (Virtual Learning Environments -VLE) - kunduzgi ta’lim jarayonini qayta ishlab chiqadigan, sinflar, tarkiblar, topshiriqlar, imtihon va o‘quv jarayonining boshqa tarkibiy qismlariga teng ravishda kirishni ta’minlaydigan, shuningdek, o‘qituvchilar va talabalar ishtirok etadigan ijtimoiy makonni yaratadigan ochiq tizimlar. Ular, LMS-dan farqli o‘laroq, ko‘pincha mustaqil dastur bo‘lib, turli xil o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish mumkin bo‘lgan dasturiy platformalar hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, ta’limda Internet tarmog‘idan foydalanishning hozirgi bosqichi tajribani to‘plash va qayta ishlash, ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini izlash bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunda Internet manbalaridan maktab o‘qituvchilari, texnikumlar va universitetlarning talabalari, gumanitar va tabiiy fanlardan mashg‘ulot o‘tuvchi o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar faol foydalanmoqdalar. Internet-resurslari nafaqat o‘quv jarayonini tashkil etish uchun sharoit yaratibgina qolmay, balki o‘qituvchi va talabaning o‘zini o‘zi anglash uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘qituvchilarga tajriba almashish, kasbiy ish jarayonida dasturiy o‘quv mahsulotlarni yaratish, o‘z ishlanmalari va yutuqlarini hamkasblariga namoyish qilish, kasbiy va ijodiy tanlovlarda ishtirok etish imkonini beradi. Ta’limiy veb-saytlar Internet makonining tarkibiy qismi sifatida o‘qituvchining kasbiy faoliyatida alohida o‘rin tutadi.

Ta’limiy veb-sayt deganda biz elektron hujjatlarning umumiy manzili ostida kompyuter tarmog‘ida joylashgan kompyuterlarni, ya’ni yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini amalga oshirishga imkon beradigan kompyuterlar tizimini tushunishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti “Axborot texnologiylari va aniq fanlar” kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari va Internet serveridan samarali foydalangan holda axborot-ta’lim muhitini o‘zida singdirgan www.km.tipu.uz veb-saytini yaratishga erishildi.

Ushbu veb-sayt professor-o‘qituvchilar, talabalar, abituriyentlar va ishlab chiqarishdagi texnik xodimlar uchun mo‘ljallangan. Saytda pedagoglar uchun keng qamrovli uslubiy yordam va tavsiyalar, talabalar uchun o‘qitiladigan fanlar majmuasi, o‘quv metodik yordam, davlat attestatsiyasi savollari, sohaga oid ta’limiy video lavhalar, o‘qitiladigan fanlardan onlayn testlar, dars jadvallari, abituriyentlar uchun ixtisoslik bo‘yicha batafsil ma’lumotlar, ish beruvchilarga bitiruvchi talabalar haqida ma’lumotlar, ularning rezyumelari joylashtirilgan (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini o‘zida singdirgan “km.tipu.uz” veb-sayti.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan quyidagi:

Microsoft Office dasturlaridan MS Word, MS Excel, MS Power Point, MS Access; amaliy dasturlardan AutoPlay media studio 8, Adobe Flash, Macromedia dreamweaver, FastStone Capture, Movavi Video Editor Plus, Bandicam, Audacity; ta’limiy veb-saytlarni yaratishga mo‘ljallangan dasturlardan HTML, TurboSite, WordPress, Joomla, Namo WebEditor va boshqalardan foydalanib, elektron axborot-ta’lim resurslarni yoki ta’limiy veb-saytlarni ishlab chiqishlari hamda ularni talabalarga fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llab axborot-ta’lim muhitini yaratishlari mumkin.

Oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari tomonidan axborot-ta’lim muhitini yaratish o‘qituvchilarga: ta’lim jarayonini samarali tashkil etish; talabalar bilan kunning istalgan vaqtida elektron yozishmalar olib borish; ularga fanga oid vazifalarni bajarishda tezkor ko‘rsatmalar berish; o‘zi ustida doimiy ishlash, yangilikka intilish; talabalar bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; talabalarni baholashda onlayn testlardan foydalanish va boshqa imkoniyatlarni yaratsa; talabalar uchun esa: fanni ixtiyoriy vaqtda kompyuter yordamida o‘rganish, tezda o‘rgana olmagan bilimlarni qayta-qayta video, matn, taqdimot, atamalarning izohli lug‘ati ko‘rinishida o‘rganib olish; mutaxassislik va fanga oid meyoriy hujjatlar bilan tanishish; mustaqil ta’lim mavzularini erkin tanlash; fanning modullari bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘rganish, amaliy, laboratoriya topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarib borish; mutaxassislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid veb-saytlardan foydalanish; onlayn test savollariga javob berib o‘zini o‘zi baholash; mutaxassislikka oid davlat interaktiv xizmatlarni o‘rganib, o‘z xulosalariga ega bo‘lish kabi imkoniyatlarni yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.Xamdamov, U.Begimqulov, N.Tayloqov – Ta’limda axborot texnologiyalari, darslik – T, 2010 yil
2. Z.A.Marasulova, Z.S.Axmedova – Ta'limda raqamli texnologiyalar, darslik – T, 2024 yil
3. M.Aripov, B.Begalov, Sh.Begimqulov – Axborot texnologiyalari, o‘quv qo‘llanma – T, 2009 yil
4. Z.Marasulova – Ta'limda raqamli texnologiyalar fanidan laboratoriya mashg'ulotlari, O'quv qo'llanma – T, 2023 yil.

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Rasulov Saodaddin Shavkatovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika Universiteti,pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent,
Bozorov Adham Norqobil o'g'li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693376

ANNOTATSIYA

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'limga integratsiyalashuvi o'qitish samaradorligi va o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot SI ning shaxsiylashtirilgan ta'lim, aqlli o'qitish tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash orqali moslashuvchan muhit yaratishini, shuningdek, o'qituvchilarning rutinas ishlarini yengillashtirib, ularga pedagogik faoliyatga e'tibor qaratish imkonini berishini ko'rsatadi. Garchi axloqiy masalalar va raqamli tengsizlik kabi muammolar mavjud bo'lsa-da, SI o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning rolini kuchaytiruvchi yordamchi vosita sifatida qaralishi kerak

KALIT SO'ZLAR

sun'iy intellekt, zamonaviy ta'lim, shaxsiylashtirilgan ta'lim, aqlli o'qitish tizimlari, ta'lim texnologiyalari, moslashuvchan ta'lim, o'quv analitikasi, raqamli ta'lim, ta'lim innovatsiyalari, o'qitish samaradorligi

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson faoliyatining ko'plab sohalarini, xususan, ta'lim sohasini tubdan o'zgartirdi. Xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining paydo bo'lishi va ularning ta'lim muhitiga faol integratsiyalashuvi o'qitish hamda o'rganish jarayonlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Sun'iy intellekt deganda, masalalarni yechish, naqshlarni aniqlash, tabiiy tilni qayta ishlash va qaror qabul qilish kabi odatda inson aql-zakovatini talab qiladigan vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan kompyuter tizimlari tushuniladi.

Zamonaviy ta’lim tizimlari kontekstida sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim sifati, uningAccessibility (mavjudligi/ochiqligi) va samaradorligini oshirish maqsadida tobora keng foydalanilmoqda. Ta’lim muassasalari raqamli asr talablariga javob berishga intilar ekan, sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlari ilmiy tadqiqotlar va amaliy joriy etishning muhim mavzusiga aylandi. So‘nggi yillarda global ta’lim sektorida an’anaviy o‘qitish usullaridan texnologiyaga asoslangan va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlariga o‘tish kuzatilmoqda. Sun’iy intellekt shaxsiylashtirilgan ta’lim, aqlli o‘qitish tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash va moslashuvchan ta’lim muhitini ta’minlash orqali ushbu o‘zgarishni qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

An’anaviy ta’lim texnologiyalaridan farqli o‘laroq, sun’iy intellektga asoslangan tizimlar o‘quvchilarning katta hajmdagi ma’lumotlarini tahlil qilish, individual o‘rganish qonuniyatlarini aniqlash hamda o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga muvofiq moslashtirilgan ta’lim kontentini taqdim etish imkonini beradi. Ushbu imkoniyat pedagoglarga samaraliroq o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqish va o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

Sun’iy intellektning eng muhim pedagogik afzalliklaridan biri o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyatidir. An’anaviy sinfxonalarda o‘qituvchilar ko‘pincha bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilarning turli xil o‘quv ehtiyojlarini qondirishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Sun’iy intellekt texnologiyalari har bir o‘rganuvchining yutuqlariga qarab o‘quv materiallarining sur’ati, murakkabligi va formatini moslashtiruvchi adaptiv (moslashuvchan) ta’lim platformalarini taqdim etish orqali ushbu cheklovni bartaraf etishga yordam beradi. Natijada, o‘quvchilar individual yordam oladilar, bu esa ularning motivatsiyasi, darslarda ishtirok etishi va bilimlarni eslab qolish darajasini oshiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari taqdim etadigan yana bir muhim pedagogik imkoniyat – bu rutinas ta’lim vazifalarini avtomatlashtirishdir. O‘qituvchilar topshiriqlarni baholash, o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish va ma’muriy vazifalarni boshqarish kabi faoliyat turlariga ancha vaqt sarflaydilar. Sun’iy intellekt tizimlari ushbu jarayonlarning ko‘pchiligini avtomatlashtirishi mumkin, bu esa pedagoglarga ijodiy o‘qitish, mentorlik va o‘quvchilar bilan muloqot qilishga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi baholash vositalari testlarni tezda tekshirishi, darhol fikr-mulohaza bildira olishi va o‘quv natijalarini an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq kuzatib borishi mumkin.

Sun’iy intellekt, shuningdek, aqlli o‘qitish tizimlari va virtual o‘quv yordamchilarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu tizimlar tushuntirishlar berish, o‘quvchilarning savollariga javob qaytarish hamda ularga murakkab o‘quv

vazifalarini bajarishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish orqali inson tutor (ustoz) rolini simulyatsiya qiladi. Aqlli o‘qitish tizimlari ayniqsa masofaviy ta’lim muhitida foydali bo‘lib, bunda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqot cheklangan bo‘lishi mumkin. Sun’iy intellekt bilan qo‘llab-quvvatlanadigan platformalar orqali o‘quvchilar vaqt va geografik cheklovlardan qat’i nazar, uzluksiz rahbarlik va fikr-mulohaza olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari ta’limda ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim muassasalari o‘quv analitikasini tahlil qilish, o‘quvchilarning успеваемость (o‘zlashtirish darajasini) bashorat qilish va potensial o‘quv qiyinchiliklarini erta bosqichda aniqlash uchun sun’iy intellektdan foydalanishlari mumkin. Ushbu bashorat qilish qobiliyati pedagoglarga o‘z vaqtida aralashuv choralari va qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini amalga oshirish imkonini beradi, bu esa akademik omadsizlikning oldini oladi va umumiy ta’lim natijalarini yaxshilaydi.

Ta’lim sohasida sun’iy intellektning ko‘plab afzalliklariga qaramay, SI texnologiyalarini integratsiyalash bir qator pedagogik, axloqiy va tashkiliy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik, raqamli tengsizlik va o‘qituvchilar rolining o‘zgarishi bilan bog‘liq masalalar diqqat bilan ko‘rib chiqilishi talab etiladi. Shu sababli, nafaqat sun’iy intellektni joriy etishning texnologik jihatlari, balki uning zamonaviy ta’lim tizimlaridagi pedagogik oqibatlarini ham o‘rganish muhimdir.

Ushbu kontekstda, mazkur tadqiqot zamonaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqot ta’limda sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, uning o‘qitish va o‘rganish jarayonlariga ta’sirini o‘rganish, shuningdek, uni integratsiyalash bilan bog‘liq potensial foydalar va qiyinchiliklarni baholashga qaratilgan. Ushbu jihatlarni tushunish pedagoglar va muassasalarga sun’iy intellekt texnologiyalaridan mas’uliyatli va pedagogik jihatdan ma’noli tarzda foydalanish imkonini beruvchi samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim muhitiga jadal integratsiyalashuvi butun dunyo bo‘ylab tadqiqotchilar, pedagoglar va siyosat ishlab chiquvchilarning e’tiborini jalb qildi. So‘nggi ikki o‘n yillik davomida ko‘plab tadqiqotlar sun’iy intellektning ta’limdagi pedagogik salohiyatini o‘rganib, uning o‘qitish samaradorligini oshirish, o‘quv natijalarini yaxshilash va shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini qo‘llab-quvvatlashdagi roliga alohida e’tibor qaratdi. Mavjud adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalari ma’lumotlarni tahlil

qilish, o‘quv materiallarini moslashtirish hamda ta’lim jarayonida ham o‘qituvchilar, ham o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlay oladigan aqlli tizimlarni joriy etish orqali an’anaviy ta’lim amaliyotini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin.

Ta’lim sohasida sun’iy intellektni qo‘llashning eng dastlabki va keng muhokama qilingan yo‘nalishlaridan biri bu Aqlli O‘qitish Tizimlarini (Intelligent Tutoring Systems – ITS) ishlab chiqishdir. Vulf (2010) tadqiqotlariga ko‘ra, aqlli o‘qitish tizimlari o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish strategiyalarini moslashtirish orqali yakka tartibdagi repetitorlik (tutorlik) jarayonini simulyatsiya qilish uchun mo‘ljallangan kompyuter asosidagi o‘quv muhitlaridir. Ushbu tizimlar o‘quvchilarning javoblarini tahlil qiladi, noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlaydi va darhol fikr-mulohaza bildira di. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ITS katta guruhli an’anaviy sinfxonalarda erishish qiyin bo‘lgan shaxsiylashtirilgan ta’limni taqdim etish orqali o‘quvchilarning o‘quv natijalarini yaxshilashi mumkin.

Lukin va boshqalar (2016) kabi tadqiqotchilar sun’iy intellekt texnologiyalari shaxsiylashtirilgan ta’limni sezilarli darajada yaxshilashi mumkinligini ta’kidlaydilar. Shaxsiylashtirilgan ta’lim deganda, o‘quv tajribasi har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, afzalliklari va yutuqlariga moslashtiriladigan ta’lim yondashuvi tushuniladi. Sun’iy intellekt algoritmlari o‘quvchilarning успеваемость (o‘zlashtirish darajasi), xulq-atvori va darslardagi ishtiroki bilan bog‘liq katta ma’lumotlar to‘plamlarini qayta ishlash imkonini beradi, bu esa adaptiv (moslashuvchan) o‘quv yo‘nalishlarini yaratishga imkon beradi. Bunday tizimlar o‘quvchining ehtiyojlariga qarab o‘quv kontentining qiyinlik darajasi, sur’ati va taqdim etilish shaklini moslashtiradi. Natijada, o‘quvchilar o‘z sur’atlarida yanada samaraliroq o‘rganishlari mumkin.

Adabiyotlardagi yana bir muhim yo‘nalish – bu o‘quv analitikasi va bashoratli modellashtirishda sun’iy intellektdan foydalanishdir. O‘quv analitikasi o‘quv jarayonida hosil bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘quvchi xulq-atvorini chuqurroq tushunish va ta’lim bo‘yicha qarorlar qabul qilishni yaxshilashga yordam beradi. Simens va Beyker (2012) ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellektga asoslangan o‘quv analitikasi pedagoglarga o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi qonuniyatlarni aniqlash va potensial akademik qiyinchiliklarni bashorat qilishda yordam berishi mumkin. Bashoratli modellar o‘qishdan qolish yoki ta’limni tark etish xavfi ostida bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlashi mumkin, bu esa o‘qituvchilarga o‘z vaqtida aralashish va qo‘shimcha yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt, shuningdek, onlayn va masofaviy ta’lim kontekstida keng o‘rganilgan. Raqamli o‘quv platformalarining jadal kengayishi bilan sun’iy intellekt texnologiyalari yirik masshtabdagi onlayn kurslarni boshqarish va masofadan turib

o‘qiyotganlarni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim vositaga aylandi. Zavacki-Rixter va boshqalar (2019) ma’lumotlariga ko‘ra, sun’iy intellekt avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza, aqlli kontent tavsiyalari va shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini ta’minlash orqali onlayn ta’lim sifatini oshirishi mumkin. Ularning oliy ta’limda sun’iy intellekt qo‘llanilishiga oid tizimli sharhi SI ning o‘quv muhitini yaxshilashga hissa qo‘shadigan bir qator asosiy yo‘nalishlarini, jumladan, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, baholash va muassasa darajasidagi qarorlar qabul qilishni aniqlab berdi.

Adabiyotlarda tasvirlangan ko‘plab afzalliklarga qaramay, ko‘plab tadqiqotchilar ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq axloqiy va pedagogik muammolarni hal etish muhimligini ta’kidlaydilar. Selvin (2019) sun’iy intellekt texnologiyalari istiqbolli imkoniyatlarni taqdim etishiga qaramay, ularning joriy etilishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirmasligi va o‘qitishning insoniy jihatlarini almashtirmasligini ta’minlash uchun diqqat bilan baholanishi kerakligini ta’kidlaydi. Ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik tarafkashlik va sun’iy intellekt tizimlarining shaffofligi bilan bog‘liq tashvishlar hali ham chuqurroq tadqiqot va tartibga solishni talab qiladigan muhim masalalar bo‘lib qolmoqda.

Bundan tashqari, adabiyotlar sun’iy intellekt o‘qituvchilarni almashtirmasligi, balki pedagoglarning rolini qo‘llab-quvvatlashi va kuchaytirishi kerakligini ta’kidlaydi. Xolms va boshqalar (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, ta’limda sun’iy intellektni samarali integratsiyalash uchun pedagoglar, texnologlar va siyosat ishlab chiquvchilar o‘rtasida hamkorlik talab etiladi. O‘qituvchilar sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan tahliliy ma’lumotlarni talqin qilish, mazmunli o‘quv tajribalarini loyihalash va texnologiyadan pedagogik jihatdan mas’uliyatli foydalanishni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

So‘nggi tadqiqotlar, shuningdek, pedagoglar va o‘quvchilar orasida sun’iy intellekt savodxonligining (AI literacy) ortib borayotgan ahamiyatini ta’kidlaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim tizimlariga kengroq integratsiyalashar ekan, ham o‘qituvchilar, ham o‘quvchilar ushbu texnologiyalarni tushunish, baholash va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishlari kerak. Sun’iy intellekt savodxonligini shakllantirish ta’lim ishtirokchilarining SI vositalari bilan tanqidiy munosabatda bo‘lishini va ularning pedagogik afzalliklaridan maksimal darajada foydalanishini ta’minlashga yordam beradi.

Mavjud adabiyotlar sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimlarini o‘zgartirishda katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aqlli o‘qitish tizimlari, moslashuvchan ta’lim platformalari, o‘quv analitikasi, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va virtual o‘quv yordamchilari kabi sun’iy intellekt bilan qo‘llab-quvvatlanadigan vositalar shaxsiylashtirilgan ta’limni kuchaytirishi, o‘qitish samaradorligini oshirishi va ma’lumotlarga asoslangan ta’lim qarorlarini qabul

qilishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqotchilar mas’uliyatli joriy etish, axloqiy mulohazalar va pedagoglar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish zarurligini ta’kidlaydilar. Ushbu natijalar ta’limda sun’iy intellektning pedagogik imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish va uni o‘qitish hamda o‘rganish jarayonlariga integratsiyalashning samarali strategiyalarini ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Sun’iy intellekt texnologiyalarining zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini yaxshilash uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi. Tadqiqotning tahlili va muhokamasida ko‘rsatilganidek, sun’iy intellekt texnologiyalari shaxsiylashtirilgan o‘quv muhitlari, aqlli o‘qitish tizimlari, moslashuvchan (adaptiv) ta’lim platformalari va avtomatlashtirilgan baholash vositalarining rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ushbu innovatsiyalar ta’lim muassasalariga yanada moslashuvchan, samarali va o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim tajribasini taqdim etish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt o‘qituvchilarni baholash, ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘quvchilarning yutuqlarini kuzatish kabi rutinas vazifalarni avtomatlashtirish orqali qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa pedagoglarga mentorlik, ijodiy o‘qitish va interaktiv ta’lim kabi pedagogik faoliyatlarga ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga o‘z sur’atlarida o‘rganish, darhol fikr-mulohaza olish va an’anaviy sinfxona muhitidan tashqarida ham ta’lim resurslaridan foydalanishga yordam beradi.

Biroq, ta’limda sun’iy intellektni muvaffaqiyatli joriy etish bir qator muhim muammolarni diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ushbu texnologiyalarni mas’uliyatli integratsiyalashni ta’minlash uchun axloqiy foydalanish, ma’lumotlar maxfiyligi, raqamli mavjudlik (accessibility) va o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog‘liq masalalar hal etilishi kerak. Sun’iy intellekt o‘qituvchilarni almashtiruvchi vosita sifatida emas, balki ta’lim samaradorligini oshiruvchi kuchli pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim. Tegishli strategiyalar va mas’uliyatli foydalanish bilan sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimlarining kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Holmes, W., Persson, J., Chounta, I. A., Wasson, B., & Dimitrova, V. (2022). Artificial intelligence in education: Addressing ethical challenges in K-12 settings. AI and Ethics , 2(3), 431–440.
2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence Unleashed: An argument for AI in Education . London: Pearson.

3. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education . Cambridge: Polity Press.
4. Woolf, B. P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-centered strategies for revolutionizing e-learning . Burlington, MA: Morgan Kaufmann.
5. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education , 16(1), 1-27.

O‘ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HUQUQINING MUHOFAZASI TARIXI.

Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815735

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mualliflik huquqlarini himoya qilinishi tarixi va uning huquqiy asoslarining shakllanishi bilan bog‘liq ayrim mulohazalar yuritilgan. Butunittifoq Mualliflar huquqini himoya qilish boshqarmasining mahalliy mualliflar bilan “Markaz”da faoliyat yuritgan mualliflarni huquqlarini bir xilda himoya qilmaganligi arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek ixtirochilarga ustunlik beruvchi ayrim qonunlarning ham qabul qilinishi va sohaga tatbiq etilishi.

SSSR Ixtirolar va Kashfiyotlar bo‘yicha qo‘mita hamda SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi san’at ishlari bo‘yicha komitetga qarashli arbitajning mualliflar huquqining himoya qilishdagi faoliyati natijalari tahlili yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR

markaz, gazeta, mahalliy muallif, gonorar, hammualliflik, arbij, ixtirochi, merosxo‘r, tarjima qilingan asar, qonun – qoida, kashfiyotlar, mualliflik haqi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется история защиты авторского права и информация, связанная с формированием её правовой основы. Тот факт, что Отдел по защите прав авторов butinittifaq не в равной степени защищает права местных авторов и авторов, работающих в центре, был проанализирован на основе архивных документов. Свещается анализ результатов деятельности комитета по изобретениям и открытиям в СССР арбитражного комитета по произведениям

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

центр, газета, местный автор, гонорар, соавтор, арбитраж, изобретатель, наследник, переведенная работа, закон, открытия, авторское право

искусства при Совете народных комиссаров СССР в области защиты прав авторов.

ABSTRACT

This article analyzes the history of copyright protection and the formation of its legal framework. The fact that the All-Union Copyright Office did not equally protect the rights of local authors and authors working in the Center was analyzed on the basis of archival documents. As well as the adoption and application of certain laws that give priority to inventors. The analysis of the results of the arbitration activities of the Committee on Inventions and Inventions of the USSR and the Committee on Art under the Council of People's Commissars of the USSR in the protection of copyright.

KEY WORDS

center, newspaper, local author, honorarium, co-authorship, arbitration, inventor, heir, translated work, rule, discovery, copyright;

KIRISH.

Inson ongli mavjudot sifatida tarixning barcha bosqichlarida inson tafakkuri, ijodiy mahsuli yuqori darajada qadrlanib kelgan. Jamiyat taraqqiyotida mavjud turli yuksalishlar inson tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan holda, kelajakning yuksalishida bu tendensiya ma’rifatlilar tomonidan qo‘llab quvvatlangan. Shu nuqtai nazardan, Insonning eng kam kuch sarflagan holda, tabiatdan yuqori darajada foyda olish istagi obyektiv haqiqatdir. Bu o‘z navbatida, uning irodasi, ongidan qat’iy nazar, tinimsiz ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishini talab qilib, har qanday natijadan to‘liq qoniqmasdan, doim natijani yaxshilash, undan-da yangi natijaga erishish uchun izlanishda bo‘ladi[1].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach huquqiy demokratik davlat yaratish asosiy maqsadlarimizdan biri etib tanlandi. Tarixiy tajribadan kelib chiqib, barcha sohalarda amalga oshirilgani singari, mualliflik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilindi va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Maqolada keltirib o‘tilgan davrda Butunittifoq Mualliflik Huquqlarini Himoya qilish Boshqarmasi (BMHHB)ga qarashli bo‘lib va bo‘ysunib faoliyat olib borgan O‘zbekiston bo‘limi, mustaqillikdan so‘ng, xalqaro huquq normalari va kelishuvlarga mustaqil a’zo bo‘lish va faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mustaqilligimizdan so‘ng O‘zbekistonda mualliflik huquqi himoyasi sohasida bir qator mahalliy huquqshunoslarimiz ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Jumladan:.

Mazkur tadqiqot ishlari asosan huquqiy jihatdan o‘rganilgan. Huquqshunos olimlardan Boboqul Toshev, H.R.Rahmonqulov, I.I.Nasriyev, R.T.Hakimov,

G.A.Xudayberdiyeva , I.B.Zokirov va boshqa bir qator olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Jumladan: Huquqshunos G.A.Xudayberdiyeva “Turdosh huquqlarni fuqarolik-huquqiy muhofazasi ” mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan va huquqiy himoyaga doir o‘z taklif va mulohazalarini bildirgan.

Yuridik fanlari doktori, I.I.Nasriyev o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida asar mualliflarining huquqlari va ularning himoyasi borasida, mahalliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy asoslarni tahlil qilgan. Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning asarlarida asosan huquqiy jihatlarga e’tibor berilgan. Maqolda esa tarixi yoritildi.

- Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolani yozishda nazariy-metodologik, analiz, sintez, tarixiylik va xolislik, tarixiy-qiyosiy, xronologik usullardan foydalanildi.

- Tahlil va natijalar. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, mamlakatimizda mualliflik huquqini himoya qilinishi tarixi o‘tgan asrning 30-yillariga borib taqalishini ko‘rishimiz mumkin. Ittifoq tarkibidagi boshqa davlatlar qatori O‘zbekiston hududida ham Butunittifoq mualliflar huquqlarini himoya qilish boshqarmasining (BMHHB) bo‘limi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan edi. O‘zbekiston bo‘limi faoliyati davomida mualliflar huquqlarini himoya qilishda, davr mafkurasi va boshqarmasi markazda bo‘lgan holatda faoliyat yuritgan. II jahon urushi yillari va boshqa qiyinchilik yillarida ham mualliflarni himoya qilish faoliyatini davom ettirdi. Mualliflar huquqini himoya qilinishida ittifoq tarkibidagi boshqa respublikalar bo‘limlari qatori O‘zbekiston bo‘limida ham ko‘plab kamchilliklar kuzatildi. Ayrim muammoli holatlar hatto markazning o‘zida ham ko‘plab uchragan. Chunki SSSR davlati xalqaro mualliflar huquqini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlarga nisbatan kechroq a’zo bo‘lib kirgan. “SSSRning o‘zi ham mualliflik huquqini himoya qilishga ixtisoslashgan tashkilot yoki konvensiyaning shartnomalariga ham yetmishinchi yillardan keyin a’zo bo‘lib kirgan edi. Katta bir davlat ichida xorijiy mualliflar asarlaridan har qanday ko‘rinishda bemalol, qonunsiz foydalanish huquqini bergan”[2]. Demak, Markazning o‘zida soha bilan bog‘lik xalqaro tajribalarning nisbatan kech qo‘llanilishi, respublika bo‘limlariga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmagan.

Mualliflar huquqini muhofaza qilishda mavjud bo‘lgan huquq normalarining to‘g‘ri ishlamasligi chekka hududlarda faoliyat olib borgan mualliflarga ayrim qiyinchiliklar tug‘dirganini bugungi kun arxiv hujjatlari orqali bilish mumkin. mualliflik haqlarini olish bilan bog‘liq muammolarga duch kelishsa, respublika markazlariga kela olmagan. Olayotgan mualliflik haqlari miqdorining kamligi yoki soha bilan bog‘liq yuklamalarning ko‘pligi sabab bo‘lishi mumkin. Toshkentda faoliyat yuritayotgan Ahmad Bobojonga Andijondan yuborilgan maktubda

quyidagilar keltirilgan. “Toshkentga borishga hech fursat bo‘layotir. Shu kunlarda Abbos Botirov, Xayrullayev va boshqalar bir necha marta Toshkentga borishib kelishdi. Men ular bilan borishga qiziqsam ham nasib bo‘lmadi. Oblast partiya komiteti bir qancha ishlar topshirgan. Yubileyni o‘tkazish komissiyasida ham borman”[3]. Ushbu ma’lumotlar yuklamalar ko‘pligi, ijod qilish imkoniyatining kamligini ko‘rsatmoqda.

Ayrim jurnallarda yoritilgan qiziqarli materiallar qayta nashr qilinsa, bu asar muallifiga qalam haqi to‘lanmagan holatlarni ham uchratish mumkin. Jumladan: “Yosh Leninchi” gazetasi muharriri S. Yuldoshevning ta’kidlashicha, ular Markaziy jurnallardan qiziqarli badiiy materiallarni qayta nashr qilib kelishgan va nashr etilgan material mualliflariga qalam haqi to‘lanmaganligi va to‘lamasliklarini ma’lum qilgan[4]. Qayta nashr qilingan va qalam haqi to‘lanmagan asarlar qatoriga “Ogonyok” jurnalida nashr qilingan, “Yosh Leninchi« gazetasida qayta nashr qilingan «Yaguar — 13” hikoyasini keltirib o‘tish mumkin. Haq to‘lanmasligi mablag‘ yo‘qligi bilan izohlangan holatlar ham uchragan. Bu kabi holatlar mualliflik huquqi muhofazasi sohasidagi mavjud qonunchilikning hali yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi.

BMHHB ning O‘zbekiston Bo‘limi mualliflik qalam haqlarini to‘lashda bir qator kamchilliklarga yo‘l qo‘ygan holatlarni ham uchratish mumkin. Misol tariqasida “Farhod va Shirin” musiqali dramasi uchun Musiqa hammualliflari Yu.Rajabiy va B.Nadejdin taqdim etgan kelishuvga asosan musiqa haqini teng ravishda (har biri 50 % dan) ajratishga kelishib olingan. Shunga qaramay o‘zbek bo‘limi rahbarlari 1949, 1950 va 1951-yillar uchun 62442 rubl miqdorida haq to‘ladilar[5]. Ammo bu miqdor hammualliflar o‘rtasida belgilangan kelishuv asosida amalga oshirilmagan.

Asar mualliflariga to‘lovlar taqsimotidagi bahsli xolalarni faqat “Farhod va Shirin” musiqali dramasida emas balki, “Layli va Majnun” va «Alpomish« pyesalari uchun yaratilgan musiqa hammualliflari o‘rtasida ham kuzatish mumkin.

O‘zbekiston SSR hududidagi Viloyat va shahar teatrlaridan qarzlarni yig‘ib olish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Ayrim hollarda prokuraturaga murojaat qilingan, biroq bundan ijobiy natijalar kam bo‘lgan. Qashqadaryo viloyatidagi ayrim teatrlari tizimli ravishda moliyaviy va kassa intizomini buzgan, tushimlarni davlat bankiga topshirmagan va shuning natijasida mualliflik haqi to‘lanmay qolgan holatlar ham kuzatilgan[6]. Bu holatning oldini olish uchun Butunittifoq Mualliflik huquqini himoya qilish boshqarmasining, O‘zbekiston bo‘limi O‘zSSR Respublika prokuraturasiga murojaat qilgan. Qashqadaryo viloyati va tuman prokuraturasiga bu masala yetib borgan bormaganligi noaniq bo‘lib

qolgan. Yuqoridagi holatlar ayrim davlat tashkilotlarining mualliflar huquqiy himoyasi borasidagi ishlarga jiddiy e'tibor bermaganligini ko'rsatadi.

Mahalliy mualliflardan Abdulla Qahhor "Ipak so'zana" pyesasi uchun 1951-yilning dekabrida imzolangan umumiy kelishuv asosida mualliflik haqini to'liq oldi. Ushbu asarning boshqa tillarga ham tarjima qilinganligi hisobga olinganda, Abdulla Qahhorga berilgan mablag'ning 50% ini olib tashlash va Leningrad filialiga yuborish kerak bo'ladi. Muallif Abdulla Qahhor umumiy summaning 25% ini olishi kerak yedi[7]. Mualliflik qalam haqlari bilan bog'liq hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi asar mualliflari bilan bir qatorda BMHHB (Butunittifoq Mualliflar Huquqini Himoya qilish Boshqarmasi) va respublika Bo'limlarida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun ham muammolarni keltirib chiqargan.

Yuqorida keltirilgan holatlar asar mualliflari huquqi himoyasi sohasidagi mavjud qonunlarga zid ekanligini ham ko'rish mumkin. BMHHBning O'zbekiston bo'limi sobiq direktori T. Fatxullin va uning o'rinbosari Kolesnichenko " SSSR mualliflik huquqi asoslar" ning 5-moddasini hamda «O'zbekiston SSR doirasida dramatik, musiqiy, musiqiy-dramatik va boshqa asarlarni omma oldida ijro yetish uchun to'lov tartibi va qalam haqi miqdori to'g'risida« gi qarorini qo'pol ravishda buzganligi, bir qator musiqiy asarlar mualliflari orasida to'lovlar noto'g'ri taqsimlanganligi arxiv hujjatlarida keltirib o'tilgan[8].

Sovet yozuvchilar uyushmasining qarori bilan 1951- yil 1-yanvardan BMHHB foydasiga Adabiyot fondi va Musiqa fondidan ajratmalar miqdori 3% dan 2% ga qisqartirilgan[9]. Bu albatta o'sha davrda markazdan boshqarib turilgan respublika bo'limlarida ham to'liq amal qilgan. Asar mualliflarini himoya qiladigan tashkilotga tushayotgan pul mablag'larini qisqartirilayotgan soha vakillariga berilayotgan e'tiborning qay darajada ekanligini ko'rsatgan edi.

Mahalliy mualliflarning ko'pchiligi o'zlarini himoya qiladigan mexanizmlardan xabardor bo'lmaganliklari ham ular uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan. O'zlari olishi kerak bo'lgan gonorarlari vaqtida va to'liq olishmagan. Mualliflarning roziligisiz asarlarni tarjima qilish yoki qayta nashr qilish holatlari odatiy holga aylanib qolishi dastlabki davrlarda mualliflik huquqlarining buzilishi yaqqol ko'rsatgan. Mavjud qonunlardan bexabar, mualliflik haqi qancha berilishidan qat'iy nazar, boriga shukr qilib ketadigan mualliflar ham keyinchalik, mavjud mexanizmlardan xabardor bo'lishga harakat qilishgan. Jumladan: yuqorida nomi keltirilgan muallif Mulla Karim Toshkentga yuborgan maktubida ayrim ma'lumotlar keltirib o'tgan. " Ishq bilan o'ynashma"ning pulini hali olganimiz yo'q. Ministrlikdan berar emish, deb eshitdik. Shunga ham ko'nikdik. O'rtoq Xayrullayev borsa, pullarni olib kelar deb turibman. Endi gonorar haqida shuni demoqchiman.

Sizlardagi qonun – qoidani bilmayman. Agar vaqtingiz bo‘lsa, shu haqida jindakkina tushuntirish yozib yuborsangiz juda xursand bo‘lar edim»[10].

Mahalliy muallif Mulla Karim mualliflik haqini ololmayotgani barobarida, mavjud qonun – qoidalarni bilmasligi ma’lum qilgan. Demak, biz tahlil qilishimiz mumkinki, mamlakatimiz hududida o‘z huquqlarini yetarli darajada bilmaydigan mualliflarni ko‘plab uchratish mumkin bo‘lgan.

Ayrim kamchilliklarga qaramasdan BMHHB ning O‘zbekiston bo‘limi ko‘plab mualliflarning manfaatlarini himoya qildi. Mualliflarni huquqini himoya qilish uchun albatta ushbu mualliflar, Butunittifoq mualliflar huquqini himoya qilish Boshqarmasining ro‘yxatidan joy olishi shart edi. Albatta bu ro‘yxatdan joy olish, davlat uchun ayrim to‘lovlarning joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, muallif uchun foydali tomonlari ham borligini ta’kidlash mumkin. Jumladan: mualliflarni ro‘yxatga olish uchun a) Muallifning o‘z yashash joyi b) merosxo‘rlar qayerda yashashidan qat’iy nazar, muallif ro‘yxatdan o‘tgan bo‘limda qayd etiladi v) muallifni ro‘yxatga olish varaqasi, imzolangan holatda d) talab qilingan va asar muallifiga mualliflikni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa asoslar talab etilgan[11]. Nafaqat mahalliy mualliflar uchun, balki Ittifoq tarkibida faoliyat yuritayotgan barcha mualliflar uchun qulaylik tug‘dirdi. BMHHB direktori G. G. Elchibekov 1956-yilning 23-martda Leningrad, Kiyev, Toshkent va Olmaota bo‘limlariga murojaat bilan chiqib, ushbu hududlarda Tatar shoiri Muso Jalilga tegishli bo‘lgan sherlari nashr etilganligi haqida ma’lumot borligi, agar nashr etilgan bo‘lsa, uning qizi S.L.Musayevnaga mualliflik haqini to‘lab berishlarini so‘ragan[12]. Agar yuqorida keltirilgan mualliflar ro‘yxatiga kiritish uchun b) bandda keltirilgan merosxo‘rlar ro‘yxati shakllantirilmasa, muallif vafot yetgandan so‘ng uning merosxo‘rlari mualliflik haqlarini olishi bilan bog‘liq muammolarga duch kelishgan.

Bu borada O‘zbekiston bo‘limi ham mualliflar huquqlarini himoya qilish sohasida mavjud qonunlardan kelib chiqib, “Muso Jalilning Merosxo‘rlariga mualliflik haqi, ularni meros huquqi bilan tasdiqlash to‘g‘risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasini olgandan keyin, merosxo‘rlarga mualliflik haqlarini to‘lab berilishi mumkinligi ta’kidlangan”[13].

Mualliflar huquqini himoya qilishda kashfiyotlar va ixtirolar mualliflariga qonun doirasida ayrim imtiyozlar berilgan. «Ilmiy xodimlarning lavozimlarni imtiyozli egallash huquqi. Nizomga (76-modda.) ko‘ra, kashfiyotlar mualliflari, boshqa jihatdan teng bo‘lganda, bu shuni anglatadiki, bir xil ilmiy xodim lavozimiga bir nechta shaxs, shu jumladan kashfiyot muallifi murojaat qilsa, unga ustunlik berilishi shart [14]. Demak kashfiyot mualliflariga ustunlik berilishi mualliflar huquqlarini himoya qilinishining bir ko‘rinishi deyishimiz mumkin.

Mualliflik huquqida tarjimonlar ham faol ishlagan. Ammo mehnatiga yarasha haqni har doim ham to‘liq olish nasib qilmagan. “Respublikamiz mualliflari o‘zlari tomonidan xorijiy tillarga tarjima qilingan va nashr etilgan asarlardan keladigan foydaning 45 – 50 % «Markazda” ushlab qolingan. Ayrim holatlarda esa, “Markaz” mualliflarning roziligisiz asarlarini tarjima qilishga va foydalanishga yo‘l qo‘ygan»[15]. Bu holat mahalliy mualliflarga nisbatan ko‘plab kuzatilganligi ko‘rishimiz mumkin, ammo “Markaz”dagi mualliflarga munosabat ancha ijobiy bo‘lgan. Masalan: mualliflar huquqlarining buzilish holatlar ko‘plab uchragan. Ushbu ishlar SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi san’at ishlari bo‘yicha komitetga qarashli arbitajda ko‘rib chiqiladigan bo‘ldi. Shunisi quvonarliki, ko‘rib chiqilgan ishlarning 95% boshqarma, ya’ni mualliflar foydasiga hal bo‘ldi. Ammo arbitajda ko‘rib chiqilgan ishlarning juda kam qismi markazdan tashqaridagi hududlarga to‘g‘ri kelishi achinarli holat hisoblanadi[16]. Bu holatlar ham avtonom hududlarda mualliflar huquqi markazga nisbatan ancha og‘ir ahvolda ekanligini ko‘rsatadi.

Mualliflar huquqlarini himoya qilishda muammoli holatlardan yana biri, Mualliflik haqidagi nizolar (Hammualliflik), ushbu toifadagi nizolar, barcha ixtirochi nizolarining ichida eng murakkabi hisoblangan[17]. Mualliflar tarkibi va ixtironi yaratishda ularning ijodiy ishtiroki to‘g‘risida kelishuvga erisha olmasa o‘z vaqtida SSSR Ixtirolar va Kashfiyotlar bo‘yicha qo‘mitaga murojaat qilishi kerak bo‘ladi. Bu masalada mavjud qonunlardan kelib chiqib, ixtironing haqiqiy yaratuvchisi bo‘lgan muallif huquqlari himoya qilingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, mazkur davrda BMHHBning O‘zbekiston bo‘limining ochilishi va faoliyat yuritishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Ammo mahalliy mualliflar va “markaz”da faoliyat yuritgan mualliflarga munosabatni bir xil emasligini arxiv hujjatlari ko‘rsatmoqda. Respublika mualliflarining roziligisiz ularning asarlarini tarjima qilingan yoki mualliflik haqlarini to‘liq ololmagan holatlar ham ko‘plab uchragan. Bunday holatlar markazdan uzoqda faoliyat yuritayotgan mualliflarga e’tiborning kamligi va mualliflarning ko‘pchiligi ularni himoyasi borasidagi mavjud qonun – qoidalarni yaxshi bilmaganliklari bilan izohlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Вишневецкий Л. М., Формула приоритета: возникновение и развитие авторского и патентного права - издательство «Наука». Ленинград 1990.- стр 3.
2. Бобокул Тошев. Муаллифлик ҳуқуқи. Тошкент. 1997. 4-бет.

3. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 79-ish, 28-varaq.
4. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 51-ish, 221-varaq.
5. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 50-ish, 1-varaq.
6. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 42-ish, 24-varaq.
7. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 51-ish, 207-varaq.
8. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 50-ish, 1-varaq.
9. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 46-ish, 49-varaq.
10. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 79-ish, 28-varaq.
11. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 132-ish, 104-varaq.
12. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 73-ish, 111-varaq.
13. O‘zMA, R 2432-fond, 1-ro‘yxat, 73-ish, 110-varaq.
14. Ефимов, Евгений Николаевич. “Правовая охрана научных открытий в СССР”. Издательство “Знание”. Москва. 1972 г. 29 бет.

FIZIKA VA TEXNIK MASALALARNI YECHISHDA VEKTORLAR ALGEBRASINING DASTURIY INJINIRINGDAGI QO‘LLANILISHI

Ruziyev Kurbanali Abdujaborovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Axborot texnologiyalari fakulteti dekanining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari,
Safarov Abdimurot Shakarovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti,pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent.
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693420

ANNOTATSIYA

Maqolada fizika va texnik masalalarni yechishda vektorlar algebrasining ahamiyati hamda uning dasturiy injiniringdagi qo‘llanilishi qisqacha tahlil qilinadi. Vektor kattaliklarning nazariy asoslari, ularning kompyuter modellashtirish, grafik tizimlar va hisoblash algoritmlaridagi o‘rni yoritilib, fizik jarayonlarni dasturiy muhitda ifodalash usullari misollar bilan tushuntiriladi. Natijalar talabalar uchun matematik apparatdan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi

KALIT SO‘ZLAR

vektorlar algebrasi, fizika masalalari, texnik masalalar, dasturiy injiniring , vektorlar komponentlari, tezlanish hisoblash, kuchlar yig‘indisi, parallelogram usuli, fizika-texnika integratsiyasi, kompyuter modellashtirish

АННОТАЦИЯ

В статье кратко анализируется значение векторной алгебры при решении физических и технических задач, а также её применение в программной инженерии. Рассматриваются теоретические основы векторных величин, их роль в компьютерном моделировании, графических системах и вычислительных алгоритмах, а также приводятся примеры представления физических процессов в программной среде.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

векторная алгебра, задачи по физике, технические задачи, программная инженерия, компоненты векторов, расчет ускорения, результирующие силы, метод параллелограмма, интеграция физики и

Полученные результаты способствуют развитию навыков использования математического аппарата у студентов	*техники, компьютерное моделирование*

ABSTRACT	**KEY WORDS**
The article briefly analyzes the importance of vector algebra in solving physical and technical problems, as well as its application in software engineering. The theoretical foundations of vector quantities and their role in computer modeling, graphics systems, and computational algorithms are discussed, along with examples illustrating methods of representing physical processes in a software environment. The results contribute to developing students' skills in using mathematical tools	*vector algebra, physics problems, technical problems, software engineering, vector components, acceleration calculation, resultant forces, parallelogram method, physics-technology integration, computer modeling.*

Zamonaviy dasturiy injiniring sohasida murakkab tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fizik va texnik jarayonlarni kompyuter yordamida ifodalash jarayonida matematik usullardan, xususan, vektorlar algebrasidan keng foydalaniladi. Vektor kattaliklar ko‘plab real jarayonlarni, jumladan, harakat, kuch, tezlanish va maydonlarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda kompyuter grafikasi, o‘yin dasturlash, robototexnika va sun’iy intellekt kabi yo‘nalishlarda vektorlar algebrasining qo‘llanilishi tobora kengayib bormoqda. Shu sababli, dasturiy injiniring yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ushbu matematik apparatni chuqur o‘rganish va uni amaliy masalalarda qo‘llay olish muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — fizika va texnik masalalarni yechishda vektorlar algebrasining o‘rni va ahamiyatini ochib berish hamda uning dasturiy injiniringdagi amaliy qo‘llanilish jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Vektorlar algebrasi elementlari maktab va akademik litsey ta’lim tizimida ko‘pincha yetarli darajada chuqur o‘qitilmasligi yoki ayrim hollarda mustaqil ta’lim shaklida berilishi natijasida o‘quvchilarda vektorlar nazariyasiga oid bilimlar yetarli darajada shakllanmasligi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi davrda fanlarning rivojlanish darajasi va ularning amaliy ahamiyati turlicha bo‘lib, ayniqsa fizika, matematika va texnika kabi o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar bir-birini to‘ldiruvchi xususiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu fanlar integratsiyasi orqali mavjud

kamchiliklarni bartaraf etish va ularning yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, fizika va texnik masalalarni yechishda dasturiy injiniring yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda vektorlar algebrasidan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Bundan tashqari, maqolada shunday masalalar tanlanganki, ularda har bir fizik masala bilan bog‘liq holda muayyan texnik elementlar va ularning dasturiy ifodalanishi yoritiladi. Bu esa o‘z navbatida dasturiy injiniring yo‘nalishini tanlagan talabalarda texnik jarayonlar va ularni modellashtirish bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, elementar fizika masalalarini vektorlar algebrasi asosida yechish talabalar uchun tabiatning asosiy qonunlarini chuqurroq anglash, ularni dasturiy muhitda qo‘llash hamda amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni hal etish malakalarini rivojlantirishga yordam beradi [1,7].

Vektorlar ustida amallar bajarish sonlar ustida amallar bajarishdan tubdan farq qiladi. Fizika va texnik masalalarni dasturiy injiniring asosida yechishda faqat vektorlarni qo‘shish va ayirishni bilish yetarli emas, balki ularning geometrik va analitik talqinini chuqur anglash muhim hisoblanadi. Masalan, bir-biriga ma’lum burchak ostida yo‘nalgan F1 va F2 kuch vektorlarining yig‘indisi ularning tomonlari asosida qurilgan parallelogramning katta diagonali sifatida aniqlanadi, kichik diagonali esa kuchlar ayirmasini ifodalaydi. Ushbu vektorlarning son qiymatlarini topishda parallelogram tomonlari va diagonallaridan foydalanib, vektorlarni parallel ko‘chirish orqali yopiq uchburchaklar hosil qilinadi va keyinchalik sinuslar yoki kosinuslar teoremalari asosida hisoblash ishlari amalga oshiriladi. Bu yondashuvni dasturiy modellashtirishda qo‘llash fizik jarayonlarni aniq va samarali ifodalash imkonini beradi.

Statik aniq va statik noaniq masalalarni yechishda vektorlar nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Fizika va texnik jarayonlarni dasturiy injiniring asosida modellashtirishda ushbu yondashuvning samaradorligini ko‘rsatish maqsadida maqolada bir qator masalalar yechimi keltirilib, ular orqali vektorlar algebrasining amaliy qo‘llanilishi namoyish etiladi.

1-masala. Jism rasmdagidek, vagon devorlariga cho‘zilmas arqon yordamida bog‘langan. $T_1 = 15N$, $T_2 = 7N$, $T_3 = 1{,}6N$, $T_4 = 0{,}6N$ bo‘lsa vagon tezlanishini toping (m/s2), (1-rasm), [2,6].

Yechilishi: Masalani yechishda avvalo jismning markaziga koordinata tizimini joylashtiramiz va OX hamda OY o‘qlarini qulay yo‘nalishlarda belgilaymiz. Har bir kuchni tanlangan koordinata o‘qlariga proeksiyalash orqali uning OX va OY o‘qlari bo‘yicha ta’sirini aniqlaymiz



1-rasm

Vagonning harakati faqat OX yo‘nalishida bo‘lganini hisobga olib, OX o‘qi bo‘yicha olingan barcha kuchlarning proeksiyalari yig‘indisini Nyutonning ikkinchi qonuni bo‘yicha vagonning massa va tezlanishi bilan bog‘laymiz. Shu bilan birga, OY o‘qi bo‘yicha proeksiyalar yig‘indisi nolga teng bo‘ladi, chunki vagon OY yo‘nalishida harakat qilmaydi va barcha kuchlar o‘sha yo‘nalishda muvozanatda bo‘ladi.


Kuchlarning yo‘nalishini va jismning og‘irlik kuchini hisobga olgan holda, OX yo‘nalishidagi tezlanishni aniqlash mumkin. Natijada, vagonning tezlanishi vektorlar yig‘indisi va koordinata proeksiyalari yordamida aniq va tizimli ravishda hisoblanadi. Bu yondashuv vektorlar algebrasini amaliy masalalarda qo‘llash va fizik jarayonlarni dasturiy modellashtirishda samarali foydalanish imkonini beradi.

$$\sum_{i=1}^{n} X_i = 0;\ -T_4 + T_3 = ma \quad (1)$$

$$\sum_{i=1}^{n} Y_i = 0;\ T_1 - T_2 - P = 0 \quad (2)$$

$$T_1 - T_2 = mg\ m = \frac{8}{10} kg;\ ma = 1{,}6 - 0{,}6 = 1;\ a = \frac{1}{m} = \frac{10}{8} = \frac{5}{4} = 1{,}25 \frac{m}{s^2}$$

2-masala. Ikkita musbat q1=1,67 nC va q2=3,33 nC zaryadlar bir-biridan 20 cm masofada joylashgan. Shu to‘g‘ri chiziq bo‘yicha qanday masofada q3=-0,67 nC manfiy zaryad joylashtirilsa, uchala zaryad muvozanatda bo‘ladi (2-rasm), [3,5].



2-rasm

Yechilishi: C nuqtada joylashgan q3 zaryadga F1 va F2 kuchlar ta’sir qiladi. C nuqtadagi kuchlarni sonlar o‘qidagi yo‘nalishlarini muvozanatda ekanligini hisobga olib 0 ga tenglaymiz; ya’ni $-F_1 + F_2 = 0$ bunda Kulon kuchlarini teng ekanligini hisobga olsak quyidagi formulalarni hosil qilamiz:

$$F_1 = k\frac{q_1|q_3|}{(r-x)^2};\ F_2 = k\frac{q_2|q_3|}{x^2} \quad (3)$$

$$\frac{q_1}{(r-x)^2} = \frac{q_2}{x^2} \quad (4)$$


Hosil qilingan (3) formuladan X ni topamiz.

$$x = \frac{\sqrt{q_2}}{\sqrt{q_1}+\sqrt{q_2}} \cdot r = \frac{\sqrt{3{,}33\cdot 10^{-9}}}{\sqrt{1{,}67\cdot 10^{-9}}+\sqrt{3{,}33\cdot 10^{-9}}} \cdot 0{,}2 \approx 0{,}12m.$$

Bundan ko‘rinadiki, vektorlarni yo‘nalishi to‘g‘ri topgandan keyin, masalani hisoblash oson kechadi.

Endi e’tiborimizni vektor algebrasi elementlarisiz yechilishi mumkin bo‘lmagan yoki yechilish qiyin bo‘lgan masalalarga qaratamiz.

3-masala. Hajmlari teng, zichliklari 3 marta farq qiluvchi 2 ta shar rasmdagidek ipga bog‘langan holatda suvda turibdi. Agar sharlarning hajmlari 10 cm kubdan bo‘lsa, ipning taranglik kuchini toping (N), (3-rasm), [1,3,4].



3-rasm

Yechilishi: Sharlarga ta’sir qiluvchi barcha kuchlarni T; P; FA-taranglik, og‘irlik hamda Arximed kuchlarini aniqlaymiz. Parallel qarama-qarshi kuchlarni xossalaridan foydalanamiz va kuchni vektor kattalik ekanligidan foydalanamiz (3-rasm).

Kuchlarni yo‘nalishlarini 3 rasmadagidek shaklga keltirib, birinchi sharni suvga yarmini botib turganligini va ikkinchi sharni esa suvga to‘liq botganligini hisobga olgan holda tenglamalar tuzib ularni birgalikda yechamiz [5,6].

$$\begin{cases} F_{A1} = \rho_1 + T_1 \\ F_{A2} + T_1 = \rho_2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \rho cg\frac{V}{2} = \rho cgV + T_1 \\ \rho cgV = \rho_2 gV - T_2 \end{cases},$$

$T_1 = T_2 = T$ hamda $\rho_2 = 3\rho_1$ ekanligini hisobga olsak, T -taranglik kuchini topamiz:

$$\begin{cases} \rho cgV = 2\rho_1 gV + 2T \\ \rho cgV = 3\rho_1 gV - T \end{cases} \Big|_{2}^{-3} \Rightarrow T = \frac{\rho cgV}{8} = \frac{10^4\cdot 10^{-5}}{8} = \frac{1}{80} = 0{,}0125N,$$

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada turli fizik va texnik masalalarni yechishda vektorlar algebrasining ahamiyati va uning dasturiy injiniring sohasidagi qo‘llanilishi ko‘rsatildi. Keltirilgan masalalar - kuchlarning vektor yig‘indisini aniqlash, elektrostatik muvozanat, suyuqlik muvozanati hamda mexanik kuchlar tizimini tahlil qilish - barchasi murakkab fizik jarayonlarni aniq modellashtirish va tahlil qilish uchun vektorlar algebrasidan samarali foydalanishni talab qiladi.

Dasturiy injiniring vositalari yordamida ushbu masalalarni yechish jarayonida vektorlarning komponentlarga ajratilishi, geometriya va fizik qonunlar bilan uyg‘unligi ko‘zda tutiladi. Bu yondashuv fizika va texnika yo‘nalishidagi talabalar

uchun nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, masalalarning dasturiy modellashtirilishi ularning yechimlarini tez va aniqlik bilan olish imkonini beradi hamda zamonaviy texnika va dasturiy ta’minotda qo‘llaniladigan metodlarni chuqurroq o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Natijada, vektorlar algebrasining dasturiy injiniringdagi qo‘llanilishi - fizika va texnik masalalarni samarali va tizimli yechishda asosiy vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aslonov X. “Vektorlar algebrasining ta’limda qo‘llanilishi va amaliyotdagi o‘rni” — Pedagogik fizik ta’lim jurnal, 2024.
2. Islomov H. “Dasturiy injiniringda fizik jarayonlarni modellashtirish” — Elektron texnologiyalar va fizikaga tadbiq, 2022.
3. Israilov M., Safarov A.Sh. “Harbiy texnikaga doir fizik masalalarni kinetik energiyaning o‘zgarish teoremasi asosidagi nazariy yechimi” — O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi xabarlari, Toshkent, 2021, №1 (36), B. 106 109.
4. Karimov N., Toshmatov M. “Kuchlar yig‘indisi va tahlil metodlari” — Muhandislik va fizika, №2, 2020.
5. Mirzaev J., Normurodov D. “Suyuqlik mexanikasi va vektor tahlil: o‘quv misollar” — Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar, 2022.
6. Qayumova M. “Fizik masalalarda Matlabda vektorli yechimlar” — Ilmiy dasturlar jurnali, 2018.
7. Qodirov S., Abdurashidov N. “Fizika masalalarini yechishda vektorlar algebrasining o‘rni” — Toshkent: Fan va ta’lim, 2023

SUV RESURSLARNING KAMAYISHI VA IFLOSLANISHI

Xaydarov Baxtiyorjon Abduxamidovich
TIPU Pedagogika fakulteti
dotsent v.b., q.x.f.d. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.19692757

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insoniyat oldida turgan eng jiddiy ekologik muammolardan biri - chuchuk suv resurslarining kamayishi va ularning ifloslanishi masalalari tahlil qilinadi. Suv tanqisligining sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari va ushbu inqirozdan chiqish yo'llari ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR

Suv resurslari, chuchuk suv, suv tanqisligi; iqlim o'zgarishi, global isish, ekologik inqiroz; suv ifloslanishi, oqova suvlar, sanoat chiqindilari; suvni tejash texnologiyalari, tomchilatib sug'orish

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются одна из самых серьезных экологических проблем, стоящих перед человечеством – сокращение и загрязнение пресноводных ресурсов. Рассматриваются причины дефицита воды, социально-экономические последствия и пути выхода из этого кризиса

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Водные ресурсы, пресная вода, дефицит воды; изменение климата, глобальное потепление, экологический кризис; загрязнение воды, сточные воды, промышленные отходы; водосберегающие технологии, капельное орошение

ABSTRACT

This article analyzes one of the most serious environmental problems facing humanity – the depletion and pollution of freshwater resources. The causes of water scarcity, its socio-economic consequences, and pathways to overcome this crisis are examined

KEY WORDS

Water resources, freshwater, water scarcity; climate change, global warming, environmental crisis; water pollution, wastewater, industrial waste; water-saving technologies

Yer yuzasining 70 foizidan ortig‘i suv bilan qoplangan bo‘lsa-da, uning atigi 2,5-3 foizigina chuchuk suv hisoblanadi. Buning ham katta qismi muzliklar va yer osti qatlamlarida joylashgan. Bugungi kunda aholi sonining shiddat bilan o‘sishi, sanoatning rivojlanishi va iqlim o‘zgarishi natijasida insoniyat “suv inqirozi” ostonasida turibdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga borib dunyo aholisining yarmi suv tanqisligidan aziyat chekishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi global miqyosda eng ko‘p suv iste’mol qiluvchi tarmoq hisoblanadi. Sug‘orish ekinlar uchun muhim bo‘lsa-da, suvdan samarasiz foydalanish, yaroqsiz sug‘orish tizimlari va suvning katta qismining bug‘lanishi suv resurslarining tanqisligiga olib keladi. Ayniqsa, qurg‘oqchil hududlarda bu muammo juda dolzarb muammolardan biri. Bundan tashqari, kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlarning yomg‘ir suvi bilan birga daryolar, ko‘llar va yer osti suvlariga oqib tushishi suv havzalarini ifloslantiradi. Bu esa akvatik ekotizimlarga jiddiy zarar yetkazadi, baliqlar va boshqa suv jonivorlarining nobud bo‘lishiga, shuningdek, suv o‘tlari ko‘payishiga olib keladi. Ifloslangan suv inson salomatligi uchun ham xavflidir.

Suv resurslarining kamayish sabablari:

Suv zaxiralarining kamayishi bir qancha omillar bilan bog‘liq:

1. Iqlim o‘zgarishi: Global isish natijasida tog‘lardagi muzliklar (daryolarning asosiy manbai) erib bormoqda. Bu esa daryolar oqimining kamayishiga va cho‘llanish jarayonining tezlashishiga olib kelmoqda.

2.Samarasiz foydalanish: Ayniqsa qishloq xo‘jaligida eski sug‘orish usullaridan foydalanish oqibatida suvning 50-60 foizi bekorga isrof bo‘lmoqda.

3.Demografik bosim: Aholi soni ortgani sayin ichimlik suvi va oziq-ovqat ishlab chiqarish (agro-sektor) uchun suvga bo‘lgan talab geometrik progressiya bilan o‘sib bormoqda.

Suv yer yuzasida hayot mavjudligining asosiy shartlaridan biridir. Lekin, hozirgi kunda, tabiatdagi barcha suvlardan bevosita foydalanib bo‘lmaydi. Shu bilan birga “suv resurslari” tushunchasini barcha suvlarning sinonimi deb tushunmaslik kerak. Haqiqatan ham bu kategoriya faqatgina tabiatga xos bo‘lmay, balki ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy bosqichlarda o‘zgarib turadi. Hozirgi taraqqiyot bosqichida suv resurslari tabiatdagi barcha chuchuk va o‘rtacha minerallashgan, tabiiy holda yoki sun’iy ravishda chuchuklashtirilgan, tozalangan suvlardan iborat bo‘lib, ayni paytda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida ishlatilayotgan va ishlatilishi mumkin bo‘lgan suv manbalari yig‘indisidir. Hajmi, miqdori, hosil bo‘lish va joylashish o‘rniga bog‘liq holda suv manbalari mahalliy, regional va global suv resurslariga bo‘linadi. Xalqaro bitimlarga asosan esa milliy, davlatlararo va umumiy (umuminsoniy) suv resurslari bir-biridan farqlanadi. Suv qayta

tiklanadigan tabiiy resurslar qatoriga kiradi. Lekin buning uchun, birinchidan, muzliklar, daryolar, yer osti suvlari zahirasi asrlar davomida o‘zgarmas bo‘lishi va ikkinchidan insonning xo‘jalik faoliyati ta’sirida tabiiy suvlarning ifloslanishi darajasi ularning sifat jihatdan o‘z-o‘zini qayta tiklash imkoniyatidan katta bo‘lmasligi kerak.

Respublikamizning suv resurslarining asosiy manbalari daryolar, soylar, buloqlar, suv omborlari, ko‘llardagi tabiiy toza suvlardan hamda yer ostida joylashgan chuchuk va o‘rtacha minerallashgan suvlardan iborat. Bularga qo‘shimcha ravishda muz osti va muz ko‘llari suvlarini, termal (issiq) yer osti suvlarini, tozalangan (ikkilamchi) suvlarni, oqava suvlarining bir qismini, atmosfera yog‘inlarini va tuproqdagi namlikni kiritish mumkin.

Gidrosferaning xilma-xil turli xususiyatlari va o‘ziga hosliligi orasida uning harakatdaligini alohida ta’kidlash zarurdir. Gidrosfera o‘ta harakatchan va jo‘shqindir. Bu tabiatdagi suvlarni aylanma harakatining asosi ulkan jarayon bo‘lib, u bilan suv resurslarini tabiiy chuchuklanishi, quruqlikda suvlarni taqsimlanishi va joylashishi hamda aholini, hayvonot va o‘simlik dunyosini suv bilan ta’minlanishiga bog‘liqdir. Tabiatdagi suvlarni aylanma harakati bilan yemirilish jarayonlari va yerni relyefini shakllanishi bog‘liqdir tabiatda suvni aylanma harakati quyidagicha ro‘y beradi. Quruqlik va dunyo okeanidan Quyosh nuri ta’sirida bug‘lanib atmosferani namlik bilan to‘ldiradi. Mutaxassislarni hisoblari bo‘yicha Quyoshdan kelayotgan issiqlikni 55% suvni bug‘latishga sarf bo‘lar ekan. Atmosfera havosidagi suv bug‘lari haroratni pasayishi xisobiga kondensatsiyalanib (suyuq holatga o‘tib) Yerga (quruqlik va dunyo okeani yuzasiga) yomg‘ir va qor sifatida yog‘adi. Qor va yomg‘ir suvlarini bir qismi tuproqqa shimiladi va qolgan qismi yer usti oqimini shakllantiradi. Bu suvlar qiyaliklardan oqib tushib soylarni paydo qiladi va keng tarqalgan soylar bo‘yicha ular daryolarga kelib quyiladi. Bu faqat daryo oqimining bir qismi ya’ni yer usti toshqin suvlaridir. Daryolar tuproq qatlamidan chuquroqdagi qatlamlarga shimilib o‘tib shakllangan yer osti suvlari xisobiga xam ta’minlanadilar. Yer osti suvining eng faol harakat qiluvchi qismi buloqlar ko‘rinishda yer yuzasiga sizib chiqadi yoki daryolarga oqib tushadi. Ko‘p hollarda daryolar yer osti suvlari bilan doimiy ta’minlanadilar. Dengizlari ko‘llar xuddi okeanlar kabi faqatgina atmosfera yog‘inlari hisobigagina emas balki oqib kelayotgan daryo suvlari hisobiga ham ta’minlanadilar. Shunday qilib okeanlardan va quruqlik ichkarisidagi havzalardan doimiy bug‘lanadigan suvlar uzluksiz to‘ldirilib turilishi yuz beradi.

Tuproq qatlamidagi suvlar asosan bug‘lanib va o‘simliklar orqali transpiratsiyaga sarflanib atmosfera havosini suv bug‘lari bilan boyitadi xamda bir qismi yer osti suvlarini ta’minlaydi. Tabiatdagi suvlarni aylanma harakati sxemasi ana shunday. Suvni aylanma xarakatini eng muxim xossasi uni litosfera, atmosfera

va biosfera bilan o‘zaro bog‘lanib gidrosferani barcha qismilarini: okean, daryolar, tuproq namligi, yer osti suvlarini va atmosfera bug‘larini bir qilib boglashidir. Aylanma tufayli gidrosferani uzuluvchanlik (diskretlik) karaktush o‘z kuchini yuqotadi. Yerning barcha suvlari nafaqat paydo bo‘lishi jihatidan balki doimiy aylanma harakat ta’sirida yagonadir. Alohida ta’kidlash zarurki suv resurslaridan turli xil xo‘jalik va madaniy maqsadlarda foydalanishlar ham suvlarni aylanma harakat jarayonida amalga oshiriladi. Tabiatdagi suvni aylanma harakati ikkita mustaqil jarayonlar ta’sirida bo‘ladi: ulardan birinchisi - gidrosfera suvini to‘ldiruvchi manba - mantiya suvini degazatsiyasi. Bu jarayon juda sekin yuz berib milliard yillardan beri davom etmoqda. Bu jarayonni intensivligi haqidagi ma’lumotlar yetarli emas. Suvni aylanma harakatini ikkinchi jarayoni birinchisiga nisbatan bir necha barobar jadalroq bo‘lib uni fasllarni almashinish ya’ni bir yil bilan chegaralanadi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun ularning qaysi yo‘llar bilan sarflanishini bilish zarur. Ma’lumki, suv resurslari ikki yo‘l bilan tabiiy va inson xo‘jalik faoliyati, ya’ni antropogen omillar ta’sirida sarflanadi. Suv resurslarining tabiiy sarflanishi quyidagi yo‘llar bilan ro‘y beradi: daryolar o‘zanidan, ko‘llar kosasidan bo‘ladigan shimilish ko‘rinishida, suv yuzasidan bo‘ladigan bug‘lanish, namsevar yovvoyi o‘simliklar tanasidan transpiratsiya yo‘li bilan bug‘lanishi va hokazolar. Suv resurslarining insonning xo‘jalik faoliyati, ya’ni antropogen omillar ta’sirida sarflanishi ularning irrigatsiya, maishiy-kommunal va sanoat tarmoqlarida ishlatilishi bilan bog‘liq.

Suv resurslarining antropogen omillar ta’sirida sarflanish jarayoni yaxshi o‘rganilmagan. Afsuski, bu muammoning yechimi ustida olib borilayotgan tadqiqotlar hozirgi kunda ham talab darajasida emas. O‘lkamiz sharoitida suv resurslarining katta qismi 90 foizdan ortiqrog‘i irrigatsiya maqsadlarida sarflanadi. Bu sarflanish ekin maydonlari, suv omborlari, sug‘orish kanallari, kollektor-zovurlar yuzasidan bo‘ladigan bug‘lanishdan, yangi o‘zlashtirilgan yerlardagi, yangi qurilgan suv omborlaridagi, kollektor-zovurlardagi suvning akkumulyatsiyasidan, tabiiy botiqlarda qaytarma suvlarning yig‘ilishidan va hokazolardan iborat bo‘ladi. Bug‘lanish hisobiga bo‘ladigan sarflanishning barcha turlari doimiy jarayondir. Hisoblashlarning ko‘rsatishicha, bug‘lanishning eng katta miqdori ekin maydonlariga to‘g‘ri keladi.

Suvning miqdori kamayishi bilan bir qatorda, uning sifati ham yomonlashib bormoqda. Asosiy ifloslantiruvchi manbalar:

Sanoat chiqindilari: Fabrika va zavodlardan chiqayotgan kimyoviy moddalar, og‘ir metallar to‘g‘ridan-to‘g‘ri daryo va ko‘llarga oqizilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi: Dalalarda ishlatiladigan pestitsid va gerbitsidlar yer osti suvlariga qo‘shilib, ularni iste’molga yaroqsiz qilib qo‘ymoqda.

Maishiy chiqindilar: Plastik buyumlar va oqova suvlarning yetarli darajada tozalanmasligi suv ekotizimlarini o‘ldirmoqda.

Suv resurslarining yuqorida keltirilgan sarflanish turlaridan tashqari hisobga olish imkoni bo‘lmagan ko‘rinishlari ham mavjud. Ular hisobga olinmagan ekin maydonlaridan bo‘ladigan bug‘lanish, kanallar atrofida yer osti suvlari linzasining hosil bo‘lishi, kanallar trassasi bo‘ylab o‘zanning buzilishi va filtratsiya (shimilish) natijasida ko‘llar vujudga kelishi kabilardan iborat.

Suv resurslarining hududiy jihatdan notekisligi suv iste’molidagi tanqislikni vujudga keltiradi. Uni bartaraf etish uchun oqimning bir qismi mintaqadan boshqasiga qayta taqsimlanadi. Oqimni qayta taqsimlash Amudaryo (Qoraqum, AmuBuxoro, Katta Hisor, Qarshi kanallari va boshqalar) va Sirdaryo (Katta Farg‘ona, Katta Andijon, Katta Namangan, Janubiy Mirzacho‘l kanallari va boshqalar) havzalarida juda katta hajmda amalga oshirilgan.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish asosiy tamoyillardan biridir. Xususan, tomchilatib sug‘orish yoki yomg‘ir suvidan foydalanish kabi suvni tejash texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga, suvni ifloslanishdan himoya qilish uchun kimyoviy moddalar bilan ifloslanmasligi zarur.

Suv va uning tanqisligi nafaqat tabiatga, balki insoniyatga ham zarba beradi. Har yili dunyoda millionlab insonlar sifatsiz suv tufayli kelib chiqadigan yuqumli kasalliklardan vafot etadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa, suv tanqisligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni kamaytiradi, bu esa oziq-ovqat narxlarining ko‘tarilishiga va ijtimoiy beqarorlikka sabab bo‘ladi.

Inqirozning oldini olish uchun global va mahalliy darajada quyidagi choralar ko‘rilishi shart:

Suvni tejovchi texnologiyalar: Qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish tizimiga to‘liq o‘tish.

Oqova suvlarni qayta ishlash: Sanoat va maishiy oqova suvlarni zamonaviy filtrlar yordamida tozalab, texnik maqsadlarda qayta ishlatish.

Ekologik madaniyat: Aholi orasida suvni tejash madaniyatini yoshlikdan shakllantirish. Suv “tekin boylik” emas, balki “tuganmas bo‘lmagan ne’mat” ekanligini anglab yetish.

Xalqaro hamkorlik: Transchegaraviy daryolar (masalan, Amudaryo va Sirdaryo) bo‘yicha qo‘shni davlatlar bilan adolatli va ilmiy asoslangan kelishuvlarga amal qilish.

Suv — bu oddiy resurs emas, u hayotning o‘zi. Biz bugun suvni asrab qolmasak, kelajak avlodlar nafaqat iqtisodiy qiyinchiliklarga, balki yashash uchun kurashga mahkum bo‘ladi. Har bir tomchi suv uchun mas’uliyatni his qilish — zamonamizning eng ustuvor vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021 yilda amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 26 fevral, PQ-5009-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022 yil 1 martdagi PQ-144-son qarori.
3. Saparova G.K., Dehqonova N., Galimova F. Iqtisodiy geografiya va ekologiya. Toshkent. 2019 y.224 b.
4. Otaboyev Sh., Nabiyev M. Inson va biosfera. T.O‘qituvchi, 1995, 320 b.
5. Otaboyev Sh., Nabiyev M. Inson va biosfera. Toshkent, «O‘qituvchi»,1995y.
6. Haydarova X.N., Saparova G.K. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi fanidan darslik Toshkent 2021 yil., 180 b.

ГРАФИК ВА МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ

У.А.Насритдинова
ТИҚХММИ МТУ
“Муҳандислик графикаси ва
дизайн назарияси”
кафедраси доценти п.ф.ф.д., (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693825

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада техника олий таълим муассасаларида график фанларни аҳамияти ва долзарблигини оширишда ҳамда график фанларни ўқитиш жараёнини такомиллаштиришда график ва мутаҳассислик фанлар интеграцияси ёритилган. Бунда “Муҳандислик ва компьютер графикаси”, “Компьютер графикаси”, “Архитектура элементларини лойиҳалаш”, “Компьютер графикаси, дизайн ва компьютерли конструкциялаш” график фанлари билан “Гидротехника қурилиши”, “Гидромелиорация”, “Қишлоқ хўжалигини механизациялаш”, “Технологик жараёнларни бошқариш ва автоматлаштириш” соҳа йўналишлари бўйича мутаҳассислик фанларининг фан дастурларида келтирилган мавзулари ўрганилди ва таҳлил қилинди. Таҳлиллар асосида мавзулар танлаб олиниб, мутаҳассислик ва график фанлари чизма нуқтаи назаридан мавзулар ўртасида интеграция қилиш жараёни амалга оширилди.Бу бўлажак мутаҳассисларнинг график билимлари ривожланиши билан бирга ўз соҳасида график фанларнинг аҳамиятини тушуниш ҳамда соҳага оид амалий масалаларни чизма нуқтаи назаридан ҳал қилиш имкониятини беради. Натижада иш берувчи талаби ва кадрларнинг билимлари ўртасидаги тафовут йўқолишига эришиш назарда тутилади.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещена интеграция графических и специальных дисциплин в повышении значимости и актуальности графических наук в технических вузах и совершенствовании процесса преподавания графических наук. При этом изучены и проанализированы темы, представленные в научных программах специализаций по направлениям

«Инженерная и компьютерная графика», «Компьютерная графика», «Проектирование архитектурных элементов», «Компьютерная графика, проектирование и автоматизированное строительство» и «Гидротехническое строительство», «Гидромелиорация», «Механизация сельского хозяйства», «Управление и автоматизация технологических процессов». На основе анализа были выбраны темы и осуществлен процесс интеграции специализации и графических наук с точки зрения рисунка. Наряду с развитием графических знаний будущих специалистов это дает возможность понять значение графических наук в своей области и решить практические вопросы, связанные с этой областью с точки зрения рисунка. В результате предполагается, что разрыв между требованиями работодателя и знаниями персонала будет устранен.

ABSTRACT

In this state, there is a clear integration of graphic and special disciplines, an increase in the importance and relevance of graph science in technical fields and the process of teaching graph science. At the same time, the topics presented in the scientific programs of specializations in the areas of "Engineering and Computer Graphics", "Computer Graphics", "Design of Architectural Elements", "Computer Graphics, Design and Computer-Aided Construction" and "Hydrotechnical Construction", "Hydraulic Reclamation", "Agricultural Mechanization", "Management and Automation of Technological Processes" were studied and analyzed. Based on the analysis, topics were selected and a process of integration of specialization and graphic sciences from the point of view of drawing was carried out. Along with the development of graphic knowledge of future specialists, this makes it possible to understand the significance of graphic sciences in their field and solve practical issues related to this field from the point of view of drawing. As a result, it is expected that the gap between employer requirements and staff knowledge will be eliminated.

Бугунги кунда график фанлар техника олий таълим муассасаларида аксарият йўналишларда айни вақтда ўқитилмаётганлиги кўзга ташланди. Бундан ташқари график фанлар ва мутаҳассислик фанлари ўртасида бўшлиқ вужудга келганки, бу бўшлиқ бўлажак мутаҳассисларда мутаҳассислик фанларини ўрганиш жараёнида график фанлар бўйича билимлар етишмаслигини ёки соҳада қўллай олмаслигини кўрсатмоқда. Ваҳоланки мутаҳассислик фанларини ўзлаштиришда график билимларни билиш талаб этилади. Бу эса бугунги кунда айнан график ва мутаҳассислик фанлари

ўртасидаги боғлиқликни аниқлаш, соҳа йўналишларининг амалий масалаларини ечимини топишда график фанларнинг аҳамиятини очиб берувчи тадқиқотлар етарлича эмаслигидан далолат беради. Ушбу ҳолат юзага келишига ҳам бу соҳада тадқиқот олиб бораётган биз олимларнинг камчилигимиз деб ҳисоблайман.

Ваҳоланки бугунги замон талабларига эътибор берадиган бўлсак, ҳар қандай соҳа йўналишида график чизма, замонавий график дастурларда лойиҳалаш кўникмалари айнан техника олий таълим муассасларини бўлажак битирувчиларидан иш берувчи талаб этадиган бирламчи талаблардан биридир. Буларни инобатга олиб тадқиқот ишимизнинг мавзуси сифатида “Олий таълим муассасаларида график ва мутаҳассислик фанларини интеграцион ёндашув асосида ўқитиш меодикасини такомиллаштириш” деб номланди.

Тадқиқот ишимизда график ва мутахассислик фанлари интеграцияси деганда, бир фанни иккинчи фан билан қориштириш (аралаштириш) ёки икки фанни қўшиш, бир фанни ўрнини иккинчиси билан алмаштириш назарда тутилмайди. Бу ерда график фанлар билан мутаҳассислик фанлари ўртасидаги ўзаро боғлиқлик ўрганилади, таҳлил қилинади. Мутаҳассислик фанлари муайян соҳа йўналишлари бўйича танлаб олиниб, фан дастурларида кўрсатилган мавзулар ўрганилади ва мос график фанларнинг фан дастурларига соҳа йўналишидаги амалий масалаларни бажаришда интеграция қилинади ва фақат чизма нуқтаи назаридан ўқув жараёнида айнан шу масалани тушунтириш орқали талабаларга соҳа йўналишидан келиб чиқиб, график фанларни тушунтириш амалга оширилади. Натижада соҳа йўналишлари бўйича бўлажак мутаҳассисларнинг касбий помпетенцияларини ривожлантиришда график фанларнинг аҳамияти очиб берилади.

Интегратив ёндашув бу турли фанлар билан ўзаро боғлиқликни очиб бериш фанлараро алоқаларни мустаҳкамлаш ва билимларни уйғун ҳолда шакллантиришга қаратилган таълим усулидир.

График фанлар(муҳандислик ва компьютер графикаси, компьютер графикаси, архитектура элементларини лойиҳалаш, топографик сиртларни лойиҳалаш, чизмачилик, дизайн асослари ва х.к) билан мутахассислик фанларини интеграция қилиш орқали талабаларни касбий тайёргарлигини ошириш мумкин.

1.Интегратив ёндашувнинг мазмуни:

График ва мутахассислик фанларининг интегратив ёндашув мазмуни қуйидагилардан иборат:

- Фанлараро боғлиқлик: график фанларда ўрганилаётган назарий ва амалий билимларни мутахассислик фанида қўллаш;
- Ягона таълимий тизим: фанлар ўртасида ягона мақсад ва вазифаларни шакллантириш;
- Талабанинг тафаккурини ривожлантириш: назарий билимни амалий кўникмага айтантириш орқали ижодий фикрлашни ривожлантириш;
- Амалий вазифалар асосида ўқитиш: ҳақиқий ҳаётда учрайдиган муаммоларни ҳал этиш учун фанлар интеграцияси асосида кейслар, лойиҳалар ишлаб чиқиш.

2.Интеграциянинг афзалликлари:

- Таълим жараёнида реал касбий муаммоларни ҳал қилиш қобилияти ошади;
- Талабаларнинг мутаҳасисликка қизиқиши ортади;
- Таълим мазмунида узвийлик ва тизимлилик таъминланади;
- Ижодий ва мустақил фикрлаш салоғияти ривожланади.

3.Педагогик шарт-шароитлар

График ва мутахассислик фанларини интегратив ёндашув асосида ўқитишни самарали ташкил этиш учун қуйидаги педагогик шарт-шароитлар таъминланиши зарур:

1.Ўқув режа ва дастурларни мувофиқлаштириш:

- График ва мутахассислик фанларининг мавзулари, мақсадлари, вазифалари ўзаро мувофиқлаштирилган бўлиши керак
- Умумий компетенциялар ва натижаларга йўналтирилган таълим стратегияси ишлаб чиқилиши лозим.

2.Ўқитувчилар ўртасида ҳамокорлик:

- График фанлар ва мутахассислик фанлари ўқитувчилари ўртасида доимий ҳамкорлик алоқалари ўрнатилиши;
- Умумий лойиҳалар ва интегратив дарс ишланмалари яратилиши

3.Ўқув жараёнида фойдаланиладиган дастурий воситалар:

- Замонавий график дастурлар(AutoCAD, Revit,SolidWorks) ва мутахассисликка оид дастурий воситалар;
- Компьютер синфлариб мультимедиали кабинетлар лойиҳа ва конструкция ишларини амалга ошириш учун шароитлар.

4.Фаол таълим методларидан фойдаланиш:

- Лойиҳа методи, жамоавий иш, таҳлил ва муҳокама каби усуллардан самарали фойдаланиш;
- Талабаларнинг мустақил ишларини рағбатлантириш.

5.Рефлекция ва баҳолаш тизими:

- Интегратив таълим жараёнида талабаларнинг натижаларини баҳолашда комплекс ёндашув: назарий билим, амалий кўникма, ижодий ечим.
- Юқорида келтирилганлар асосида қуйидаги имкониятларга эришилади: талабалар соҳани ўрганишда график фанларни аҳамиятини тушунишади;
- фанлараро боғлиқлик вужудга келадики, бунда рақобатбардош кадр тайёрлашдаги ягона мақсад, фанлар аро бир бирини тўлдириш орқали амалга оширилади;
- Revit, AutoCAD electrical ва ҳ.к каби замонавий график дастурларни ўрганиш амалга оширилади;
- график фанларда чизма нуқтаи назаридан тушунтирилган амалий топшириқ мутаҳассислик фанларида, унинг ишлаш принципи, конструкциясини ва ҳ.к ўргатиш билан давом эттирилади, бу талабага ўз соҳасини янада чуқур ўрганиш имкониятини беради;
- ўқув жараёнида амалий топшириқни модели, замонавий график дастурлар ёрдамида лойиҳаланади. Мутаҳассислик фанларида бу моделни қайта ишлаш, таҳрирлаш имконияти мавжуд бўлади;
- талабаларда соҳа йўналишида ижодий фаолият олиб бориш, ўз устида ишлаш бўйича янада кўпроқ натижаларга эришиш имконияти пайдо бўлади.

Мутахассислик ва график фанларни ўзаро боғлаш. График фанлар ҳар бир йўналишда ўзига хос ҳолатда мутаҳассислик фанлари билан боғланиши талабанинг касбий компетенцияларини ривожлантиришда асосий ўрин тутади.

Бу жараён келажакда бўлажак мутаҳассиснинг ишга жойлашувидаги рақобатга бош бериш даражасини оширади. Чунки талаба замонавий график дастурлар асосида график фанларни мутахассислик фанларига тадбиқ қила олса ўқитиш жараёнини самарадорлиги юқори бўлишига асос бўлади.

Масалан “Қишлоқ хўжалигини механизациялаш” йўналишида график ва мутахассислик фанларини интеграцияси 1-расмда келтирилган.

Ушбу шаклда келтирилган график ва мутахасислик фанларини ўзаро интеграция қилиш мумкин. Улар қуйидаги жадвалда келтирилган. 1-жадвал.

1-жадвал. график фанлар ва фанлар таркибидаги мавзуларнинг интеграцияси

Фанлар номи	**Фанни асосий вазифаси**	**Қайси фан билан интеграцияси**	**Қайси мавзудаги интеграция**
Муҳандислик ва компьютер графикаси	Муҳандислик ва чизма геометриянинг	Компьютер графикаси	1. Йигма бирликларни лойиҳалаш,

	назарий қонунлари ва амалий масалаларини тушунтириш		2. Аксонометрик проекциялаш, 3. Қирқимлар ва кесимлар, 4. Мураккаб деталларни лойиҳалаш 5. Котлован ва майдонча иш чизмасини бажариш
Компьютер графикаси	Амалий масалаларни компьютерда лойиҳалаш	Муҳандислик ва компьютер графикаси	1. Стандартлар, Чизма геометрия қоидалари 2. Сиртларнинг проекцион текислик билан кесишуви 3. Сонлар билан берилган проекциялаш
Архитектура элементларини лойиҳалаш Тириш	Бино иншоотларини график дастурлардан фойдаланиб 2D ва 3D моделлаштириш	Муҳандислик графикаси ва компьютерли конструкция-лаш	1. Массивлар, Бир хил элементларни кўпайтиришни лойиҳалаш 2. Қиррали ва айланиш сиртларини 3D моделлаштириш
Муҳандислик графикаси ва компьютерли конструкция-лаш	Муҳандислик масалаларини компьютерли конструкцияла-рини моделлашти-риш	Архитектура элементлари-ни лойиҳа-лаштириш	1. Ажраладиган ва ажралмайдиган бирикмалар 2. Массивлар, массив элекментларини лойиҳалаш

Ушбу жадвални яна давом эттириш мумкин. Ушбу таҳлиллар асосида ҳар бир график фан бошқа график фан билан муайян мавзуларда интеграция қилиниши натижасида талабаларнинг мавжуд билимларни қайта ёдга олиш орқали фанга нисбатан қизиқишлари ошиши, катта ҳажмдаги маълумотни тезроқ ва тушунарлироқ тарзда етказиш имконияти мавжудлигини кўришимиз мумкин.

Қуйида эса график фанлар билан мутахассислик (Гидротехника қурилиши, Назарий механика, Электроэнергетика ва технологик жараёнларни автоматлаштириш ва бошқариш) йўналишларида ўқитиладиган

фанларнинг ўзаро боғлик мавзуларда интеграцион ёндашувни амалга ошириш жадваллари келтирилган. 2- жадвал

Фанлар номи	**Фанни асосий вазифаси**	**Қайси фан билан интеграцияси**	**Қайси мавзудаги интеграция**
Муҳандислик ва компьютер графикаси	Муҳандислик ва чизма геометриянинг назарий қонунлари ва амалий масалаларини тушунтириш	Гидротехника иншоотлари	1.Йигма бирликларни лойиҳалаш, 2.Аксонометрик проекциялаш, 3.Қирқимлар ва кесимлар, 4.Мураккаб деталларни лойиҳалаш 5. Котлован ва майдонча иш чизмасини бажариш
Компьютер графикаси	Амалий масалаларни компьютерда лойиҳалаш	Гидротехника иншоотларида рақамли технологиялар	1.Стандартлар, Чизма геометрия қоидалари 2.Сиртларнинг проекцион текислик билан кесишуви 3.Сонлар билан берилган проекциялаш
Муҳандислик графикаси ва компьютерли конструкция-лаш	Бино иншоотларини график дастурлардан фойдаланиб 2D ва 3D моделлаштириш	Инженерлик конструкцияси	3. Массивлар, Бир хил элементларни кўпайтиришни лойиҳалаш 4. Қиррали ва айланиш сиртларини 3D моделлаштириш
Компьютер графикаси			

Қуйидаги жадвалларда “Гидротехника қурилиши”, “Гидротехника иншоотлари ва насос станцияларидан фойдаланиш” йўналишларида Гидротехника иншоотлари I мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг Муҳандислик ва компьютер графикаси фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграцияси қилиш жараёни келтирилган.

Мутаҳассислик фани	**График фан**
Гидротехника иншоотлари I	Муҳандислик ва компьютер графикаси фани
Фанларнинг интеграция қилинадиган мавзулари	
Канал. Канал турлари. Канал гидротехник иншоотини лойиҳалаш ва сифат кўрсаткичларини аниқлаш	Гидротехник иншооти каналнi Revit график дастурида лойиҳалаш
Дамба. Дамба турлари. Дамбанинг бўйлама қирқимини бажариш	Дамба гидротехник иншоотини Revit график дастурида лойиҳалаш
Сув омбори. Сув омборини гидротехник лойиҳалаш	Сув омбори гидротехник иншоотини Revit график дастурида лойиҳалаш
Бино иншоотларини лойиҳалаш.	Бино иншоотларини Revit график дастурида лойиҳалаш
Лойиҳалашда ГОСТ талаблари. Уларни чизма талаблари асосида расмийлаштириш	Ўлчам қўйиш қоидалари. Ўлчамлар. Масштаблар

“Гидротехника қурилиши”, “Гидротехника иншоотлари ва насос станцияларидан фойдаланиш” йўналишларида “Гидротехника иншоотларида рақамли технологиялар” мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг Компьютер графикаси фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграцияси қилиш жараёни келтирилган.

Мутаҳассислик фани	**График фан**
“Гидротехника иншоотларида рақамли технологиялар”	Компьютер графикаси фани
Фанларнинг интеграция қилинадиган мавзулари	
Гидротехникада геоахборот тизимларидан фойдаланиш. Сув омбори мисолида	Сон белгили проекциялаш усуллари. Сон белгили проекциялашда ер сиртини даражалаш

Геоахборот тизимларида релъефларни ўрганиш	Сон белгили проекциялашда топографик сиртлар билан ишлаш
Геоахборот тизимида сув омбори учун қулай жойни танлаш	Сон белгили проекциялашда ер релъефи билан ишлашю Топографик сиртларни лойиҳалаш

“Гидротехника қурилиши”, “Гидротехника иншоотлари ва насос станцияларидан фойдаланиш” йўналишларида “Инженерлик конструкцияси” мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг “Архитектура элементларини лойиҳалаш” фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграцияси қилиш жараёни келтирилган.

Мутаҳассислик фани	**График фан**
“Инженерлик конструкцияси”	“Архитектура элементларини лойиҳалаш” фани
Фанларнинг интеграция қилинадиган мавзулари	
Қурилиш материаллари ва уларнинг турлари	Архитектурада қўлланиладиган тасвирлар ва элементлар
Затвор ларни ҳисоби	Дамба турлари. Дамбанинг лойиҳалаш босқичлари
Ферманинг ҳисоби том ёпқичлар	Бино иншоотларида том ёпқичлар ва уларнинг турлари

“Гидротехника қурилиши”, “Гидротехника иншоотлари ва насос станцияларидан фойдаланиш” йўналишларида “Назарий механика” мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграция қилиш жараёни келтирилган.

Назарий механика	**“Муҳандислик ва компьютер графикаси”**
Аркани лойиҳалаш. Арканинг ҳисоби	Аркани Revit замонавий график дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш
Кўприкни лойиҳалаш ва арка ҳисоби	Кўприкни Revit замонавий график дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш
Фермани лойиҳалаш ва болт ва гайка билан қотириш	Болтли бирикмани Revit замонавий график дастуридан лойиҳалаш
Том ёпмани ва ферма ҳисобини бажариш	Бино иншоотларини Revit замонавий график дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш
Поезд йўли ва ферма ҳисобини бажариш	Поезд йўлини Revit замонавий график дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш

Минора ва ферма хисоби	Минорани Revit замонавий график дастуридан фойдаланиб лойиҳалаш

“Технологик жараёнларни автоматлаштиришни бошқариш” йўналишларида “Автоматлаштиришнинг техник воситалари ва рақамли автоматика” мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграцияси қилиш жараёни келтирилган.

Мутаҳассислик фани	**График фан**
“Автоматлаштиришнинг техник воситалари ва рақамли автоматика”	“Муҳандислик ва компьютер графикаси”
Фанларнинг интеграция қилинадиган мавзулари	
Бошқариш станциясининг принципиал электр бошқарув схемасини ўрганиш	Электр схема турлари. Электр схемада белгилашларни ўрганиш
Ташки таъсирлар бўйича автоматик ростлаш схемаси	Ташки таъсирлар бўйича автоматик ростлаш схемасини AutoCAD electrical дастурида бажариш
Канал режимини сарф ва сатҳ бўйича автоматик ростлаш схемаси	Канал режимини сарф ва сатҳ бўйича автоматик ростлаш схемасини AutoCAD electrical дастурида бажариш
Вакуум қозони ёрдамида насосларни автоматик тўлдириш схемаси	Вакуум қозони ёрдамида насосларни автоматик тўлдириш схемасини AutoCAD electrical дастурида бажариш

“Қишлоқ хўжалиги машиналари” йўналишида “Қишлоқ хўжалиги мушиналари эксплутатцияси” мутахассислик фанида ўқитиладиган мавзуларнинг “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанида ўқитиладиган мавзулар билан ўзаро интеграцияси қилиш жараёни келтирилган.

Мутаҳассислик фани	**График фан**
“Қишлоқ хўжалиги машиналари”	“Муҳандислик ва компьютер графикаси”
Фанларнинг интеграция қилинадиган мавзулари	
Қишлоқ хўжалиги машиналарини график тасвирлашда гост талабларини бажариш	Ўлчам қўйиш қоидалари. Масштаблар. Шрифтлар. Гост талаблари
Қишлоқ хўжалиги машиналарини фронтал ва горизонтал кўринишини тасвирлаш	Кўринишлар. Берилган мураккаб деталнинг фронтал, горизонтал ва профилини куриш
Қишлоқ хўжалиги машиналари конструкцияси ва тузилиши	Деталга фронтал ва профил қирқим бериш

Қишлоқ хўжалиги машиналаридан комбайнни график тасвирлаш	Комбайнларни конструкцияси. Revit дастурида лойиҳалаш
Қишлоқ хўжалиги машиналари элементларини график тасвирлаш	Болтли бирикмаларни лойиҳалаш

Ушбу жадвалларда келтирилган мавзулар мутахасссислик йўналиши бўйича График фанларнинг ўқув дастурларига киритиб мутахассислик ва график фанларни интеграция қилиш асосида аввало график фанларни соҳа йўналишлари бўйича аҳамиятини оширишга, бундан ташқари график фанларни соҳалар бўйича амалий масалаларни бажариш билан ўзаро боғлиқлигини ривожлантиришга қаратилади. Бу орқали график фанларни техника олий таълим муассасаларида ўқитиш ва бўлажак мутаҳассисларга ушбу фанларни ўрганиш натижасида иш берувчи ва мутаҳассис ўртасидаги бугунги кундаги кўплаб маммоларга ечим топиш мумкинлигини назарда тутади. Буларни қуйидагича келтиришимиз мумкин:

1. “Мухандислик ва компьютер графикаси” ва “Компьютер графикаси” фанларини “Қишлоқ хўжалиги машиналари” фани билан интеграция қилиш мумкин. Масалан: “Мухандислик ва компьютер графикаси” фани таркибидаги “Кўринишлар. Деталнинг иккита кўринишига қараб учинчисини топиш” мавзусини ““Қишлоқ хўжалиги машиналари”” фанидаги “Қишлоқ хўжалиги машиналарининг тузилиши схемаси” мавзуси ҳамда “Компьютер графикаси” фанидаги “Мураккаб деталларни Revit дастурида лойиҳалаш” мавзуси билан интеграция қилиш мумкин.



3-расм. “Қишлоқ хўжалигини механизациялаш” йўналишида график ва мутахассислик фанларини интеграциясини ифодаловчи шакл

2. Муҳандислик ва компьютер графикаси, компьютер графикаси фанларини “Трактор ва автомобиллар” фани билан интеграция қилиш мумкин. Масалан “Мухандислик ва компьютер графикаси” фани таркибидаги “Ажраладиган ва ажралмайдиган бирикмалар. Болтли бирикмалар” мавзусини “Компьютер графикаси” фанидаги “Болтли бирикмаларни лойиҳалаш” мавзуси ҳамда “Қишлоқ хўжалиги машиналари” фанидаги “Комбайнни тузилиши ва ишлаш принципи” мавзуси билан интеграция қилиш мумкин. 2-расм.

3. “Муҳандислик графикаси ва компьютерли конструкциялаш”, “Компьютер графикаси” фанларини “Трактор ва автомобиллар” фани билан интеграция қилиш мумкин. Масалан “Мухандислик ва компьютер графикаси” фани таркибидаги “Кўринишлар. Фронтал, горизонтал ва профил кўринишлар” мавзусини “Компьютер графикаси” фанидаги “Ажралмайдиган бирикмалар. Пайвандланган бирикмалар” мавзуси ҳамда “Трактор ва автомобиллар” фанидаги “Тракторларни тузилиши ва ишлаш принципи” мавзуси билан интеграция қилиш мумкин.

4. “Мухандислик ва компьютер графикаси” ва “Компьютер графикаси” фанларини “Трактор ва автомобиллар” фани билан интеграция қилиш мумкин. Масалан “Мухандислик ва компьютер графикаси” фани таркибидаги “Тракторни кўринишлари. Фронтал ва горизонтал кўриниши” мавзусини “Компьютер графикаси” фанидаги “Тракторларнинг кўринишларига қирқим бериш” мавзуси ҳамда “Қишлоқ хўжалиги машиналари” фанидаги “Комбайнни тузилиши ва ишлаш принципи” мавзуси билан интеграция қилиш мумкин.

5. “Муҳандислик ва компьютер графикаси” ва “Компьютер графикаси” фанларини “Трактор ва автомобиллар” фани билан интеграция қилиш мумкин. Масалан “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фани таркибидаги “Чизма стандартлари.

Масштаб. Ўлчам қўйиш қоидалари” мавзусини “Компьютер графикаси” фанидаги “Revit дастурида чизиш, ўлчам қўйиш буйруқлар билан танишиш” мавзуси ҳамда “Қишлоқ хўжалиги машиналари” фанидаги “Қишлоқ хўжалиги машиналарининг тузилиши ва ишлаш принципи. Стандартлар билан танишиш” мавзуси билан интеграция қилиш мумкин.

Бунда “Муҳандислик ва компьютер графикаси” фанида “” мавзусини аввало чизма чизиш жараёнини назарий тушунчаларини ўрганиши “Компьютер графикаси” фанидан фойдаланиб Revit дастурида икки ва уч

ўлчамли лойиҳалаш ҳамда “Автомобилларни лойиҳалаш” фанидан фойдаланиб автомобилларни лойиҳалашни ўрганиш мумкин.

Юқоридаги интеграция жараёнлари график фанларни ўқитиш жараёнида, мутаҳассислик фанларининг амалий масалаларини чизма нуқтаи назаридан ўрганиш ва уни замонавий график дастурларда чизиш имкониятларини ўзлаштириш бўлажак мутаҳассисларга ўз соҳасини чуқур ўзалаштириш имкониятини янада оширади. Сабаби талабаларга график фанлар 1-2 курсларда ўқитилади. Шу вақтда уларга график ва мутаҳассислик фанлари интеграцион ёндашув асосида ўқитилиб, амалий масалалар чизма нуқтаи назаридан график дастурларда таҳлил қилиниб, чизиш ўргатилса, 3-4 курсларга бориб, талабалар мутаҳассислик фанларида ушбу амалий масалани ишлаш принципи, конструкцияси ҳақида билимларга эга бўлишади. Талабаларни график фанларда олган билимлари энди ҳақиқий ижодий ишга айланади. Натижада улар амалий масалани чизмасини тушунади, фазовий тасаввур эта олади. График дастурда моделини чиза олади, мутаҳассислик фанларига борганда эса унинг конструкцияси, ишлаш принципи ва бошқалар тўғрисида билимларини ривожлантиради. Пировард натижада билимни мақсадли олиш шаклланади. Олинган билимлар тўлдирилади ва мустаҳкамлаш амалга оширилади. Бу эса график ва муутаҳассилик фанларини ўзаро боғлиқлигини кўрсатиб натижадорлигини таъминлаб беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. И.А.Башкатов Интеграция специальных дисциплин (рисунка, скульптуры и пластической анатомии) в процессе художественно-педагогического образования. Док.пед.наук. Омск 2018 г. 286 с
2. М.Е.Кирягина. Некоторые аспекты преподавания графических дисциплин в профильной школе технического вуза. Перспективы Науки и Образования. – № 1. – 2024. – С. 72-85.
3. А.И.Редин преподавание графических и специализированных дисциплин на основе комплексного подхода. Перспективы Науки и Образования. – № 1. – 2023. – С. 46-56.
4. Легкова, И.А. Влияние использования информационных технологий на графическую подготовку обучающихся /
5. И.А. Легкова, С.А. Никитина / Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире: материалы XI международной научно-практической конференции. – С.-Петербург, 2015. – №12-3. – С. 109-112

6. Овтов, В.А. Использование САПР как инструмента при формировании инженерно-графических компетенций студентов технических специальностей / В.А. Овтов. – МНКО, 2019. – № 5 (78). – С. 30-32
7. Филимонова, М.Ю. Проектирование системы обучения инженерной графике с использованием новых информационных технологий (на примере подготовки инженеров-нефтяников: диссертация… канд.пед.наук: 13.00.08 /.

ETNOMADANIY TURIZMDA GENEALOGIK VA NOSTALGIK AN'ANALARNING O'RNI

A. R. Kayumov
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
https://orcid.org//0009-0009-8660-748X
X.J.Ismoilova
Turizmni rivojlantirish
ilmiy-tadqiqot instituti
https://orcid.org/0009-0007-3738-6196
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815377

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tarixiy va antropologik materiallar asosida o'zbek jamiyatida genealogik o'zlikning tiklanishi, uning tarixiy ildizlari, genealogik va nostalgiya turizmi haqida ma'lumotlar berilgan. Mualliflar Farg'ona viloyati misolida O'zbekistonda nisbatan yangi yo'nalish – genealogik va nostalgiya turizmini yo'lga qo'yish va rivojlantirish istiqbollari haqida o'z fikr-mulohazalarini tarixiy, etnografik va dala materiallari asosida yoritib bergan.

KALIT SO'ZLAR

O'zbekiston, Farg'ona vodiysi, genealogiya, oila shajarasi, genealogik turizm, nostalgiya, ajdodlar xotirasi.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена информация о восстановлении генеалогической идентичности в узбекском обществе, ее исторических корнях, а также генеалогическом и ностальгическом туризме на основе исторических и антропологических материалов. Авторы на примере Ферганской области высказали свое мнение о перспективах становления и развития относительно нового направления в Узбекистане – генеалогического и ностальгического туризма, основанного на

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Узбекистан, Ферганская долина, генеалогия, семейное древо, генеалогический туризм, ностальгия, память предков.

исторических, этнографических и полевых материалах.

ABSTRACT

This article provides information on the restoration of genealogical identity in Uzbek society, its historical roots, and genealogical and nostalgic tourism based on historical and anthropological materials. The authors, using the example of the Fergana region, express their views on the prospects for establishing and developing a relatively new direction in Uzbekistan - genealogical and nostalgic tourism, based on historical, ethnographic, and field materials.

KEY WORDS

Uzbekistan, Fergana valley, genealogy, family tree, genealogical tourism, nostalgia, ancestral memory.

GENEALOGIK TURIZM.

XX asrning oxirlaridan postsovet maydonida milliy, etnik, diniy, hududiy identiklikning uyg‘onishi bilan jamoaviy va shaxsiy o‘zlikni anglash hissi shakllana boshladi. Xususan, o‘zbek jamiyati ijtimoiy-madaniy hayotida ham aynan bu davrda o‘zlikni anglash, ajdodlari kimligini bilishga qiziqish, o‘zliklarning tarixiy, madaniy, genetik ildizlarini izlashga intilish yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Albatta, ajdodlar haqidagi ma’lumotlar bir qancha avlodlar ichida o‘z o‘rnini izlash, shaxsga o‘zining yo‘qolgan o‘zligini tiklashga, “Men kimman? Mening ildizlarim qaerda? kabi savollarga javob olishga yordam beradi.

O‘zbek jamiyatida ijtimoiy-diniy tabaqalar, hukmron va mulkdorlar hamda etnik jamoalarda uzoq tarixiy davrlar mobaynida o‘z sulolasi, urug‘i shajaralarini yozma yoki og‘zaki tarzda saqlab qolishning o‘ziga xos an’anasi mavjud bo‘lgan. Bu holat ayniqsa, turkiy xalqlar uchun o‘ziga xos fenomenal hodisa bo‘lib, yozma manbalarda, tarixiy hujjatlarda aks etgan hamda folklor namunalarida, afsona va rivoyatlarda saqlanib qolgan. Bu kabi genealogik meros hamisha turli o‘zliklarni namoyon etish omili bo‘lgan.

O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo hududlarida tarixan shakllangan etnoijtimoiy manzara – shajaraga oid turli genealogik rivoyatlarni, tarixiy manbalarni, folklor materiallarni, og‘zaki tarixni o‘rganish asosida yanada oydinlashadi. Masalan, o‘zbek oilalarida yetti ota ajdodini bilish an’anasi yaxshi saqlanib qolgan. Aynan mana shu omil oila qadriyatlarini, o‘zi mansub bo‘lgan xalq, elat an’analarini saqlanib qolishiga va provardida turli-tuman o‘ziga xosliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy genetik ildiz va ajdodlarga mansublik

g‘oyalari, o‘ziga xos genealogik rivoyatlar va nasl-nasab tizimi turli tarixiy davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, genealogik o‘zlik masalasini o‘rganishda nafaqat etnik omil, balki diniy-ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, muayyan izlari bugungi kungacha saqlanib qolgan va tarixiy o‘zaklariga tayanib ma’lum darajada tiklanib borayotgan o‘zliklar – etnik, diniy, sulolaviy, kasbiy, ijtimoiy, hududiy va boshqa o‘zlik ko‘rinishlaridan kelib chiqib, etnik, diniy va ijtimoiy-sakral sulolalar bilan bog‘liq o‘zliklar yaqqol ajralib turadi. Bugungi kunda aynan mana shu omillar oila qadriyatlarini, o‘zi mansub bo‘lgan xalq, elat an’analarini saqlanib qolishiga, va provardida turli tuman o‘ziga xosliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy genetik ildiz va ajdodlarga mansublik g‘oyalari, o‘ziga xos genealogik rivoyatlar va nasl-nasab tizimi jamoaviy o‘ziga xosliklarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda milliy, etnik, ijtimoiy va diniy o‘zliklarning tiklanishi fonida genealogik identiklik, shajaraga doir xotiralar tiklana boshladi. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarda ajdodlar ildizi, moddiy va madaniy merosi, qondosh jamoalarining tarixiy taqdiri bilan qiziqish, uni o‘rganish, qondoshlar bilan topishish, ajdodlari yashagan yurtni borib qo‘rish istagi paydo bo‘la boshladi. Hatto taqdir taqozosi bilan tug‘ilgan joyidan ayro, uzoq xorijiy yurtlarga ketgan ko‘plab Vatandoshlarimiz o‘z qondoshlari, ota-bobolari yurtlariga tashrif buyurib, qon-qarindoshlari bilan topishga harakat qilishi bu sayyohlikning yangi yo‘nalishi – genealogik turizmning rivojlanishiga olib keldi.

Turizmning ajdodlari xotirasini o‘rganishga qiziqgan sayyohlardan tashkil topgan segmenti – genealogik yoki ildiz turizmi deb ataladi. Bu nasl -nasab sayyohlari o‘z o‘tmishlari bilan bog‘lanish va “ota-bobolari izidan yurish” uchun ajdodlari yurtiga sayohat qilishadi [Feng, K., & Page, S. 2000].

Genealogik turizm rivojlanayotgan soha bo‘lasa-da, tarixda bir muncha vaqt ommaviy emmigrasiyani boshidan kechirgan va shuning uchun butun dunyo bo‘ylab katta diaspora hamjamiyatiga ega bo‘lgan mamlakatlarda ko‘proq mashhur bo‘lgan. Genealogik turizm ayniqsa Irlandiyada mashhur bo‘ldi. Qayd etilgan nasl-nasab turizmi bo‘yicha 2000-yilda orolga 116 000 shajara sayyohlari tashrif buyurishi bilan eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. 2009 yilda Shotlandiyada nasl-nasabi bo‘yicha sayyohlarni jalb qilish uchun “uyga qaytish” festivali o‘tkazilgan.

1976 yilda Aleks Xeylining “Ildizlar: Amerika oilasining dostoni” nomli eng ko‘p sotilgan kitobi nashr etilgandan so‘ng, ko‘plab afro-amerikaliklar va Amerikadagi boshqa afrikalik diasporalar o‘zlarining an’anaviy Afrika vatanlariga sayohat qilishga intildilar. Genealogiya sayyohlari ko‘pincha ota-bobolarining nasl-nasabini kuzatishda ishtirok etadilar; tarixiy yozuvlarga raqamli kirish, shuningdek,

so‘nggi yillarda DNK tadqiqotlari ko‘payib borayotgani odamlarga ota-bobolarining vatanlarini aniqlash imkonini berdi.

Oila, sulolalar va ularning genealogik o‘zligi masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish ayniqsa, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarning ilmiy markazlarida ancha rivojlangan va qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Buyuk Britaniyaning Qirolicha Meri Universitetida Katrin Nesh rahbarligida genealogik identiklik, irlandiyaliklarning kelib chiqishi, nasabnomalari, identikligi borasida tadqiqotlar olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlarda Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya va Qo‘shma Shtatlardagi Yevropaliklar va ko‘pincha irlandlarda genealogik identikligining saqlanib qolishi masalasi o‘rganilgan. Shu bilan birgalikda o‘tgan asrning 90-yillaridan oila nasabnomalarini o‘rganishda irsiyat fani – genetika ham kirib keldi. Bu fan yo‘nalishida hozirgi davrdagi turli xalqlarning o‘tmishdagi o‘zaro genetik bog‘liqligi masalasi, avlodlar va ajdodlar o‘rtasidagi shajara zanjirini tiklashda DNK molekulalaridan oilaviy tarix hujjatlari sifatida foydalanish tajribalari qo‘llanilmoqda. Bu o‘z-o‘zini identifikasiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, uning yordami bilan nasabnomaning yetishmayotgan ba’zi sahifalarini, hattoki, yozma manbalar umuman bo‘lmagan davrlarga tegishli jihatlarini ham tiklash imkoniyatlari kengayaadi [Nash C. 2002, 2017, Gilroy P. 1991, Зуев Ю.А. 1967, 1981, Исмагулов О.И. 1977, Алпысбесулы М. 1999].

Markaziy Osiyo xalqlarida ijtimoiy-diniy tabaqalar, hukmron va mulkdorlar hamda etnik jamoalarda uzoq tarixiy davrlar mobaynida o‘z sulolasi, urug‘i shajaralarini yozma yoki og‘zaki tarzda saqlab qolishning o‘ziga xos an’anasi mavjud bo‘lgan. Bu holat ayniqsa, turkiy xalqlar uchun o‘ziga xos fenomenal hodisa bo‘lib, yozma manbalarda, tarixiy hujjatlarda aks etgan hamda folklor namunalarida, afsona va rivoyatlarda saqlanib qolgan. Bu kabi genealogik meros hamisha turli o‘zliklarni namoyon etish omili bo‘lgan. Ayniqsa, XX asrning boshlariga qadar o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va qoraqalpoqlarning rang-barang ijtimoiy stratifikasiyasi va urug‘chilik tizimi fonida rivojlangan genealogik identiklik masalasi kam o‘rganilgan muammolardan biridir.

O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo hududlarida tarixan shakllangan etnoijtimoiy manzara – shajaraga oid turli genealogik rivoyatlarni, tarixiy manbalarni, folklor materiallarni, og‘zaki tarixni o‘rganish asosida yanada oydinlashadi. Masalan, o‘zbek oilalarida yetti ota ajdodini bilish an’anasi yaxshi saqlanib qolgan. Aynan mana shu omil oila qadriyatlarini, o‘zi mansub bo‘lgan xalq, elat an’analarini saqlanib qolishiga va provardida turli-tuman o‘ziga xosliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy genetik ildiz va ajdodlarga mansublik

g‘oyalari, o‘ziga xos genealogik rivoyatlar va nasl-nasab tizimi turli tarixiy davrlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘zbekistonda o‘zbeklarning urug‘chilik tizimi, “92 bovli” o‘zbek urug‘lari, etnotoponimlar etnik tarix va etnogenez kontekstida hamda diniy sakral oila vakillari, hukmdorlar, taniqli ma’riftparvarlarning faoliyati va shajaralari ma’lum darajada o‘rganilgan. Ammo hozirgi kungacha yozma va og‘zaki tarzda saqlanib kelayotgan genealogik merosni o‘rganilishini yetarli deb bo‘lmaydi. Aslida genalogiya va identiklik kabi bu ikki yo‘nalish uyg‘unligi asosida turli o‘zliklarning tarixiy ildizlari, vorisiyligi hamda o‘zlikni anglashdagi ta’sirini yanada chuqurroq o‘rganish mumkin [Zerubavel E. 2011].

Genealogik tadqiqotlar asosida insonlarning "kimligi" va "qaerdan kelganligi"ni aniq bilishga bo‘lgan izlanish asosida iloji boricha shajara zanjirining boshida turgan ajdodlarining etnik mansubligi va ijtimoiy mavqeiga aniqlik kiritiladi. Genealogiya nasl-nasab zanjiri bilan bog‘langan “oila daraxti” ya’ni, aniq va oldindan belgilangan jamoaviy o‘ziga xoslikni ham ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, u “haqiqiy” identifikasiyani ya’ni, bir familiya, urug‘ yoki etnik kelib chiqishning birligi bilan oila daraxti diapazonini, uning tarixiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarini tahlil qiladi.

Professor Katrin Nash yozganidek, “genealogiya – bu o‘z-o‘zini tasavvur qilish va shaxsiy o‘ziga xoslik haqidagi haqiqat kafolatlarini birlashtiradigan amaliyotdir. Shajaralar va oila daraxtlari esa genlar, genetika, nasl-nasab, etnik kelib chiqishi haqidagi ilmiy va ommabop fikrlar o‘zaro ta’sirining ramziy diagrammasidir” [Nash, C. 2002]. Oila nasabnomasi bir xil familiya va qondoshlikka ega bo‘lgan odamlardan iborat bo‘lib, odamning onalik nasliga emas, balki umumiy erkak ajdoddan erkak avlodlarga tutashuvchi genetik bog‘lamlar bo‘lib, uni erkak va ayolning barcha avlodlarini o‘z ichiga olgan umumiy qondoshlik diagrammasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. [Terrick, V. H. Fitzhugh. 1988].

Oila yoki urug‘ shajaralarini o‘rganishda birinchi navbatda tadqiqotchi uchun yozma manbalar bilan birgalikda etnografik materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta o‘rganilishi maqsad qilingan oila yoki urug‘ genealogiyasini tuzishda shu oila yoki urug‘ vakillari bilan chuqurlashtirilgan intervyu olish ya’ni, ularning kelib chiqishi, o‘zini anglashi, ajdodlari haqidagi og‘zaki ma’lumotlar yozib olinadi. Ularning shajara daraxti tuziladi. Axborotchilar qanchalik ajdodlari haqidagi shajaralar va ularning kelib chiqishi borasidagi artefaktlar, moddiy ashyolar, rivoyatlarni keltira olsa tarixiy-madaniy bog‘liqlikni aniqlash imkoniyatlari shunchalik ko‘proq bo‘ladi.

O‘zbeklarda lokal-hududiy birliklar, urug‘-aymoq (avlod, to‘p, urug‘)lar kabi turli o‘zliklardan iborat ijtimoiy-madaniy tuzilmalar hamda ularda bir tarixiy makon

va zamonda umumiy madaniy birlik negizidagi turli o‘zliklarning namoyon bo‘lishi omili bo‘lgan oila shajaralari va urug‘larga bo‘linish tizimi saqlanib qolgan.

O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo hududlarida tarixan shakllangan bu kabi etnoijtimoiy manzara turli shajaraga oid genealogik rivoyatlarni, tarixiy manbalarni, folklor materiallarni, og‘zaki tarixni shakllanishiga sabab bo‘lgan. Masalan, o‘zbek oilalarida yetti otasini, ajdodini bilish an’anasi yaxshi saqlanib qolgan. Aynan mana shu omil oila qadriyatlarini, o‘zi mansub bo‘lgan xalq, elat an’analarini saqlanib qolishiga va provardida turli tuman o‘ziga xosliklarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Tarixiy genetik ildiz va ajdodlarga mansublik g‘oyalari, o‘ziga xos genealogik rivoyatlar va nasl-nasab tizimi jamoaviy o‘ziga xosliklarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan.

Oila va urug‘ shajaralarini xon avlodlariga yoki shunga o‘xshash hukmron sulola avlodlari bilan bog‘lash, mashhur turkiy xalqlar etnonimlari bilan bog‘lash, lokal joy nomlari bilan bog‘lash, diniy silsilalar bilan bog‘lash bularning barchasi sulolaviy yoki urug‘chilik asosida o‘zlikni anglashga olib kelgan.

Shajaraga oid meros va ajdodlar haqidagi xotiraning tiklanishi, xorijdagi o‘zbeklar va umuman vatandoshlarning ota-bobolari tug‘ilib o‘sgan yurt, qarindoshlarini topish va farzandlariga tanishtirish maqsadida O‘zbekistonga tashrif buyurishi genealogik turizmning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

Farg‘ona vodiysi – qadimiy madaniyat, savdo yo‘llari va millatlar aralashgan tarixiy hudud bo‘lgani sababli, genealogik turizm uchun juda muhim maskanlardan biridir. Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Turkiya, Rossiya, AQSh va hatto Yevropa mamlakatlaridan o‘z ajdodlarining ildizlari aynan shu hudud bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun tashrif buyurgan ko‘plab sayohatchilar borligini ta’kidlab o‘tishimiz joiz.

Farg‘ona vodiysida genealogik turizmni shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

-Oilaviy ajdodlar izidan sayohat;

Ko‘plab o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va tojik oilalari ajdodlari haqida bilish maqsadida vodiyning turli shaharlariga sayohat qilishadi. Masalan, Qo‘qon va Marg‘ilon qadimdan hunarmandchilik va savdogarlik markazi bo‘lib, bu yerdan ko‘plab oilalar boshqa hududlarga tarqalgan.

-Qadimiy ziyoratgoh, muqaddas qadamjo va qabristonlarni ziyorat qilish;

Qo‘qon va Marg‘ilonda ko‘p asrlik musulmonlar qabristonlari mavjud bo‘lib, ko‘pchilik o‘z ajdodlarining dafn etilgan joylarini qidirish uchun keladi. Xususan, Qo‘qondagi Modarihon maqbarasi va boshqa ziyoratgohlar genealogik tadqiqotlar uchun muhim manbalardan biridir.

-Qo‘qon xonligi tarixi bilan bog‘liq sayohatlar;

Qo‘qon xonligi davrida ko‘plab sulolalar bu yerda yashagan va bugungi kunda ba’zi kishilar o‘z xonlik davridagi ajdodlarini aniqlash uchun sayohat qilishadi. Xudoyorxon saroyi va Qo‘qondagi tarixiy arxivlar ajdodlari haqida ma’lumot topmoqchi bo‘lganlar uchun qiziqarli manbalar bo‘lishi mumkin.

-Mahalliy arxivlar va hujjatlar bilan ishlash;

Andijon, Farg‘ona va Qo‘qonda viloyat arxivlari mavjud bo‘lib, ular orqali oilaviy tarixga oid eski hujjatlarni topish mumkin. Ayniqsa, Sovet davrida olib borilgan ro‘yxatlar va eski hujjatlar orqali ajdodlar tarixi haqida ko‘plab ma’lumot olish mumkin.

-Etnik kelib chiqishni aniqlash;

Farg‘ona vodiysi turli xalqlar aralashib yashagan hudud bo‘lganligi sababli, o‘zbek, qirg‘iz, tojik, tatar, rus, turk va boshqa millat vakillari ajdodlarining kelib chiqishini aniqlash uchun shu yerlarga sayohat qilishadi. Masalan, turk, qrimtatar va boshqirdlarning Marg‘ilon va Qo‘qondagi jamoalari o‘z ildizlarini aniqlash maqsadida vodiyni ziyorat qilishadi.

-Eski masjidlar va madrasalar orqali ajdodlar izini topish;

Marg‘ilon va Qo‘qonda qadimiy masjid va madrasalar mavjud bo‘lib, ko‘pchilik o‘z ajdodlarining qaerda ilm olganini yoki qaerda yashaganini bilish uchun shu joylarga tashrif buyuradi. Masalan, Marg‘ilondagi Xo‘jaishoq Eshon masjidi yoki Qo‘qondagi Norbo‘tabiy madrasasi ajdodlari ilm olgan joylar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, Qo‘qonda qadimiy qo‘lyozmalar to‘plangan arxivlar mavjud, bu orqali ba’zi sulolalar va shaxslar tarixi o‘rganilishi mumkin.

Rossiya va Turkiyadan kelgan sayohatchilar o‘z bobolarining Farg‘ona vodiysidan kelganini aniqlash uchun maxsus sayohatlar uyushtirishadi. Shuningdek, Sovet davrida deportatsiya qilingan ko‘plab oilalar hozirda ajdodlari yashagan joylarni izlab Farg‘ona vodiysiga tashrif buyurishadi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi genealogik turizm uchun katta imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Ajdodlari bilan bog‘liq tarixiy joylarni izlash, o‘zlikni anglash, ota bobolari qabrlarini ziyorat qilish, mahalliy arxivlardan ma’lumot olish yoki oilaviy ildizlarini chuqurroq o‘rganish uchun bu mintaqa muhim manba hisoblanadi. Shu sababli, Farg‘ona vodiysining boy tarixi va madaniyati o‘z ajdodlarini izlayotgan sayohatchilar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

NOSTALGIYA TURIZMI.

Nostalgiya – bu turizm va meros tushunchalarining ajralmas qismi bo‘lib kelgan konsepsiyalardan biridir. Biroq, turizm va meros tushunchalari singari, nostalgiyaning mazmuni va u qanday qilib sayohatchilar motivasiyasiga ta’sir ko‘rsatishi haqidagi tushunchalar ham vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borgan. Muhimi,

nostalgiya tushunchasi doimo sayohat va turizm bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan [Anna Earl & C. Michael Hall. 2023].

Nostalgiyaning lingvistik talqini birinchi marta Hofer (1688) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u nemis-shveysariyalik “Heimweh” atamasini ishlatgan, bu esa ingliz tilida “vatanni sog‘inish” (homesickness) degan ma’noni anglatadi. Fransuz tilida esa “ maladie du pays” – “tug‘ilgan yurt kasalligi” degan ma’noda ishlatiladi. Yunon tilida esa “Nostos” uyga qaytishni, “algos” esa azob-uqubat degan ma’nolarni anglatadi. Nostalgiya so‘zi birinchi marta g‘arb mamlakatlarida paydo bo‘lgan va uni o‘zbek tiliga “qo‘msash”, “sog‘inish” deb tarjima qilish mumkin.

Biron bir destinasiya yoki ob’ektni sog‘inish va qo‘msash his-tuyg‘ulari bilan borib ko‘rish, sayohatni amalga oshirish natijasida turizmning yangi yo‘nalishlari shakllanmoqda. G‘arb mamlakatlarida bunday turizm turiga aniqlik kiritilgan bo‘lib, u “nostalgic tourism” (nostalgik turizm) deb ataladi. Bunda maqsadli turistik yo‘nalish sifatida turistlarning etnik yoki madaniy ildizlariga bog‘liq joylarga qaytishi nazarda tutiladi [Asadova, A. O. 2021].

Nostalgiya turizmi – insonlarni o‘tgan yillardagi xotiralar, bolalik va yoshlik davrlarini eslash maqsadida safarga chiqishga undaydigan turizm turi. Ushbu turizm asosan odamlarning shaxsiy tarixiga yoki madaniy nostaljiyaga asoslanadi. Nostalgiya turizmi shunchaki safar emas, balki o‘z tarixini his qilish va o‘tmish bilan bog‘lanishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Hozirgi kunda odamlar o‘tgan tajribalarni jonlantirish istagini aksariyat hollarda nostaljik hissiyotlar bilan izohlaydilar. Bu jarayon ko‘chib yurish yoki yangilik tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Harakatlilik va makon o‘zgarishi insonda erkinlik hissini berishi mumkin bo‘lsa, nostalji esa o‘tmishda yo‘qolgan tuyg‘ularni esga soladi. Bundan tashqari, nostalji faqat antiqa buyum yoki madaniy obidalarni ko‘rish emas, balki o‘tgan kunlarda yashab o‘tgan voqealarni eslashga intilishdir. Hattoki nostalgik turizmni etnik turizm bilan ham o‘xshatish mumkin. Masalan, kishilarning ota-onalari, bobolari va ajdodlari yashagan joylar tarixiga qiziqishi, qarindoshlari bilan uchrashishga intilishi haqiqiy nostalgiyadir.

Bu holat tarixiy jarayonlarda, ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin ya’ni ko‘plab insonlar o‘z yurtidan boshqa mamlakatlarga ko‘chirilganida, xizmat uchun boshqa hududlar va o‘lkalarga yuborilganlarida paydo bo‘lgan. Bugungi kunda nostalgik turizmning rivojlanishi nafaqat insonlar uchun bir sayohat balki, bu mahalliy turistik xizmatlarning o‘sishiga ham turtki beradi. L.I. Yegorenkov ham nostalgik turizm bu insonlarning tug‘ilib o‘sgan, yashagan, bolaligi o‘tgan, kelib chiqishiga aloqador bo‘lgan joylarni borib ko‘rish deya ta’riflagan [Егоренков Л. И. 2019].

Nostalgiya turizmi o‘zining jismoniy yoki ramziy shakllari orqali o‘tmishga sayohat qilish imkonini beradi. Restorativ nostaljiya – odamlarning o‘tmishni aynan qanday bo‘lsa, shunday eslashiga intilishi bilan bog‘liq. Masalan, vatanga qaytgan odam eski sinfdoshlari bilan uchrashishi yoki bolalik xotiralarini esga olishi m mkin. Ramziy nostalji esa yo‘qolgan yoki saqlanib qolgan tarixiy joylarni ziyorat qilish orqali ifodalanadi. Bu jarayonlar odamlarning shaxsiy yoki jamoaviy madaniy xotiralarini eslashga xizmat qiladi.

Nostalgiya turizmida odamlar o‘zlari ulg‘aygan shahar yoki qishloqlarga qaytib, eski maktablari, uy-joylari va sevimli joylarini ziyorat qilishadi. Masalan, nostalgiya meros turizmida tarixiy voqealar va ijtimoiy-madaniy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular sayohatchilarning tajribalariga hamda meros turizmi institutlariga ta’sir qilishi mumkin.

Nostalgiya madaniy turizm bilan ham bog‘liq, chunki u tarixiy o‘lchovlarga ega [Russell, D. W.(2008]. Nostaljik sayyohlar o‘z-o‘zini anglash istagi bilan harakat qiladigan maxsus auditoriya hisoblanadi, bu esa individual nostalgiya tajribasining ijobiy ta’siriga hissa qo‘shadi [Batcho, K. I. 2013].

Tadqiqotchilar nostaljik sayohatning ikki asosiy turini ajratib ko‘rsatishadi:

1. Haqiqiy nostaljik sayohatchilar – bu turdagi sayohatchilar o‘zlarining madaniy o‘tmish joylariga qaytib borish va o‘tmishdagi shaxsiy tajribalarni qayta boshdan kechirishni xohlashadi. Bunday holda, nostalgiya “o‘tmishga bo‘lgan sentimental yoki achchiq-shirin sog‘inch” sifatida namoyon bo‘ladi [Baker, S. M., & Kennedy, P. F. 1994].

2. Tarixiy nostaljik sayohatchilar – bu sayohatchilar o‘zlari ilgari bo‘lmagan joylarga tashrif buyurish orqali nostaljik tajribani his qilishadi. Ular madaniy va tarixiy ma’lumotlarni (masalan, filmlar, kitoblar, hikoyalar) bilish orqali nostaljiyaga berilishadi (Smith, M., & Campbell, G. 2017). Bundan tashqari, nostalgiya turizmi oilaviy yoki ajdodlar bilan bog‘liq xotiralarni jonlantirish maqsadida ham amalga oshiriladi, bu esa “ajdodlar turizmi” yoki “genealogik turizm” sifatida ham tanilgan [Higginbotham G. 2012].

Nostalgiya turizmida nastalgiya sayyohning shaxsiy identifikasiyasi va sayohat joyiga bo‘lgan aloqadorligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sayohat joyining o‘ziga xos tajribaviy qiymati turistning kelajakdagi tashrif niyatiga ta’sir qilishi mumkin. Bu jarayon turizm uchun ma’no yaratish tajribasini shakllantiradi va sayyohlarning nostaljik tajribalariga ta’sir qiladi [Schindler, R. M., & Holbrook, M. B. 2003].

Nostalgiya turizmining rivojlanish ahamiyati shundaki, u sayyohlarga o‘zining ildizlariga sayohatni amalga oshirishlari, individual va oilaviy turistik xizmatlar majmuini rivojlantirishga alohida imtiyozlar berish imkoniyatini yaratadi.

O‘tgan asrlarda yurtimizda insonlar yillar mobaynida turli sinovlar, nizolar, jiddiyliklar, qatag‘on va urush yillarida o‘z yashab turgan vatanlarini tashlab boshqa yurtlarga ketishga majbur bo‘lgan. Ularning avlodlari o‘sha joylarda bugungi kungacha yashab kelishmoqda. Ko‘plab odamlar o‘zlarining ajdodlari yashab o‘tgan, bolaligi o‘tgan yurtlarini borib ko‘rishni orzu qiladilar. Nostalgik turizmning rivojlanishi aynan shunday insonlar uchun imkoniyatlar yaratib berish, ular uchun kerakli maqsadli, xavfsiz kelib ketishlarini ta’minlash, turistik firmalar tomonidan aynan shunday vaziyatlar uchun maxsus turlarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Urushdan keyin mamlakatimizda 1 milliondan ortiq o‘z boshpanasini yo‘qotgan kishilar bo‘lsa, ulardan 200 ming nafari bolalardan iborat bo‘lgan. Mamlakatimizdan urushga ketganlar soni 1,5 milliondan ortiqni tashkil etgan. Urush yillarida ko‘plab hamyurtlarimiz boshqa mamlakatlarga ko‘chirilishi natijasida o‘z yurtidan ketishga majbur bo‘lishgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘z Vatanidan ko‘chirilgan va chet ellarga ketgan yurtdoshlarimizning aksariyati vatanga qaytib kelmagan. Urushning oqibatlari esa faqat mamlakatlarda hamkorlikning yo‘qligi deb emas, balki o‘sha paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy kelishmovchiliklar natijasi deb baholash mumkin [Asadova, A. O. 2021].

Mustaqillik yillarida o‘z yurtiga qaytib kelmagan yurtdoshlarimiz ko‘p bo‘lib, bu esa insonlar uchun nostalgiya turizmi yo‘nalishida turli dasturlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu orqali o‘z ajdodlari yurtini ko‘rish istagida bo‘lgan insonlar uchun sharoit yaratish mumkin bo‘ladi.

Birgina 2023 yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlarning asosiy qismini yosh jihatidan tahlil qilganimizda 31-55 yosh oralig‘idagi sayohatchilar tashkil etgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Respublikamizda tarixiy xususiyatga ega bo‘lgan hamda passiv turizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lgan mintaqalarda yangi turizm turlarini xususan, nostalgiya turizmini ham tashkil qilish mumkin.

Bunday vaziyatlarda nostalgik turizm rivojlanishi nafaqat turizm infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi, balki xalqaro munosabatlarning yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Mazkur turizmning obe’kti aniq bir narsa emas, balki mamlakatimizdagi har qanday joy, nom, tarixiy-madaniy manbalar, qadimiy urf-odatlar yoki unutilgan meroslar bo‘lishi mumkin.

FARG‘ONA VODIYSIDA NOSTALGIYA TURIZMI.

Farg‘ona vodiysi – O‘zbekistonning eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri bo‘lib, nostalgiya turizmi uchun ajoyib joy hisoblanadi. Ushbu mintaqada bolalik, yoshlik, tarix va madaniyat bilan bog‘liq ko‘plab joylar mavjud.

Farg‘ona vodiysida nostalgiya turizmining asosiy elementlari sifatida Qo‘qon, Marg‘ilon va Andijon shaharlarida eski mahallalar va bozorlar, Xudoyorxon saroyi va eski masjidlar o‘tgan davrda ham mashhur bo‘lgan va bugungi kunda nostaljik turizm uchun muhim nuqtalardan biridir. Marg‘ilon esa qadimdan ipakchilik markazi bo‘lib, an’anaviy usulda ipak matolarni ishlab chiqarish markazi sifatida ipak matosi bilan bog‘liq xotiralarini jonlantiradi. Qo‘qonda ilgari ishlagan tramvaylar ko‘plab kishilar uchun nostalgiyaga aylangan. Sobiq sovetlar davrida Andijon tramvay liniyasi bo‘lib, hozirgi kunda eski tramvaylarning fotosuratlari ham ko‘plab nostaljik xotiralarni uyg‘otadi.

Odamlar bugungi kunda ham bolalik yoki yoshlikda bo‘lgan joylariga qaytib, o‘sha davrlarni eslashadi. Masalan, Farg‘onadagi “Kimyogarlar madaniyat uyi” va Andijondagi eski kinoteatrlar ko‘pchilikning bolaligini eslatadi.

Farg‘ona vodiysi nostalgiya turizmi uchun boy manbalarga ega. Sanatoriyalar, tramvaylar, bozorlardagi ipak savdosi, transport va madaniyat maskanlari, Farg‘ona shahrining chinorlari, an’anaviy choyxonalar bugungi kunda ham ko‘plab odamlarning yoshlik va bolalik xotiralarini jonlantiradi. Shu sababli, vodiyning ushbu tarixiy jihatlari kelajakda ham nostalgiya turizmini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, turizm sohasidagi ulkan salohiyatdan samarali foydalangan holda, genealogik va nostaljiyaga asoslangan sayehlik yo‘nalishlarini xorijiy tajribalar asosida yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish O‘zbekistonning turizm salohiyatini yanada oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adie B. A., & Bernardi, C. (2023). Oh my god, what’s happening? Historic second-home communities and post-nostalgia. Journal of Heritage Tourism. https://doi.org/10.1080/1743873X.2020.1828429
2. Asadova, A. O. (2021). The Importance of Developing Nostalgic Tourism in Uzbekistan. 5th Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements, Hosted from Singapore, 10th May, 98–99-betlar. www.econferenceglobe.com.
3. Алпысбесулы М. (1999) История Казахстана в казахском шежире (Место шежире в изучении истории). Автореф. дисс. канд. ист. наук. Республики Казахстан, Караганда.
4. Baker, S. M., & Kennedy, P. F. (1994). Death by nostalgia: A diagnosis of context-specific cases. In C. T. Allen & D. John (Eds.), Advances in Consumer Research (Vol. 21, pp. 169-174). Association for Consumer Research.

5. Bandyopadhyay, R. (2008). Nostalgia, identity, and tourism: Bollywood in the Indian diaspora. Journal of Tourism and Cultural Change, 6(2), 79-100. https://doi.org/10.1080/14766820802140463
6. Batcho, K. I. (1995). Nostalgia: A psychological perspective. Perceptual and Motor Skills, 80(1), 131-143. https://doi.org/10.2466/pms.1995.80.1.131
7. Batcho, K. I. (2013). Nostalgia: The bittersweet history of a psychological concept. History of Psychology, 16(3), 165. https://doi.org/10.1037/a0032427
8. Bemong, N., & Borghart, P. (2010). State of the art. In N. Bemong, P. Borghart, M. De Dobbeleer, & K. Demoen (Eds.), Bakhtin's Theory of the Literary Chronotope: Reflections, Applications, Perspectives (pp. 3-16). Ginko Academia.
9. Feng, K., & Page, S. (2000). An exploratory study of tourism, migration-immigration nexus: Travel experience of Chinese residence in New Zealand. Current Issues of Tourism, 3(3), 246-281.
10. Gilroy, P. (1991). "It ain't where you're from, it's where you're at…": The dialectics of diasporic identification. Third Text: Third World Perspectives on Contemporary Art & Culture, 13, 3-16.
11. Higginbotham, G. (2012). Seeking roots and tracing lineages: Constructing a framework of reference for roots and genealogical tourism. Journal of Heritage Tourism, 7(3), 189–203. https://doi.org/10.1080/1743873X.2012.669765
12. Kim, H. (2005). Research note: Nostalgia and tourism. Tourism Analysis, 10(1), 85-88. https://doi.org/10.3727/1083542054547912
13. Nash, C. (2002). Genealogical identities. Environment and Planning D: Society and Space, 20, 27-52.
14. Nash, C. (2017). Genealogical Relatedness: Geographies of Shared Descent and Difference. Genealogy, 1(2).
15. O'zbek tilining izohli lug'ati: 800000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. V. Shukrona-H. / Tahrir hay'ati: T. Mirzaev (rahbar) va boshq.; O'zR FA Til va adabiyot in-ti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
16. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 11-jild. Qizilqum: Hormuz. Tahrir hay'ati: A. Azizxo'jayev, B. Alimov, M. Aminov va b. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 183-bet.
17. Russell, D. W. (2008). Nostalgia and tourism. Journal of Travel & Tourism Marketing, 25(2), 103–116. https://doi.org/10.1080/10548400802402721
18. Schindler, R. M., & Holbrook, M. B. (2003). Nostalgia for early experience as a determinant of consumer preferences. Psychology and Marketing, 20(4), 275–302. https://doi.org/10.1002/mar.10074

19. Smith, M., & Campbell, G. (2017). Nostalgia for the future? Memory, nostalgia and the politics of class. International Journal of Heritage Studies, 23(7), 612–627. https://doi.org/10.1080/13527258.2017.1321034
20. Terrick, V. H. Fitzhugh. (1988). How to Write a Family History. (Alpha Books, Sherborne, Dorset) - p. 13.
21. Türk Kültürel Turizm Ansiklopedisi. 16 cild. Editor, Prof. Dr. Nazmi Kozak, Prof. Dr. Metin Kozak. 2022.
22. Zerubavel E. (2011). Ancestors and Relatives: Genealogy, Identity and Community. Oxford: Oxford University Press. 2011, 238 pp.
23. Егоренков Л.И. (2009) Введение в технологию туризма. М.: Финансы и статистика.
24. Зуев, Ю.А. (1981). Историческая проекция казахских генеалогических предании//Казахстан в эпоху феодализма (Проблема этнполитческой истории). Алматы, 1981.
25. Исмагулов О.И. (1977) Этническая геногеография Казахстана. – Алматы. Наука, 1977.

JADID NAMOYONDASI PO'LAT SOLIYEVNING TARIX FANI UCHUN XIZMATLARI.

Abduraxmanova Jummagul Nomazovna
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815544

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'lkamizda yuzaga kelgan jadidchilik harakati, harakatning yo'nalishi, g'oyalari hamda bu harakat namoyondalaridan biri bo'lgan Po'lat Soliyevning jadidchilik faoliyati, O'zbekiston tarixi faniga olimning qo'shgan hissasi yoritib berilgan. Bundan tashqari hukmron tuzum tomonidan jadid namoyandasi Po'lat Soliyev faoliyatiga bo'lgan munosabati, uning taqdiri ayanchli holda yakun topishi ochib berilgan.

KALIT SO'ZLAR

Jadidchilik, jadidlar, Turkiston Muhtoriyati, hukmron mafkura sovet tuzumi, totalitar tartibot, ma'muriy–buyruqbozlik tizimi, tarixchi olim, jadid namoyondasi, qatag'onlik

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается джадидское движение, возникшее в нашем крае в конце XIX – начале XX века, его направления и идеи, а также деятельность одного из представителей этого движения — Пулата Солиева. Рассматривается вклад ученого в развитие исторической науки Узбекистана. Кроме того, раскрывается отношение господствующего строя к представителям джадидизма, в частности к деятельности Пулата Солиева, а также трагический исход его судьбы.в.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

джадидизм, джадиды, Туркестанская автономия, господствующая идеология советского строя, тоталитарный режим, административно-командная система, ученый-историк, представитель джадидизма, репрессии

ABSTRACT

This article discusses the Jadid movement that emerged in our country in the late 19th and

KEY WORDS

Jadidism, Jadids, Turkestan Autonomy,

early 20th centuries, its direction, ideas, and the Jadid activity of Polat Soliyev, one of the representatives of this movement, as well as the scholar's contribution to the history of Uzbekistan. In addition, the attitude of the ruling regime to Jadid representatives, Polat Soliyev's activities, and his tragic end are revealed.

ruling ideology, Soviet regime, totalitarian order, administrative-command system, historian–scientist, Jadid figure, repression

KIRISH:

O’zlikni anglash tarixni, insonning o’z o’tmishi va ajdodlari tarixini bilish hamda qadrlashdan boshlanadi. Yuksak ma’naviyat tutg’usini shakllantirishga qaratilgan, tarix saboqlarini, el–yurt kelajagi yo’lida umr kechirgan buyuk insonlar faoliyatini o’rganish, ularni xotirlash, ehtirom ko’rsatish bugungi kun va kelajak uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o’lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan jadidlar harakati O’zbekiston xalqlari tarixida muhim rol o’ynaydi. Jadidchilik Turkistondagi milliy–ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o’lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllandi.

Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy–mantiqiy tahlil, ketma–ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo’lib, unda XX asrning 20–30–yillarida sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan qatag’onlik siyosatining ko’rinishi, ta’lim sohasida faoliyat yuritib kelayotgan xodimlar, o’qituvchilar, olimlarning qatag’on qilinishi, qatag’onga uchragan insonlar ayanchli taqdirlari yoritib berilgan.

O’zbekiston o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan boshlab to hozirgi kungacha qatag’on siyosat, uning oqibatlari, qatag’onga uchragan vatandoshlarimizning ayanchli taqdirlari yoritilgan ko’plab ilmiy–tadqiqot ishlar, asarlar, risola va maqolalar yaratilib, nashr qilinib kelinmoqda. Bunga B.Qosimov, N.Karimov, S.Ahmedov, H.Uzoqov, D.Alimova, H.Ahrorova, B.Hasanov, X.Yunusova, R.Shamsutdinov, J.Abduraxmanova, N.Rashidova, F.Qilichev, K.Vohidova, B.Irzayev, A.A.Yo’ldoshev, Yu.B.Tursunova va boshqa ko’plab tadqiqotchi hamda olimlarni misol keltirib o’tish mumkin. Ularning ilmiy

tadqiqotlari orqali qatag’onga uchragan insonlarning nomlarini aniqlab, ayanchli taqdirlari va faoliyati yoritilib, o’z navbatida xalqimizga tanitib borilmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI:

Jadidlar harakati keng omma orasida tarqalishi natijasi xalq ongini uyg‘otishga yordam berib bordi. Lekin, ming afsuski, jadidlar faoliyati mustamlaka tuzumi va Sovet totalitar tizimi tomonidan tahdid sifatida qabul qilindi. 1930–yillarda ulardan ko‘pchiligi “xalq dushmani” tamg‘asi bilan qatag‘on qilindi. Ularning asarlari taqiqlanib, nomlari tarixdan chiqarib tashlanishga urunildi.

Bugungi mustaqil O‘zbekistonda jadidlar merosi qayta tiklanmoqda, ularning nomlari abadiylashtirilmoqda, ilmiy va badiiy faoliyatlari chuqur o‘rganilmoqda.

Sovet totalitar tuzumi tomonidan “xalq dushmani” sifatida qarag’onga uchragan jadid namoyondalaridan biri bu O’zbekiston tarixi faniga o’zining munosib hissasini qo’shgan tarixchi olim, professor Po’lat Soliyevdir.

Po’lat (Bulat) Soliyev 1882–yil 22–martda Astraxanda tug‘ilgan. Millati tatar. Dastlab o’zi yashayotgan qishloqdagi eski maktabda bilim olishni boshlagan. Maktabni tamomlagach, o‘rta maxsus ta’lim beruvchi ziyoli inson Abduraxmon Umerov tashabbusi bilan tashkil etilgan madrasaga o‘qishga kirgan. O‘n besh yoshida madrasani tamomlab, Qozon shahridagi oliy madrasalar – Muhammadiya va G‘oliyada tahsil olgan. Ikki madrasani ham a’lo baholarga bitirgan Po‘lat Soliyev bu paytda arab, turk, fors, rus va boshqa turkiy xalqlar tillarini puxta bilgan, fransuz hamda nemis tillarini ham o‘zlashtirgan. Po’lat Soliyev 1909–yili Turkistonga keladi. Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumanida, keyinchalik Mirzacho‘lda, Jalolobodda ham jadid maktablari tashkil qilib, o‘qituvchilik bilan shug‘ullangan. 1913–yili Toshkent shahrida birinchi rus–tatar maktabiga asos solgan, 1916–yildan Bekoboddagi yangi usul maktabida bir yil davomida o‘qituvchilik qilgan. 1917–yildan esa, Qo‘qondagi o‘qituvchilar seminariyasida ikki yil mobaynida direktor lavozimida ishlagan[1, 233.].

Turkiston ziyolilari tomonidan 1917–yil noyabrda Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyati tashkil etiladi. Po’lat Soliyev ham o’z navbatida Turkiston Muhtoriyatini tashkil etish ishlarida faol ishtirok etgan. Bundan tashqari olim Qo‘qon shahrida chop etiladigan “El bayrog‘i” gazetasining bosh muharriri sifatida ish olib borishi, mazkur gazetani Turkiston Muxtoriyati hukumati nashriga aylanishiga katta hissa qo‘shgan. Turkiston Muxtoriyati tor–mor qilingach, Po‘lat Soliyev siyosiy faoliyatdan uzoqlashib, maorif sohasida o’z faoliyatini davom ettiradi. 1918–yili Nazir To‘raqulov bilan hamkorlikda Skobelev (hozirgi Farg‘ona) shahrida qishloq maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash kurslari tashkil etgan. 1919–yili Toshkentda birinchi turk–tatar maorif kurslarini tashkil etib, uning direktori sifatida ish olib borgan. 1922–yili Po‘lat Soliyev BXSR Maorif

nozirligining Ilmiy kengashi raisi etib tayinlangan[2, 698]. Shuningdek, “Maorif” va “Tong” jurnallariga muharrirlik hamda “Inqilob” jurnali muharririga o‘rinbosarlik qilgan. P.Soliyev mazkur yillarda Buxoro o‘qituvchilar institutida arab adabiyoti tarixi, arab tili nazariyasi va amaliyotidan dars ham bergan.

1924–yili turmush o‘rtog‘i bilan Moskva shahriga ko‘chib borgan P.Soliyev Sverdlov nomidagi universitetning tarix kafedrasida ish boshlagan. 1926–yili Leningrad shahriga ko‘chib o‘tib, Sharqshunoslik institutida mehnat faoliyatini boshlagan. 1927–yili ushbu institut rahbariyati tomonidan unga dotsent unvoni berilgan[3]. Ushbu unvonning berilishi olimning sharq tarixi bo’yicha olib borgan ilmiy ishlarining mahsuli edi.

Mahalliy ziyolilarda katta umid va ishonch o’yg’otgan yana bir oliy ta’lim muassasi 1927 yil 22 yanvarda Samarqand Oliy pedagogika instituti ochildi. Yangi tashkil etilgan oliygohning boshqaruv shakli Xalq maorif komissarligi tasdiqlanib, mazkur oliy o’quv yurti tuzilmasiga ko’ra uchta bo’lim, to’rtta kafedradan iborat bo’lib, 11 ta o’qituvchi bilan ish boshladi[4, 580.]. 1926–1927 yillarda Moskva davlat universitetida ham o’qigan P.Soliyev mazkur institut ochilgandan keyin O’zbekiston qaytadi va Samarqand oliy pedagogika institutida ish boshlaydi[5,49]. Samarqand oliy pedagogika instituti 1930–yili O‘zbekiston pedagogika akademiyasiga, 1933–yili O’zbekiston davlat universitetiga aylantiriladi[6,11.]. Ushbu muassasada faoliyat olib borayotgan Turkiston xalqlari tarixining zo‘r bilimdoni bo‘lgan P.Soliyevga 1930 yili professor unvoni berildi. 1935–yil sentyabrida O‘zDUda O‘rta Osiyo respublikalari ichida birinchi bo‘lib “O‘rta Osiyo tarixi” kafedrasi tashkil etildi. Po‘lat Soliyev ushbu kafedraning mudiri etib tayinlangan. Ushbu kafedrada o‘z davrining yetuk olimlari Abdurauf Fitrat, O.Hoshimov, A.M.Krasgyuusov, S.A.Leskovskiy, S.V.Yushkov, M.Ya.Fenomenov va A.Makiyev kabi professorlar faoliyat ko‘rsatgan. 1936–yili Po‘lat Soliyev Toshkentga butunlay ko‘chib o‘tib, O‘zbekiston SSR markaziy ijroiya qo‘mitasi qoshida tashkil etilgan Fan qo‘mitasida ish boshlaydi. Ushbu tuzilma keyinchalik O‘zbekiston SSR xalq komissarlari soveti qaramog‘iga o’tkazilgan va unda Po‘lat Soliyev O‘zbekiston tarixi bo‘limini boshqargan[7]. Ayni paytda Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va Buxoro oliy o‘quv yurtlarida talabalarga ma’ruzalar o‘qigan.

Po‘lat Soliyev Markaziy Osiyo tarixining eng muhim davrlaridan biri bo’lgan miloddan avvalgi VI–V asrlardan to Somoniylar davrigacha bo’lgan tarixiy jarayonlarni o’z ichiga olgan Buxoro tarixiga oid o’zining ilmiy qimmatliligi bilan ajralib turadigan, sharq qo’lyozma manbalari asosida yaratgan tarixiy asarlaridan biri 1923 yilda “Buxoro tarixi” asarini va 1925 yili Buxoro amirligi hukmronlik qilgan so’ngi mang’itlar sulolasi davri tarixiga bag’ishlangan diqqatga sazovor

bo’lgan “Mang‘itlar saltanati davrida Buxoro o‘lkasi” asarlarini yaratgan[8,41.]. Bundan tashqari olim “O‘zbekiston va Tojikiston”, “O‘rta Osiyo tarixi (XI–XV asrlar)”, “O‘zbekiston tarixi” asarlarini ham yozadi[10]. Ushbu asarlar o‘z navbatida O‘zbekiston tarixiga o‘zining munosib hissasini qo’shgan. Lekin, kommunistik mafkura hukmron bo’lib turgan, totalitar tuzum milliylikning har qanday ko’rinishiga qattiq zarba berayotgan bir paytda “O‘rta Osiyo tarixi (XI–XV asrlar)” va “O‘zbekiston tarixi” asarlari qattiq tanqid ostiga olinadi. O’tmish feodal tuzumni qo’msash, ideallashtirishda ayblangan.

Mamlakatda tahlikali ommaviy qatag’onlikning kuchaygan davri 1936–1938 yillar bo’ldi. “Xalq dushmani”, “aksilinqilobchi” ayblovlari bilan Po’lat Soliyev 1937 yil 11 sentyabrda sovetlarga qarshi ish “aksilinqilobiy harakatlar”da qatnashganligi uchun Jinoyat kodeksining 60 va 67 bandlari asosida qamoqqa olib, NKVD turmasiga keltirish uchun qaror chiqariladi va prokuror sanksiyasi asosida 1937 yil 13 oktyabrda qamoqxonaga keltiriladi. Tergov jarayonlari boshlanadi. 1938–yil 13–oktyabrda P.M.Soliyev otib tashlangan[9,111.].

XULOSA:

Jadidchilik harakati – bu faqat o‘tmishdagi tarixiy voqea emas, balki jamiyatning uyg‘onishi, o‘zligini anglash va kelajak sari intilishining ramzidir. U bizga milliy o‘zlikni anglash, fikr erkinligi, zamonaviy ta’limga intilish kabi ko‘plab ibratli saboqlarni taqdim etadi. Jadidlar o‘z harakati bilan har bir kishining hayotida bilim, tafakkur va mas’uliyat muhim o‘rin tutishini amalda isbotlab berganlar.

O’sha qonli yillar, fojeali taqdirlar, nohaq ayblanib, qatag’onga uchragan vatandoshlarimiz nomlari istiqlol sharofati bilan o’rganilib, oqlanmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 8 oktyabrda e’lon qilingan – “Qatag’on qurbonlari merosini yanada chuqur o’rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo’shimcha chora–tadbirlar to’g’risida”gi Farmoyishi qatag’on qurbonlarining merosini tiklash, o’rganish hamda ular xotirasini abadiylashtirish borasida yanada ulkan ishlarni amalga oshirish borasida keng imkoniyatlarni yuzaga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalilov Asqar Yo’ldosh o’gli. Po’lat Soliyev – O’zbek tarixshunosligidagi ilmiy maktab asoschisi. // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. 44–son. 2–to’plam. May. 2025. 233–bet.
2. Ўзбекистон миллий энцеклопедияси. 7–жилд. – Тошкент.: “ЎзМЭ”. 2004. 698–бет.
3. https://jadidlar.uz

4. Jummagul Nomazovna Abduraxmanova. Qatag’on siyosatining O’zbekiston davlat universitetidagi ko’rinishi. //Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 3, 2022. 580–bet.
5. Абдурахманова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1941 йй). Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2002. 49–бет.
6. СамГУ. (краткий исторический очерк 1927–1987 гг.). – Тошкент., 1990. Стр–11.
7. https://jadidlar.uz
8. Nosirov SH.O’. Professor Po’lat Soliyev ijodida Buxoro tarixi masalalari. // Образование и инновационные исследования. 2023 год. № 7. Стр–41.
9. Абдурахманова Ж.Н. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида. 1925–1941 йй). Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Т., 2002. 111–бет.

KURASHCHILARDA KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LARI.

Alimov Umid Abduxamidovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti p.f.b.f.d. PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.19815649

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kurash kurashchilarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlan-tirish maqsadida o'tkazilgan anketa so'rovnomasi natijalari tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR

kurash mutaxassislari, koordinatsion qobiliyatlar, anketa so'rovno-masi, muvozanatni saqlash, texnik usullar

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализированы результаты анкетного опроса, проведенного на основе развития координационных способностей курашистов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

специалисты по кураш, координационные способности, анкетный опрос, сохранение равновесия, технические методы.

ABSTRACT

This article analyzes the results of a questionnaire survey conducted on the basis of the development of coordination abilities of judoists

KEY WORDS

kurash specialists, coordination abilities, questionnaire survey, balance maintenance, technical methods;

DOLZARBLIGI.

Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega hamda dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiznin bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz [1].

Mamla-katimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan kundan boshlab jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda takomillashtirishga e'tibor kuchaydi. O'zbekis ton Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir bir qancha qaror va farmonlari, mamlakatimizda yosh

avlodning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatlarini yanada yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning yanada rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishga aylandi.

ISHNING MAQSADI.


Kurash mutaxassislarining fikrini o‘rganish va kelgusi tadqiqot ishlarini rejalashtirish.Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o‘tkazilgan pedagogik tajribadan olingan natijalar asosida kurashchilarning o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarining yangi vositalari va maqsadli takomillashtirish dasturi ishlab chiqildi hamda ularni qo‘llash samaradorligini ilmiy mohiyati ochib berildi.

Tadqiqotlar davomida malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va uning samaradorligini oshirishning o‘zaro bog‘liqligi amaliyotda o‘z isbotini topdi. Mazkur olingan ma’lumotlar sport kurashi nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish imkonini beradi. Kurash turlarida musobaqa qoidalarining o‘zgarishini e’tiborga olgan holda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda jismoniy sifatlarni yaxshilash orqali, ularning musobaqa faoliyati natijadorligini oshirish imkoni yaratildi. Mazkur ishlab chiqilgan tamoyillar boshqa kurash turlarida ixtisoslashuvchi sport ta’lim muassasalari va O‘zbekiston milliy terma jamoasi kurashchilarining mashg‘ulotlari jarayonida mutaxassislar tomonidan foydalanishga zamin yaratadi. Kurash bo‘yicha malakali sportchilar tayyorgarligida uchrayotgan koordinatsion qobiliyatlarni va texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan pedagogik kuzatish va ilg‘or tajribali mutaxassis hamda sportchilar o‘rtasida so‘rovnoma olib borildi va savollarga javob olindi.

Mavjud manbalarni tahlil qilish natijasi shuni ko‘rsatdiki, sportchilarni tayyorlashda mashg‘ulotlar jarayonida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni ilmiy asoslangan holda tashkil etish bugungi kunda amaliyotda talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagan. Shu sababli, boshqa sport turlarida olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda, ilmiy uslubiy jihatdan asoslangan yangi usullarni mashg‘ulot jarayoniga kiritish maqsadga muvofiq. Sport amaliyotidagi malakali ilg‘or tajriba-larni o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatdiki, kurash mutaxassislari tomonidan mashg‘ulotlarni reja-lashtirish yo‘nalishida kompleks ta’sir qiluvchi mashg‘ulotlardan foydalanish masalasi ko‘rib chiqilib, dastlabki vazifalarning bir tomonlama hal qilinishi hamda hal qilinadigan vazifalar tarkibi borgan sari kengayib borishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida 35 nafar murabbiylar orasida o‘tkazilgan anketa so‘rovnomasi natijalari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ldi (1-rasmga qarang).



1-расм. Анкета сўровномаси натижалари (%).

Kurash sport turida koordinatsion qobiliyatlar qanchalik muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaysiz (1-savol)?– degan savolga, 17,8% murabbiy “unchalik muhim emas”, 82,1% murabbiy “judayam muhim”, murabbiylarning qolgan qismi esa bu savolga “ba’zan kerak, ba’zan kerak emas” deb ta’kidlashdi. Shuqatorda mutaxassislar tomonidan ushbu savolga yakkakurash sport turlarida koordinatsion qobiliyatlar muhim rol o‘ynaydi va qobiliyatga ega bo‘lish tug‘ma yoki uni rivojlantirish mumkinligi to‘g‘risida hamda koordinatsion qobiliyat va muvozanatni saqlash texnik usullarni bajarishda muhim ahamiyatga ega degan fikrlarni bildirishgan. Mutaxassislarni fikriga asoslanib, kurash sport turida koordinatsion qobiliyat muhim ahamiyatga ega, degan xulosaga keldik. Qaysi yosh davri kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davr, deb hisoblaysiz (2-savol)?– deb berilgan savolga, 30,3 % murabbiy 10-12 yosh, 57,6 % murabbiy 12-14 yosh, 12,1% murabbiy esa 13-16 yosh deb javob berishgan. Bu savolimizga ba’zi murabbiylar “gimnastika va suzish sport turlarida 5-9 yoshda rivojlantirsa ham bo‘ladi hamda 7-8 yoshdan koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun mashqlar berib turish keyinchalik sport turlarini tanlashda va moslashib ketishiga yaxshi samara bera-di” degan fikrlarni bildirishgan. Mutaxassislarning fikricha, 8-10 yoshdan 12-14 yosh oralig‘i davrida sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini o‘zlashtirishga har doimgi yosh davridan ko‘ra chanqoq vaqt bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, koordinatsion qobiliyatlar bola yura boshlagandan so‘ng mustaqil rivojlana boshlaydi.

Kurash kurashida sportchilarni musobaqa faoliyatining qaysi jarayonida koordinatsion qobiliyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi (3-savol)?– deb berilgan

savolga, murabbiylarning 34,1% – “hujumda”, 34,1% – “himoyada”, qolgan 31,8% murabbiy – “qarshi hujumda” degan javobni tanlashgan. Ba’zi murabbiylar koordinatsion qobiliyatlar musobaqa faoliyatining barchasida muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birgalikda, musobaqa jarayonida kutilmagan vaziyatlardan oqilona foydalana olish koordinatsion qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasini ko‘rsatadi, degan fikrlarni bildirib o‘tishgan. Biz yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilib, koordinatsion qobiliyatlar musobaqa faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrga keldik. O‘quv mashg‘ulot jarayonining qaysi qismida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish kerak, deb hisoblaysiz (4-savol)?– deb berilgan savolga, 37,1% murabbiy “tayyorlov qismida”, 60,1% murabbiy “asosiy qismda”, 2,8% murabbiy esa bu savolga “yakuniy qismda” degan javobni belgilashgan. Sport o‘yinlaridan ko‘proq basketbol va harakatli o‘yinlardan foydalanish samarali, degan fikrni bildirishgan. Shu bilan birga, koordinatsion qo-biliyatlarni tayyorlov qismida rivojlantirish yaxshi samara beradi, bunga sabab tayyorlov qismida akrobatik mashqlar va maxsus chigal yozdi mashqlari qo‘llaniladi, deb fikr berishgan. Bildirilgan fikrlarga asosan shuni ta’kidlash mumkinki, mashg‘ulot jarayonining barcha qismida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish lozim. O‘quvmashg‘ulot jarayonining qaysi qismida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qanday uslublar qo‘llanilishi kerak, deb hisoblaysiz (5-savol)?– deb berilgan savolimizga, 36,4% murabbiy “takroriy”, 38,1% murabbiy “qat’iy tartiblashtirilgan” qolgan 25,5% murabbiy esa “oraliqli (tanaffusli)” degan javobni belgilashgan. Murabbiylarning ba’zilari bu savolimizga hamma metodlarni ishlatish mumkin, deb javob berishgan. Ba’zi mutaxassislar aylanma metodlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lar edi, degan bo‘lsa, ba’zilari musobaqa metodini ham afzallik tomonlari ko‘p, deb fikr bildirishgan. Biz ham yuqorida keltirilgan amaliyotchi murabbiylarning fikrlariga qo‘shilamiz. Hozirgi kunda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga oid ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli, deb hisoblaysizmi (6-savol)?– degan savolga, 38,7% murabbiy – “yetarli emas”, 9,6% – “yetarli”, shuningdek, 51,7% murabbiy bunga javoban “bor, lekin juda ham kam” deb ta’kidlashadi. Bu savolimizga ba’zi murabbiylar butun dunyo tanigan olimlar Bernshteyn va Lyax yozgan adabiyotlardan ma’lumot olish kerak, deb qo‘shimcha qilishgan. Bizning fikrimizcha, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik adabiyotlar yetarli, ammo o‘zbek tiliga tarjima qilingani kam, deb hisoblaymiz.

Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda qaysi metodlardan foydalanasiz (7-savol)?– deb berilgan savolga, 39,4% murabbiy
“takroriy”, 39,4% murabbiy “qat’iy tartiblashtirilgan”, 21,2% murabbiy “oraliqli (tanaffusli)” degan javobni tanlashgan. Bu savolimizga ba’zi mutaxassislar,

mashg‘ulotni barcha metodlardan foydalanib olib borishmumkin, deb izoh berishgan. Shuningdek, “aylanma” va “musobaqa metodi”ni ham afzal taraflari ko‘p, deb fikr bildirishgan. Biz ham yuqoridagi fikrlarni to‘g‘ri, deb hisoblaymiz. Kurashchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi innovatsion metodlar bilan boyitilgan, deb hisoblaysizmi (8-savol)? – degan savolga, 19,3% murabbiy “ha”, 51,6% murabbiy “yo‘q”, 29,1% murabbiy esa “aniq bilmayman”, degan javobni belgilashgan. Bundan tashqari, yuqoridagi savolimizga ba’zi murabbiylar, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning o‘zi yangilik, ba’zilari esa ilmiy metodikani rivojlantirish kerak, degan fikrni aytib o‘tishgan.

Koordinatsion qobiliyatlarning yaxshi rivojlanmaganligi sportchi uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin (9-savol)? – deb berilgan savolga, 50% murabbiy “sportda yuqori marralarga erisha olmaydi”, 9,4% murabbiy “mashg‘ulot jarayonida ko‘p jarohat oladi”, 40,6% murabbiy esa bu savolga “muvozanatni saqlay olmaydi”, degan javobni belgilaganlar. Bundan tashqari, ushbu savolimizga murabbiylar – koordinatsion qobiliyatlar rivojlanmagan sportchidan yaxshi natija kutish qiyin hamda kurashchilarda texnika-taktika bilan birgalikda koordinatsion qobiliyat mujassam bo‘lishi, sport yutuqlariga erishishda samarali vosita bo‘la oladi, degan fikrni berib o‘tishgan.

Koordinatsion qobiliyatlarning yaxshi rivojlanganligini qanday aniqlash mumkin (10-savol)?– deb berilgan savolga, 35,3% murabbiy “berilgan vositalarning to‘g‘ri bajarilganligiga qarab”, 32,3% murabbiy “muvozanatni saqlay olishiga qarab”, 32,3% murabbiy “sportchining sportturiga moslashganligiga qarab”, degan javobni berishgan. Xuddi shu savolimizga murabbiylar – integral ko‘rsatkichlar doimo aniq va yuqori darajada bajarish shart, deb fikr bildirishgan. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, koordinatsion qobiliyatlarning yaxshi rivojlanganligini maxsus (nazorat) testlar orqali ham aniqlash mumkin. Koordinatsion qobiliyatlar yaxlit harakat faoliyatini maqsadga muvofiq ijro etish (shakllan-tirish, o‘zaro bo‘ysundirish, birga biriktirish), o‘zlashtirilgan harakat shakllarini qayta tiklash yoki o‘zgaruvchan muhit talablariga ko‘ra, bir harakat faoliyatidan ikkinchisiga o‘tish qobiliyatlaridan iborat. Koordinatsion qobiliyatlarning ko‘rsatkichlari tugallangan harakat topshiriqlari (gimnastika mashqlari, suvga sakrash, figurali uchish) va boshqalar hisoblanadi. Ular to‘g‘risida yangi harakat shakllarini o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan harakatlarni qayta o‘zgartirish uchun sarflangan vaqt, aniq harakat ko‘rsatkichlari (vaqt birligida), fazo va zo‘r berish darajasi bo‘yicha fikr yuritish mumkin. Mashg‘ulot sonini izchillik bilan oshirish uslublari ishlab chiqilib, ularning maxsus mashg‘ulotlardan so‘ng rivojlanish holatlariga faol ta’sirlari aniqlandi. Mashg‘ulotlarni ratsional almashtirish asosida sportchilarning texnik-taktik

tayyorgarligi va musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichlarining turli yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarini tashkil etishning o‘zaro bog‘liqligi haqida ilk marotaba tajriba ko‘rsatkichlari olindi. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun yuqori malakali kurashchilarga bir kunda beriladigan bir necha turli koordinatsion yo‘nalishdagi mashg‘ulotlarning ta’sirini, mashg‘ulotlar turining kuchi va ta’sir qilish tavsifini chuqur o‘rganish talab qilinadi. Mazkur masalani yechish, turli mashg‘ulotlarni almashlab o‘tishning mashqlar tizimini ishlab chiqish va kurash bo‘yicha malakali sportchilarni tayyorlashda uning samaradorligiga erishish imkoniyatini beradi.

XULOSA

Sportchining koordinatsion qobiliyati yaxlit harakat faoliyatini maqsadga muvofiq ijro etish (shaklantirish, o‘zaro bo‘ysundirish, birga biriktirish), o‘zlashtirilgan harakat shaklarini qayta tiklash yoki o‘zgaruvchan muhit talablariga ko‘ra, bir harakat faoliyatidan ikkinchisiga o‘tish qobiliyatlaridan iborat. Koordinatsion qobiliyatlarning ko‘rsatkichlari tugallangan harakat topshiriqlari (gimnastika mashqlari, suvga sakrash, figurali uchish va boshqalar) hisoblanadi. Ular to‘g‘risida yangi harakat shakllarini o‘zlashtirish va o‘zlashtirilgan harakatlarni qayta o‘zgartirish uchun sarflangan vaqt, aniq harakat ko‘rsatkichlari (vaqt birligida) darajasi bo‘yicha fikr yuritish mumkin. Koordinatsion qobiliyatlarni egallash uchun muntazam harakat malakalari sonini ko‘paytirish, harakatlarning yangi shakllarini hosil qilish, harakat shakllarini tez o‘zgartirish yoki turli sharoitga qarab bir harakatdan ikkinchisiga tez ko‘cha bilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан
2. давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент, 2017.
3. Ачилов А.М., Акрамов Ж.А., Гончарова О.В. Болаларнинг
4. жисмоний сифатларини тарбиялаш. Тошкент, 2009.
5. Юнусова Ю.М. Спорт фаолиятининг назарий асослари.
6. Тошкент, 1994.
7. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском
8. спорте. 2004. 34 ст.
9. Лях В.И. Координационные способности: диагностика и раз-витие. 2006. 17 ст.
10. Бакиев З.А. Индивидуализация технико-тактической подготовки
11. борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной
12. деятельности. Дис. канд. пед. наук. 2009. 45 ст.

13.Шахмурадов Ю.А. Научно-методические основы многолетней технико-тактической подготовки борцов (на примере вольной борьбы). Автореф. дис. д. пед. наук. – М., 1999. 78 ст.
14.Бакиев З.А. Эркин кураш назарияси ва услубиёти. Ўқув қўллан.

15-16 YOSHLI KURASHCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA TAYYORGARLIGI DINAMIKASINING XUSUSIYATLARI.

Xoliqov Baxtiyor Xidirovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
"Ijtimoiy fanlar fakulteti"
Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi
p.f.b.f.d (PhD) dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816516

ANNOTATSIYA

Maqolada 15–16 yoshli kurashchilarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarlik dinamikasi tahlil qilingan. Antropometrik va funksional ko'rsatkichlar solishtirilib, rivojlanish darajasining yetarli emasligi aniqlangan. Mashg'ulot jarayonini optimallashtirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish zarurligi asoslangan.

KALIT SO'ZLAR

texnik – taktik harakatlar, jismoniy sifati, trenirovka, musobaqa faoliyati, muvaffaqiyatli urinish

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется динамика физического развития и подготовленности борцов 15–16 лет. Сравнены антропометрические и функциональные показатели, выявлен недостаточный уровень развития. Обоснована необходимость оптимизации тренировочного процесса и совершенствования физических качеств спортсменов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

технико – тактические действия, качество ловкости, тренировка, соревновательная деятелност, успешная попытка

ABSTRACT

The article analyzes the dynamics of physical development and fitness of 15–16-year-old wrestlers. Anthropometric and functional indicators are compared, revealing insufficient development levels. The need to optimize training processes and improve key physical qualities is substantiated.

KEY WORDS

technical and tactical actions, quality of dexterity, training, competitive activity, successful attempt

DOLZARBLIGI.

15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirishda mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, musobaqa va maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni biomexanik tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, o'quv-mashg'ulot guruxidagi kurashchilarda maxsus bir tizim orqali, jismoniy rivojlanganlik samaradorligini yaxshilash yuzasidan ilmiy ishlar olib borish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Kurash bo'yicha mutaxassislari qo'llanilgan vositalar va uslublar haqida turli fikrlar bildirishgan va amalda qo'llash yo'llarini yoritishga uringanlar [A.R.Taymurodov, 2020; Sh.A.Mirzaqulov, 2020; Tastanov N.A., 2017; Abdullayev Sh.A., 2012]. Shu bilan birga, ushbu mualliflar qayd etadiki, kurash sportchilarining jismoniy rivojlanganlik samaradorligi mashg'ulot vositalari va yuklamalarini to'g'ri qo'llash to'g'risida bir qator mualliflarning ishlarida ta'kidlangan.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar ilmiy tadqiqot ishlarining etarli emasligini ko'rsatadi va 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasi samaradorligini oshirish muammosi o'ta dolzarb ekanligini tasdiqlaydi.

Maqsadi: 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash va o'zaro nisbatini taqqoslash berish.

Bu sohadagi katta ilmiy-uslubiy tajriba to'planganligini e'tiborga olib, 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy rivojlanganlik dinamikasi samaradorligini oshirish vazifalarini uyg'unlikda hal qilish yo'li katta samara berishi aniqlandi.

Bugungi kunda o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi xolatini aniqlash asosida jismoniy rivojlanish bo'yicha uyg'unlikda o'tkazilgan tadqiqotlar yo'qligi aniqlandi. Bunday yondashuv 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy rivojlanish jarayonlarini oqilona boshqarishga yordam beradi. Chunki, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik bir-biriga ta'sir qilish kattaligini bog'lab turuvchi ko'rsatkichlarni baholab turish sportchilar mahorati va sport natijalari ko'tarilishida katta samara beradi. O'quv-mashg'ulot guruxida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli kurashchilarning tana uzunligi o'lchamlari olinib o'rtacha ko'rsatkichi xisoblanganida quydagicha natijalar qo'lga kiritildi 15 yoshlilarda 152.7, 15 yoshlilarda esa 153.5 0,8 sm bilan ko'rsatkichlar orasidagi farq sezilarli darajada katta emasligi aniqlandi. Yuqoridagi diagrammada tana uzunligi bilan birgalikda ko'krak qafasining o'rtacha uzunlik ko'rsatkichlari ham keltirilgan. Olingan natijalar esa quydagicha. 15 yoshlik kurashchilarning ko'krak qafasining o'rtacha kenglik ko'rsatkichi 68 sm tashkil qilgan bo'lsa, 16 yoshli kurashchilarning ko'krak qafasi kengkigi 69.6 sm qayt etdi. Har ikki

yoshdagi sportchilarimizning ko'krak qafasi kengligidagi farq (1,6 sm) ni tashkil qildi.

15-16 yoshli kurashchilarning tana og'irlik ko'rsatkichlari ham olindi. Natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak quydagi xolatlar kuzatidi, 15 yoshli shug'lanuvchi kurashchilarning tana og'irlik massasi. 44.6 kg natijani qayt etgan bo'lsa 16 yoshli sportchiarimizning tana og'irlik massai birmuncha yuqoriroq yani 46.4 kg (farq 1.8 kg) ko'rsalkichni qayt etishdi.

1-jadval.15-16 yoshli kurashchilarning antropometrik ko'rsatkichlari n=10.

№	Antropometrik ko'rsatkichlar	14 yoshli	15 yoshli	farqi
1	Tana uzunligi	152,7	153,5	0,8
2	Ko'krak qafasi aylanasi	68,3	69,6	1,3
3	Tana og'irligi	44,5	46,4	1,8

Egiluvchanlikni aniqlash bo'yicha olingan natijalar esa quydagicha. O'quv-mashg'ulot guruxida shug'ullanuvchi 15 yoshli kurashchiarimizda egluvchanlik o'rtacha ko'rsatkichi 11,6 sm ni tashkil qilgan bo'lsa, 16 yoshli kurashchilarning egiluvchanligi 12,5 smni tashkil qildi (tafovut 0,9 sm) ni tashkil qiladi.

Yuqoridagi diagrammada 15-16 yoshli kurashchilarning panja kuchlarini aniqlovchi test natijalarini ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu test natijalari esa quydagicha, 15 yoshli kurashchilarning panja kuchlari o'rtacha 31 kg natijani ko'rsatishgan bo'lsa 16 yoshli sportchilarimizning natijalari biroz yuqoriroqni ya'ni 33,4 ko'rsatkichni qayt etishdi (tafovut 2.4 kgni tashkil qildi).

Tezkorlikni chaqqonlikni hamda chidamlilikni aniqlash bo'yicha ham turli xil masofalarga vaqt hisobida yugurish uchun masofalar tanlab olindi. Natijalar esa quydagicha bo'ldi, 15 yoshli o'quv-mashg'ulot guruxida shug'ullanuvchi belbog'li kurashchilarning qisqa 30 m masofaga yugurish mashqining o'rtacha ko'rsatkichi 4,9 s bo'lgan bo'lsa 16 yoshli belbog'li kurashchilarning ushbu masofaga yugurish o'rtacha ko'rsatkichi 5 s ni tashkil qildi.

15-16 yoshli sportchilarda chaqqonlik sifatini aniqlash uchun 3 x 10 m, s. usulida yugurish mashqi olindi. Ushbu mashqlar yuzasidan qo'lga kiritilgan natijalar quydagich bo'ldi. 15 yoshli kurashchilarimiz 13 s natijani qayt etishgan bo'lsa, 16 yoshli o'quv-mashg'ulot guruxidagi belbog'li kurashchilarimiz 13.1 s natijani qayt etishi.

Chidamliligini aniqlash uchun 1000 s. metrga kross yugurish masofasi tanlab olindi. Boshlag'ich tayorgarlik bosqichidagi kurashchining natijalari quydagicha


bo’ldi. 15 yoshli kurashchilarning ushbu masofaga yugurish natijalari 4:94.72 s, bo’lgan bo’lsa, 16 yoshli o’quv-mashg’ulot guruxidagi kurashchilarning 1000 metr masofaga yugurish natijalari 4:82.21 s. ni tashkil qildi.

Qo’l kuchini aniqlash uchun qo’llar bilan erga tayangan xolda qo’llarni bukib yozish (odjo’maniya) mashqi tanlab olindi. Tanlangan mashq bo’yicha sportchilar tamonidan ko’rsatilgan natijalar quydagicha bo’ldi. 15 yoshli kurashchilarda o’rtacha ko’rsatkichi 19,5 marttani tashkil qilgan bo’lsa, 16 yoshli kurashchilarda esa ushbu ko’rsatkich 19,8 martta ko’rsatkichni qayd etishdi.

O’quv mashg’ulot guruxida shug’ullanuvchi 15-16 yoshli kurashchilarni qorin mushaklarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun maxsus mashq tanlab olindi va quydagicha natijalar qayt etildi. 15 yoshli o’quv-mashg’ulot guruxidashug’ullanuvchi sportchilarimizning o’rtacha ko’rsatkichi 19,6 marttani tashkil qilgan bo’lsa 16 yoshlilardan tashkil topgan belbog’li kurashchilarning o’rtacha ko’rsatkichi 20,3 marttani tashkil qildilar har ikki guruhdan olingan natijalarni solishtiradigan bo’lsak, qorin mushaklarining rivojlanganik darajasidagi farqlar katta emasligi kuzatilidi.

2-jadval. 15-16 yoshli kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun olingan test natijalari

№	**Testlar**	**15 yoshli**	**16 yoshli**	**farqi**
1	Qo’l panja kuchi	31	33	2
2	Qo’llarga tayanib bukib – yozish (odjo’maniya)	19,5	19,8	0,3
3	Yotgan holda qo’llar bosh ortida gavdani ko’tarib tushirish(press)	19,6	20,3	0,7
4	Orqaga ko’prik holatiga tushish	67,2	67,9	0,7
5	30 m yugurish	4,87	4,93	0,6
6	10x3 mokisimon	13,61	13,43	0,18
7	1000 m kross	4:94.72	4:82.21	16.51



1-rasm 14-15 yoshli bolalardagi farqlar.

IZOH: SONI VA VAQTI OLINGAN

O'quv-mashg'ulot guruxida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli kurashchilarning egiluvchanlik sifati 15 yoshli va 16 yoshlilarning ko'rsatkichlari orasidagi farq qaniqarli emas. Qo'l kuchini aniqlash bo'yicha olingan test natijalariga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak 15 yoshli kurashchilarning panja kuchlari o'rtacha 31 kg bo'lsa 16 yoshli sportchilarning natijalari biroz yuqoriroqni ya'ni 33,4 kg natijani qayt etishdi tafovut 2.4 kgni tashkil qildi bundan ko'rinib turibdiki rivojlanish darajasini passiv deb baxolashimiz mumkin.

XULOSA

Yugurish test natijalari ham deyarli farq qilmaydi murabbiy zimmasiga tezlik chaqqonlik va tezkorlik jismoniy sifatlarini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish ma'sulyatini yuklaydi.

Qo'l va qorin muskullarining (kuch) rivojlanganlik darajasinii aniqlash uchun olingan test natijalaridagi rivojlanish darajasini ham qoniqarli deb bo'lmaydi. Kuch sifatini rivojlartirishga ham murabbiy tamamonidan jiddiy yondashuvni talab qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzaqulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati. Darslik 2020 yil № 3, 2020, s 290
2. Xoliqov B.X., Kurash texnikasi va o'qitish metodikasi. T. O'quv qo'llanma. 2021.
3. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Toshkent. 2017. bet 32-33
4. Xoliqov B.X., Kurash nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma.T. 2020.
5. Abdullayev Sh.A. Yosh kurashchilarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslari. Toshkent.2012. , № 2, bet . 26-27.

6. Mirzanov Sh.S. Belbog‘li kurashchilarda kuch qobiliyatini izokinetik mashqlar yordamida rivojlantirish ustuvorligi va uni baholash metodikasi. Monografiya., T.; nashiriyot nomi. 2021, – 13-26 C.
7. Эргашов Б.Д. Белбоғли курашда рақибни кўтариб ташлаш ҳажми ва шиддатини оширишда статодинамик куч чидамкорлигининг ўрни. Фан спортга № 4.2022, - 25-27 с.

RUS TILINI O‘ZBEK TILI SIFATIDA O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Mumindjanova Saida Xaitmatovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tillar va maktabgacha ta’lim” fakulteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19692808

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada rus tilini o‘zbek tili asosida o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda til o‘rgatish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metod, raqamli ta’lim platformalari hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining o‘rni yoritiladi

KALIT SO‘ZLAR

rus tili, o‘zbek tili, innovatsion texnologiyalar, til o‘qitish metodikasi, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metod, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt, multimedia vositalari, interfaol metodlar, lingvistik kompetensiya, qiyosiy tilshunoslik, masofaviy ta’lim, ta’lim samaradorligi, til o‘zlashtirish

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования инновационных педагогических технологий в процессе обучения русскому языку на основе узбекского языка. В исследовании подчеркнута роль компетентностного подхода, коммуникативного метода, цифровых образовательных платформ и технологий искусственного интеллекта в процессе обучения языку

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

русский язык, узбекский язык, инновационные технологии, методика преподавания языка, компетентностный подход, коммуникативный метод, цифровое образование, искусственный интеллект, мультимедийные инструменты, интерактивные методы, лингвистическая компетентность, сравнительное языкознание, дистанционное образование, эффективность образования, овладение языком

Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish masalasi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, rus tilining mintaqaviy kommunikatsiya vositasi sifatidagi o‘rni, ilmiy-texnik axborotlar almashinuvida va kasbiy faoliyatda keng qo‘llanilishi uni samarali o‘qitish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi auditoriyaga rus tilini o‘rgatishda esa an’anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, axborotni tahlil qiluvchi va uni amaliyotda qo‘llay oluvchi shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, til o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika fanida xorijiy tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metod, interfaol texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish yetakchi o‘rin egallamoqda. Rus tilini o‘zbek tili asosida o‘qitishda aynan qiyosiy yondashuvdan foydalanish, ikki til tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali o‘quvchilarning lingvistik tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, multimedia vositalari, onlayn platformalar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensiallashtirish hamda o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv tus oladi.

Rus tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi auditoriyada o‘qitish masalasi zamonaviy til didaktikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metod va raqamli vositalarning integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Til o‘qitishning zamonaviy konsepsiyalariga ko‘ra, o‘quvchi faqat grammatik bilimlarni egallovchi emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan mustaqil va samarali foydalanishga qodir shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shu boisdan, rus tilini o‘qitishda o‘zbek tilining lingvistik imkoniyatlaridan tayanch sifatida foydalanish, ya’ni qiyosiy yondashuvni qo‘llash, o‘quvchilarning tilni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, til o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Masalan, ingliz tilshunosi Dell Hymes kommunikativ kompetensiya tushunchasini asoslab, til bilish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligini, balki tilni ijtimoiy kontekstda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi [1; 23-b.]. Shuningdek, M.Canale va M.Swain tomonidan ishlab chiqilgan modelda kommunikativ kompetensiya grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik

komponentlardan iborat ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [2; 45-b.]. Ushbu qarashlar rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi, chunki o‘quvchilar tilni faqat nazariy emas, balki amaliy kommunikatsiya vositasi sifatida egallashlari zarur.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham til o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati alohida e’tirof etiladi. Jumladan, Sh. Safarov tilni o‘qitishda kognitiv yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tafakkur jarayonlarini faollashtirish mumkinligini ta’kidlaydi [3; 67-b.]. Uning fikricha, til birliklari faqat formal tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilishi kerak. N.Mahmudov esa ona tili va xorijiy tilni o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llash zarurligini asoslab, til o‘rganishda milliy tilning tayanch vazifasini bajarishini alohida qayd etadi [4; 112-b.]. Shuningdek, A. Nurmonov til o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi [5; 89-b.]. Ushbu ilmiy qarashlar rus tilini o‘zbek tilida so‘zlashuvchi auditoriyada o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish zaruratini tasdiqlaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi til o‘qitish metodikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Elektron ta’lim platformalari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish imkonini bermoqda. Bu esa differensial va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, multimedia materiallari yordamida fonetika, leksika va grammatika elementlarini vizuallashtirish o‘quvchilarning bilimni tez va samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim texnologiyalari orqali o‘quv jarayonining uzluksizligini ta’minlash ham mumkin bo‘lmoqda.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqot tizimli, qiyosiy va funksional yondashuvlarga asoslanadi. Tizimli yondashuv til o‘qitish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Qiyosiy yondashuv esa rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlash orqali o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Funksional yondashuv esa til birliklarining nutq jarayonidagi vazifalarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligi asoslab berildi.

Rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitishda ko‘pincha metodik jihatdan yoritilgan asosiy yo‘nalishlar (kommunikativ yondashuv, qiyosiy metod, raqamli vositalar) bilan bir qatorda, amaliy jarayonda muhim bo‘lgan ayrim nozik bosqichlar yetarli darajada e’tibordan chetda qoladi. Jumladan, til o‘rganishda psixolingvistik moslashuv, individual o‘rganish strategiyalarini aniqlash, xatolarni diagnostika qilish va ularni tizimli bartaraf etish, shuningdek, baholash mezonlarini moslashtirish kabi jarayonlar o‘quv samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘zbek tilidan rus tiliga o‘tishda yuzaga keladigan interferensiya hodisalarini boshqarish va o‘quvchilarning til o‘zlashtirish trayektoriyasini monitoring qilish zamonaviy metodikaning muhim, ammo kam yoritilgan jihatlaridan hisoblanadi.

№	Jarayon nomi	Mazmuni	Metodik ahamiyati
1	Psixolingvistik moslashuv	O‘quvchining yangi til tizimiga ruhiy va kognitiv moslashuvi	Til o‘zlashtirish jarayonini tezlashtiradi, stressni kamaytiradi
3	Individual o‘rganish strategiyalari	Har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish usullarini aniqlash	Ta’limni individuallashtirishni ta’minlaydi
4	Diagnostik baholash	O‘quvchilarning bilim darajasini bosqichma-bosqich tahlil qilish	Ta’lim jarayonini moslashtirishga yordam beradi
5	Refleksiv o‘rganish	O‘quvchining o‘z bilim va xatolarini mustaqil tahlil qilishi	Mustaqil fikrlash va o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantiradi
6	Mikroko‘nikmalarni rivojlantirish	Tinglash, gapirish, yozish va o‘qish ko‘nikmalarini alohida rivojlantirish	Til kompetensiyasini kompleks shakllantiradi
7	Motivatsion monitoring	O‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini doimiy kuzatish	O‘quv jarayonining barqarorligini ta’minlaydi

Tadqiqot natijalariga asoslanib, rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish zarur, degan xulosaga kelindi. Xususan, dars jarayonlarini faqat an’anaviy izohlash va yodlashga asoslangan metodlardan voz kechib, kommunikativ va interfaol yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunda o‘quvchilarni real

hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali fikrlashga, muloqotga kirishishga va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish lozim. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning tilni amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning o‘rganishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini ham sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, rus tilini o‘qitishda o‘zbek tilining imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ya’ni qiyosiy yondashuvni keng joriy etish tavsiya etiladi. Til birliklarini ikki til doirasida taqqoslab o‘rganish orqali o‘quvchilarda til tizimi haqida yaxlit tasavvur shakllanadi, xatolarni ongli ravishda tahlil qilish va tuzatish ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, leksik va grammatik birliklarni o‘rganishda o‘xshashlik va farqlarni aniqlash o‘quv jarayonini soddalashtiradi va samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning lingvistik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va sun’iy intellekt elementlarini bosqichma-bosqich integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar va mobil ilovalar orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati kengayadi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va doimiy rivojlanishga intilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Natijada rus tilini o‘qitish jarayoni zamonaviy, moslashuvchan va samarali tizimga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In: J. B. Pride, J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected Readings (pp. 269–293). Harmondsworth: Penguin Books.
2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, Vol. 1, No. 1, pp. 1–47.
3. Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 256 bet.
4. Mahmudov, N. (2010). Til va ta’lim muammolari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 320 bet.
5. Nurmonov, A. (2012). Lingvistik tadqiqot metodologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 280 bet

MUSOBAQA VA MASHG‘ULOT JARAYONIDA KURASHCHILARNI PEDAGOGIK NAZORAT QILISHNI TAKOMILLAShTIRISH.

Qoraqulov.E.N.
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816033

ANNOTATSIYA

O‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilish uchun belgilangan mashqlarni qo‘llash metodikasi takomillashtirilgan .

KALIT SO‘ZLAR

o‘zini o‘zi massaj qilish, tiklanish, ish qobiliyati, massaj, jismoniy yuklama, sportchilarni tayyorlash

АННОТАЦИЯ

Усовершенствована методика применения специалных упражнений для оценки физической подготовленности и контроля общей и специалной подготовленности квалифицированных курашистов в учебно-тренировочном процессе .

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

тренировка спортсменов, восстановление, повышение производительности, массаж, самомассаж, физическая активность

ABSTRACT

The methodology for the use of a complex of general and special exercises for assessing the physical training of qualified wrestlers in the process of training is improved.

KEY WORDS

training athletes, recovery, performance, massage, self-massage, physical activity

DOLZARBLIGI.

Kurash milliy sport turida sport natijalarining o‘sishi malakali kurashchilarni tayyorlashning samarali tizimini oqilona tuzishga bog‘liq. Musobaqa va mashg‘ulot vositalarining to‘g‘ri taqsimlanishi, rejalashtirilishi va musobaqa faoliyatida nazorat qilinishi malakali kurashchilarni tayyorlashni boshqarishning samaradorligi oshishiga qay darajada yordam berishini aniqlash hamda ilmiy asoslab berish muhim ahamiyatga ega.

Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilish vositalari va metodlarini nazariy asoslash zamirida yakkakurash turlarida sportchilar tayyorgarligini boshqarishning uch pog‘onali funksional tizimi yotadi (unda uchta asosiy pog‘ona ajratilgan bo‘lib, u butun tayyorgarlik tizimini to‘liq hajmda tasavvur qilishga va tizimning boshqaruv va boshqariluvchi elementlari orasidagi optimal nisbatlarni aniqlashga imkon beradi) [A.A.Novikov].

A.A.Novikovning uch pog‘onali tizimiga asoslanib, malakali kurashchilarning tayyorgarligini pedagogik kompleks nazorat qilish sxemasi ishlab chiqildi. Malakali kurashchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat asoslarini rivojlantirishda, birinchi navbatda, organizmning yosh bilan bog‘liq rivojlanishi, shuningdek, funksional tizimlarning individual rivojlanishi, tabiiy o‘sish jarayonida sifat va xususiyatlarning o‘zgaruvchanligi va o‘zgarmas darajasi, yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar ta’sirida o‘ziga xos ko‘nikmalarni rivojlantirishda individual xususiyatlarni hisobga olish zarur.

Tadqiqotning maqsadi malakali kurashchilarning musobaqa va mashg‘ulot jarayonini pedagogik nazorat qilishning nazariy-metodik asoslarini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT USULLARI.

Maqolada ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, pulsometriya, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan

TADQIQOTNI TASHKILLASHTIRISH.

Malakali kurashchilarning mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini hisobga olish hamda tahlil qilish tizimi asoslanib, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining samarali vositalari va metodlari aniqlangan. Malakali kurashchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining model tavsiflari ishlab chiqilib, unifikatsiyalashgan tizimning musobaqa va mashg‘ulot faoliyati natijadorligini oshirishda samaradorligi aniqlab berilgan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi: Mazkur maqola jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi respublikamiz va xorijiy olimlarning fikr-mulohozalariga asoslanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Olingan ma’lumotlar va natijalar kompyuter texnikasi yordamida to‘g‘ri qayta ishlab chiqilgan. Mazkur ishda berilgan xulosalar va ilmiy tavsiyalarning ishonchliligi malakali kurashchilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini pedagogik nazorat qilish nazariyasi va metodikasining konseptual muammolarini hal etish zarurati bilan asoslanadi.

Milliy sport turi kurashda, agar amaliyotchi murabbiy kurashchining holati to‘g‘risida kerakli axborot minimumiga ega bo‘lmasa, mashg‘ulot jarayonini boshqarish to‘g‘risida gapirish mumkin emas. Shu sababli asosiy e’tiborni umumiy boshqaruv tizimidagi aynan shu bo‘g‘inga qaratish lozim. Bugungi kunda zamonaviy sport turlari bo‘yicha uchta nazorat turi: bosqichli, joriy va tezkor nazorat va nazoratning uchta yo‘nalishi mavjud: musobaqa faoliyatini nazorat qilish, tayyorgarlik tomonlari nazorati va organizm tizimini nazorat qilish. Kurashchilarni tayyorlashda pedagogik nazorat faqat barcha yo‘nalishlar va turlar rivojlanishi bilan mavjud bo‘lishi mumkin (1-jadvalga qarang).

1-jadval Kurashda pedagogik nazoratni tashkil etish xususiyatlari

Назорат йўналиши / Назорат турлари	Мусобақа фаолиятини назорат қилиш (МФН)	Тайёргарлик tomonlarini nazorat qilish (TTN)	Organizm tizimlarini nazorat qilish (OTN)
Bosqichli nazorat (BN)	1	4	7
Joriy nazorat (JN)	2	5	8
Tezkor nazorat (TN)	3	6	9

Ushbu sxemali jadvaldan ko‘rinib turibdiki, pedagogik nazoratni tashkil qilishda nazorat turlari kombinasiyalariga qarab test va nazorat mashqlarini tanlash kerak:

MFN– BN – JN – TN (1, 2, 3)
TTN – BN – JN – TN (4, 5, 6)
OTN – BN – JN – TN (7, 8, 9)

O‘quv-mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazoratning barcha turlarini qo‘llash kurashchilar tayyorgarligini nazorat qilish samaradorligini oshiradi.


Ushbu sxema bo‘yicha kurashning barcha turlari va miqiyosini hisobga olgan holda kurashchilarni tayyorlashda kompleks pedagogik nazorat qilish dasturi ishlab chiqildi.

Hujum harakatlarining tahlili bellashuvni olib borish manzarasini hujumning asosiy lahzalarini aniq ajratib olgan holda aniqlashtirish imkonini beradi. Bu tahlil murabbiyga qiziq bo‘lishi mumkin, chunki u bundan bellashuvni olib borishning turli tuzilmalarini ishlab chiqish, shuningdek, kurashchi organizmining energiya ta’minoti samaradorligini oshirish maqsadida funksional tayyorgarlik dasturini tuzish uchun foydalanishi mumkin.

Kurash milliy sport turida pedagogik nazoratni tashkil qilish va o‘tkazish uchun har bir sanab o‘tilgan nazorat turlari bo‘yicha ob’ektiv mezonlarni aniqlab olish zarur. Biz kurashda kompleks pedagogik nazorat sxemasini ishlab chiqdik. Bu erda jismoniy yuklamalar, jismoniy tayyorgarlik va musobaqa faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish xususiyatlari yoritilgan (1-rasmga qarang).

Kurash milliy sport turida pedagogik kompleks nazorat sxemasi

Kurash milliy sport turida pedagogik kompleks nazorat sxemasi



Yuqorida tilga olingan kurashchilarni tayyorlash tizimida eng asosiylaridan biri nazorat qilish kichik tizimi bo‘lib, unga, texnik-taktik mahoratni tahlil qilish, musobaqa faoliyatini o‘rganish metodikalaridan tashqari, harakat qobiliyatinining rivojlanishi va ularning maxsus faoliyatga o‘xshash sharoitlarda amalga oshirilishi darajasini baholash testlari batareyasi kiritildi. Xususan, ushbu testlar batareyasi kurash sport turida qo‘llash uchun mo‘ljallangan

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, mashg‘ulot va musobaqa faoliyatining tahlili asosida tanlangan testlar yanada axborotli va ishonchli bo‘lib,

bu o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etishga yordam berdi (2-jadvalga qarang).

2-jadval Malakali kurashchilarning harakat qobiliyatini baholovchi testlarning barqarorlik va axborotlilik omili.

T/r	Ko‘rsatkichlar	Barqarorligi	Axborotlilik omili
1	30 m ga yugurish (s)	0,912	0,598
2	Turnikda tortilish (marta)	0,927	0,731
3	Yotgan holatda qo‘llarni bukib-ëzish (marta)	0,347	0,721
4	Brusda qo‘llarni bukib-ëzish (marta)	0,616	0,524
5	Teng vaznli sherik bilan o‘tirib-turish (marta)	0,754	0,498
6	Gimnastika devorida osilgan holda oëqlarni 90^0 gacha ko‘tarish (marta)	0,907	0,651
7	Parallel o‘rindiqda tik turib, teng vazndagi sherikni ko‘tarib tushirish (marta)	0,376	0,408
8	Oëqlar ërdamisiz arqonga ko‘tarilish, 4 m.(s)	0,734	0,508
9	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	0,691	0,597
10	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	0,554	0,347
11	To‘ldirma to‘pni bosh ustidan oldinga otish (3 kg) (m)	0,437	0,517
12	To‘ldirma to‘pni orqaga otish (3 kg) (m)	0,911	0,727
13	Kurakda ëtgan holda tanani egish,20 s (marta)	0,718	0,521
14	3000 m. masofaga yugurish (m, s)	0,511	0,608
15	Mokisimon yugurish, 3x10 m(s)	0,918	0,641
16	Beldan oshirib tashlashlar, 10 marta (s)	0,695	0,545
17	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 5 - chapga, 5 - o‘ngga (s),	0,601	0,607
18	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 10 marta (s)	0,607	0,718
19	Elkadan oshirib tashlashlar,10 marta (s)	0,719	0,711
20	Bordor usulida manekenni 10 marta tashlash (s)	0,476	0,702

2- jadvaldan ko‘rinib turibdiki, testlar ishonchliligi 20 tadan 9 tada-yuqori korrelyaцiya koэffiцientlari (0,7-0,9) va 7 tada - korrelyaцiya koэffiцientining o‘rtacha qiymati (0,5-0,7). Bu shundan dalolatki, asosiy testlar bajarilish holati bo‘yicha ishonarli va baholash tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. 2-

jadvaldagi natijalarni tahlil qilish uchun quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi: 6 ta yuqori korrelyaцiya koэffiцienti (0,7-0,9) va 10 ta chegara (0,5-0,7) ichida bo‘ldi, bu o‘rtacha korrelyaцiya koэffiцientidan guvohlik beradi. Axborot testlari, shuningdek, sinash testlari kabi, kurashchilarning jismoniy sog‘lig‘ini aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Ishonchli va axborot berish uchun sinovdan o‘tgan testlar natijalarini baholash uchun yangi tizim ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang). Jadvalda kurashda baholash tizimini joriy qilishda yangi vazn toifalari va besh ballik tizim qo‘llanildi. Barcha ko‘rsatkichlar kurashchilarning uchta vazn toifasiga bo‘lingan (60-66 kg) , (73-81kg) va (90-100 va +100 kg).

3- jadval Malakali kurashchilarning UJT va MJT ko‘rsatkichlari

T/r	Nazorat mashqlari va o‘lchov birliklari	Vazn toifalari va ballar														
		60-66 kg					73-81 kg					90-100 +100 kg				
		1	2	3	4	5	1	2	3	4	5	1	2	3	4	5
1	30 m ga yugurish (s)	5,2	5,1	5,0	4,9	4,8	5,3	5,2	5,1	5,0	4,9	5,8	5,7	5,6	5,5	5,4
2	Turnikda tortilish (marta)	10	14	18	25	30	10	13	17	20	25	4	8	10	12	15
3	Yotgan holatda qo‘llarni bukib-yozish (marta)	35	40	50	60	70	35	40	45	50	55	20	25	30	35	40
4	Brusda qo‘llarni bukib-yozish (marta)	10	20	30	40	50	20	25	30	35	40	5	8	12	15	20
5	Teng vaznli sherik bilan o‘tirib-turish (marta)	6	8	10	12	14	8	10	12	14	15	4	6	8	10	12
6	Gimnastika devorida osilgan holda oyoqlarni 90^oga	8	10	15	20	25	8	10	15	20	25	4	6	8	12	15

	ko‘tarish (marta)															
7	Parallel o‘rindiqda tik turib, teng vazndagi sherikni ko‘tarib tushirish (marta)	6	8	10	12	15	6	8	10	11	13	2	4	6	8	10

8	Oyoqlar yordamisiz arqonga ko‘tarilish 4m (s)	11,0	10,5	10,0	9,5	9,0	12,0	11,5	11,0	10,5	10,0	13,0	12,5	12,0	11,5	11,0
9	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	220	230	240	250	260	200	220	230	240	250	160	170	180	200	220
10	Turgan joydan balandlikka sakrash (sm)	60	65	70	75	80	50	55	60	65	70	25	30	35	40	45
11	To‘ldirma to‘pni bosh ustidan oldinga otish (3 kg) (m)	11,0	11.5	11,0	12,5	13,0	12,0	12,5	13,0	14,5	15,0	15,0	15,5	16,0	16,5	17,0
12	To‘ldirma to‘pni orqaga otish (3 kg) (m)	11,0	11.5	11,0	12,5	13,0	12,0	12,5	13,0	14,5	15,0	15,0	15,5	16,0	16,5	17,0
13	Kurakda yotgan holda tanani egish, 20 s (marta)	40	45	50	55	60	30	35	40	45	50	10	15	20	25	30

14	3000 m. masofaga yugurish (m.s)	12,45	12,30	12,15	12,00	11,45	13,00	12,45	12,30	12,45	12,00	13.30	13,15	13,00	12,45	12,30
15	Mokisimon yugurish, 3x10 m(s)	8,3	8,1	7,8	7,5	7,0	9,0	8,8	8,5	8,1	7,8	9,2	9,0	8,8	8,6	8,4
16	Beldan oshirib tashlashlar,10 marta (s)	17,0	16,0	15,0	14,0	13,0	18,0	17,0	16,0	15,0	14,0	19,0	18,0	17,0	16,0	15,0
17	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar:5 - chapga, 5 - o‘ngga (s),	24,0	23,0	22,0	21,0	20,0	25.0	24,0	23,0	22,0	29,0	28,0	27,0	26,0	25,0	24,0
18	Ko‘prik holatda bosh atrofida aylanishlar: 10 marta (s)	26,0	24,0	22,0	20,0	18,0	28,0	26,0	24,0	22,0	20,0	30,0	29,0	28,0	26,0	24,0
19	Elkadan oshirib tashlash ,10 marta (s)	25,0	20,0	17,0	15,0	13,0	25,0	20,0	18,0	16,0	14,0	30,0	25,0	23,0	20,0	18,0
20	Bordor usulida manekenni 10 marta tashlash (s)	28,0	25,0	21,0	19,0	17,0	30,0	28,0	25,0	23,0	20,0	40,0	38,0	35,0	32,0	30,0

Yangicha yondashuv yordamida malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini ob’ektiv baholash mumkin. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining koэffiцientlarga aylantirilishi turli xil malakali kurashchilarning ko‘rsatkichlarini taqqoslashga, shuningdek, har bir kurashchining harakat qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Ushbu testlar batareyasining afzalligi shundaki, murakkab uskunalardan foydalanmasdan kurashchilarni mashg‘ulot faoliyatining deyarli har qanday sharoitlarida sinovdan o‘tkazish imkonini beradi.

Shu bilan birga, kurashchining harakat qobiliyatlari rivojlanishi darajasini ob’ektiv ravishda aks эttiruvchi ma’lumotlarni taqdim эtadi.

Malakali kurashchilarning UJT va MJT integral ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun 4-jadval ishlab chiqilgan, bu maxsus jismoniy tayyorgarlikning barcha 20 ta testlari uchun umumlashtirilgan ko‘rsatkichni aniqlash imkonini beradi. 4-jadvaldan ko‘rinib turganidek, barcha ballar yig‘indisining maksimal qiymati 100 ball, bu sportchilar jismoniy tayyorgarligining yuqori darajasi. 80 ball maxsus jismoniy tayyorgarlikning yaxshi ko‘rsatkichidir, ammo siz darhol bir yoki bir nechta testda qaerda kechikish borligini ko‘rishingiz mumkin. 60 ball maxsus jismoniy tayyorgarlikning o‘rtacha ko‘rsatkichi bo‘lib, kurashchi kam tayyorgarlikka эga эkanligini ko‘rsatadi.

4-jadvalMalakali kurashchilarning UJT va MJT ko‘rsatkichlari

Shartli birliklar	**Sinovlar uchun yig‘ilgan ballar**				
Pedagogik baholash	100-80	80-60	60-40	40-20	20-10
	A’lo ko‘rsatkich	Yaxshi ko‘rsatkich	O‘rta ko‘rsatkich	Bo‘sh ko‘rsatkich	Juda bo‘sh ko‘rsatkich

40 ball va 20 ball kurashchi tayyorgarligining bo‘sh эkanligini ifodalaydi. Ushbu jadvaldan foydalanib, murabbiy kurashchilarning tayyorgarligidagi kuchli va zaif tomonlarni ko‘ra oladi, olingan natijalarga asoslanib, maqsadga muvofiq o‘quv-mashg‘ulot jarayonini tashkil qiladi.

Kurashchilar tayyorgarligini boshqarish tayyorgarlikning individual model tavsiflari asosida amalga oshiriladi. Tayyorgarlikning model tavsiflari jismoniy tayyorgarlikni testlash ma’lumotlari, texnik-taktik mahoratning эkspert baholari va musobaqa faoliyati ayrim tarkibiy qismlarining miqdoriy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida tuziladi. Shuningdek, kurashchilar tayyorgarligini boshqarish bunday bashorat qilinayotgan model tavsiflarning bir-biriga muvofiqligi darajasi, shuningdek, sport mahoratining ayrim parametrlari orasidagi o‘zaro kompensator bog‘liqliklarni aniqlash asosida amalga oshiriladi (ular yuqori sport natijasiga эrishishni ta’minlaydi).

XULOSA.

Taklif etilayotgan mazkur yondashuv malakali kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini o‘rganish, ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash hamda har bir kurashchining harakat qobiliyatlari rivojlanishini nazorat qilib borish imkonini beradi. Bu kompleksning afzalligi uning texnologiyasidadir: u, murakkab apparaturadan foydalanmay turib, kurashchilarni mashg‘ulot faoliyatining deyarli har qanday sharoitlarida testlash imkonini beradi. Ayni paytda u kurashchi harakat

qobiliyatlarining rivojlanish darajasini aks ettiruvchi axborotni beradi, bu yuqorida bayon qilingan tahliliy va statistik amallar bilan asoslanadi

Tadqiqotda har birida 18 nafardan sportchi bo‘lgan ikkita guruh tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Kurashchilar tayyorgarlik darajasining dastlabki ko‘rsatkichlari sifatida tayyorgarlik davrining birinchi oyi davomida amalga oshirilgan testlash natijalari olindi. Tajriba oxirida yana ikkita nazorat test sinovlari o‘tkazildi. Tayyorgarlikni nazorat qilish avval aniqlangan kurashchilarning musobaqalar sharoitlaridagi harakat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini aks эttiruvchi va oldindan tanlab olingan test vazifalari bo‘yicha amalga oshirildi. Tajriba guruhining tayyorgarligi ishlab chiqilgan dastur asosida o‘tkazildi. Bu dasturda musobaqa faoliyati shiddati, shuningdek, malakali kurashchilarning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarliklarini ifoda эtuvchi miqdoriy ma’lumotlar э’tiborga olingan.

Kurashchilar musobaqa faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy texnik-taktik harakatlarning individual xususiyati o‘quv-mashg‘ulot jarayonida kurashchilarning sport tayyorgarligini individuallashtirishga metodik jihatdan urg‘u berishimizni belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ” Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4881-son qarori 2020-yil 4-noyabr.
2. Керимов Ф.А. Теория и методика спортивной борбы //Учебник. Т., 2001, - 245 с.
3. Mirzaqulov Sh.A. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslublari //O‘quv qo‘llanma T.: 2014 - 216 b
4. Мирзанов Ш.С., Ишмухамедов Т.Р. Методика силовой подготовки юных белбогли курашистов //Фан - спортга , 2014, №3, стр. 3-9
5. Панасюк Т.В. , Тамбовцева Р.В. – Конституционалные особенности физической работоспособности подростков. В ИИ Международный научный конгресс «Современный олимпийский спорт и спорт для вцех», Том ИИ, Москва, 2003. – 135 с.
6. Сафарова Д.Д., З.Ю.Газиева, Н.Г.Гулямов Морфогенетические маркеры скоростных качеств в практике прогнозирующего отбора // Научно – теоретический журнал «Наука и спорт: современные тенденции», 2015, №3, том 8, стр. 32-38
7. Carter J.L. – “Somatotype characteristics of champion athletes”, Rep, Antrop-Cong. ed. A. Hrdica, Praha, Humpolec. 1969.

XALQ DOSTONLARI MATNI TAHLILIGA DOIR ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH

Matkarimova Sayyora Shavkatbek qizi
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti Tillar va maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri, p.f.f.d.(PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.19882806

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumtalim maktablarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishda o'quvchilarning kreativ tafakkurini zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan unumli foydalanish asosida rivojlantirish bayon etilgan, xususan xalq dostonlari misolida.

KALIT SO'ZLAR

Adabiyot, maktab, milliy madaniyat, folklor, xalq og'zaki ijodi, doston.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается развитие творческого мышления учащихся при преподавании устных народных произведений в средних школах на основе эффективного использования современных педагогических технологий, в частности, на примере народных эпосов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Литература, школа, национальная культура, фольклор, устное народное искусство, эпос.

ABSTRACT

This article describes the development of students' creative thinking in the teaching of folk oral works in secondary schools based on the effective use of modern pedagogical technologies, in particular, on the example of folk epics.

KEY WORDS

Literature, school, national culture, folklore, oral folk art, epic.

Zamonaviy maktabda adabiy ta'limning maqsadlaridan biri o'quvchilarni so'z san'ati bilan tanishtirishdir. Bu umumiy va kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashga, maktab o'quvchilarining muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu

borada folklorning o‘rni katta bo‘lib, ular bilan tanishish maktab o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishga imkon beradi va o‘z milliy madaniyati tarixini chuqur anglashlariga yordam beradi.

“Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limi – maktab adabiyoti kursidagi eng an’anaviy bo‘limlardan biri bo‘lib, ixtisoslashgan maktablar zamonaviy dasturlarida mazkur bo‘limning mazmuni, janr xilma-xilligi qayta ko‘rib chiqildi va yangilandi. Shuning uchun ham uni o‘rganish tizimini batafsil ishlab chiqish adabiyot o‘qitish tizimida dolzarb bo‘lib turgan muammolardan biridir.

Aslida bu muammo nafaqat ixtisoslashgan, balki an’anaviy maktab adabiyot darslarini o‘qitishda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ushbu omillar muammo qariyb bir asrlik tarixga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ko‘pchilik metodist va o‘qituvchilar (V. Yu. Stoyunin, V. P. Skogshn, V. I. Vodovozov, F. I. Buslayev, Yu. M. Sokolov, M. A. Ribnikova) xalq og‘zaki ijodini o‘qitishni xalqning dunyoqarashini tushunish usuli deb bildilar. V. Ya.Stoyunin folklorni o‘quvchilarni xalq ma’naviy hayoti bilan tanishtirish vositasi deb hisoblagan; “Bizning zamonamizda ayniqsa, xalqqa yaqinlashish zarurati ongi vujudga keldiki, bundan, albatta, bu xalqni bilishning birinchi ehtiyoji kelib chiqadi”

V.I.Vodovozov xalq og‘zaki ijodida, eng avvalo, uning ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rdi, chunki “qo‘shiq, doston va ertaklarda odamlar o‘zlarining eng yaxshi fikrlari, intilishlari va umidlarini mujassam etganlar. Asrlar o‘tishi bilan ular o‘z kuch-qudratini, jozibasini yo‘qotmagan, shu tufayli ham xalq og‘zaki ijodi o‘zida qimmatli ta’lim va tarbiyaviy materialni ifodalaydi”

M. A. Ribnikova va Yu. M. Sokolovning folklorni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlari uning badiiy adabiyot va she’riy til taraqqiyotidagi rolini tushunish bilan belgilanadi.

O‘zbek folklorshunos olimlari:

Folklorni tadqiq etish borasida mafkuraviy tazyiq va chegaralanishlar ta’siri yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun mustaqillik davri folklorshunosligi tamomila bir yangi folklorshunoslikdir. Bugungi kunda ham faol ijod qilib kelayotgan T.Mirzayev, O.Safarov, O.Madayev, M.Jo‘rayev, Sh.Turdimov, J. Eshonqulov kabi folklorshunos olimlarning izlanishlarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Rus folklorshunos olimlari va o‘zbek folklorshunos olimlarining fikrlarini bo

Maktabda folklorni o‘rgatishdan maqsad o‘quvchilarga xalq og‘zaki ijodining boyligini va xalqning bitmas-tuganmas ijodiy kuchini ochib berish, bolalarga xalq she’riy asarlarining hissiy tajribasini targ‘ib qilishdir.

Ma’lumki, M.A. Ribnikova o‘quvchilarning estetik tuyg‘ularini, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan darslarning yagona uslubiy tizimini yaratgan metodist olimlardan biridir.

Metodist o‘quvchilar nutqini rivojlantirish ishining dastlabki bosqichi – badiiy nutq bilan tanishish sifatida xalq og‘zaki ijodiga alohida e’tibor qaratadi.

Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarning yorqin va noyob folklor obrazlarini idrok etishida, og‘zaki xalq ijodiyoti asarlarini o‘rganishida folklor “ijod laboratoriyasi”ga kirib borishi muhim ahamiyatga ega.

Xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish yo‘llari adabiy ta’limning umumiy vazifalari bilan belgilanadi. Shunday vazifalardan biri adabiy asarni chuqur, mustaqil idrok etishga qodir, estetik did, umumiy va kitobxonlik madaniyatiga ega bo‘lgan malakali o‘quvchini tayyorlashdir.

Aksariyat zamonaviy metodist olimlar folklor asarlarini o‘rganishni ushbu maqsadga erishishning boshlang‘ich bosqichi sifatida qabul qilishadi.

Bu yondashuv ko‘plab joriy dasturlarda o‘z aksini topgan.

Ixtisoslashgan maktab adabiyot dasturida (biz tadqiqotimizda unga tayanamiz) folklor asarlarini o‘qitishda uning yuksak badiiyat namunasi ekanligini singdirish janriy xususiyatlari bilan tanishtirishdan boshlanadi.

Olimlarning folklor asarlarini o‘rganish muammolariga ko‘p bora murojaati va bu sohadagi ko‘plab tadqiqotlar maktab amaliyotida og‘zaki xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish yo‘llari masalasi haligacha yakuniy hal etilmaganligini isbotlaydi.

Demak, masalaning dolzarbligi, birinchidan, ixtisoslashgan adabiy ta’limda xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganish muammosining janr o‘ziga xosligini hisobga olgan holda yetarlicha uslubiy ishlab chiqilmaganligi; ikkinchidan, tanlangan muammoni hal qilishning samarali vositalarini topish zarurati bilan belgilanadi.

Agar folklor asarlarini o‘zlashtirish jarayonida xalq og‘zaki ijodining har bir janrining o‘ziga xos xususiyatlarini ham, ularning o‘zaro bog‘liqligini ham hisobga oladigan tizim qo‘llanilsa, xalq og‘zaki ijodining kichik janrlarini o‘rganishning uslubiy modeli ham shunday bo‘ladi. ularning kattaroq janrlar (xalq dramasi) bilan bog‘lanishiga qaratilgan bo‘lib, bu maktab o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini, shuningdek, og‘zaki va yozma nutqini samarali yaxshilash imkonini beradi.

Shunga ko‘ra maqolada ixtisoslashtirilgan maktabda xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganishning uslubiy tajribasini umumlashtirish; xalq og‘zaki ijodining differensial adabiy ta’lim tizimidagi o‘rni va rolini aniqlash; turli janrdagi folklor asarlarini o‘zaro munosabatlari va o‘zaro kirib borishini o‘rganish zarurligini asoslash; folklorning kichik janrlarini o‘rganishning uslubiy modelini va xalq dostonlarini o‘rganish tizimini ishlab chiqish; folklorning turli janrlarini o‘rganish, ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olgan holda, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini faollashtirishning eng samarali usul va usullarini aniqlash; maktab

o‘quvchilarining kommunikativ va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan vazifalar turlarini aniqlash kabi vazifalar belgilab berildi.

Quyida “Ravshan” dostoni yuzasidan ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ba’zi usullarni tavsiya etamiz:

Obrazlarning asardagi ahamiyatini o‘rganish maqsadida RASHM strategiyasi texnologiyasini qo‘llash mumkin.

RASHM strategiyasi - bu ma’lum bir mavzu bo‘yicha yozma matnlar yaratish. Ushbu strategiya improvizatsiyaga tayyorgarlikni shakllantirishi bilan ahamiyatli. Strategiya o‘quvchidan ma’lum miqdorda ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi va nazariy bilimlarni amaliy qo‘llash, materialni takrorlash darslarida samarali usul hisoblanadi.

R - rol, o‘quvchi kimning nomidan yozishini tanlaydi.

A - u murojaat qiladigan auditoriya.

Sh – shakl, material qanday shaklda yoziladi (latifa, hikoya, dialog, eslatma)

M - mavzu, matn nima haqida bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodining “Ravshan” dostoni yuzasidan “RASHM” strategiyasini o‘tkazish namunasi:

O‘quvchi Og‘a Yunus pari (enasi) va Xasanxon (otasi) nomidan Ravshanga “sog‘inganligi” mavzusida xat yozadi.

R – Og‘a Yunus pari (enasi) va Xasanxon (otasi),

A – Ravshan,

Sh – xat,

M – sog‘inch tuyg‘usi.

Doston badiiyatini o‘rganish maqsadida Doira bo‘ylab xat yozish” texnologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

Doira bo‘ylab xat yozish” texnologiyasi guruh shaklida faoliyat yuritishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar nafaqat berilgan mavzu haqida o‘ylashlari, balki o‘z fikrlarini guruh a’zolari bilan muvofiqlashtirishlari kerak. Guruhning har bir a’zosida qo‘lidagi qog‘ozga berilgan mavzu bo‘yicha bir nechta jumlalarni yozadi, so‘ngra varaqni yonidagi sinfdoshiga uzatadi, u o‘z fikrlarini davom ettirishi kerak. Qog‘ozdagi xat o‘z egasiga qaytguncha davom ettiriladi.

“Ravshan” dostonini o‘rganish jarayonida bu texnologiya nazariy bilimlarni mustahkamlashga qaratiladi. O‘qituvchi har bir guruhga dostonda mavjud badiiy til vositalarini topib, misoli bilan yozib borishni taklif etadi. Guruhlar ko‘proq ma’lumot topishga rag‘batlantirilib turiladi. O‘quvchilar taxminan quyidagi ma’lumotlarni aniqlab yozadilar:

Talmeh san’ati:

— E bolam Ravshanjon, muddaong Avazning qizi — Gulanor bo‘lsa, aslo g‘am yema! “Qizi borning nozi bor” degan, shunday-shunday deydi-da.

Sifatlash san’ati:

Jiyronqush ham shunday ot: to‘rt oyog‘i teng tushgan, biqini yoziq keng tushgan, qarchig‘ayning havosi tekkan.

Qofiyalar nasr:

Ravshanbek otini hovlidan chiqarib, ota-enasidan g‘oyibona rozi bo‘lib, ko‘chaning yuzi bilan, odamlarning izi bilan gulday jaynab, suqsurday bo‘ylab, parvoz aylab, taraqqos boylab, ostida Jiyronqush oti har usulda o‘ynab borayotir.

Ana endi Ravshan polvon otasining so‘zlariga javob berib, ko‘ngli buzilib, yurak-bag‘ri ezilib, ko‘zining yoshi tizilib, boshidan o‘tgan sir-savdosini otasiga aytib, o‘zidan o‘tganidan xabardor qilib, bir so‘z aytayotir.

Dostonning til uslubini tadqiq qilish maqsadida darslikda berilgan doston matniga tayanib Go‘ro‘g‘li, Hasanxon va Ravshanning badiiy portretini o‘z so‘zlaringiz bilan matn ko‘rinishida yaratishga harakat qiling topshirig‘ini bajarish topshiriladi. Bunda o‘qituvchi doston matnidagi qahramonlar qiyofasini yaratishga xizmat qiladigan so‘zlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Go‘ro‘g‘li	Hasanxon	Ravshan
Mard	Sher haybatli	Mard
Qo‘rqmas	Yo‘lbars kelbatli	Polvon
Polvon	Qoplon yurakli	Qo‘rqmas
	Arslon bilakli	Haybatli
	Mard	Ravshan
	Polvon	

Xulosa qilganda, turli folklor janrlaridagi asarlarni ularning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda o‘rganish ularning estetik va badiiy o‘ziga xosligini chuqurroq anglash, maktab o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi xalq og‘zaki ijodining ajralmas qatlami sifatidagi g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. (O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma)-T: “O‘qituvchi”,1996
2. Shermatova U.S. Aesthetics of nature in Cholpon's work // Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804

3. Shermatova U.S. Aesthetics of nature in Cholpon's work // Academic research in educational sciences volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804
4. Matkarimova, S. S., & Umaraliyeva, M. N. (2023). O ‘TKIR HOSHIMOVNING PSIXOLOGIK TASVIR MAHORATI (“URUSHNING SO ‘NGGI QURBONI” HIKOYASI MISOLIDA). European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 13, 253-255.
5. Matkarimova, S. S. (2023). BADIIY ASARLAR: ERTAK, HIKOYA MAZMUNINI O ‘ZLASHTIRISH METODIKASI (2-SINF O ‘QISH VA ONA TILI SAVODXONLIGI DARSLIGI MISOLIDA). O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 151-155.
6. қизи Маткаримова, С. Ш. (2020). АДАБИЁТ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ДАРСЛИКЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Science and Education, 1(Special Issue 3), 127-133.
7. Маткаримова, С. Ш. Қ. (2023). ИХТИСОСЛАШГАН МАКТАБ АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА ЁЗУВЧИЛАРНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-МЕТОДИК ЁНДАШУВЛАР. Academic research in educational sciences, 4(11), 5-14.
8. Matkarimova , S. (2023). FORMING CREATIVE THINKING THROUGH CREATIVE TASKS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 4(5), 144–153. https://doi.org/10.37547/mesmj-V4-I6-22
9. Matkarimova , S. (2023). TECHNOLOGIES FOR STUDYING PEOPLE’S ORAL CREATION SAMPLES IN DIFFERENTIAL LITERARY EDUCATION (FOR THE EXAMPLE OF FOLK EPISTLES). Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal.

TURK-RUN BITIGOSHLARI LEKSIKANING NAZARIY TALQINI: TURKIY DAVLATLARDAGI TADQIQOTLAR MISOLIDA

Dustmurodov Ma'rufjon Mansur o'g'li
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.19692972

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada turk-run bitigtoshlari leksikasining nazariy talqini turkiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'rxun-Yenisey yozma yodgorliklari, shuningdek, qadimgi turkiy davlatchilikka oid epigrafik va tarixiy manbalar asosida bitiglar tilidagi leksik birliklarning o'rganilish darajasi yoritiladi. Turkiya, MDH mamlakatlari hamda O'zbekiston olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar qiyosiy tahlil qilinib, qadimgi turkiy til leksikasining turli sohalari – harbiy, ma'muriy, ijtimoiy va qarindoshlik terminologiyasining tadqiq etilishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, maqolada bitigtoshlar leksikasining turkiy tillarning tarixiy taraqqiyoti, davlatchilik tizimi hamda terminologik qatlamining shakllanishidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari turk-run bitiglari tilining leksik boyligi va uning turkiy xalqlar til tarixidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR:

turk-run bitiglari, O'rxun-Yenisey yodgorliklari, qadimgi turkiy til, leksika, turkiy davlatchilik.

KIRISH

Turkiy tilga tegishli bo'lgan ilk yozma hujjatlar bo'lmish qadimgi turk-runik bitiglar soni hozirgi davrda yetti yuzga yaqin deb ko'rsatiladi. V.Tomsen tomonidan boshlangan mazkur yozuvdagi yodnomalar tadqiqi XIX asr oxiridan beri minglab turkiy olam, shuningdek turkiy bo'lmagan mamlakatlar olimlarini o'ziga tortib kelmoqda. Yodnomalardagi ma'lumotlar nafaqat tarixiy turkiy tilning turli davrlari, balki hozirgi davr turkiy tillaridagi ba'zi lingvistik masalalarni oydinlashtirishda

ham katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, turkiy xalqlar tarixining eng qadim bosqichlarini o‘rganishda eng ishonchli yozma manbalardan biri sifatida O‘rxun-Yenisey yodgorliklari, shuningdek Turfon, Talas va Osiyoning boshqa mintaqalaridan topilgan turkiy hamda sug‘diy tillardagi bitiglar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu epigrafik manbalar hun davridan so‘ng keng turkiy arealda kechgan etno-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy jarayonlar haqida noyob dalillarni o‘zida mujassam etadi. Ayniqsa, turkiy xoqonliklarning shakllanish jarayoni, davlat tizimining barpo etilishida muhim rol o‘ynagan asoschi shaxslar va harbiy yetakchilarning faoliyati, ularning mardonovor janglari, strategik qarashlari va siyosiy mahorati haqida muhim ma’lumotlar beradi. Bitiglarda, shuningdek, ichki ziddiyatlar, siyosiy tarqoqlik va sulola ichidagi kurashlar oqibatida yuzaga kelgan og‘ir oqibatlar, mag‘lubiyatlar hamda ulardan chiqarilgan ibratli xulosalar teran badiiy-tasviriy vositalar orqali aks ettirilgan. Shu jihatdan, mazkur yozma manbalar nafaqat tarixiy faktlarni qayd etuvchi hujjat sifatida, balki turkiy dunyoqarash, siyosiy madaniyat va harbiy an’analarni yorituvchi birlamchi lingvistik va madaniy-tarixiy manbalar sifatida ham beqiyos ilmiy qiymatga ega.

MAVZUGA OID MANBALAR TAHLILI

Turk va Uyg‘ur xoqonliklari tarixining ayrim qirralarini yoritishda xitoy yilnomalarida qimmatli ma’lumotlar o‘z in’ikosini topgan. Yilnomalarda Xoqonliklar markaziy hududlarida sodir bo‘lgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, xoqonlikning Suy (581-618), Tan (618-907) sulolalari bilan munosabatlari qamrab olingan. Keyingi o‘rinlarda Xoqonliklarning asosan harbiy jarayonlari: xoqonlar, sarkardalarning harbiy mardonovorliklaridan madh etuvchi runik bitiglar muhim o‘rin tutadi. Runik tosh matnlarning Xitoy manbalaridan asosiy farqi, ular xitoycha yilnomalarda aks etmagan ma’lumotlarni taqdim etadi, shuning uchun ularni o‘rganish Uyg‘ur xoqonligi (744-840) tarixidagi ba’zi bo‘shliqarni qimmatli materiallar bilan to‘ldirish va konkretlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, sayyohlarning xoqonlik hududi bo‘ylab uyushtirgan sayohatlari asosida to‘plagan ma’lumotlari ham xoqonliklar harbiy, ijtimoiy va boshqa sohalar tizimining ayrim jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Lingvistik manbalar sohalar leksikasi bilan ishlashda, ayniqsa, ularning kelib chiqishi va vazifalarini aniqlashda bebaho sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yevroosiyoning kattagina qismini bo‘ysundirga turkiylar davlatchiligida Uyg‘ur xoqonligi (744-840) davri muhim bosqich bo‘lib, o‘z vaqtida mintaqada

yetakchi kuch sifatida qo‘shni sulolalar, qolaversa, keyingi turkiy va g‘ayriturkiy sulolar tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bunda xoqonlikning harbiy ish va mudofaa jihatdan yuqori darajadagi boshqaruv tizimiga ega bo‘lganligi yetakchi omillardan bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, L.Gumilevning ta’kidlashicha, “Turkutlar (Turk xoqonligi) zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi. Ular yuqori saviyadagi shunday bir qo‘shin va idora tizimi yaratdilarki, shunga munosib ravishda g‘alabalarga ham erishdi, deb aytish mumkin” . Uyg‘ur davriga oid bitigtoshlar xoqonlik va undan tashqarida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, shuningdek, harbiy tarixi, davlat tuzilishi va davlatchilik an’analarining turli jihatlari haqida muhim ma’lumotlarni olishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa uchala uyg‘ur xoqonligining ichki siyosiy tuzumi, xoqonlik xonadonidagi evrilishlar, ularning Tabg‘ach bilan munosabatlari borasida Taryat, Shine Usu, Tes(iyn) va boshqa o‘ndan ortiq bitiglarda muhim ma’lumotlar aks etgan. Qadimgi xunlarning harbiy ishdagi shijoati, juan-juanlar, va ayniqsa keyingi turkey xoqonliklarning siyosiy maydonga chiqishi orqali yana qayta jonlandi hamda takomillashdi. Turkiylarning yarlaqar urug‘iga mansub qabilasi qisqa davr ichida yirik imperiyalardan birini yaratishga erishdi. Bu o‘sha davrda turkiylarning eng asosiy raqiblaridan bo‘lgan Tan sulolalari (618-907) hamda boshqa bir qancha yirik davlat birlashmalari tomonidan e’tirof etildi. Ushbu jarayon bevosita To‘quz o‘g‘uzlarning davlat birlashmasi, undan-da oldinroqqa nazar tashlansa, ko‘kturklar davriga to‘g‘ri keladi.

Qadimgi turkiy til leksikasiga oid tadqiqotlar olib borishda turkiyalik olimlarning ham hissasi katta. A.Donuk, T.Tekin, E.Aydin, B.O‘gel, E.Esin, S.Go‘mech, A.Tashagil, I.Tug‘on, E.Ekrem, X.Erkoch, A.Bertalarning ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir. A.Donukning “Qadimgi turkiy davlatlardagi harbiy-ma’muriy unvon va terminlar” monografiyasida qadimgi bitigtoshlarda qo‘llangan turkcha harbiy-ma’muriy unvon va terminlarning etimologiyasi, ma’noviy-vazifaviy jihatlari asosan O‘rxun bitiglari, “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘otit-turk” hamda sohaga aloqador turkcha va boshqa tilli hujjatlar misolida tahlil qilingan. Shuningdek, u jamoalarda va qadimgi turklarda oila mavzusini o‘rganib chiqdi va ushbu tadqiqotda turk oilasi tuzilishini boshqa xalqlarning oilaviy tuzilmalari bilan taqqosladi. Mavzuga tarixiy nuqtai nazardan yondashgan holda, Donuk turk oilasi tuzilishining xususiyatlarini sakkiz bandda umumlashtirdi.

2022-yilda chop etilgan "Qadimgi turklarda oila va nikohni tushunish" asarida M.Mandalo‘g‘lu bu mavzuga Donuk kabi umumiy turk tarixi nuqtai nazaridan yondashdi. A.Donukdan farqli o‘laroq, u qadimgi turklarda oila huquqiga e’tibor qaratgan .

S.Go‘mech o‘zining “Qadimgi ko‘kturkcha manbalardagi unvonlar” nomli maqolasida ko‘k turk runik bitiglarida qayd etilgan 58 ta unvonni tahlil qilgan. Shuningdek, u boshqa bir tadqiqotida ham qadimgi turkiy tildagi harbiy istilohlar bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni bayon qiladi .

H.Erkoch “Qadimgi turklarda davlat qurilishi” mavzusidagi dissertatsiya ishida xoqonliklar davlat tizimini qadimgi turklarda qo‘llangan terminologiya asosida ochib berishga harakat qilgan. Xususan, o‘zlashma istilohlar haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. Aytish lozimki, ushbu tadqiqot bevosita Uyg‘ur xoqonligining unvonlar tizimiga bag‘ishlangan emas. Olimning O‘rta Osiyoda hukm surgan davlatlarni boshqarishda turkiy unvonlardan foydalanishga oid ayrim xulosalari o‘sha davrning tarixiy voqeligi va xoqonlik unvonlari tizimiga to‘laqonli mos emas.

H.Shirin Userning “Ko‘k Turk va O‘tukan Uyg‘ur xoqonliklari bitiglari. So‘z boyligini o‘rganish” asari sof lingvistik xususiyatga ega bo‘lib, qadimgi turkiy stellardan ashyoviy materiallarni o‘zida aks ettiradi. Tadqiqotchi onomastik birliklar, so‘z turkumlari, shaxs nomlari, unvon va lavozimlarga bag‘ishlangan bo‘limlarni alohida ta’kidlagan, boshqa turk tadqiqotchilaridan farqli o‘laroq, lavozimlarni tavsiflashda taxminan epitetlarga mos keladigan so‘zlar guruhini ajratib ko‘rsatgan. A.Berta runik matnlarda qirqqa yaqin ma’muriy-harbiy leksika haqida ma’lumotlar mavjudligini xabar qiladi .

1960-yilda Tekin o‘zining “amaki va xola so‘zlari haqida” nomli maqolasida sarlavhadagi so‘zlar bo‘yicha tadqiqot olib bordi va ularning etimologiyasiga e’tibor qaratdi . T.Gulensoy “Oltoy tillaridaki qarindoshlik otlari” ishida turkiy tillardagi bir qancha soha leksemalarini mo‘g‘ul, tungus-manjur va koreys, yapon tillari bilan qiyosiy o‘rganishga harakat qiladi . U.Hunutlu va M.Yildirimlarning “Ko‘kturk va qadimgi uyg‘ur bitiglaridagi qarndoshlik otlari” ishida qadimgi turkiy va uyg‘ur turk tillarida oila va qarindoshlik nomlarining lug‘atini ochib berish va statistik baholashlar amalga oshirilgan hamda aniqlangan so‘zlar “jinsi, ma’nosi, kelib chiqishi, unvoni va qarindoshlik darajasi” nuqtai nazaridan tekshirilgan. M.Bakirning tadqiqotida Ko‘kturk yodnomalarida uchraydigan shaxsiy ismlar ro‘yxati beriladi hamda “Qutadgu Bilig” va “Hibat ul-haqoyiq”dagi shaxs nomlari bilan bog‘liq iboralar o‘rganiladi va madaniyatning birgalikda uzatilishiga guvoh bo‘lgan asarlarni baholashga harakat qilinadi .

S.Li 1999-yilda “Turkiy tillarda qarindoshlik atamalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida oila va qarindoshlik atamalarini batafsil o‘rganib chiqdi. U asosan qarindoshlik atamalarining dialektal ekvivalentlariga e’tibor qaratdi. Ushbu tadqiqotda so‘zlarning qadimgi turkiy ekvivalentlari ham o‘rganildi. Guruhlash qarindoshlik darajalariga asoslangan edi. S.Li qadimgi turkiy tilda oila va

qarindoshlik atamalarini ochib bergan bo‘lsa-da, ularning chastotasiga e’tibor qaratmadi . N.Useev , H.To‘qyurak , O‘.O‘zdariji , S.Tuluju lar ishlarida “ayol” tushunchasini ifodalovchi ayrim so‘zlarning etimologiyasi haqida ma’lumot berdi.

Qadimgi turkiy yodnomalar bo‘yicha bo‘yicha MDH mamlakatlari va boshqa qardosh respublikalarda muhim tadqiqotlar amalga oshirilgandir. Jumladan, Y.A.Yakovlev o‘zining “Turk harbiy terminologiyasining rivojlanish va shakllanish yo‘llari” mavzusidagi ishida turk harbiy terminologiyasining shakllanish xususiyatlariga to‘xtalib, ularning genezesini o‘z va o‘zlashma qatlam asosida o‘rganadi hamda boshqa tillardan kirib kelgan terminlarni keng tadqiq etadi. I.Batmanov, V.Nasilov va A.Radjabovlarning turli davrlardagi tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ushbu tadqiqotlarning umumiy ilmiy ahamiyati shundaki, ular O‘rxun-Yenisey bitiglari tilini maxsus, mustaqil tilshunoslik obyekti sifatida birinchi bo‘lib tizimli ravishda o‘rgangan, qadimgi turkiy yozma tilning fonetik, grammatik va leksik qurilishini ilmiy asosda tiklagan va turkologiyada “qadimgi turkiy yozuv tili” degan alohida yo‘nalishning shakllanishiga zamin yaratgan . Ushbu asarlar turkologiyada qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilining ilmiy grammatikasini yaratish, terminologiyasini shakllantirishga munosib hissa qo‘shgan, bu albatta, keyingi barcha tadqiqotlar uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. D.G.Bagishovning “Ozarbayjon tilining harbiy terminologiyasi” nomli dissertatsiyasida turkiy tilning tarixiy bosqichlaridagi turkiy davlat birlashmalari harbiy tizimida amalda bo‘lgan harbiy istilohlarning hozirgi ozarbayjon tilida saqlanish holati keng tahlilga tortilgan.

A.Amanjolovning “Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности” nomli nomli dissertatsiyasi qadimgi turk yozuv madaniyatining tarixiy, grafik va tilshunoslik jihatlarini kompleks o‘rgangan ilmiy ish bo‘lib, bu ish qadimgi turk yozuvining tarixi, grafik tizimi, fonetikasi, til xususiyatlari hamda yozma yodgorliklarning kompleks tadqiqiga bag‘ishlangan fundamental ilmiy ishlardandir. Lekin, tadqiqotning ayrim xulosalari cheklangan manba bazasiga tayanadi, shuningdek, ayrim fonetik, grafemik va morfologik talqinlar keyingi topilmalar bilan solishtirganda to‘liq mukammal emas. Buni o‘sha davrda mavjud bo‘lgan bitiglar to‘liq nashr qilinmagani bilan izohlash mumkin. T.B.Bayjanov “Qozoq tilining harbiy leksikasi” nomli dissertatsiyasida qozoq tilidagi harbiy terminlarni qadimgi turkiy til asosida diaxron aspektda o‘rganadi. Xitoy tilidan kirib kelgan istilohlarni tavsiflab, ularning shakllanishidagi shart-sharoitlar, taraqqiyoti xususida izchil ma’lumotlar qayd etadi. O‘rxun yodnomalarida qo‘llangan so‘zlarning asosiy qismi hozirgi turkiy tillarda qo‘llanishi masalasi G.Aydarovning “Язык Орхонских памятников древнетюркской письменности VII века” nomli ishida ask etgan . Ushbu ishning muhim

natijalaridan biri O‘rxun matnlarining sintaktik qurilishini ilmiy tahlil etilib, qadimgi turkiy tilning sintaktik modellari va nutq strukturasini aniqlanganidir. Y.Zuyevning keltirishicha, “qadimgi turklarda jamiyat a’zolarining o‘rni va siyosiy mavqeyi ko‘p hollarda ular ega bo‘lgan unvonlarga qarab belgilanar va unvonlarning ko‘pchiligi merosiy hisoblangan. Qadimgi turk jamiyati davlatchilik tarixining ilk odimlaridayoq qat’iy ravishda darajalanish qonuniga asoslangan bo‘lib, biror unvonning muayyan shaxsga berilishi uning ijtimoiy munosabatlar va o‘zaro bo‘ysunish tizimida tutgan o‘rniga asoslangan” .

Ch.Garadjayevning “Turkman tilining harbiy leksikasi” mavzusidagi dissertatsiyasida turkiy tilning eng chog‘laridan beri qo‘llanishda bo‘lgan terminlar ham tadqiq ostiga olinadi. T.V.Loseva-Baxtiyorovaning “Turkiy tillarning harbiy leksikasi (qurol nomlari” mavzusidagi asari e’tiborga molik. Muallif turkiy tillarda qo‘llanayotgan mushtarak harbiy leksemalarni keng tahlil qiladi. Bunda asosiy manbalar sifatida qadimgi turkiy bitigtoshlar, eski turkiy til va eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan qo‘lyozmalarga tayanadi. Y.I.Karakayevning dissertatsiyasi diaxron aspektda amalga oshirilib, turkiy tilda qo‘llanilgan qurol-yarog‘ nomlari tahlil etilgan. Lekin ishda ayrim istilohlarning genezesi to‘la ochib berilmagan yoki aniq keltirilmagan. Tatar tilining harbiy leksikasi R.T.Safarov tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, unda nafaqat tatar tili harbiy leksikasi, balki turkiy tillardagi askariy terminlar diaxron-sinxron nuqtayi nazaridan keng tahlil qilingan. Ishda turkologiyada harbiy terminlarning o‘rganilishiga keng nazar tashlangan. Izlanishning ilmiy qimmatini belgilagan eng muhim jihat turkiy tillar, shu jumladan, tatar tilidagi harbiy terminlarning semantik-funksional va etimologik tahlili oltoy, mo‘g‘ul, xitoy, fors, arab, rus, G‘arbiy Yevropa tillari va umumturkiy tillar ko‘lamida ko‘rib chiqilganidir.

Qadimgi turkiy leksika bo‘yicha O‘zbekistondagi tadqiqotlar orasida H.Dadaboyev, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, A.Kubatin, G‘.Boboyorovlarning izlanishlarini alohida keltirib o‘tish lozim. Jumladan, H.Dadaboyev tadqiqotlari qadimgi turkiylar davlatchiligini harbiy istilohlar yordamida yoritishga yo‘naltirilgan. Olim bir qancha turkiy davlat uyushmalaridagi mavjud harbiy terminlarning ildizini xoqonliklar davri bilan bog‘laydi va buni harbiy istilohlarning etimologik tahlili bilan dalillaydi. Keyingi davrlarda qadimgi turkiy unvonlar tizimining Mo‘g‘uliston, Janubiy Sibir, O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Xuroson, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Yevropa, Shimoliy Kavkaz va Qirim, shuningdek, turkiyzabon bo‘lmagan muhit bo‘ylab tarqalishi bevosita ushbu fikrni dalillaydi. Aynan qadimgi turkiy, shu jumladan, xoqonlik hujjatlaridagi harbiy, siyosiy va ma’muriy terminlar bo‘yicha olib borilgan eng yirik tadqiqot H.Dadaboyev tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, hammualliflikda yaratilgan

“Eski o‘zbek tili leksikasi muammolari” nomli monografiyada VII-XVIII asrlar turkiy-o‘zbek tilidagi harbiy termin va unvonlar tarixiy-etimologik, semantik-funksional jihatdan tahlil qilingan. Eski turkiy til va eski o‘zbek tili harbiy leksikasining semantik-funksional, tarixiy-etimologik, struktur-grammatik tahlili ko‘pgina harbiy terminlar XIV-XV asrda arabcha, forscha-tojikcha, ayniqsa, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar bilan ifodalana boshlaganini ko‘rsatsa-da, eski o‘zbek adabiy tili harbiy leksikasi asosini qadimgi turkiy so‘zlar tashkil etishi bevostia H.Dadaboyevning ishlarida ochib berilgan . Shuningdek, 2021-yilda H.Dadaboyev va H.Yodgorovlar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma ham soha terminologiyasidagi muhim ishlardan biridir . Kitobda o‘zbek harbiy terminologiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, xususan, Ko‘k Turk va Uyg‘ur xoqonligi, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar, Shayboniylar, Markaziy Osiyo xonliklari, chorizm, sobiq sho‘rolar va mustaqillik davri o‘zbek tili harbiy terminologiyasining rivojlanishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy shart-sharoit va omillar, harbiy terminlar tizimining taraqqiy etishida o‘zbek tili qatori boshqa tillarning o‘rni, istiqlol yillari o‘zbek harbiy terminologiyasida yuz bergan jarayonlar ochib berilgan.

M.Maxmatqulov “Аналитический способ словообразования в языке древнетюркских памятников” nomli ilmiy ishida qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida analitik so‘z yasash usullarini birinchilardan mustaqil obyekt sifatida tadqiq etib, so‘z birikmalari, yordamchi fe’llar va funksional unsurlar orqali vujudga kelgan yasalma birliklarning tuzilishi, semantik tiplari hamda qo‘llanish modellari bo‘yicha ilmiy tasnif beradi. Tadqiqot O‘rxon-Yenisey matnlariga tayangan holda qadimgi turkiy tilda analitik yasashning grammatik tizimdagi o‘rni va tarixiy rivojlanishini izchil asoslagani bilan alohida ahamiyatga ega. Biroq ishda tahlil ko‘proq leksik-morfologik darajada olib borilgani sababli analitik yasashning sintaktik modellari yetarlicha chuqur yoritilmagan, manba bazasining cheklanganligi tufayli xulosalar keyinchalik topilgan yangi bitiglar bilan to‘liq solishtirilmagan, shuningdek analitik so‘z yasashning boshqa turkiy tillar bilan qiyosiy-tipologik bog‘liqligi ham yetarli darajada ko‘rsatib berilmagan.

O‘rxun-Yenisey yodgorliklari bo‘yicha N.Rahmonovning “Ruhiyatdagi nur murodi”, “O‘zbekistonning ko‘hna turkiy-run yozuvlari”, “O‘zbek tili tarixi” singari asarlari yaratilgan. U “Turk xoqonligi” nomli monografiyasida qadimgi turkiy bitigtoshlar asosida xoqonlikning davlat mafkurasi va turklarning harbiy zafarlarida uning ahamiyati xususida keng to‘xtaladi. Shuningdek, asarda qadimgi turklarning mifologik dunyoqarashi ham batafsil yoritilgan .

Q.Sodiqovning qadimgi turkiy bitigtoshlarga bag‘ishlangan bir qator monografiyalari xoqonlik tarixini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Olimning “Ko‘k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini”, “Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi” kabi asarlarida yozma yodgorliklar haqida batafsil tadqiqotlar olib borilganini ko‘rish mumkin. Olim xoqonlik boshqaruv tizimida “yorliqlar yozish” an’anasi mavjud bo‘lib, bu an’ana keyingi davr turkiy sulolalarga ham meros bo‘lib o‘tganligini qay etadi .

Qadimgi turk tilidagi unvonlarga doir yirik ishlardan biri A.Kubatin tomonidan olib borilgan tadqiqotdir. Olimning “Turk xoqonligidagi unvonlar tizimi: genezis va vorisiylik” nomli monografiyasida turk xoqonligi unvonlar tizimiga oid amalga oshirilgan tadqiqotlar, unvonlarning kelib chiqishi va ularning siyosiy birlashmalardagi roli, qadimgi turkcha epitetlar bir qancha manbalar asosida ko‘rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotda turk xoqonligi unvonlarining genezisi ilk marta o‘zbek turkiyshunosligida u yoki bu darajada yoritib berilgan. Izlanishda xoqonlik boshqaruvidagi 40 ga yaqin unvon va 50 dan ortiq epitet – sifatlashlar, chunonchi, 1) rasmiy: a) ma’muriy, b) harbiy; 2) ijtimoiy: a) diniy, b) ramziy / sharafli tarzda tahlil qilingan . Bizning ishimizda A.Kubatinning tadqiqotidan farqli o‘laroq, faqatgina harbiy terminlar monografik planda tadqiq etilgan. Davlat boshqaruvi va harbiy tizim Turk xoqonliginikidan tubdan farq qilmagan Uyg‘ur xoqonligi harbiy-ma’muriy tizimini yoritishda ushbu asar asosiy manbalar sifatida ko‘riladi.

G‘.Boboyorov tomonidan yaratilgan “G‘arbiy Turk xoqonligi davlat tuzumi” nomli monografiyada “G‘arbiy Turk xoqonligida unvonlar tizimi” va “Xoqonlikda harbiy ish va mudofaa tizimi” nomli maxsus paragraflar ajratilgan bo‘lib, ularda xoqonlikning harbiy va mudofaa tizimi, boshqaruvdagi unvon, lavozimlar va ularning vazifasi, xoqonlikda unvon berish tartiblari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. G‘.Boboyorovning “Turk xoqonligidan oldingi davrda qadimiy turkiy unvonlar” nomli ishida qadimgi turkiy unvonlarning kelib chiqishi, ularning Turk va Uyg‘ur xoqonligigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo davlat birlashmalarida davom etishi ko‘rib chiqiladi.

M.Xatamovaning “Turk xoqonligi shaharlari (VI – VIII asrlar)” nomli dissertatsiyasida xoqon o‘rdulari maqomi va vazifasiga ko‘ra bosh, oliy o‘rdu – “Oltin O‘rdu” yoki “Ulug‘ Oltin o‘rdu”, mavsumiy o‘rdu – “Shimoliy o‘rdu” va

“Janubiy o‘rdu” hamda “Safar o‘rdu”lari tarzida bir-biridan farqlangani aniqlangan hamda bu Turk xoqonligi shaharlari va umuman dasht shaharlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan ekanligi ilmiy dalillar asosida ochib berilgan . Ushbu ishda tahlilga tortilgan toponimlar Uyg‘ur xoqonligi uchun ham markaziy arealar sifati bilinadi.

O‘rxun-Yenisey yodgorliklari leksikasining tadqiqi eski o‘zbek adabiy tilining qadimgi turkiy til bilan genetik va tarixiy munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham bevosita ilmiy aksini topgan. Xususan, qadimgi

turkiy til so‘zlarining kata qismi eski o‘zbek adabiy tili davrida, asosan, hech qanday o‘zgarishlarsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangani I.Nasirovning ishlarida ilmiy yoritilgan . XV asrga oid noma va boshqa bir qancha janrdagi manbalarning leksik-stilistik xususiyatlari qadimgi turkiy tilga mansub asarlarda mavjudligi masalasi A.Jumayevning tadqiqotlarida yoritilgan . Navoiy asarlaridagi 1400ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so‘zlarining struktur-grammatik, funksional-semantik xususiyatlari Sh.Egamovaning dissertatsiyasida tahlilga tortilgan . Qadimgi turkiy til olmoshlari ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan to‘la holda eski o‘zbek adabiy tilida saqlangani B.Yusufning ishlarida ko‘zga tashlanadi.

Qadimgi turkiy til leksikasining tadqiqi hozirgi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining O‘rxun-Yenisey yodgorliklari so‘z boyligi bilan bog‘liq munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham ko‘rib o‘tilgan. Xususan, A.Ashiraliyevning “Древнетюркские элементы в современных тюркских языках. На материале Орхоно-Енисейских памятников” nomli dissertatsiyasida O‘rxon-Yenisey yodgorliklari materiallarini tahlil qilib, qadimgi turkiy til elementlarining zamonaviy turkiy tillarda saqlanib qolgan shakllarini tizimli ravishda aniqlagan va tasniflagan. Tadqiqotda fonetik va morfologik o‘xshashliklar, leksik merosning davriy uzviyligi, qadimgi turkiy so‘zlarning turli turk tillaridagi shakllanishi va funksional saqlanishi ilmiy asosda ko‘rsatildi. Biroq u asosan leksik va morfologik jihatlarni tahlil qilgan, sintaksis va semantik jarayonlar yetarlicha chuqur ko‘rib o‘tilmagan. Shu bilan birga, zamonaviy turk tillaridagi qiyosiy tipologik aloqalar ham yetarlicha keng yoritilmagan .

E.Begmatov DTSga tayangan holda qadimgi turkiy tilga xos 2500 dan ortiq leksik birliklarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Ushbu so‘zlar turli sohalardagi tushuncha va ma’nolarni ifodalagan taxminan yigirmaga yaqin leksik-semantik guruhga mansub bo‘lib, qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi lingvistik uzviylikni va leksik merosning saqlanishini ilmiy jihatdan namoyon etadi . O‘zbek tilidagi sohalar terminologiyasining qadimgi turkiy til bilan tarixiy-qiyosiy aspektda o‘rganilgan ishlar ham soha rivojida muhim o‘rin egallaydi . O‘zbek tilining tarixiy etimologiyasi yoritishda Sh.Rahmatullayev, B.To‘xliyevlarning ham xizmatlari alohida keltirib o‘tish lozim .

Turkiy tillarning turli tarixiy bosqichlaridagi ijtimoiy sohaning turli ko‘rinishlariga oid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar hozirgi turkiy tillarda ishlatilishi xususiyatlari M.Safarovning “Наблюдения по лексике тюркских языков / Исследования по лексике и грамматике тюркских языков” nomli ishida o‘rganilgan.

XULOSA

Turk-run bitigtoshlari turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma manbalari sifatida nafaqat tarixiy voqealar, balki tilning leksik boyligini o‘rganishda ham muhim ilmiy manba hisoblanadi. Mazkur yodgorliklar tilida qo‘llangan so‘zlar turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, harbiy tizimi, davlat boshqaruvi hamda madaniy an’analari haqida muhim ma’lumotlarni o‘zida aks ettiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turk-run bitigtoshlari leksikasi turli mamlakat olimlari tomonidan keng miqyosda o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa, turkiyalik, MDH davlatlari hamda o‘zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlari ushbu yo‘nalishda muhim ilmiy natijalarni yuzaga keltirgan. Bu tadqiqotlar natijasida qadimgi turkiy tilning leksik tizimi, uning semantik qatlamlari, terminologik birliklari hamda boshqa tillar bilan tarixiy aloqalari aniqroq ochib berilgan. Shuningdek, O‘rxun-Yenisey bitiglari leksikasini o‘rganish turkiy tillarning genetik yaqinligi, ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda zamonaviy turkiy tillarda qadimgi leksik birliklarning saqlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu bois turk-run bitigtoshlari leksikasini yanada chuqur o‘rganish turkologiya, tarixiy tilshunoslik va terminologiya sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi

ПЕРСПЕКТИВЫ МИКРОСКОПИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОСНОВЕ МАГНИТООПТИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА КЕРРА

У.Р. Рустамов
Ташкентский экономический и педагогический университет, доцент
Ш.Ф. Усманов
Ташкентский институт социальных и политических наук, преподователь
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693778

ANNOTATSIYA

Maqolada materiallarning mikro- va nanodarajadagi magnit xususiyatlarini tahlil qilish uchun magnitoptik Kerr effektiga asoslangan mikroskopik tadqiqot usullarining rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqilgan. Kerr effektining fizik prinsiplari va uning zamonaviy magnit mikroskopiyasida qo‘llanish xususiyatlari tasvirlangan.

KALIT SO‘ZLAR

magnit mikroskopiyasi, domen tuzilmasi, yupqa plyonkalar, nanostrukturalar

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются перспективы развития микроскопических методов исследования, основанных на магнитооптическом эффекте Керра, для анализа магнитных свойств материалов на микро- и наноуровне. Описаны физические принципы эффекта Керра и особенности его применения в современной магнитной микроскопии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

магнитная микроскопия, доменная структура, тонкие пленки, наноструктуры.

ABSTRACT

The article discusses the prospects for the development of microscopic research methods based on the magneto-optical Kerr effect for analyzing the magnetic properties of materials at the micro- and nanoscale. The physical principles of the Kerr effect and the features of its application in modern magnetic microscopy are described.

KEY WORDS

magnetic microscopy, domain structure, thin films, nanostructures

ВВЕДЕНИЕ.

Интенсивное развитие нанотехнологий, спинтроники и функциональных магнитных материалов требует высокоточных методов исследования магнитной структуры вещества на микро- и наноуровне. Особый интерес представляют неразрушающие оптические методы, обеспечивающие визуализацию магнитных доменов и динамики их перестройки в реальном времени. Одним из наиболее информативных и технологически доступных подходов является микроскопия на основе магнитооптический эффект Керра. Данный эффект проявляется в изменении состояния поляризации отражённого света при его взаимодействии с намагниченной поверхностью. В зависимости от геометрии эксперимента возможно получение информации о различных компонентах вектора намагниченности. Это открывает широкие возможности для исследования доменной структуры, процессов перемагничивания, магнитных вихрей, скирмионов и других неоднородных магнитных состояний.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

В условиях активного развития тонкоплёночных технологий и наноструктурированных систем особую актуальность приобретает совершенствование методов магнитооптической микроскопии, направленных на повышение контрастности, разрешающей способности и временного разрешения. Таким образом, исследование перспектив микроскопических методов, основанных на эффекте Керра, является важным направлением современной физики магнитных явлений и материаловедения. Когда поляризованный свет взаимодействует с магнитной средой, поляризация света может измениться. Когда свет взаимодействует с электроном материала, способ реакции электрона добавляет дополнительные компоненты к ЭМ волне, которые изменяют её поляризацию. Это взаимодействие и есть магнитооптический эффект. Соответствующие уравнения Максвелла:

$$\begin{cases} \nabla E = -\frac{1}{c}\frac{\partial H}{\partial t} \\ \nabla \mathrm{H} = -\frac{1}{c}\frac{\partial E}{\partial t} + \frac{4\pi}{c}\alpha\frac{\partial E}{\partial t} + \frac{4\pi}{c}\sigma E \end{cases} \quad (1)$$

ЭМ волна, распространяющаяся вдоль оси z, будет задана уравнением (2), где E_0 и H_0 — максимальные амплитуды полей, ω — угловая частота ЭМ волны, t — прошедшее время, а c — скорость света. N — показатель преломления, такой что выполняется уравнение (3). В уравнении (3) k — единичный вектор в направлении z.

$$\begin{cases} E = E_0 e^{-i\omega(t-\frac{Nz}{c})} \\ H = H_0 e^{-i\omega(t-\frac{Nz}{c})} \end{cases} \quad (2)$$

$$\begin{cases} N(E \times k) = -H \\ N(H \times k) = -\mathfrak{A}E \end{cases} \quad (3)$$

В уравнении (4), α и σ — тензоры поляризуемости и проводимости соответственно.

$$\begin{cases} \mathfrak{A} = 1 + 4\pi\alpha + \frac{4\pi}{i\omega}\sigma = \begin{bmatrix} A_0 & -A_1 & 0 \\ A_1 & A_0 & 0 \\ 0 & 0 & A_0 \end{bmatrix} \\ A_0 = 1 + 4\pi\alpha_0 + \frac{4\pi}{i\omega}\sigma_0 \\ A_1 = 1 + 4\pi\alpha_1 + \frac{4\pi}{i\omega}\sigma_1 \end{cases} \quad (4)$$

Подставляя значение **H** из уравнения (3), можно получит уравнение (5).

$$\mathfrak{A}E = N^2[E - k(E \cdot k)] \quad (5)$$

Уравнение (5) имеет компоненты вида уравнения (6).

$$\begin{cases} (A_0 - N^2)E_x - A_1E_y = 0 \\ A_1E_x + (A_0 - N^2)E_y = 0 \\ A_0E_z = 0 \end{cases} \quad (6)$$

Взяв определитель компонентов, получены решения для N^2, которые показаны в уравнении (7).

$$\begin{cases} N_+^2 = A_0 - iA_1 \\ N_-^2 = A_0 + iA_1 \end{cases} \quad (7)$$

Два решения показывают, что для N_+^2, $E_y^+ = +iE_x^+$, а для N_-^2, $E_y^- = -iE_x^-$. Другими словами, волна может распространяться либо влево, либо вправо вдоль оси z. После контакта с намагниченной средой волна будет отражена и преломлена, а также станет эллиптически поляризованной[1]. Угол поляризации отражённого света задаётся уравнением 8, а угол поляризации преломлённого света — уравнением (9).

$$\phi_k = -g\frac{N_+ - N_-}{N_+N_- - 1} \quad (8)$$

$$\phi_F = \omega z R\frac{N_+ - N_-}{2c} \quad (9)$$

Затем, подставляя, получается уравнение (10).

$$\begin{cases} N_+ - N_- = (-4\pi)\frac{\left(\frac{\sigma_1}{\omega}\right) + i\alpha_1}{n - ik} \\ \frac{N_+ - N_-}{N_+N_- - 1} = (-4\pi)\frac{\left(\frac{\sigma_1}{\omega}\right) + i\alpha_1}{(n-ik)[(n-ik)^2 - 1]} \end{cases} \quad (10)$$

Магнитооптический эффект называется поразному в зависимости от того, отражается ли свет от образца или проходит сквозь него. Если свет отражается, эффект называется магнитооптическим эффектом Керра.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ИХ ОБСУЖДЕНИЕ

Микроскопия Керра основана на использовании модифицированных оптических поляризационных микроскопов или подобных установок с обычными объективами, что обеспечивает гибкую широкопольную визуализацию от сантиметрового до микрометрового масштаба (рис.2(1)–(6)). (1)- Изображение доменов с большим полем зрения из смешанной моноплёнки Ni81Fe19 (40 нм) с низкой анизотропией. (2)- Вариации Ландау-доменных структур в квадратных элементах из Ni81Fe19 (50 нм). (3)- Магнитное состояние «луковица» в кольцевой структуре из Co90Fe10 (0.8 нм)/Ni81Fe19 (28 нм) шириной 300 нм. (4)- Квазистатическое изображение доменов образования скирмионных пузырей в тонкой плёнке Co40Fe40B20 (1.4 нм)/MgO. (5)- Одноимпульсная динамическая эволюция доменов в микрометровом слое граната (одноимпульсная визуализация с длительностью импульса 20 нс, МО-контраст на основе эффекта Фарадея). (6)- Количественная динамическая визуализация доменов спиновых волн в плёнке Co40Fe40B20 (120 нм) (частота возбуждения 3 ГГц, временное разрешение 7 пс) [2,3]. Следовательно, обычно применяются длины волн в видимом спектре, что ограничивает достижимое пространственное разрешение областью порядка 100 нм.




Рис.2. Примеры изображений, полученных с помощью микроскопии Керра, на разных масштабах длины и времени.

Аналогичные аргументы справедливы для микроскопии на основе эффекта Фарадея и эффекта Фойгта, последний также применим для визуализации доменов в коллинеарных антиферромагнетиках, что не следует путать с обычной визуализацией двулучепреломления в магнитострикционных антиферромагнетиках [4]. Пространственно-временная визуализация Керра, превосходящая современный уровень, потребует корректировок в общей механике, детектировании изображения и источнике освещения.

Временное разрешение в микроскопии Керра может быть существенно повышено за счёт включения улучшенных импульсных лазерных систем, включая технологии сжатия импульсов, с субфемтосекундным разрешением в лабораторных экспериментах. Нестробоскопические режимы динамической визуализации для захвата стохастических и хаотических процессов должны будут опираться на включение мощных высокоинтенсивных лазеров с высокочувствительными камерами. Одноимпульсная визуализация неповторяющихся событий намагничивания в области ниже магнитного резонанса, до сих пор являющаяся «белым пятном» в визуализации динамики намагничивания, может быть решена с помощью гибких диодных лазеров.

ВЫВОДЫ

Внедрение новых режимов визуализации может привести к дальнейшим улучшениям, которые трудно предвидеть. Тем не менее, объединение этого с другими методами или полный отказ от стандартных схем микроскопии Керра, включающих методы ближнепольной оптической визуализации, основанные на детектирующих слоях с магнитооптически активными дефектными спинами или на совершенно новых способах использования обычных МО-эффектов, может стать будущим МО-микроскопии.

Благодаря продолжающемуся развитию, микроскопия Керра останется одной из важнейших техник для визуализации магнитных доменов. Основанная на оптике, она предлагает прямой доступ к исследованию сверхбыстрых магнитных процессов. Наиболее сложной задачей, достигающей фундаментального предела, является ограничение пространственного разрешения-препятствие, преодоление которого будет трудным. Несмотря на это, благодаря последним улучшениям со стороны освещения и детектирования, прикладная микроскопия Керра развилась за последнее десятилетие и продолжит вносить ценнейший вклад в исследования магнетизма.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ochilov O.O., Turkmenov X.I., Rustamov U.R., Malikov K.X., Ismatov A.A. Generalized fresnel formulas for reflection and transmission of light for the case of a ferromagnetic plate // Telematique, Vol. 22, № 1(2023), p. 1705-1707.
2. У.Р. Рустамов. Измерение магнитной циркулярно-поляризованной люминесценции в кристаллах гольмий-содержащих гранатов. // Вестник НУУз, Ташкент, 2024, №3/1, с. 500-504.
3. Hubert A, Schäfer R. 1998 Magnetic Domains: The Analysis of Magnetic Microstructures // Berlin:Springer, 1998, №6, p. 68-73.
4. Soldatov I.V., Schäfer R. 2017 Selective sensitivity in Kerr microscopy // Rev. Sci. Instrum. 2017, № 88, p. 68-73.

Ashtarxoniylar–Safaviylar munosabatlari Muhammad Yusuf Munshiyning Tarixi Muqimxoniy va Iskandarbek Turkmonning Tarixi olamaroyi Abbosiy asarlarida.

To‘lqin Mamatqobulov Eshqulovich
Toshkent iqtisodiyot va pedogogika universiteti
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedra”
katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816404

ANNOTATSIYA

Ashtarxoniylar (1601–1756) davriga oid tarixiy manbalar O‘zbekiston tarixining XVII asr siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrga doir ko‘plab yozma manbalar tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ularda Ashtarxoniylar va Safaviylar sulolalari tarixi hamda ularning o‘zaro siyosiy munosabatlari yetarli darajada yoritilmagan.

KALIT SO‘ZLAR

Muhammad Yusuf Munshiy, Iskandarbek Turkmon, Tarixi Muqimxoniy, Tarixi Olamaroyi Abbosiy, Dinmuhammadxon, Shoh Abbos I, Ashtarxoniylar sulolasi, Safaviylar sulolasi

АННОТАЦИЯ

Исторические источники, освещающие период правления династии Аштарханидов (1601–1756), имеют важное значение для изучения политических, экономических, социальных и культурных процессов в истории Узбекистана XVII века. Несмотря на то, что многие письменные источники данного периода были исследованы, в них сравнительно мало освещены история династий Аштарханидов и Сефевидов, а также их взаимные политические отношения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Мухаммад Юсуф Муншии, Искандарбек Туркман, Тарихи Мукимханий, Тарихи Аламарайи Аббасий, Динмухаммад-хан, Шах Аббас I, династия Аштарханидов, династия Сефевидов

ABSTRACT

Historical sources covering the period of the Ashtarkhanid dynasty (1601–1756) play an

KEY WORDS

Muhammad Yusuf Munshi, Iskandarbek Turkmon,

important role in studying the political, economic, social, and cultural processes of Uzbekistan's history in the 17th century. Although numerous written sources of this period have been studied, the history of the Ashtarkhanid and Safavid dynasties and their mutual political relations remain insufficiently explored.

Tarixi Mukimkhaniy, Tarixi Alamarayi Abbasiy, Dinmukhammad Khan, Shah Abbas I, Ashtarkhanid Dynasty, Safavid Dynasty

KIRISH.

Ushbu maqolada Ashtarxoniylar va Safaviylar sulolari o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik munosabatlar XVII asr tarixiy manbalari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” hamda Iskandarbek Turkmonning “Tarixi olamaroyi Abbosiy” asarlari o‘rganilgan.

Mazkur manbalarda Buxoro xonligi bilan Safaviylar davlati o‘rtasidagi siyosiy aloqalar, Xuroson hududi uchun kurash, elchilik munosabatlari hamda ikki davlat o‘rtasidagi harbiy-siyosiy jarayonlar haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi. Tadqiqot jarayonida ushbu asarlardagi ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, mualliflarning voqealarga munosabati hamda tarixiy jarayonlarni yoritishdagi o‘ziga xos yondashuvlari ochib beriladi. Shuningdek, Ashtarxoniylar–Safaviylar munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari, siyosiy manfaatlar va mintaqadagi kuchlar muvozanatiga ta’siri ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari XVII asr Markaziy Osiyo va Eron o‘rtasidagi siyosiy aloqalarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA.

O‘rta asrlar Buxoro xonligidagi Ashtarxoniylar va Safaviylar sulolalarining tarixini yoritishda Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” va Iskandarbek Munshiy (Turkmon) ning “Tarixi olamaroyi Abbosiy” asarlari davr haqida qimmatli ma’lumtlarni o‘zida jam qilgan. Sulolalarning davlat hokimyat tepasiga kelishi, davlat tuzilishi bilan birga, ikki sulolaning o‘zaro siyosiy munosabatlari ham bayon etiladi. Mualliflar muammoli nuqta bo‘lgan Xuroson uchun doimiy kurashlarni davri va davlati nuqtayi nazaridan tasvirlab berishga harakat qilishgan. Ushbu asar mualliflari ma’lumotlarning ahamiyati jihati shundaki, ular tasvirlangan voqealarning guvohi va bevosita ishtirokchisi ham bo‘lgan. Xususan, Xuroson unga chegardosh bo‘lgan davlatlar uchun doim ahamiyatli bo‘lib kelgan. Xuroson uchun kurashda asosiy motiv siyosiy ambitsiya bo‘lsa ham unga asos bo‘lgan voqe’lik aynan din bilan bog‘liq sanalganligi tufayli bu masalaga chuqurroq e’tibor qaratilishi zarur sanaladi. Qaysi davlat Xurosonga egalik qilsa,

O‘rta sharqda imkoniyatlar shu davlat qo‘liga o‘tar edi. Ashtarxoniylar sulolasi tarixiga oid muhim asarlardan yana biri “Tarixi Muqimxoniy” yoki “Tazkirayi Muqimxon” nomi ostida mashhur bo‘lgan asar hisoblanadi. Manbada Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelganidan (1009/1601) to Subhonqulixon o‘limigacha (16-sentyabr 1702-yil) kechgan tarixiy jarayonlar haqida muhim ma’lumotlar beriladi .

Asar muallifi – Muhammad Yusuf, Xo‘ja Baqoning o‘g‘li bo‘lib, uning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar juda kam. Xususan, asli balxlik bo‘lgan bu muallif Subhonqulixon (1651–1680-yillari Balx xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697–1707-yillari Balx xoni) saroyida munshiy lavozimida xizmat qilgan . Asarda keltirilgan eng so‘nggi tarixiy sana 1707-yilga to‘g‘ri keladi. Muallif rejasiga ko‘ra, asar ikki qismdan iborat bo‘lishi lozim edi. Biroq Muhammad Muqimxonning bevaqt vafotidan so‘ng, muallif asarni yakunlash imkoniga ega bo‘lmagan. Manbaning asosiy va eng muhim qismi uning ikkinchi bobi bo‘lib, unda ashtarxoniylar sulolasining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tarixi batafsil yoritilgan. Xususan, Eron, Hindiston, Usmoniy turk imperiyasi, Qozoq xonliklari va Qashg‘ar bilan bo‘lgan siyosiy aloqalar haqidagi ma’lumotlar alohida e’tiborga loyiqdir .

Keyingi manba “Tarixi olamoroyi Abbosiy” (“Abbosning olamni bezovchi tarixi”) nomli asarda XVI asrda o‘tgan yirik Eron tarixchisi Iskandarbek Munshiy tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda O‘zbekistonning tarixi va uning Safaviylar bilan munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi . Safaviylar shohi Abbos I (996/1588–1038/1628–1629) va uning vorisi shoh Safi I (1611–1642) hukmronligining birinchi besh yili (1629–1633/1634) davridagi Eron tarixiga oid eng mukammal va keng tarqalgan asar. Manbada, shuningdek, rasmiy hujjatlar va yilnomalar, voqea guvohlari va ishtirokchilarining og‘zaki ma’lumotlarining materiallari va muallifning shaxsiy kuzatishlari ko‘rsatib o‘tiladi .

Ashtarxoniylar va Safaviylar o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar sulolalarning ichki siyosiy holati va xalqaro kuchlar muvozanati fonida doimiy ravishda o‘zgarib turgan. Xronologik yondashuvda Shayboniylardan Ashtarxoniylarga o‘tgan vorisiy dushmanlik kayfiyati bu ikki sulola o‘rtasidagi ziddiyatlarning davom etishiga sabab bo‘lgan. Abdullaxon II (1534–15980 davrida Din Muhammad sulton Obivard va Niso (Afg‘oniston hududiga qarashli viloyatlar) hokimi sifatida faoliyat yuritgan . Bu davrda, Shayboniy (Abulxayrxoniy)lar Xurosonda o‘z hokimiyatini mustahkamlashga intilgan bo‘lsa, Safaviylar bu hududni o‘z nazorati ostiga olishni maqsad qilgan. XVI asrning so‘ngida Turkistonda yuz bergan ichki siyosiy beqarorlik, Safaviylarning hukmdori shoh Abbos I boshchiligida Xurosonning shimoliy hududlariga yurish boshlashi uchun qulay imkoniyat yaratdi. 1598-yilda

bo‘lib o‘tgan jang Ashtarxoniylar va Safaviylar o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy tus olganini ko‘rsatadi .

1598-yildagi Abdulmo‘minxon (1568–1599) ning o‘limi safaviylarni Xuroson sari yurishga boshlaydi. Ikki o‘rtadagi urush Balxdan 4 farsax (1 farsax taqriban 7-8 km) uzoqlikda Puli-salor hududida sodir bo‘ladi. Uch kun davom etgan jangda Din Muhammadxonning qo‘shini yengiladi va chekinish chog‘ida ukalaridan ajralgan Din Muhammadxon Qunduz shahri atrofida o‘ldiriladi. Muhammad Yusuf Munshiy uning Qaroyi qabilasi tomonidan o‘ldirilganini ta’kidlab, o‘ldirilishiga oid voqealarni quyidagicha tavsiflaydi: “… Ular podshoh libosida (badavlat kiyingan) otga mingan yolg‘iz odamni ko‘rdilar … bu baxtsizlar uni otib tashladilar. Ushbu qotillikdan so‘ng, ular muhrni (o‘ldirilgan shaxs yonidan topilgan) tekshira boshladilar va undan o‘ldirilgan Din Muhammadxon ekanligini bilib oldilar. O‘zlarining qilgan ishlarini o‘ylab, qotillar tavba qildi” . Iskandarbek Munshiy esa Din Muhammadxonning o‘limi sababini, Mavlono Ibrohim Munshiy ning ma’lumotlariga asoslanib, Maruchoq (hozirgi Afg‘onistondagi hudud) yaqinidagi Qaqchi qabilasi tomonidan o‘ldirganligini bayon etadi . Bu tafovutlar Din Muhammadxonning o‘limi haqida aniq va ishonchli ma’lumot yo‘qligini ko‘rsatadi. 1601-yilda taxtga chiqqan Boqi Muhammadxon mamlakat chegaralarini mustahkamlashga intiladi. Safaviy shoh Abbos I ning ham maqsadi shimolni egallash sanalgan. Buxorodagi bo‘lgan voqealar shohning rejalarini biroz o‘zgartirishga majbur qiladi. U endi shayboniyzoda Ibrohim Muhammad (1600–1601) orqali Balx va Buxoroni nazoratga olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. U darhol Ibrohim Muhammadga xon unvonini beradi hamda uni o‘zining “o‘g‘li” deb e’lon qiladi va shu tariqa, shayboniy shahzodani rasman o‘z himoyasiga oladi . Bu orada, Ibrohim Muhammad vafot etadi va undan foydalanishga harakat qilgan Buxoro xoni Boqi Muhammadxon Balxni zabt etish uchun ukasi Vali Muhammad sulton (1605–1611) boshchiligida qo‘shin yuboradi . XVII asr boshlarida Movarounnahr–Xuroson hududidagi siyosiy jarayonlar nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgan. Xususan, Din Muhammadxonning o‘limi bilan bog‘liq tafovutli ma’lumotlar turli mualliflarning voqealarni o‘z siyosiy va hududiy manfaatlari nuqtayi nazaridan yoritganini anglatadi. Bu esa manbashunoslik nuqtayi nazaridan voqealarni biryoqlama emas, balki qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganish zarurligini tasdiqlaydi.

“Tarixi olamaroyi Abbosiy” va “Tarixi Muqimxoniy” ma’lumotlari asosida Boqi Muhammadxon va Shoh Abbos I o‘rtasidagi diplomatik yozishmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Balx masalasi ikki davlat o‘rtasidagi asosiy siyosiy qarama-qarshilik nuqtalaridan biri bo‘lgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Boqi Muhammadxonning Balxni ukasi orqali egallaganidan xabar topgan Shoh Abbos I unga maktub yo‘llab, Muhammad Ibrohimni Balxning “qonuniy xoni” sifatida e’tirof etadi va hududni uning avlodlariga topshirishni talab qiladi. Bu orqali Safaviy hukmdor Movarounnahr hududida to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy bosqindan ko‘ra, legitimlik omiliga tayangan holda siyosiy ta’sir o‘rnatishga intilganini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, Boqi Muhammadxon ham vaziyatni diplomatik yo‘l bilan hal qilishga harakat qilib, Marv hokimi Bektoshxon Ustajli orqali Shoh Abbos I ga maktub yuboradi. Unda ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlash va Xurosondagi vaziyatni muhokama qilish taklif etiladi . Shoh Abbos I bunga javoban Buxoroga ikki bor elchi yuboradi: birinchi maktub Bayramali Ustajli orqali yetkazilib, unda do‘stona munosabatlardan mamnunlik izhor etiladi. Ikkinchi maktub esa Jonmuhammadbek orqali yuborilib, unda Boqi Muhammadxondan Buxoro hududi bilan kifoyalanishi va Balxni Abdullaxon II avlodlariga topshirishi talab qilinadi. Shoh Abbos I ushbu taklif qabul qilinsa, ikki davlat o‘rtasidagi “birodarlik” aloqalari yanada mustahkamlanishini ta’kidlaydi. Biroq, Boqi Muhammadxon ushbu taklifni rad etadi. U o‘z javobida shayboniy shahzodalar hurmat bilan qabul qilinishini bildirgan holda, Balxni alohida siyosiy hudud sifatida topshirish mumkin emasligini qat’iy ta’kidlaydi . Bu javob Buxoro xonligining hududiy yaxlitlikni saqlash borasidagi qat’iy siyosatini ifodalaydi. mazkur diplomatik yozishmalar shuni ko‘rsatadiki, Shoh Abbos I Balx ustidan nazoratni qo‘lga kiritishda legitimlik vositasidan foydalanib, mintaqada o‘z ta’sirini kengaytirishga intilgan bo‘lsa, Boqi Muhammadxon esa bu bosimga qaramay, hududiy suverenitetni saqlab qolish siyosatini ustuvor deb bilgan.

Shuningdek, manbalarda Vali Muhammadxonning Isfahonda kutib olishi va ko’rsatilgan ehtirom haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Xususan, Vali Muhammadxon (1605–1611) jiyani Imomqulixon (1611–1642) bilan taxt uchun kurashda notinch siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, Safaviylardan yordam so‘rab elchi jo‘natgan. 1611-yil mart oyida Vali Muhammadxon va Imomquli sulton o‘rtasida jang bo‘lib o‘tadi. Mag‘lubiyatga uchragan Vali Muhammadxon shoh Abbos I huzuriga borishga majbur bo‘ladi. Vali Muhammadxon Koshon (hozirgi Eronga qarashli hudud) ga yetib kelganida, shoh Abbos I uni tantanali kutib olish uchun harbiylardan iborat faxriy qorovul tashkil etadi. Koshondan Isfahongacha bo‘lgan 3 farsaxlik yo‘lning ikki tomonida 20 minglik qo‘shin saf tortadi . Safaviylarning e’tiborli shayxlaridan biri bo‘lgan Og‘o Kamol Davlatobodiyning iltimosiga binoan, mehmonlar uning uyida mehmon bo‘lishadi. Iskandarbek Turkmonning yozishicha, Naqshi Jahon maydonida Vali Muhammadxon uchun katta ziyofat tashkil etiladi. Muallif shu kungacha mamlakat tashqarisidan kelgan

hech bir mehmon uchun bunday dabdabali marosim uyushtirilmaganligini ta’kidlaydi. 1611-yilning mart-iyul oylarida Safaviylar saroyida bo‘lgan Vali Muhammadxonga yaxshi munosabatda bo‘lib, yuksak izzat-ikrom ko‘rsatiladi. Iyul oyida Isfahondan Buxoroga qaytayotgan xonga shoh Abbos I 50 ming tuman pul, Zaynalxon Shomlu boshchiligida qo‘shin, ot, tuya, qurol-aslaha taqdim etadi . Yuqoridagi voqelikka nisbatan, “Tarixi Muqimxoniy” asarida voqealar qisqaroq va ancha sodda tarzda bayon qilinadi. Unda asosiy e’tibor Vali Muhammadxonning ichki siyosiy bosim ostida qolib, Qarshidan yashirin ravishda chiqib ketgani, Shoh Abbos I huzuriga borishi va undan harbiy yordam olganiga qaratiladi. Bu manbada tantanavor marosimlar tafsiloti emas, balki voqeaning siyosiy mohiyati — ya’ni hokimiyat uchun kurash va tashqi yordamga tayanish jarayoni muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, 80 ming qizilbash qo‘shini yuborilgani haqidagi ma’lumot Safaviylar yordamini yanada kuchliroq ko‘rsatishga xizmat qiladi .

Yuqoridagi taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, har ikkala manba bir voqeani tasvirlar ekan, ularning yondashuvi va maqsadi turlicha: biri (Tarixi olamaroyi Abbosiy) saroy tantanalari va siyosiy nufuzni ko‘rsatishga intilsa, ikkinchisi (Tarixi Muqimxoniy) voqealarning ichki siyosiy sabablariga urg‘u beradi.

XULOSA:

“Tarixi Muqimxoniy” va Tarixi olamaroyi Abbosiy” manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, XVII asr boshlarida Buxoro xonligi (Ashtarxoniylar) va Safaviylar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar qat’iy bir yo‘nalishda emas, balki o‘zgaruvchan va vaziyatga moslashuvchan xarakterga ega bo‘lgan. Shayboniylar davrida ustun bo‘lgan keskin qarama-qarshilik va dushmanlik kayfiyati, ichki siyosiy kurashlar ta’sirida ma’lum darajada yumshab, ayrim holatlarda vaqtinchalik hamkorlik yoki ittifoq shaklini olgan. Ashtarxoniylar va Safaviylar o‘rtasidagi munosabatlar na to‘liq dushmanlik, na mustahkam ittifoq shaklida bo‘lgan; balki ular siyosiy vaziyat, ichki kurashlar va hududiy manfaatlarga qarab o‘zgarib turuvchi murakkab va pragmatik diplomatik tizimni tashkil etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахмедов, Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. – Тошкент: Фан, 1985. – 259 с.
2. Eskandar Beg Monshi. History of Shah Abbas the Great (Tarik-e Älamärä-ye ‘Abbäsi). Translated by Roger M. Savory. – Colorado, 1978. – 1425 p.
3. Madraimov, A., Fuzailova, G. Manbashunoslik. – Toshkent, 2008. – 254 b.
4. Mamatqobulov, T.E. O‘zbek davlatchiligi tarixi: Ashtarxoniylar – Safaviylar munosabatlari: tarix fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2025. – 163 b.

5. Münşi, İskəndərbəy Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi. I kitab. Fars tilidan tarjima qilgan: Şahin Fazil. – Bakı: “ŞƏRQ-QƏRB”, 2010. – 1144 s.
6. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисл., примеч. и указатели проф. А.А. Семенова. – Ташкент, 1956. – 302 с.

BOLALARDA XULQ-ATVOR VA IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA “ABA” TERAPIYA ELEMENTLARINING ROLI

Nasirova Umida Abdusattarovna
Yangi asr unversiteti
katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693619

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalarda xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ABA (Applied Behavior Analysis) terapiya elementlarining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot qobiliyati va ijobiy xulq-atvori tizimli ravishda baholandi. ABA terapiya metodlarini qo‘llash bolalarda nafaqat xulq-atvorni ijobiy o‘zgartirishga, balki ularning o‘quv motivatsiyasini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natijalar inklyuziv ta’lim muhitida bolalarning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun amaliy tavsiyalar berishi xususida ma’lumotlar keltirilgan.

KALIT SO‘ZLAR

ABA terapiya, xulq-atvor rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalar, individual yondashuv, bolalarda ijobiy xulq-atvor, korreksion-pedagogik usullar.

АННОТАЦИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность элементов терапии ABA (Applied Behavior Analysis) в развитии поведения и социальных навыков у детей. Социальная адаптация, коммуникативные способности и положительное поведение детей были систематически оценены. Применение методов ABA-терапии положительно влияет не только на поведение детей, но и повышает их учебную мотивацию. Полученные результаты предоставляют практические рекомендации для обеспечения стабильного развития детей в условиях инклюзивного образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

ABA-терапия, развитие поведения, социальные навыки, индивидуальный подход, положительное поведение у детей, коррекционно-педагогические методы

ABSTRACT

Abstract.This article is dedicated to studying the effectiveness of ABA (Applied Behavior Analysis) therapy elements in developing behavior and social skills in children. The social adaptation, communication abilities, and positive behavior of children were systematically assessed. The use of ABA therapy methods not only positively influences children's behavior but also enhances their learning motivation. These findings provide practical recommendations for ensuring the stable development of children in an inclusive educational environment.

KEY WORDS

ABA therapy, behavior development, social skills, individual approach, positive behavior in children, corrective-pedagogical methods.

KIRISH

Bolalarning ijtimoiy va xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish ularning muvaffaqiyatli o‘quv jarayoni va jamiyatga moslashuvi uchun muhim hisoblanadi. Maxsus rivojlanish xususiyatlariga ega bolalarda bu ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘pincha qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, pedagoglar va psixologlar tomonidan zamonaviy yondashuvlar, jumladan, Applied Behavior Analysis (ABA) terapiyasi qo‘llaniladi.

ABA terapiya elementlarining qo‘llanilishi O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan ham to‘liq mos keladi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (modda 39) bolalarning ta’lim olish va rivojlanish huquqlarini kafolatlaydi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (1997, 2023-yil o‘zgartirilgan) maxsus va inklyuziv ta’limga oid mexanizmlar, pedagogik yordam va ota-onalar bilan hamkorlikni belgilaydi. Prezident farmonlari va qarorlari (masalan, 2021-yil 15-iyuldagi “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni) bolalar uchun pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashni, ota-onalarni jalb qilish mexanizmlarini belgilaydi.

Xususan, BMT Bolalar Huquqlari Konvensiyasi (1989) va UNESCO tavsiyalari ham bolalarning rivojlanishida ota-onalar ishtiroki va maxsus ehtiyojga ega bolalarning qo‘llab-quvvatlanishini ta’kidlaydi. Shu tarzda, ABA terapiya mashg‘ulotlarini ota-onalar bilan birgalikda tashkil etish nafaqat ilmiy jihatdan, balki normativ-huquqiy nuqtai nazardan ham asosli hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

ASD bilan kasallangan bolalar sonining ortib borishi bilan ular bilan ishlash uchun texnologiyalardan foydalanish zarurati paydo bo‘ldi. Shunday texnologiyalardan biri ABA terapiyasidir.

ASD bilan kasallangan bolalar bilan ishlash uchun ABA (Amaliy xulq-atvor tahlili) usuli birinchi marta 1963-yilda doktor Ivar Lovaas va uning Kaliforniya universitetidagi hamkasblari tomonidan qo‘llanilgan.

L.B.Fayzliddinova qarashlarida, ABA terapiya tamoyillari, ijtimoiy ko‘nikmalar va kommunikatsiyani rivojlantirish usullari, shuningdek xulq atvor korreksiyasi masalalari haqida tadqiqot olib borgan. U maxsus pedagogika kontekstida ABA yondashuvini tahlil qilgan.

K.S.Lebedinskaya ABA terapiya elementlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixopedagogik yondashuvlar, xulq atvorni o‘rgatish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish usullarini o‘rganib chiqqan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ABA terapiya elementlari bolalarning ijtimoiy moslashuvi, muloqot qobiliyati va xulq atvorini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot jarayonida ijobiy mustahkamlash, modellashtirish, takrorlash va individual yondashuv kabi ABA elementlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bu usulning mohiyati nima? Uni nima qiziqarli va noyob qiladi? U ASD bilan og‘rigan bolaning xatti-harakatlariga atrof-muhit omillarining ta’sirini o‘rganish va uni o‘zgartirish, ya’ni bu omillarni boshqarish imkonini beruvchi xulq-atvor texnologiyalari va texnikalariga asoslangan. ABA terapiyasi shuningdek, xulq-atvorni o‘zgartirish deb ham ataladi. G‘oya shundaki, har qanday xulq-atvorning oqibatlari bor va bolaga yoqsa, ular uni takrorlaydilar, agar yoqmasa, takrorlamaydilar. Xulq-atvor terapiyasining qiymati 30 yil davomida o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Xulq-atvorni o‘zgartirishning qanday foydalari bor? Ushbu usulni bolalar bilan qo‘llagan mutaxassislar va ota-onalar quyidagi fikr-mulohazalarni bildiradilar: muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi; moslashuvchan xulq-atvor normallashadi; va o‘rganish qobiliyati yaxshilanadi. Bundan tashqari, ushbu dastur xulq-atvor muammolari paydo bo‘lishini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, ABA terapiyasi kurslari qanchalik erta boshlansa (afzal maktabgacha yoshda), natijalar shunchalik sezilarli bo‘lishi isbotlangan. ASD bilan og‘rigan bolalar uchun ABA terapiyasi bolalarda ushbu kasallikni yengishga qaratilgan ko'pgina dasturlarning asosidir.

Olimlar amaliy xulq-atvor tahlili tamoyillariga asoslanib, ABA terapiyasidagi og‘ishlarni tuzatishning turli usullarini ishlab chiqdilar. Bu qanday ishlaydi? Ushbu usul yordamida autizm uchun murakkab ko‘nikmalar, masalan, muloqot, nutq, ijodiy o‘yin, ko‘z bilan aloqa, tinglash va boshqalar, alohida kichik harakat birliklariga bo‘linadi. Keyin bu birliklarning har biri bolaga alohida o‘rgatiladi. Oxir-oqibat,

birliklar bitta zanjirga bog‘lanadi, bu esa bitta murakkab harakatni tashkil qiladi. Harakatlarni o‘rganish jarayonida mutaxassis autizm spektri buzilishlari bo‘lgan bolaga vazifa beradi. Agar bola vazifani mustaqil ravishda bajara olmasa, o‘qituvchi ularga ishora beradi va keyin ularni to‘g‘ri javoblar uchun mukofotlaydi, noto‘g‘ri javoblar esa e‘tiborga olinmaydi. Bu ABA terapiyasining asosidir. Ushbu usul bo‘yicha mashg‘lotlar bir necha bosqichlardan iborat.

Birinchi bosqich: Biz oddiy narsadan boshlaymiz. Dasturdagi mashqlardan biri “Tilni tushunish”. Masalan, o‘qituvchi bolaga ma’lum bir vazifa beradi - ulardan qo‘llarini ko‘tarishlarini so‘raydi, darhol ishora beradi (bolaning qo‘lini ko‘taradi) va keyin ularni to‘g‘ri javob uchun mukofotlaydi. Bir nechta urinishlardan so‘ng, bola harakatni so‘ramasdan bajarishga harakat qiladi. Terapevt bolaga yana bir marta shu iborani takrorlaydi va ularning mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishini kutadi. Agar ular to‘g‘ri javob bersalar, lekin hech qanday taklifsiz, mukofot oladilar. Agar bola to‘g‘ri javob bermasa, vazifa ishora bilan yana takrorlanadi. Keyin bola vazifani yana mustaqil ravishda bajarishga harakat qiladi. Mashq bola hech qanday taklifsiz muvaffaqiyatli to‘g‘ri javob berganida tugaydi. Terapevtning vazifasiga bolaning mustaqil javoblarining 90% to‘g‘ri bo‘lganda, yangi vazifa beriladi, masalan, bosh irg‘ash. Vazifalar bir-biridan iloji boricha farq qilishi muhimdir. Yangi vazifa shunga o‘xshash tarzda mashq qilinadi.



Ikkinchi bosqich: Materialni mustahkamlash. Bola ikkinchi vazifani — “boshingizni qimirlatishni” o‘zlashtirgandan so‘ng, mashq yanada qiyinlashadi. O‘rganilgan harakatlar tasodifiy tartibda almashtiriladi: “boshingizni qimirlatmoq” — “qo‘lingizni ko‘tarmoq”, “qo‘lingizni ko‘tarmoq" — “qo‘lingizni ko‘tarmoq” — “boshingizni qimirlatmoq’ va hokazo. O‘rganilgan mashqlarni navbatma-navbat bajarishda bola 90% vaqt ichida to‘g‘ri javob bersa, vazifalar o‘zlashtirilgan hisoblanadi. Uchinchi va undan keyingi vazifalar ham xuddi shu sxema bo‘yicha kiritiladi va mashq qilinadi.



Uchinchi bosqich: Umumlashtirish va mustahkamlash. Bu bosqichda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar umumlashtiriladi. Bola yetarli miqdordagi muhim ko‘nikmalarni (“olmoq”, “bermoq”, ‘bu yerga kelmoq” va boshqalar) o’zlashtirgandan s”ng, e’tibor umumlashtirishga qaratiladi. Mashqlar noodatiy va kutilmagan joylarda (ko‘chada, do‘konda, hammomda) o‘tkazila boshlaydi. Keyin bolaga vazifalarni beradigan shaxs (mutaxassis, ona, dada, bobo, buvi) navbat bilan almashtiriladi.



To‘rtinchi bosqich, yakuniy bosqich. Bir payt bola nafaqat mashq qilib kelgan vazifalarni o‘zlashtiradi, balki yangi vazifalarni mustaqil ravishda tushunishni boshlaydi, endi qo‘shimcha mashq talab qilmaydi. Masalan, ularga bir yoki ikki marta ko‘rsatiladigan “mashqni bajaring” vazifasi beriladi va bu yetarli. Agar bu muvaffaqiyatli bo‘lsa, dastur o‘zlashtirilgan va ABA terapiyasi mashg‘ulotlari endi kerak emas. Bola odatda rivojlanayotgan bolalar kabi atrof-muhitdan ma’lumotni yanada ko'proq o'zlashtira boshlaydi. O‘nlab harakatlar va obyektlarni bo‘lak-bo‘lak o‘rganish va takomillashtirish katta kuch va vaqtni talab qiladi. ASD bilan kasallangan bolada xulq-atvor aralashuvining samaradorligini nima belgilaydi? ABA terapiyasi haftasiga kamida 30-40 soatga bag‘ishlansa, eng samarali bo‘ladi, deb ishoniladi. Ushbu dasturni bola 6 yoshga to‘lmasdan oldin boshlash tavsiya etiladi. ABA terapiyasi katta yoshdagi bolalar uchun ham samarali. U qanchalik erta boshlansa, natija shunchalik yaxshi bo‘ladi.



Usulning kamchiliklari. Afsuski, agar ASD bilan kasallangan bola begonalardan q”rqsa, ABA terapiyasini dastlabki bosqichda qo‘llash mumkin emas. Ota-onalar ishga to‘liq bag‘ishlanish uchun ruhiy va jismoniy jihatdan tayyor bo'lishlari kerak; ish davom etmoqda va mukofot tizimi buzilmaydi. Ishni tanaffus qilish yoki susaytirish tavsiya etilmaydi, chunki bu natijalarga ta'sir qilishi mumkin. Bolaga o'rgatish emas, balki murabbiylik qilish - takroriy takrorlash orqali ko'nikmalar o'rgatilishini tushunish muhimdir. Bu usul bolaning to‘liq itoatkorligini talab qiladi, bunga ba’zan erishish juda qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu dasturning borishini kuzatish juda muhim, ammo uyda siz aralashuv rejasiga mos keladigan rivojlanish tizimini yaratishga harakat qilishingiz kerak.

MUHOKAMA (DISCUSSION).

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ABA terapiya elementlari bolalarda xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Xususan, ijobiy mustahkamlash orqali bolalarda kerakli xatti-harakatlarni tezroq o‘zlashtirish kuzatiladi, modellashtirish esa ularni amaliy tarzda takrorlashga yordam beradi.

Materialni bosqichma-bosqich va takroriy o‘rgatish natijasida bolalarda topshiriqlarni tushunish va mustaqil bajarish ko‘nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, vazifalarni navbatma-navbat (tasodifiy) berish usuli bolaning faqat yodlab emas, balki tushunib bajarishini ta’minlaydi. Individual yondashuvning qo‘llanilishi har bir bolaning rivojlanish darajasi va ehtiyojlariga mos ta’lim berish imkonini yaratadi. Bu esa ijtimoiy moslashuv, muloqot va kundalik faoliyat ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ABA terapiya elementlarini tizimli va maqsadli qo‘llash bolalarning xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.



XULOSALAR VA TAKLIFLAR.

Mazkur maqola jarayonida bolalarda xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda ABA (Applied Behavior Analysis) terapiya elementlarining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

XULOSALAR

ABA terapiya metodlari bolalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi;

Salbiy xatti-harakatlarni kamaytirish va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda tizimli yondashuv yuqori natija beradi;

Rag‘batlantirish (reinforcement) va bosqichma-bosqich o‘rgatish usullari bolalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshiradi;

Individual yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning psixologik va pedagogik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;

Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik jarayon samaradorligini yanada oshiradi.

TAKLIFLAR.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalarida ABA terapiya elementlarini keng joriy etish;

Pedagoglar uchun ABA metodikasi bo‘yicha maxsus trening va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Ota-onalar uchun amaliy qo‘llanmalar va trening dasturlarini ishlab chiqish;

Har bir bola uchun individual rivojlanish dasturini (Individual Education Plan – IEP) ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Raqamli texnologiyalar asosida (mobil ilovalar, interaktiv platformalar) ABA mashg‘ulotlarini tashkil etish;

Inklyuziv ta’lim muhitida korreksion-pedagogik yondashuvlarni kuchaytirish.

Bolalarda xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan ABA terapiya elementlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. Tizimli, rejalashtirilgan va individual yondashuv asosida olib borilgan mashg‘ulotlar bolalarning nafaqat xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartiradi, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, muloqot qilish qobiliyati hamda o‘quv motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlik muhim omil ekanligini tasdiqladi. Kompleks yondashuv — ya’ni pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirish — bolalarning rivojlanishida barqaror ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi me’yoriy hujjatlari, 2022–2024-yillar.
4. Alberto P.A., Troutman A.C. O‘qituvchilar uchun amaliy xulq-atvor tahlili – 9-nashr. – Boston: Pearson, 2013.
5. Amerikan Psixiatriya Assotsiatsiyasi. Rivojlanish buzilishlari va ruhiy kasalliklar diagnostikasi (DSM-5) – Vashington, 2013.
6. Hallahan D.P., Kauffman J.M., Pullen P.C. Exceptional Learners: An Introduction to Special Education. – Boston: Pearson, 2015.
7. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva, 1975.
8. Miltenberger R.G. Xulq-atvorni o‘zgartirish: prinsiplari va usullari – 6-nashr. – Boston: Cengage Learning, 2015.
9. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg, 2002.
10. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.

SHARQ DIPLOMATIK MADANIYATIDA XATTOTLIK SAN'ATI VA ELCHILIK AN'ANALARI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV (TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA).

Yuldasheva Mastura Islamovna
TIPI "Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasi katta o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816647

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sharq diplomatik madaniyatida xattotlik san'ati va elchilik institutining o'zaro bog'liqligi Temuriylar davri misolida tarixiy-manbashunoslik asosida tahlil qilinadi. Diplomatik yozishmalarda qo'llanilgan xat turlari, elchilarni tanlash mezonlari, ularning til bilish darajasi, xattot va elchilarning rag'batlantirilish tizimi hamda bu jarayonlarning davlat nufuzi va siyosiy aloqalarga ta'siri aniq faktlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijasida xattotlik san'ati Sharq diplomatiyasida estetik emas, balki strategik va vakillik ahamiyatiga ega bo'lganligi asoslab beriladi.

KALIT SO'ZLAR

xattotlik, diplomatiya, elchilik, Temuriylar, maktubot, nasta'liq, suls, til bilish, madaniy diplomatiya, tarixiy manba.

АННОТАЦИЯ

Аннотация:
В данной статье на основе историко-источниковедческого анализа исследуется взаимосвязь искусства каллиграфии и института посольства в дипломатической культуре Востока на примере эпохи Тимуридов. Подробно рассматриваются виды почерков, использовавшихся в официальной переписке, критерии отбора послов, их лингвистические компетенции, а также система государственного стимулирования каллиграфов и дипломатов. Автор доказывает, что в

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

каллиграфия, дипломатия, посольство, Тимуриды, переписка, насталик, сульс, знание языков, культурная дипломатия, исторический источник.

рассматриваемый период каллиграфия в дипломатии выполняла не только эстетическую, но и важную стратегическую и социально-политическую функции, влияя на международный авторитет государства.

ABSTRACT

This article provides a historical and source-based analysis of the relationship between the art of calligraphy and the diplomatic institution in Eastern culture, focusing on the Timurid era. Based on historical evidence, the study examines the specific scripts used in diplomatic records, the selection criteria for ambassadors, their language proficiency, and the incentive systems for calligraphers and envoys. The research highlights the impact of these factors on state prestige and international relations. The author concludes that in Timurid diplomacy, calligraphy transcended aesthetic boundaries, serving as a strategic tool for representation and political communication

KEY WORDS

calligraphy, diplomacy, embassy, Timurids, correspondence, nastaliq, thuluth, linguistic proficiency, cultural diplomacy, historical source.

KIRISH

Uzoq ming yilliklar tarixi shundan dalolat beradiki, o‘zbek milliy davlatchilik tarixining shakillanish bosqichlari eng avvalo ma’naviyat va ma’rifatning jamiyat hayotida muhim o‘rin egallaganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Qayd etish lozimki, istiqlolning dastlabki davrlaridanoq madaniyatning usullar tizimi o‘zgardi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida milliy davlat va diplomatiya tarixini madaniy meros bilan uyg‘unlikda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sharq sivilizatsiyasi tarixida diplomatik munosabatlar nafaqat siyosiy kelishuvlar, balki yuksak estetik va ma’naviy qadriyatlar asosiga qurilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bizning bebaho qo‘lyozma boyligimiz, noyob tarixiy manbalarimiz va buyuk ajdodlarimiz qoldirgan meros butun insoniyat mulki hisoblanadi” [1, 245-b.]. Ushbu fikr diplomatik manbalarni, xususan, nafis xattotlik namunalari bo‘lgan elchilik maktublarini faqat tarixiy hujjat emas, balki davlat nufuzini ifodalovchi ma’naviy meros sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Diplomatik yozishmalarda xattolarsiz yozish madaniyati iqtisodiy va madaniy munosabatlarni rasmiy ravishda ifodalagan.Temuriylar davrida diplomatik hujjatlar maxsus xattotlar tomonidan bitilgan bo‘lib, unda xat turi muhim siyosiy va estetik funksiyani bajargan. Suls xati rasmiy farmonlar va tantanavor hujjatlar uchun, nasx aniqlik talab etiladigan rasmiy matnlarda, nasta’liq esa diplomatik muloqot va madaniy yozishmalarda asosiy o‘rin tutgan [5, 126-b.]. Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida Amir Temurning xorijiy hukmdorlarga yuborgan maktublari alohida e’tibor bilan tayyorlanganini, ularning zarhal bezaklari va muhrlari davlat qudratini ko‘rsatuvchi vosita bo‘lganini qayd etadi [4, 302-b.].

”Zafarnoma” nusxalari o‘z davrining eng mohir xattotlari tomonidan ko'chirilgan va bezaklar bilan ziynatlangan. Asarning turli nusxalarida, xususan, 1467-yilda ko‘chirilgan nusxalarida miniatyura tasvirlari mavjud bo‘lib, ular xattotlik va tasviriy san’atning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Asada nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki XV asr temuriylar davri xattotlik maktabi va kitob san’atining noyob yodgorligi sifatida ham qadrlanib kelmoqda bugungi kunga qadar.

Abu Ali ibn Sinoning “Nafis va go‘zal yozuv ko‘zni munavvar qiladi va qalbni quvontiradi” degan hikmatli gapi xattotlik san’ati, husnixat va go‘zallikning inson ruhiyatiga ta’siri haqidagi chuqur falsafiy qarashdir. Xattotlik san’atiga ehtirom: Ibn Sino xat san’atini insonning nafaqat ko‘zi, balki ruhiyatini munavvar qiluvchi nur sifatida baholagan. Bu hikmat Sharq mamlakatlarida xattotlikning yuksak darajada qadrlanganini va uning inson ma’naviyatiga ta’sirini ifodalaydi.

Sharq diplomatiyasida elchi - davlatning rasmiy vakili sifatiga qo‘yiladigan talablar juda qat’iy bo‘lgan. Elchi nafaqat siyosatchi, balki olim, shoir va xattotlik bilimdoni bo‘lishi maqsad qilingan. Ularning til bilish darajasi (arab, fors, turkiy va boshqa tillar) va fenamenal xotirasi muzokaralar taqdirini hal qilgan. Mashhur diplomat Abdurazzok Samarqandiy Hindistonga yuborilganda uning qomusiy bilimi davlat nufuzini yuksaltirishga xizmat qilgan [6, 112-b.]. Temuriylar Renessansi davrining vakili Abdurazzoq Samarqandiy milliy saroy amaldori, balki o‘z davrining diplomati va zukko tarixchisi sifatida ham e’tirof etilgan.

Shohrux Mirzo topshirig‘iga binoan Janubiy Hindistonning Vijayanagar davlatiga elchi qilib yuborilishi, buning natijasida o‘laroq dunyoga kelgan "Matla’-us-sa’dayn va majma-ul-bahrayn" asari shaxsiy tarixiy yilnoma emas, balki XV asr dunyosining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy manzarasini chizib bergan noyob ensiklopedik manbadir.Ikki jilddan iborat ushbu xazinaning qimmatli jihati, unda muallif voqealarni bayon qilib, balki fayl sabab va natijani tahlil qiladi. Birinchi jildda XIVdagi murakkab harbiy-siyosiy asr jarayoni yoritilsa, jildda Temuriylar davlatining taraqqiyot bosqichi, xalqaro maydondagi nufuzi va madaniy yuksalishi o‘z ifodasini topgan.

Elchilarni tanlash va ularning fazilatlari diplomatiya tarixida davlatning tashqi siyosati samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy tajribalar va diplomatik tamoyillarga ko'ra, elchilarni tanlashda quyidagi fazilatlariga e'tibor qaratilgan. Kasbiy bilim va tajribasiga, intellektual salohiyatiga, tillar va madaniyatni bilishiga, sodiqlik har qanday vaziyatda ham davlat manfaatini oliy o 'rinda ko'rish, jismoniy va ruhiy sog'lomlik, bardosh bera olish fazilatlari mujassam bo 'lishi talab qilingan. Elchi o'sha elning diplomatiyasi va nufuzini ifodalovchi vakil sifatida nomoyon bo'lgan.

Hukmdorlar davlatning sharafini himoya qilgan xattot va elchilarni munosib taqdirlaganlar. Rivoyatlarga ko'ra, mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan har bir sahifa uchun oltin bilan mukofotlangan [7, 134-b.]. Elchilarga esa muvaffaqiyatli missiyadan so'ng 'tarxon' (soliqlardan ozod) unvon va yer-mulklar in'om etilgan. Bu rag'batlantirish tizimi diplomatik hujjatlarning san'at darajasiga ko 'tarilishiga sabab bo'lgan.

Alisher Navoiy xattotlikni jamiyat hayotining ko'zgusi deb bilgan: "Xat - bu ko'z bilan ko'riladigan so'zdir" [2, 196-b.]. Navoiyning ushbu o'xshatishi xattotlikni 'ko'rinmas nutqning moddiy qiyofasi' sifatida tavsiflaydi. Bu qarash jamiyatdagi yozuv madaniyati inson tafakkurining qanchalik tartibli va nafis ekanligini ko'rsatuvchi eng xolis ko'zgu ekanligini isbotlaydi.

Sulton Ali Mashhadiy esa xat go'zalligini ichki poklik bilan bog'lagan [3, 34-b.]. XV asr Hirot xattotlik maktabining eng yirik vakili, nasta'liq xatining ustasi, "Sulton ul-xattotin" (Xattotlar sultoni) unvoni sohibi bo'lib, xat go'zalligini ichki poklik va ruhiy musaffolik bilan uzviy bog'liq deb hisoblagan.

Abdurahmon Jomiy esa maktubot san'atida shakl va mazmun uyg'unligiga urg'u berib: "So'zning ziynati uning ma'nosidadur, ammo husni xatda namoyon bo'lur" [9, 91-b.] deydi. So'z ham mazmunan chuqur, ham shaklan (yozilishida) chiroyli bo'lishi lozim. Bu ma'naviy go'zallik bilan tashqi go'zallik xat,shakl uyg'unligini anglatadi.

Amir Olimxon esa: "Davlatning tartibi hujjatda, hujjatning qadri esa yozuvning aniqligidadir" deya elchilik hujjatlari nufuzini belgilab bergan [6, 157-b.].Davlatning barqarorligi, qonun-qoidalari, boshqaruv tizimi va fuqarolar bilan munosabati og'zaki gaplar bilan emas, balki rasmiy hujjatlar (qonunlar, qarorlar, shartnomalar) bilan mustahkamlanadi. Tartib bo'lgan joyda hujjat bo'ladi.

XULOSA

Sharq diplomatik madaniyatida xattotlik san'ati muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, elchilarning til bilish darajasi va kitobat madaniyati davlatning "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshirgan. Bugungi kunda

ushbu an’analarni o‘rganish uchinchi Renessans sari qo‘yilgan muhim ilmiy qadamdir.

Xat va xattotlik ma’naviyatimiz tarixida alohida mavqega ega qadriyatimiz sifatida behisob asarlarning bizgacha yetib kelishiga asos bo‘lgan. Sharq ¬allomalarning xattotlik san’atiga oid qarashlari, bir tomondan, xat va xattotlik san’ati tarixini o‘rganishga yordam bersa, ikkinchidan sharq fozillari ¬faoliyatiga adabiy-estetik munosabatini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.
2. Navoiy A. Majolis un-nafois. Toshkent, 2017. - 312 b.
3. Sulton Ali Mashhadiy. Odob ul-mashq. Toshkent: Akademnashr, 2020. - 96 b.
4. Yazdiy Sh.A. Zafarnoma. Toshkent: Sharq, 2019. - 520 b.
5. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. Toshkent: Fan, 2020. - 240 b.
6. Nizomiddinov I. Temuriylar davri elchilik aloqalari. Toshkent, 2019. - 224 b.
7. Abdullayev M.V. Sharq kitobat san’ati tarixi. Toshkent: Fan, 2022. -286 b.
8. Qurbonova G.N. Temuriylar davri maktuboti. Buxoro, 2022. - 198 b.
9. Jomiy A. Bahoriston. Toshkent, 2020. - 184 b.
10. Karimova G.A. Tarixiy manbashunoslik va diplomatiya. Samarqand, 2023. - 168 b.

BUXGALTERIYA HISOBINING EVOLUTSION RIVOJLANISHI: AN'ANAVIY USULLARDAN SUN'IY INTELLEKTGA O'TISH BOSQICHLARI

Rasulov Saodaddin Shavkatovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
Babayeva Gulchexra Azimovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.19692901

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitda sun'iy intellekt texnologiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish tizimiga ta'siri va ushbu texnologiyalarning sohadagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida buxgalteriya hisobini an'anaviy avtomatlashtirish hamda sun'iy intellekt (AI) imkoniyatlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'xshash va farqli jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida buxgalter kasbiy faoliyatining o'zgarishi, tizimning afzalliklari va mavjud kamchiliklari ilmiy jihatdan asoslab berilgan

KALIT SO'ZLAR

sun'iy intellekt, buxgalteriya hisobi, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, AI (Artificial Intelligence), buxgalter faoliyati, samaradorlik, texnologik transformatsiya

KIRISH

Sun'iy intellekt (SI) — bu inson yoki hayvonlarga xos bo'lgan tabiiy ongdan farqli ravishda, mashinalar va dasturiy tizimlar tomonidan namoyon etiladigan intellektual faoliyatdir. Sun'iy intellekt sohasi 1956-yilda mustaqil akademik yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida bir necha yuksalish va tushkunlik ("SI qishi") davrlarini bosib o'tdi. Biroq, 2012-yildan boshlab chuqur o'rganish (deep learning) texnologiyalarining an'anaviy algoritmlardan ustunligi isbotlangach, sohaga bo'lgan qiziqish va investitsiya oqimi keskin ortdi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt tadqiqotlari quyidagi strategik yo'nalishlarni qamrab oladi:

•Mantiqiy fikrlash va bilimlarni modellashtirish;
•Strategik rejalashtirish va mashinali o‘rganish;
•Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va vizual idrok etish;
•Robototexnika tizimlarini boshqarish.

Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt kirib bormagan sohani topish qiyin. U tibbiy diagnostikadan tortib, xavfsizlik tizimlarigacha, hattoki iste’molchilarning xarid qilish madaniyatigacha transformatsiya qilmoqda. Buxgalteriya hisobi ham ushbu texnologik inqilobdan mustasno emas. Aksincha, buxgalteriya — sun’iy intellekt eng yuqori samaradorlik ko‘rsatayotgan sohalardan biri bo‘lib, u ayniqsa audit va takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatlashtirishda katta salohiyatga ega.

Ko‘pchilikni bir savol o‘ylantiradi: Sun’iy intellekt evolyutsiyasi kelajakda buxgalter kasbining yo‘qolishiga olib keladimi? Katta ehtimol bilan — yo‘q. Zero, buxgalteriya hisobi nafaqat raqamlar, balki o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatdir. Mijozlar texnologik tizimlarga nisbatan inson omiliga ko‘proq ishonishadi. Buning asosiy sababi kiberxavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lib, SI tizimlari virusli hujumlar, texnik nosozliklar yoki xakerlik hujumlari qarshisida zaif bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar maxfiy ma’lumotlarning sizib chiqishi yoki yo‘qotilishiga olib keladi.

Buxgalter esa professional sub’yekt sifatida ma’lumotlarni tahlil qilishda o‘z bilimi va tajribasiga tayanadi, kutilmagan vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qila oladi. Sun’iy intellekt kontekstni hisobga olmasdan faqat algoritm bo‘yicha ishlasa, xato natijalar berish xavfi mavjud. Shunga qaramay, zamonaviy raqobat muhitida SI texnologiyalaridan voz kechish imkonsizdir. Tizimning tezligi, aniqligi va samaradorligi inson imkoniyatlaridan sezilarli darajada yuqori.

Shunday qilib, zamonaviy buxgalterning vazifasi texnologiya bilan raqobatlashish emas, balki uni o‘zlashtirishdir. Yangi texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishni o‘rganish orqali sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish va faoliyat sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin

SUN’IY INTELLEKT VA BUXGALTERIYA KELAJAGI: XALQARO TAJRIBA VA TENDENSIYALAR

Angliya va Uelsning vakolatli buxgalterlar instituti (ICAEW) tomonidan e’lon qilingan "Sun’iy intellekt va buxgalteriya kelajagi" nomli hisobotda qayd etilishicha: "Sun’iy intellekt (SI) hozirgi vaqtda insonlar tomonidan amalga oshirilayotgan qaror qabul qilish jarayonlarini tobora ko‘proq o‘z zimmasiga olmoqda va bu sohada tub o‘zgarishlar uchun zamin yaratmoqda".

Xususan, SI texnologiyalari guruh korxonalarining global tuzilmasini optimallashtirish va soliq yukini samarali boshqarish kabi yuqori darajadagi murakkab vazifalarni hal etishda keng qo‘llanilmoqda. Kelajakda bunday strategik

tahliliy jarayonlar to‘liq avtomatlashtirilishi kutilmoqda. "Amazon" kompaniyasi asoschisi Jeff Bezos ta’kidlaganidek: "Aslini olganda, dunyoda mashinali o‘rganish (Machine Learning) texnologiyasi yordamida takomillashmaydigan birorta ham soha yoki institut mavjud emas".

Amaliy misol tariqasida Daniyaning "a2i" kompaniyasini keltirish mumkin. Ushbu kompaniya tomonidan joriy etilgan SI algoritmlari yonilg‘i quyish shoxobchalarida narxlarni avtomatik tartibga solish orqali qaror qabul qilish jarayonlarida inson omilidan ko‘ra samaraliroq natija berishini isbotladi. Aynan ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyati SI texnologiyasini boshqaruv qarorlari qabul qilishda tengsiz vositaga aylantirmoqda.

"The Financial Times" nashri ushbu masalaga to‘xtalib, quyidagicha izoh beradi: "Takomillashgan texnologiyalar audit jarayonlarini inson mehnatiga qaraganda tezroq va potensial jihatdan aniqroq bajarishga qodir. Shuningdek, u ulkan hajmdagi ma’lumotlarni (Big Data) tahlil qilish orqali yangi tushunchalar va strategik xulosalar shakllantira oladi".

Ushbu texnologik transformatsiya ta’lim tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda ko‘plab nufuzli universitetlar buxgalteriya hisobi bo‘yicha o‘quv dasturlariga "Axborot texnologiyalari" hamda "Ma’lumotlar bazasini boshqarish" kabi maxsus kurslarni integratsiya qilmoqdalar. Bu esa bitiruvchilarning zamonaviy texnologik muhitda faoliyat yuritishga tayyor, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishini ta’minlaydi.



1-rasm. Sun’iy intellektning buxgalteriya hisobiga ta’siri

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish uchun hozirda juda ko‘plab turli xil dasturlash ishlab chiqilmoqda va bu dasturiy mahsulotlar anchagina rivojlanib bormoqda. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxonalar haqida qaror chiqaruvchi va qarorlar qabul qiluvchi rahbar, menejerlar uchun juda foydali texnologiya hisoblanadi. Sun’iy intellekt ma'lumotlarni kiritish, tranzaksiyalarni moslashtirish va hisobot yaratish kabi takrorlanuvchi va ko'p vaqt talab qiluvchi vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin, bu esa buxgalterlarga ko'proq strategik va tahliliy faoliyatga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bulardan tashqari sun’iy intellekt texnologiyalardan foydalanishning yana quyidagi afzalliklari ham bor: katta hajmdagi ma’lumotlarni tezda qayta ishlashidir. Sun’iy intellekt algoritmlari katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlarni aniqlik bilan tahlil qilishi mumkin, bu hisob-kitoblar va ma'lumotlarni qayta ishlashda inson xatosi ehtimolini kamaytiradi. Yana u moliyaviy tranzaktsiyalardagi naqsh va anomaliyalarni aniqlay oladi, bu potentsial firibgarlik yoki shubhali faoliyatni an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq aniqlashga yordam beradi. Buxgalteriya dagi butexnologiyalar moliyaviy tranzaktsiyalardagi naqsh va anomaliyalarni aniqlay oladi, bu potentsial firibgarlik yoki shubhali faoliyatni an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq aniqlashga yordam beradi.

-Asosiy tashvishlardan biri shundaki, AI hozirda odamlar tomonidan bajariladigan ba'zi buxgalteriya vazifalarini almashtirishi mumkin. Bu ba'zi buxgalteriya mutaxassislari uchun ish joyini almashtirish va ishsizlikka olib kelishi mumkin.

-AI tizimlari odatda mavjud ma'lumotlar va algoritmlar asosida dasturlashtirilgan bo'lib, ular har doim ham odamlar taqdim eta oladigan murakkab qarorlar yoki axloqiy fikrlarni hisobga olmasligi mumkin. Bu esa, buxgalterlar taklif qila oladigan nozik mulohazalar va tanqidiy fikrlashdan mahrum bo'lgan qarorlarga olib kelishi mumkin.

- Buxgalteriya hisobidagi sun'iy intellekt aniq va yuqori sifatli ma'lumotlarga tayanadi. Ma'lumotlar kiritilishi noto'g'ri yoki to'liq bo'lmasa, bu noto'g'ri yoki noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin. Ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash va ma’lumotlar sifatini ta’minlash sun’iy intellektga asoslangan buxgalteriya tizimlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

- AIdan foydalanish katta miqdordagi nozik moliyaviy ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar xavfsizligi, maxfiylik va ma'lumotlarning buzilishi yoki noto'g'ri foydalanish ehtimoli haqida tashvish uyg'otadi. Moliyaviy ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini himoya qilish uchun tegishli himoya choralari va protokollar mavjud bo'lishi kerak.

- Xarajatlar va amalga oshirish muammolari: Buxgalteriya hisobiga AI tizimlarini joriy etish qimmat va vaqt talab qilishi mumkin. Bu texnologik infratuzilmaga sarmoya kiritish, xodimlarni o'qitish va doimiy ta'mirlashni talab qiladi. Kichik bizneslar sun’iy intellekt yechimlarini topish va qabul qilishda muammolarga duch kelishi mumkin, bu esa ularning potentsial imtiyozlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya sharoitida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy iqtisodiyotning obyektiv zaruriyatiga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish nafaqat hisob yuritish sifati va tezkorligini oshiradi, balki soha mutaxassislaridan yangi kompetensiyalarni egallashni ham talab etadi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1.Kasbiy transformatsiya: Buxgalterlar mehnat bozorida o‘z o‘rinlarini saqlab qolish va mijozlarga yuqori sifatli konsalting xizmatlarini ko‘rsatish uchun SI sohasidagi so‘nggi tendensiyalarni muntazam kuzatib borishlari lozim. Texnologik yangiliklarni kundalik ish faoliyatiga integratsiya qilish kasbiy samaradorlikning asosiy omilidir.

2.Operatsion samaradorlik: Raqamli texnologiyalar yordamida murakkab hisob-kitoblarni tezkor amalga oshirish, debitorlik qarzlarini monitoring qilish, tranzaksiyalarni aniq vaqt rejimida qayta ishlash hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash vaqtini sezilarli darajada tejash imkoniyati mavjud.

3.Sinergiya effekti: SI asosan ma’lumotlarni qayta ishlash va texnik tahlilga yo‘naltirilgan bo‘lsa, inson omili moliyaviy boshqaruvda strategik qarorlar qabul qilish, tanqidiy fikrlash va mijozlar bilan shaxsiylashtirilgan muloqotni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt va inson tajribasining kombinatsiyasi buxgalteriya amaliyotida eng yuqori natijani beradi.

Amaliy takliflar:

Buxgalteriya hisobi va sun’iy intellektning muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvini ta’minlash maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

Ta’lim tizimini isloh qilish: Oliy ta’lim tizimida nafaqat iqtisodiy, balki IT-yo‘nalishlari bo‘yicha ham o‘quv dasturlarini zamonaviylashtirish zarur. Universitetlarga yosh avlodning texnologik qiziqishlarini oshira oladigan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish, xalqaro tajriba almashish dasturlarini (global SI markazlari bilan hamkorlikda) kengaytirish lozim.

•Infratuzilmani rivojlantirish: SI texnologiyalarining barqaror ishlashi uchun katta hajmli ma’lumotlarni qayta ishlovchi (Big Data) kuchli server qurilmalari va yuqori tezlikdagi uzluksiz internet aloqasini ta’minlash talab etiladi.

Dasturiy ta’minot yaratish: Mahalliy buxgalteriya hisobi qonunchiligi va milliy standartlarga moslashtirilgan sun’iy intellektga asoslangan milliy dasturiy mahsulotlarni yaratish uchun dasturchilar va soha mutaxassislarining hamkorlikdagi faoliyatini rag‘batlantirish darkor

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.A.Karimov, Z.A.Muqumov, M.S.Tulayev, J.E.Kurbanbayev,
2. Sh.Sh. Rahmonov - Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari, O‘quv qo‘llanma – T, 2018 yil
3. Z.Boymirzayev - Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari, O‘quv-uslubiy majmua – Namangan, 2025 yil
4. S.To‘rayeva - Buxgalteriya hisobini raqamli iqtisodiyot rivojlanish sharoitiga moslashish yo‘llari va muammolari, – Namangan, 2022 yil
5. I.R.Davletov, D.I.Jamoliddinova - Buxgalteriya hisobi funksiyalari autsorsingi: afzalliklari va kamchiliklari, konferensiya, – T, 2021 yil

BLENDER VA UNREAL ENGINE 5 MUHITIDA YUQORI POLIGONLI MODELLARNI NANITE TEXNOLOGIYASI ORQALI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI.

Rasulov Saodaddin Shavkatovich
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)., dotsent
Raimjonov Azizbek Raximjon O'g'li
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693328

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy kompyuter o'yinlarini ishlab chiqishda keng qo'llanilayotgan Unreal Engine 5 o'yin dvijogi va Blender 3D modellashtirish dasturining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 3D modellarni yaratish, ularni optimallashtirish, o'yin muhitiga integratsiya qilish hamda real vaqt grafikasini yaratish jarayonlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, Nanite va Lumen texnologiyalarining o'yin grafikasiga ta'siri ham tahlil qilindi.

KALIT SO'ZLAR

Unreal Engine 5, Blender, o'yin ishlab chiqish, 3D modellashtirish, real vaqt grafika, game development, virtual muhit.

KIRISH

So'nggi yillarda kompyuter o'yinlari sanoati jadal rivojlanmoqda. Zamonaviy grafik texnologiyalar va kuchli o'yin dvijoklari yordamida realistik virtual muhitlarni yaratish imkoniyati paydo bo'ldi. O'yin ishlab chiqish jarayonida turli dasturiy vositalardan foydalaniladi. Ularning ichida Unreal Engine 5 va Blender dasturlari alohida ahamiyatga ega. Unreal Engine 5 — Epic Games kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy o'yin dvijogi bo'lib, yuqori sifatli grafika va real vaqtli rendering imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Blender esa ochiq kodli 3D modellashtirish va animatsiya dasturi bo'lib, u orqali turli xil obyektlar, sahnalar va animatsiyalar yaratish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy kompyuter o‘yinlarini ishlab chiqish jarayonida Unreal Engine 5 (UE5) o‘yin dvigateli va Blender grafik muharririning o‘zaro integratsiyasi hamda ularning texnologik sinergiyasini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayoni nazariy umumlashtirish, tizimli tahlil, taqqoslash va eksperimental-amaliy usullar majmui asosida olib borildi.

Tadqiqotning amaliy-qiyosiy qismida quyidagi asosiy bosqichlar va usullar qo‘llanildi:

1. Tizimli tahlil va adabiyotlarni o‘rganish:

Dastlabki bosqichda Unreal Engine 5 ning yangi avlod texnologiyalari (xususan, Lumen global yoritish tizimi, Nanite virtualizatsiyalangan geometriya texnologiyasi va World Partition tizimi) hamda Blender dasturining 3D modellashtirish, teksturalash va rigging imkoniyatlari bo‘yicha mavjud ilmiy-adabiyotlar, texnik hujjatlar va eng so‘nggi sanoat standartlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Bu jarayon ikkala dasturiy ta’minotning funksional imkoniyatlari va ularning o‘yin ishlab chiqish quvur liniyasidagi (pipeline) o‘rnini aniqlashga xizmat qildi.

2. Taqqoslash usuli:

Tadqiqot doirasida an’anaviy o‘yin dvigatellari va 3D muharrirlar bilan solishtirganda, UE5 va Blender tandemining afzalliklari hamda kamchiliklari o‘rganildi. Xususan, assetlarni (obyektlarni) Blendersdan UE5 ga eksport qilish jarayonidagi ma’lumotlar yo‘qolishi, optimallashtirish muammolari va formatlararo moslik (FBX, USD, Alembic) masalalari taqqoslama tahlil qilindi. Natijada, ishlab chiqish tezligi va yakuniy grafika sifati o‘rtasidagi optimal balansni ta’minlovchi yondashuvlar belgilab olindi.

3. Amaliy tajriba (Eksperimental model yaratish):

Tadqiqotning eng muhim qismi sifatida prototip o‘yin loyihasini ishlab chiqish orqali amaliy tajriba o‘tkazildi. Ushbu jarayon quyidagi texnologik bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

3D Modellashtirish va Optimallashtirish: Blender muhitida o‘yin personajlari, atrof-muhit obyektlari va rekvizitlarning yuqori poligonli (high-poly) va o‘yin uchun optimallashtirilgan (low-poly) versiyalari yaratildi. Hard-surface va organic modellashtirish texnikalarining o‘yin resurslariga ta’siri o‘rganildi.

Teksturalash va Materiallar: Blender va UE5 o‘rtasida PBR (Physically Based Rendering) materiallar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. Substance Painter yoki Blenderning o‘z teksturalash vositalaridan foydalanib yaratilgan teksturalarning UE5 dagi Material Editor orqali qayta ishlash jarayoni va Lumen yoritish tizimiga ta’siri tekshirildi.

Sahna Yig‘ish (Level Design): Yaratilgan 3D assetlar Unreal Engine 5 ga import qilindi va World Partition tizimi yordamida katta hajmdagi ochiq dunyo (open-world) sahnasi shakllantirildi. Sahnaning vizual estetikasi va performans ko‘rsatkichlari (FPS) o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi.

O‘yin Mexanikasi va Blueprints: O‘yin logikasini dasturlashda C++ o‘rniga vizual dasturlash tizimi – Blueprints dan foydalanildi. Personaj harakati, kamera boshqaruvi va o‘zaro ta’sir mexanikalari ishlab chiqilib, ularning Blenderda yaratilgan animatsiyalar bilan sinkronizatsiyasi ta’minlandi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy kompyuter o‘yinlarini ishlab chiqish jarayoni murakkab ko‘p bosqichli texnologik sikl bo‘lib, unda Blender dasturi asosiy 3D kontent yaratish vositasi sifatida, Unreal Engine 5 (UE5) esa yakuniy vizualizatsiya, logika va interaktivlikni ta’minlovchi markaziy platforma sifatida xizmat qiladi. Ushbu ikki dasturiy ta’minotning o‘zaro hamkorligi quyidagi asosiy texnologik bosqichlar orqali amalga oshiriladi:

1. 3D Modellashtirish va Assetlarni Tayyorlash (Blender muhitida)

O‘yin ishlab chiqishning dastlabki va eng muhim bosqichi – bu virtual dunyo elementlarini yaratishdir. Blender dasturining kuchli modellashtirish vositalari yordamida quyidagi turdagi assetlar ishlab chiqiladi:

Atrof-muhit obyektlari (Environment Assets): Binolar, landshaft elementlari, o‘simliklar va dekorativ buyumlar. Bu yerda Hard-surface (qattiq sirtli) va Organic (tabiiy shakldagi) modellashtirish usullaridan keng foydalaniladi.

Personajlar (Characters): O‘yin qahramonlari va NPC (o‘yinchi bo‘lmagan personajlar) uchun yuqori detallangan skulpturalar yaratiladi. Keyinchalik, ular o‘yin dvigateli talablariga javob berishi uchun retopologiya (qayta to‘r hosil qilish) jarayonidan o‘tkaziladi.

Optimallashtirish: Garchi UE5 yangi imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, Blenderda modellarning UV-xaritalash (UV Unwrapping) jarayoni to‘g‘ri bajarilishi teksturalarning sifatli joylashuvi va xotira tejamkorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2. Ma’lumotlar Almashinuvi va Integratsiya

Blenderda yaratilgan 3D modellar Unreal Engine 5 ga uzatilishi uchun universal fayl formatlaridan foydalaniladi. Eng keng tarqalgan format FBX bo‘lib, u geometriya, UV-xaritalar, normal vektorlar va skelet animatsiyalarini saqlab qolish imkonini beradi. Shuningdek, so‘nggi yillarda USD (Universal Scene Description) formatidan foydalanish ham ommalashmoqda, bu esa kattaroq va murakkab sahnalarni yo‘qotishlarsiz eksport qilishga imkon beradi.

Import jarayonida UE5 ning Datasmith plagini yoki standart import vositalari yordamida materiallar va hierarxiya avtomatik ravishda tiklanadi, bu esa ishlab chiquvchining vaqtini tejaydi.

3. Unreal Engine 5 ning Inqilobiy Texnologiyalari: Nanite va Lumen

UE5 ga o‘tishning asosiy sababi uning ikkita flagman texnologiyasi hisoblanadi, ular an’anaviy ishlab chiqish cheklovlarini bartaraf etadi:

Nanite (Virtualizatsiyalangan Geometriya): An’anaviy usullarda 3D modellar o‘yin dvigatelida ishlashi uchun sun’iy ravishda soddalashtirilishi (low-poly qilinishi) va normal maplardan foydalanish talab qilingan edi. Nanite texnologiyasi esa milliardlab poligonlardan iborat bo‘lgan kinematografik darajadagi yuqori detallangan modellarni (masalan, Blendersdan eksport qilingan high-poly modellar) real vaqt rejimida, hech qanday performans yo‘qotishisiz render qilish imkonini beradi. Bu ishlab chiquvchilarga Blenderda yaratilgan original detalizatsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘yinga olib kirishga imkon beradi.

Lumen (To‘liq Dinamik Global Yoritish): Lumen tizimi yorug‘likning sirtlardan qaytishi, soyalar va nur sinishini real vaqt rejimida hisoblaydi. Bu texnologiya oldindan hisoblangan yoritish (baked lighting) ga bog‘liqlikni yo‘qotadi. Natijada, o‘yin dunyosidagi har qanday o‘zgarish (masalan, kun-kecha almashinuvi yoki obyektlarning siljishi) yoritishga darhol ta’sir qiladi, bu esa fotorealistik atmosferani yaratishda Blenderda tayyorlangan materiallarning fizik xususiyatlarini (PBR) to‘liq ochib beradi.

4. Materiallar, Teksturalash va Shading

UE5 muhitiga import qilingan modellar uchun Material Editor yordamida murakkab shaderlar yaratiladi. Blenderda yaratilgan PBR (Physically Based Rendering) teksturalari (Albedo, Normal, Roughness, Metallic) UE5 da birlashtirilib, obyektlarning yorug‘likka bo‘lgan reaksiyasi haqiqiy hayotdagidek qilib sozlanadi. Material Instances (material nusxalari) dan foydalanish orqali bitta asosiy material asosida turli xil rang va parametrlarga ega bo‘lgan variantlar tezda yaratiladi, bu esa xotira sarfini optimallashtiradi.

5. Animatsiya va O‘yin Mexanikasi (Blueprints)

Statik modellar jonli harakatga ega bo‘lishi uchun animatsiya qo‘llaniladi. Blenderda yaratilgan skelet animatsiyalari (rigging va keyframe animatsiyalar) UE5 ning Animation Blueprint tizimi orqali boshqariladi. Bu yerda State Machines (holat mashinalari) yordamida personajning yurish, yugurish, sakrash kabi harakatlari o‘yinchi harakatlariga qarab dinamik ravishda o‘zgaradi.

O‘yin mantig‘i esa Visual Scripting (Blueprints) tizimi yordamida dasturlanadi. C++ kodini yozmasdan turib, tugunlar (nodes) orqali ulanishlar

yaratish orqali obyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, fizika qonunlari va o‘yin qoidalari ishlab chiqiladi.

AMALIY TAJRIBA

Amaliy tajriba sifatida Blender dasturida oddiy 3D obyekt yaratilib, Unreal Engine 5 muhitiga import qilindi. Modelga material va teksturalar qo‘llanildi hamda sahnaga yoritish tizimi o‘rnatildi. Natijada real vaqt rejimida ishlovchi sahna hosil qilindi. Ushbu tajriba Unreal Engine 5 va Blender dasturlarining o‘zaro samarali ishlashini ko‘rsatdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Blender dasturi 3D modellashtirish jarayonida qulay va samarali vosita hisoblanadi. Unreal Engine 5 esa yaratilgan modellarni real vaqt rejimida yuqori sifatli grafika bilan namoyish qilish imkonini beradi. Ushbu ikki dasturdan birgalikda foydalanish o‘yin ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Unreal Engine 5 va Blender dasturlari kompyuter o‘yinlarini ishlab chiqishda juda samarali vositalar hisoblanadi. Blender yordamida sifatli 3D modellar yaratish mumkin bo‘lsa, Unreal Engine 5 dvijogi ushbu modellarni real vaqtli grafika bilan o‘yin muhitiga joylashtirish imkonini beradi. Kelajakda ushbu texnologiyalar yanada rivojlanib, o‘yin sanoatida yangi imkoniyatlarni yaratishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.William erif, W.Stephen - Game Development Patterns and Best Practices with Unreal Engine 5 Gregory J. Game Engine Architecture. CRC Press, 2024.
2. R.Marcos, S.Brenden ewell - Blueprints Visual Scripting for Unreal Engine5: Unleash the true power of Blueprints to create impressive games and applications in UE5, 2022
3. Jason van Gumster - Blender All-in-One For Dummies, 2024.
4. Rachel Cordone - Unreal Engine 4 Game Development Quick Start Guide: Programming professional 3D games with Unreal Engine 4.

MULTIMADANIY MUHITDA O‘QITUVCHINING MUNOSABATLARNI BOSHQARISH QOBILIYATI

Djabbarova Feruza Azamovna
Osiyo Xalqaro Universiteti
Tayanch doktorant
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693733

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish muammosi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda pedagogik kuzatish, tahlil, taqqoslash hamda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Multimadaniy muhitda o‘qituvchining kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalari muhim omil sifatida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o’qituvchining moslashuvchanligi va madaniyatlararo sezgirligi ta’lim samaradorligini oshiradi. Shuningdek, nizolarni boshqarish va ijobiy psixologik muhit yaratish muhimligi asoslab berildi. Maqolada o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari pedagogik faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. Muallifning ilmiy hissasi multimadaniy ta’limda munosabatlarni boshqarish modelini aniqlashtirishdan iborat. Amaliy ahamiyati esa o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonida qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Multimadaniy muhit, o‘qituvchi kompetensiyasi, munosabatlarni boshqarish, madaniyatlararo kommunikatsiya, pedagogik muloqot, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ ko‘nikmalar, ta‘lim samaradorligi

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается проблема формирования у учителя способности управлять межличностными отношениями в поликультурной среде. Актуальность исследования обусловлена необходимостью эффективного взаимодействия с

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Поликультурная среда, компетенции учителя, управление

представителями различных культур в образовательном процессе. В работе использованы методы педагогического наблюдения, анализа, сравнения и изучения научной литературы. Особое внимание уделяется коммуникативным и социальным компетенциям учителя. Результаты исследования показали, что гибкость и межкультурная чувствительность педагога способствуют повышению эффективности обучения. Обоснована значимость управления конфликтами и создания благоприятного психологического климата. В статье предложены практические рекомендации для педагогов. Полученные результаты могут быть использованы в совершенствовании педагогической деятельности. Научный вклад автора заключается в уточнении подходов к управлению отношениями в поликультурной среде. Практическая значимость определяется возможностью применения в системе повышения квалификации учителей.	*отношениями, межкультурная коммуникация, педагогическое общение, социальная компетентность, коммуникативные навыки, эффективность обучения*
ABSTRACT	**KEY WORDS**
Annotation. This article examines the issue of developing a teacher's ability to manage interpersonal relations in a multicultural environment. The relevance of the study is обусловлена the need for effective interaction with representatives of diverse cultures in modern education. The research methodology includes pedagogical observation, analysis, comparison, and review of scientific literature. Particular attention is paid to the communicative and social competencies of teachers. The results show that flexibility and intercultural sensitivity significantly enhance educational effectiveness. The importance of conflict management and creating a positive psychological climate is substantiated. The article provides practical recommendations for teachers. The findings can be applied to improve pedagogical practice. The author's scientific contribution lies in clarifying approaches to managing relationships in multicultural settings. The practical	*Mmulticultural environment, teacher competence, relationship management, intercultural communication, pedagogical communication, social competence, communicative skills, educational effectiveness*

significance is related to its application in teacher professional development programs.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida globallashuv jarayonlari kuchayib borar ekan, multimadaniy muhitda samarali faoliyat yuritish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli millat, madaniyat va ijtimoiy guruhlarga mansub o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati muhim omillardan biri sifatida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, multimadaniy muhitda o‘qituvchining kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati tadqiqot muammosi sifatida belgilandi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ta’lim jarayonida madaniyatlararo muloqotni samarali tashkil etish, o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit yaratish hamda turli madaniy qarashlar to’qnashuvini konstruktiv yo‘l bilan hal etish ehtiyoji bilan izohlanadi. Hozirgi kunda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki murakkab ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi subyekt sifatida ham faoliyat yuritadi.

Tadqiqotning maqsadi multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda uni rivojlantirish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida multimadaniy muhit tushunchasining mazmunini ochib berish, o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish kompetensiyasini tahlil qilish, madaniyatlararo kommunikatsiyaning pedagogik ahamiyatini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati multimadaniy ta’lim sharoitida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini chuqurroq yoritish bilan belgilanadi. Uning amaliy ahamiyati esa tadqiqot natijalaridan o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonida hamda ta’lim samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.Quyidagi 1-jadval kompetensiyaning tavsifi va ahamiyati boyitib ko‘rsatilgan.

1- jadval

Kompetensiya turi	**Tavsifi**	**Ahamiyati**
Kommunikativ kompetensiya	Samarali muloqot o‘rnatish, fikrni aniq ifodalash	O‘quvchilar bilan aloqa mustahkamlanadi
Ijtimoiy kompetensiya	Jamoa bilan ishlash, hamkorlikni tashkil etish	Sinfda ijobiy muhit yaratiladi
Madaniyatlararo sezgirlik	Turli madaniyatlarni tushunish va hurmat qilish	Konfliktlarning oldi olinadi

Psixologik moslashuvchanlik	Turli vaziyatlarga moslasha olish	Nizolar samarali hal qilinadi
Refleksiv qobiliyat	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Kasbiy rivojlanish ta’minlanadi

Multimadaniy ta’lim muammosi bugungi kunda pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishgan nuqtada keng o‘rganilayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[3]. Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida multimadaniy muhit turli millat, til, din va madaniy qadriyatlarga mansub shaxslarning o‘zaro ta’siri va hamkorligi asosida shakllanadigan murakkab ijtimoiy makon sifatida talqin etiladi. Bunday muhitda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish o‘qituvchidan faqatgina fanga oid bilimlarni emas, balki keng dunyoqarash, bag‘rikenglik va moslashuvchanlikni ham talab qiladi.

Ilmiy manbalarda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qobiliyat o‘qituvchining o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishi hamda turli ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, multimadaniy sinf sharoitida o‘qituvchining har bir o‘quvchiga nisbatan hurmat va tenglik tamoyillariga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Ko‘plab tadqiqotlarda madaniyatlararo kommunikatsiya tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu tushuncha turli madaniyat vakillari o‘rtasida samarali axborot almashinuvi, o‘zaro tushunish va hamkorlikni ta’minlash jarayoni sifatida izohlanadi. O‘qituvchining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi uning nafaqat nutqiy faoliyatida, balki noverbal muloqotida, xulq-atvorida va qaror qabul qilish jarayonida ham namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zaro hurmat asosida munosabat o‘rnatishi va ta’lim jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi[10].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o‘qituvchining refleksiv faoliyati, ya’ni o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati alohida ta’kidlanadi. Refleksiya orqali o‘qituvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda multimadaniy muhitda yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarga moslashishni o‘rganadi. Shu bilan birga, empatiya — boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga hamdard bo‘lish qobiliyati ham muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Empatik yondashuv o‘quvchilar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi[5].

Bundan tashqari, pedagogik tadqiqotlarda kommunikativ moslashuvchanlik tushunchasi ham keng yoritiladi. Ushbu tushuncha o‘qituvchining turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarga tezda moslasha olish, muloqot uslubini vaziyatga qarab

o‘zgartira bilish qobiliyatini anglatadi. Multimadaniy muhitda aynan shu xususiyat o‘qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, multimadaniy ta’lim sharoitida o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u kommunikativ, ijtimoiy, psixologik va madaniy kompetensiyalarning uyg‘unlashuvini talab etadi[7]. Shu bois, mazkur tadqiqotda aynan ushbu jihatlar asos qilib olinib, ularning amaliy ahamiyati ham yoritib beriladi.

Ushbu tadqiqot multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalariga muvofiq metodologik yondashuvlar tanlandi. Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish uchun ilgari o‘tkazilgan ilmiy ishlar, pedagogik adabiyotlar va multimadaniy ta’lim bo‘yicha ilmiy maqolalar batafsil o‘rganildi. Shu bilan birga, amaliy tadqiqot uchun real sinf muhitida o‘qituvchining faoliyatini kuzatish va tahlil qilishga imkon beruvchi metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqotda asosiy metod sifatida pedagogik kuzatish ishlatildi. Bu metod orqali o‘qituvchining sinfdagi faoliyati, o‘quvchilar bilan munosabatlarini boshqarish usullari va nizoli vaziyatlarni hal etish yondashuvlari batafsil o‘rganildi. Kuzatish natijalari o‘qituvchining kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini real sharoitda baholash imkonini berdi. Kuzatish jarayonida e’tibor ayniqsa o‘qituvchining o‘quvchilar bilan psixologik muhitni qanday shakllantirishi, nizolarni qanday hal qilishi va madaniyatlararo sezgirligini qanday namoyon qilishi kabi jihatlarga qaratildi[8].

Shuningdek, intervyu va so‘rovnoma metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar o‘qituvchilarning o‘z tajribalari, kasbiy qarashlari va o‘zini baholashlariga asoslangan ma’lumotlarni olish imkonini berdi. Intervyular orqali o‘qituvchilarning multimadaniy muhitdagi muammolarga yondashuvi, muloqot uslublari va munosabatlarni boshqarishdagi shaxsiy strategiyalari aniqlab olindi. So‘rovnomalar esa ko’plab respondentlar bilan ishlashga imkon berib, natijalarni kengroq va ishonchli qilishda muhim rol o‘ynadi[12].

Tadqiqotda respondentlar tarkibi turli millat va madaniyat vakillarini o‘z ichiga oldi. Bu multimadaniy muhit sharoitida o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatini chuqur va kompleks tahlil qilish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, sifatli va miqdoriy ma’lumotlarni birgalikda qo‘llash natijalarning ishonchliligini oshirdi va ularni keng pedagogik amaliyotga moslashtirishga yordam berdi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodologiyasi tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ushbu metod orqali multimadaniy

ta’lim, madaniyatlararo kommunikatsiya va o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish kompetensiyalari bo‘yicha mavjud nazariy qarashlar chuqur o‘rganildi. Shu tariqa, metodologik yondashuv tadqiqotning asosiy muammosini tizimli o‘rganish va uni amaliy jihatdan yechish imkonini yaratdi.

Tahlil qilish jarayonida o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish kompetensiyasining turli jihatlari alohida ko‘rib chiqildi. Jumladan, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, psixologik moslashuvchanlik va madaniyatlararo sezgirlik tadqiqotning markaziy obyekti sifatida belgilandi. Bu yondashuv multimadaniy ta’lim sharoitida o‘qituvchining samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi omillarni aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi. Mazkur metodologik yondashuvlar kombinatsiyasi tadqiqot muammosini to‘liq va tizimli o‘rganishga, multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatini samarali baholashga imkon yaratdi hamda natijalarni pedagogik amaliyotga tatbiq etish asosini berdi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini yaqqol ko‘rsatdi. Pedagogik kuzatishlar davomida aniqlanishicha, kommunikativ jihatdan faol, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va madaniyatlararo sezgir o‘qituvchilar sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda ancha yuqori natijalarga erishadi[2]. Bunday muhitda o‘quvchilar o‘zlarini erkin his qiladi, o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Natijada ta’lim samaradorligi oshadi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat hamda hamkorlik munosabatlari mustahkamlanadi.

Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning munosabatlarni boshqarish strategiyalari chuqur tahlil qilindi. Aniqlanishicha, samarali o‘qituvchilar nizoli vaziyatlarda konstruktiv yondashuvni qo‘llab, muammoni keskinlashtirish o‘rniga murosaga kelish yo‘llarini izlaydilar. Ular o‘quvchilarning individual, madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladilar. Bunday yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi. Aksincha, kommunikativ kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagan o‘qituvchilarda nizolarni boshqarishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi kuzatildi, bu esa sinfdagi umumiy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[14].

Intervyu va so‘rovnoma natijalari o‘qituvchilarning refleksiv faoliyati muhim ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O‘z faoliyatini muntazam tahlil qiluvchi, o‘z ustida ishlovchi va yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishga intiluvchi o‘qituvchilar multimadaniy muhitga tezroq moslashadi. Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilarning ehtiyojlarini chuqurroq anglaydi va ular bilan samarali muloqot o‘rnatadi. Shu bilan birga, empatiya va bag‘rikenglik darajasi yuqori

bo‘lgan pedagoglar o‘quvchilar bilan ishonchli va barqaror munosabatlar shakllantirishga muvaffaq bo‘lishadi.

Tadqiqot natijalari o‘qituvchining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasi o‘quvchilarning ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ham ko‘rsatdi. Multimadaniy muhitda o‘zini erkin his qilgan o‘quvchilar nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham faolroq ishtirok etadi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitini shakllantiradi hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida o‘qituvchining kommunikativ moslashuvchanligi alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Turli madaniyat vakillari bilan ishlash jarayonida o‘qituvchi muloqot uslubini vaziyatga qarab o‘zgartira olishi, o’‘z nutqini va xatti-harakatlarini moslashtira bilishi zarur. Aynan shu jihat o‘qituvchining professional muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Olingan natijalar mavjud nazariy qarashlar bilan uyg‘unlikda bo’lib, multimadaniy ta’lim sharoitida o‘qituvchining kommunikativ, ijtimoiy va psixologik kompetensiyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini tasdiqladi. Shu asosda tadqiqot davomida bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, o‘qituvchilar uchun madaniyatlararo kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar tashkil etish, nizolarni boshqarish strategiyalarini o‘rgatish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirish muhimligi asoslab berildi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari o‘qituvchining shaxsiy sifatlari — sabr-toqat, bag‘rikenglik, ochiqlik va empatiya — multimadaniy muhitda samarali faoliyat yuritishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi[11]. Ushbu sifatlar o‘qituvchiga turli madaniyat vakillari bilan samarali munosabatlar o‘rnatish va ijobiy ta’lim muhitini yaratishda yordam beradi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati ta’lim jarayonining ajralmas qismi ekanligini va uning rivojlanishi ta’lim sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Mazkur natijalar nafaqat nazariy jihatdan muhim, balki amaliy pedagogik faoliyatni takomillashtirishda ham keng qo‘llanilishi mumkin. Multimadaniy muhitda o‘qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining kommunikativ, ijtimoiy va psixologik kompetensiyalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo’lib, ular birgalikda samarali pedagogik faoliyatni ta’minlaydi. Ayniqsa, madaniyatlararo

sezgirlik, empatiya va kommunikativ moslashuvchanlik kabi sifatlar multimadaniy muhitda muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur shartlar sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot jarayonida o'qituvchining munosabatlarni boshqarish strategiyalari tahlil qilinib, konstruktiv yondashuvlar, murosaga asoslangan qarorlar va o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish samarali natijalarga olib kelishi aniqlandi. Shu bilan birga, refleksiv faoliyatning rivojlanganligi o'qituvchining o'z ustida ishlashi va kasbiy mahoratini muntazam takomillashtirishida muhim rol o'ynashi asoslab berildi. Multimadaniy ta'lim sharoitida o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki murakkab ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi subyekt sifatidagi roli tobora ortib bormoqda. Shu bois, o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiya, nizolarni boshqarish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati multimadaniy muhitda o'qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyatining nazariy asoslarini boyitish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan tavsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish imkoniyati bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari multimadaniy ta'lim muhitida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etishda o'qituvchining munosabatlarni boshqarish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kelgusida ushbu yo'nalishda yanada chuqurroq empirik tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Banks J.A. An Introduction to Multicultural Education. – Boston: Pearson, 2015.
2. Bennett M.J. Basic Concepts of Intercultural Communication. – Boston: Intercultural Press, 2013.
3. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
4. Deardorff D.K. The SAGE Handbook of Intercultural Competence. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2009.
5. Gay G. Culturally Responsive Teaching: Theory, Research, and Practice. – New York: Teachers College Press, 2018.
6. Hall E.T. Beyond Culture. – New York: Anchor Books, 1976.
7. Hofstede G. Cultures and Organizations: Software of the Mind. – New York: McGraw-Hill, 2010.

8. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
9. Nieto S. Affirming Diversity: The Sociopolitical Context of Multicultural Education. – Boston: Pearson, 2017.
10. Samovar L.A., Porter R.E., McDaniel E.R. Communication Between Cultures. – Boston: Wadsworth, 2012.
11. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2010.
12. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе. – Москва: Высшая школа, 1991.
13. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2004.
14. Леонтьев А.А. Психология общения. – Москва: Смысл, 1999.
15. Сластёнин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2002.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YINGA ASOSLANGAN TA’LIMNING IMKONIYATLARI

Isxakova Mavlyuda Raxmanovna
Maktabgacha Ta’lim Tashkilotlari Direktor Va Mutaxassislarini Qayta Tayyorlash Va Malakasini Oshirish Insituti 1-Kurs Tayanch Doktoranti Ilmiy Rahbari
Ergasheva Muslima Komiljon Qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Maktabgacha Ta’lim Metodikasi Kafedrasi O‘Qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19692494

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishida o‘yinga asoslangan ta’limning o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘yin faoliyatining pedagogik va psixologik asoslari o‘rganilib, uning bolalar rivojlanishiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

КАЛИТ СЎЗЛАР

o‘yinga asoslangan ta’lim, maktabgacha ta’lim, o‘yin texnologiyalari, Montessori metodi, kognitiv rivojlanish

ABSTRACT

This article scientifically analyzes the role and importance of play-based learning in the intellectual,social,and emotional development of preschool children.The study examines the pedagogical and psychological foundations of play activities and reveals their impact on child development. Additionally, the article identifies problems related to the implementation of play technologies in the preschool education system and develops practical suggestions for addressing them.

KEY WORDS

play-based learning, preschool education, play technologies, Montessori method, cognitive develop

KIRISH

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyat sharoitida bilimlarni egallashdan ko‘ra, ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish muhim mezon sifatida qaralmoqda [1].

Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xususan, o‘yinga asoslangan ta’limni keng qo‘llash dolzarb masalaga aylanmoqda [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin jarayonida bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi hamda o‘zining kognitiv ва emotsional imkoniyatlarini namayon etadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tizimida o‘yinga asoslangan ta’lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim paradigmalarida bilimni amaliy qo‘llay olish kompetensiyasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Buni “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [3], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevralda tasdiqlagan “Maktabgacha ta’lim va ta’rbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni (PF-19-son) maktabgacha ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim poydevor bo‘ldi [2].Hujjatda tizimni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishi sifatida - ta’lim jarayoniga o‘yinga asoslangan ta’lim texnologiyalarini keng tatbiq etish vazifasi belgilab berildi. Mazkur yondashuv turli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yin faoliyatidan samarali pedagogik vosita sifatida foydalanishni nazarda tutadi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyat turi bo‘lib, u orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy tajriba orttiradi va kognitiv jarayonlarini rivojlantiradi.

ASOSIY QISM

O‘yinga asoslangan ta’limning nazariy asoslari ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, Fridrix Frebel o‘yinni bolaning tabiiy rivojlanish vositasi sifatida baholagan bo‘lsa, Mariya Montessori uni bolaning mustaqil faoliyati orqali bilim egallash jarayoni sifatida talqin etgan [4].

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati sifatida uning shaxsiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. U orqali bola:

•muammolarni hal qilish;

•mantiqiy fikrlash;

•ijtimoiy muloqot;

•ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi [5].

O‘yinga asoslangan ta’lim jarayonida turli pedagogik vositalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan: interaktiv modellashtirish, sensor

rivojlantiruvchi o‘yinlar, didaktik o‘yin texnologiyalari, diagnostik kuzatuv usullari. Mazkur yondashuv bolalarda bilim olishga qiziqishni oshiradi hamda ularning o‘quv faoliyatini faollashtiradi.

O‘yin, yosh bolalar uchun rivojlanishga mos amaliyotning muhim jihati bo‘lib, barcha rivojlanish sohalariga ijobiy hissa qo‘shadi. O‘yin bolalarning hissiy, ijtimoiy, intellektual, nutq rivojlanishi va jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tizimida o‘yinga asoslangan ta’limni qo‘llash natijasida mashg‘ulotlar ko‘rgazmali, interaktiv va bolalar ehtiyojlariga mos holda tashkil etiladi. Bunday mashg‘ulotlar bolalarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, ularning bilish jarayonlarini faollashtiradi hamda tarbiyachiga har bir bola bilan individual ishlash imkonini beradi [2].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining bilish faolligini oshirish asosiy obyekt sifatida olingan. Metodologiyaning bosh maqsadi - o‘yin faoliyatini shunchaki vaqt o‘tkazish vositasi emas, balki tizimli didaktik qurol sifatida qo‘llash samaradorligini tahlil qilishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘yinga asoslangan ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘yin faoliyatini tashkil etish sifati, qo‘llanilayotgan didaktik vositalarning mazmuni hamda ularni mashg‘ulot jarayonida maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan to‘g‘ri qo‘llashga bog‘liq.

Interaktiv modellashtirish: Bolalarning harakat xotirasini faollashtirish uchun “harf-shakl-buyum” zanjiri asosida o‘yin xamiridan foydalanish (fine motor skills development).

Sensor-idrok tahlili: Rang-barang tasvirlar, musiqiy va ovozli ta’sirlar orqali bolaning ko‘rish va eshitish retseptorlarini o‘quv jarayoniga jalb etish.

Kuzatuv va diagnostika: O‘yin jarayonida bolaning mantiqiy fikrlashi, diqqat konsentratsiyasi va qaror qabul qilish tezligini pedagogik kuzatuv ostiga olish[5]

Masalan: harflar va tovushlarni o‘rgatishda interaktiv o‘yin usuli qo‘llaniladi: bolalar avval o‘yin xamiridan foydalanib kerakli harfning nusxasini yaratadilar. Bu ularning harakat xotirasini kuchaytiradi. So‘ngra, o‘rganilayotgan tovushga mos keluvchi ixtiyoriy buyumlar yasash orqali egallangan bilimlar amaliy o‘yin shaklida boyitiladi. Bunday o‘yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, diqqatini, kuzatuvchanligini va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

NATIJALAR

O‘yinga asoslangan ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan vositalar — rang-barang tasvirlar, didaktik o‘yin materiallari, harakatli elementlar, musiqiy va ovozli ta’sirlar — bolalarning qiziqishini oshirishi hamda ularni faol o‘quv jarayoniga jalb etishi lozim. Ayniqsa, jozibali va interaktiv o‘yin shakllari bolalarda ijobiy

emotsional muhitni yaratadi, bu esa ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, o‘yinga asoslangan ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv mashg‘ulotlarni yanada samarali tashkil etishga, bolalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni tabiiy hamda qiziqarli jarayon orqali shakllantirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni tasdiqladiki, didaktik o‘yinlar va zamonaviy vositalar integratsiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat akademik bilimlarni, balki kognitiv funksiyalarni (diqqat, xotira, mantiq) rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tizimining asosiy maqsadi bolani jismoniy, bir bolaning jamiyatda o‘z o‘rnini aqliy va ma’naviy jihatdan sog‘lom rivojlantirish, uni maktab ta’limiga har tomonlama tayyorlashdan iboratdir.Mazkur maqsadga erishishda maktabgacha ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan, xususan o‘yinga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin eng tabiiy va samarali faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolalar atrof-muhitni anglaydi, yangi bilim va ko‘nikmalarni oson o‘zlashtiradi, shuningdek ularning ijodkorligi, mantiqiy fikrlashi, tasavvuri va ijtimoiy munosabatlari rivojlanadi [7].

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, o‘yinga asoslangan ta’lim maktabgacha ta’lim tizimida samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘yinga asoslangan ta’lim maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu texnologiyani amaliyotga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va ta’rbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-Toshkent, 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
4. Bergen, Doris. 2015. “Psychological Approaches to the Study of Play.” American Journal of Play 7:101–28.

5. Eberle, Scott G. 2014. “ Elements of Play: Toward a Philosophy and a De nition of Play.” American Journal of Play 6:214–33.
6. Usmonova N. Bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodlari. – Samarqand, 2023.
7. Association Montessori Internationale. (2021). Biography of Maria Montessori.

INTERNET MANBALAR

8. www.lex.uz
9. https://about.proquest.com/tr/dissertations/

SURXONDARYO VOHASIDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARI.

Xo‘jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o‘g‘li
TIPU, “Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi o‘qtuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816431

ANNOTATSIYA

Surxondaryo viloyati O‘zbekistonning janubi-g‘arbida joylashgan bo‘lib, xalqining o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari va an’analari bilan ajralib turadi. Bu viloyatda oila munosabatlari asrlar davomida shakllangan qadimiy urf-odat, ijtimoiy qadriyat va an’analar bilan bog‘langan. Oila Surxondaryo jamiyatida eng muhim ijtimoiy birlik bo‘lib, u nafaqat ikki kishining, balki ikki oila va qabila o‘rtasidagi mustahkam rishtalarni ifodalaydi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatidagi oila munosabatlari va ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

KALIT SO‘ZLAR

Surxondaryo, oila, nikoh, to‘y marosim, mahr, qalin, ajralish

АННОТАЦИЯ

Сурхондарьинская область расположена на юго-западе Узбекистана и отличается уникальной культурой, обычаями и традициями своего народа. В этом регионе семейные отношения связаны с древними обычаями, социальными ценностями и традициями, формировавшимися веками. Семья является важнейшей социальной ячейкой в сурхандарьинском обществе и представляет собой прочные связи не только между двумя людьми, но и между двумя семьями и племенами. В данной статье анализируются семейные отношения в Сурхандарьинской области и их специфические аспекты.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Сурхондарё, семья, брак, свадебный обряд, приданое, густонаселение, развод.

ABSTRACT

KEY WORDS

Surkhondarya region is located in the south-west of Uzbekistan and is distinguished by its people's unique culture, customs and traditions. In this region, family relations are connected with ancient customs, social values and traditions formed over centuries. The family is the most important social unit in the Surkhandarya society, and it represents strong ties not only between two people, but also between two families and tribes. This article analyzes family relations in Surkhandarya region and their specific aspects.

Surkhandarya, family, marriage, wedding ceremony, dowry, thick, divorce.

KIRISH.

Surxondaryoda oila jamiyatning markaziy qismi hisoblanadi. Oila nafaqat oilaviy munosabatlar, balki xalqning madaniy, diniy va ijtimoiy qadriyatlarini saqlab qolish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining “ota-ona duosi”, “bolaning ota-onaga bo‘lgan hurmati” kabi qadriyatlari bu hududda chuqur ildiz otgan. Shuning uchun oilaviy rishtalar o‘zaro hurmat, sabr-toqat va mehr-oqibat asosida quriladi. Surxondaryoda oila munosabatlarida o‘zaro mas’uliyat va hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. Er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘proq oila boshlig‘i sifatida erkakka hurmat ko‘rsatiladi, lekin ayolning ham oiladagi o‘rni va ahamiyati juda katta.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Sovetlar davrida nikoh to‘yi marosimlari diniy eskilik sarqiti deb qoralangan. Shularning ichida eng ko‘p qoralangani qalin odati hisoblanadi. Bu odat hozirgi kunda ham ma’qullanmaydi, ammo sovet davridan farqli o‘laroq oqlovchilar va qoralovchilar topiladi. Hozirgi to‘ylarda ortiqcha sarf – xarajatlar va kim o‘zarga to‘y qilishlar oshib bormoqda. Bu kabi ortiqcha dabdababozlik yosh oilalarning keyingi hayotiga katta tasir qilmoqda. Behbudiy o‘z asarlari va maqollaraida “dabdabali to‘y va marakalar xalqni inqirozga, taxlika va jahanamga qulatadi[1]” degan g‘oyalarni ilgari surgan. H. Ismoilovning “O‘zbek to‘ylari” asari[2] o‘zbek tilida yozilgan dastlabki ish hisoblanadi. Unda respublikaning barcha viloyatlari to‘ylari o‘rganilib, dabdabali to‘ylar tanqid qilingan. Surxon vohasidagi ayrim to‘y marosimlarini ko‘rib o‘tsak.

Qalin – nikoh to‘yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul, buyum va shu kabilar. Qalin turkiy so‘z bo‘lib “qiz uchun to‘lanadigan haq” degan ma’noni bildiradi[3].

Qalinning paydo bo‘lishi ibdidoiy davrga borib tarqaladi ayolga mehnat kuchi sifatida qaralib, oila uni kuzatar ekan uning uchun xaq talab qilish boshlandi[4]. Demak qalinning islom diniga hech qanday aloqasi yo‘q.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Nikoh – Surxondaryo viloyatida oila qurishning asosiy tamoyili hisoblanadi va jamiyat tomonidan muhim qadriyat sifatida qabul qilinadi. Nikoh odatda oilalar o‘rtasida katta e’tibor bilan o‘tkaziladi va bu jarayon ko‘plab an’anaviy marosimlarni o‘z ichiga oladi. Surxon vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlarida xalqning boy madaniy va ma’naviy merosi o‘z aksini topgan. Voha aholisining an’anaviy to‘ylari o‘zining rang barangliligi, etnohududiy va etnomadaniy jihatdan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nikoh so‘zining o‘zbek tilida ikki xil lug‘aviy ma’nosi bor. Diniy ma’nosiga ko‘ra nikoh (arab. – uylanish, erga tegish; er-xotinlik; er–xotinning qovushishi) er-xotinlikning shariat yo‘li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domillo tamonidan o‘qiladigan shartnoma[5]. Dunyoviy ma’nosiga ko‘ra, nikoh – turmush qurayotgan erkak va ayolning fuqorolik holati dalolatnomalarni yozish organida (FXDYO) ro‘yxatdan o‘tishini anglatadi. O‘zbeklar muqaddas deb oila va nikohni biladilar, nikoh, oila, sevgi va farzand esa o‘zbeklar uchun baxt hisoblanadi. Ikkinchi xotin , o‘ynash , ko‘p xotinlik, zino va ajralish haqida salbiy fikrlarini bildiradilar.

Mahr (turkcha mehr; sinonimi sadoq) teng huquqli nikoh tuzilgan vaqtda kelinga beriladigan mulk. Mahr faqat xotinga tegishli bo‘lib, xotinning eri vofot etsa yoki eri taloq etib, xotin beva qolsa uni moddiy taminlash uchun ishlatilgan. Eng kam mahr miqdori 10 dirham (30 g kumush) eng ko‘pi cheklanmagan. Mahr – kelinning shaxsiy va daxilsiz xaqqi, mulki bo‘lib, ota – onasi unga aralashishi va egalik qilishga haqqi yo‘q. Qalinning yana bir turi kuyovning ishlab berishidir. Bizgacha bu “kuch kuyov” yoki masxaralangan tarizda “ kuchuk kuyov” (O’zbekiston janubida) sifatida yetib kelgan. Qalinni to‘lashga qurbi yetmagan yigitlar qizning uyuda ishlab berishi kerak bo‘lgan.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Surxondaryo viloyatida ko‘plab oilalar katta oilalar shaklida yashaydi. Katta oila bir necha avlod vakillarini o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lib, unda bobo, buvi, ota-ona va farzandlar bir uyda yashaydi. Bu turdagi oila tuzilmasi Surxondaryoda ko‘p tarqalgan bo‘lib, bu jamiyatda katta oilaning ijtimoiy jihatdan mustahkamligini ta’minlashga yordam beradi. Katta oilalarda o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash muhim qadriyat hisoblanadi. Oilaviy masalalar ko‘pincha barcha a’zolar ishtirokida hal qilinadi, qarindoshlar esa bir-biriga har doim yordam berishga tayyor bo‘ladi. Katta oilalar turli marosimlar, bayramlar va jamoaviy ishlar bilan shug‘ullanishda hamkorlik qiladi. Surxondaryoda oila munosabatlari asrlar davomida saqlanib

kelgan urf-odatlar asosida shakllanadi. Biroq, bugungi kunda zamonaviylikning ta’siri ham oilaviy hayotga kirib kelmoqda. Yosh oilalar orasida an’anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, ba’zi zamonaviy o‘zgarishlar ham kuzatilmoqda. Masalan, uy-ro‘zg‘or ishlarida erkak va ayolning teng mas’uliyati, farzand tarbiyasida ota-ona rollarining tenglashuvi yoki uy-joy masalalaridagi o‘zgarishlar zamonaviy oilalarda ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Biroq, ba’zi hududlarda an’anaviy oila munosabatlari haligacha mustahkam saqlanmoqda. Ayniqsa, Surxondaryoning qishloq joylarida oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar o‘z kuchini yo‘qotmagan.

Oilaviy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarqqiyotini belgilaydi. Ma’lumki nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko‘zda tutadi. Vaqt o‘tishi bilan tuzilgan nikohning bir qismi turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatli holatlar sabab bo‘lib, yana bir qismi esa er yoki xotinning vafoti tufayli bekor qilinadi. Nikohni ro‘yxatga olish kabi nikohni bekor qilishni ham davlat o‘z nazoratiga oladi. Ajralish – er – xotinning hayot davomidagi nikohini bekor qilish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublokasi Oila kodiksiga muofiq nikohni bekor qilish er-xotindan bir yoki ikkalasining arizasiga binoan sud idoralari va voyaga yetmagan bolalari bo‘lmagan er – xotinning o‘zoro roziligi bo‘lganda fuqorolik holati dalolatnomalarini qayt etish organlari (FXDYO) tomonidan rasmiylashtiriladi.

Ajralish qadimda islom qoidalariga ko‘ra amalga oshgan va bu jarayon “Taloq”[6] deb atalgan. Lekin shariat arkonlari amal qilgan O‘zbekistonda boshqa demografik jarayonlar kabi qonuniy taloqlar ham muntazam ro‘yxatga olinmagan. Shu bois, XX asrning yarmiga qadar ajralish haqida aniq bir statistika ma’lumotlari uchramaydi. O‘zbekistonda 1940 yildan boshlab ajralishlar haqida aniq statistikalar berib borilgan[7]. Bugungi kunda nikohdan ajralish (bo‘shash) masalasi viloyatda ham dolzarb muammolardan biriga aylangan. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida nikohdan ajralishning sabablari, oqibatlari va uning ijtimoiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi.

Ijtimoiy va iqtisodiy omillar: Surxondaryo viloyatida oila va nikoh munosabatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillar ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, ishsizlik va daromadning pastligi oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaning moliyaviy muammolari nikohda kelishmovchiliklarga va ajralishga olib kelishi mumkin.

Oila ichidagi zo‘ravonlik: Oila ichida zo‘ravonlik, haqorat va psikologik bosim nikohda ajralishga sabab bo‘lishi mumkin. Ayollar ko‘pincha o‘zlariga nisbatan zo‘ravonlikka duch kelishadi va bunday holatda ajralish o‘zini himoya qilish usuli sifatida ko‘riladi. Shuningdek, erkaklar ham oila ichidagi kelishmovchiliklardan qochish uchun ajralishga qaror qilishi mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ajralishlarning ortib ketishiga sabab tashqi migratsiya bo‘ldi. Ma’lumki shu davrda migratsiya juda faollashdi.

Buning asosiy sabablaridan biri mahalliy millatga mansub bo‘lmagan aholi oilalar respublikadan ona yurtlariga ko‘chib ketganligi hisoblanadi. Bunda er yoki xotinning ikkisidan birining ko‘chib ketishiga xoxishlari yo‘qligai sabab bo‘ldi va bu holat ajralishlarning ko‘payishiga olib keldi.

Ma’lumki, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o‘zbek oilalarida, ayniqsa farzandi bo‘lgan oilalarda ajralish holatlari juda kam bo‘lgan. Respublikamizning boshqa viloyatlariga qaraganda surxon vohasida ko‘p bolalik holatlari jud ko‘p uchraydi. Bu holat avvalari ajralishlarning oldini oladigan asosiy sabablardan biri edi. Lekin oxirgi yillarda farzandlari yetim bo‘lishi, ajralayotgan ota – onaga ahamiyati yo‘qdek ko‘rinmoqda.

Ijtimoiy izolyatsiya: Nikohdan ajralish oilaning ijtimoiy maqomini pasaytirishi mumkin. Odamlar ajralgan oilalarga nisbatan salbiy qarashlar bildirishadi, bu esa ajralgan shaxslarning ijtimoiy izolyatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Psixologik muammolar: Ajralish jarayoni insonning psixologik holatiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab ajralgan shaxslar depressiya, stress va qo‘rquv kabi muammolarga duch kelishadi. Ayollar ko‘pincha farzandlar bilan bog‘liq masalalar tufayli qo‘shimcha bosimga duch keladilar.

Farzandlar taqdiriga ta’siri: Ajralish farzandlarning ruhiy holatiga va tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Farzandlar ota-onalarining ajralishini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu esa ularning kelajakda oilaviy munosabatlariga ta’sir qiladi.

Ajralishlar to‘g‘risidagi sotsiologik tatqiqotlardan ma’lumot darajasi bilan bo‘g‘liqligi e’tiborni tortdi. Masalan, to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan ayollar ajralishning asosiy sababi sifatida erining xiyonati va rashkini ko‘rsatgan bo‘lsa, oliy ma’lumotli ayollarning har uchtadan bittasi dunyoqarashning mos kelmasligini ko‘rsatgan. Oilalar mustahkamligini taninlash, ularda ijtimoiy – ma’naviy muhitni yaxshilash, yosh oilalarga bu borada tegishli ko‘rsatmalar berishni taminlash maqsadida viloyatning har bir shahar tumanlarida jamoatchilik asosida “Oila maslahat markazlari” ni tashkil etish maqsadga muofiq deb hisoblayman.

Xulosa va taklifkar. Shu o‘rinida shuni aytishim mumkinki, Surxondaryo viloyatidagi oila munosabatlari xalqning madaniy merosi va an’analariga asoslanadi. Oila nafaqat ikki kishining birligidan iborat bo‘lib, balki jamiyatning asosiy birligi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Oila munosabatlari mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va ma’suliyat asosida shakllanadi. Garchi zamonaviy o‘zgarishlar oilaviy hayotga ta’sir etayotgan bo‘lsa-da, Surxondaryodagi ko‘pgina oilalar hali ham an’anaviy

qadriyatlarni saqlashga harakat qilmoqda. Surxondaryo viloyatida nikohdan ajralish muammosi ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy omillar bilan bog‘liqdir. Oila ichidagi kelishmovchiliklar, iqtisodiy qiyinchiliklar, avlodlar o‘rtasidagi farqlar va zo‘ravonlik kabi holatlar ajralishga olib kelishi mumkin. Ajralish jarayoni rasmiylashtirish va farzandlar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha murakkabliklarga ega bo‘lib, ijtimoiy izolyatsiya va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Oila va nikoh munosabatlarida o‘zaro hurmat, sabr-toqat va mas’uliyatni saqlash har doim muhim ahamiyatga ega bo‘lishi lozim. Bu, o‘z navbatida, oilaviy muammolarni hal qilishda hamda nikohni mustahkamlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. 2 – nashr. Toshkent: ma’naviyat, 1999. – 280 bet.
2. Islomov H. O‘zbek to‘ylari. – Toshkent: O’zbekiston, 1992. -189 bet.
3. Mahmud Qashg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. – III tom. T., 1963.
4. Kocvin M.O. Ibdidoiy madniyat tarixida ochiriklar. –Toshkent: O‘z CCR FA nashr., 1960. – 240 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000dan ortiq so‘z va so‘z birikmalari. Toshkent : O‘zbekiston milliy Ensiklapedyasi” , 2008 . – 688 b.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila T: “Sharq” 2011. 442 b.
7. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi T. Unversitet 1997. 84 b.

HAYVONOT DUNYOSI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR.

Yo‘ldoshev Bobur Rustam o‘g‘li
TIPU TIPU “Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19816560

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbek xalqining tabiat va hayvonot dunyosi bilan bog‘lik urf-odat va qadriyatlari, ularning xalq hayotidagi o‘rni va ahamiyati haqida ochib berilgan. O‘zbek xalqining bayram va marosimlari etnologik jihatdan tahlil qilingan.

KALIT SO‘ZLAR

Qadriyatlar, urf-odat, marosimlar, Turkiy xalqlar, totem, to‘y, O‘rta Osiyo, ot, bo‘ri, ko‘pkari

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются основные принципы развития Нового Узбекистана, их сущность и содержание с философской точки зрения. Основы развития Узбекистана многогранны и взаимосвязаны, проводится научно-теоретический анализ.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Ценности, обычаи, ритуалы, тюркские народы, тотем, свадьба, Центральная Азия, лошадь, волк, олень-мул

ABSTRACT

The article discusses the main principles of the development of New Uzbekistan, their essence and content from a philosophical perspective. The foundations of Uzbekistan's development are multifaceted and interconnected, and the scientific and theoretical analysis is carried out.

KEY WORDS

Values, customs, rituals, Turkic peoples, totem, wedding, Central Asia, horse, wolf, mule deer

Tadqiqot natijalari: Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar shu muazzam daraxtning shoxlari, xalq; ijodi, dunyokarashi va fikriy kashfiyotlari esa uning ildizidir. Tabiat bilan bog‘liq bayramlarning aksariyati tabiatning fasllar yoki ob-havo bilan bog‘liq bayramlari hisoblansa boshqa bayramlarga tabiatning bazi qismlari bog‘liq hisoblanadi. Masalan o‘zbeklarda qadimdan to‘ylar ko‘pkarisiz

o‘tkazilmagan. Har bir o‘zbek urug‘ va qabilalarida nomdor chavandozlari va polvonlari bo‘lib ularning g‘alabalari ularning otlari bilan bog‘liq hisoblangan. Turkiy xalqlarda, jumladan, o‘zbek xalqi tarixida ham ot totemi muhim o‘rin tutgan va uning izlari maishiy turmushimizda bola tug‘ilishidan tortib to azagacha bo‘lgan marosimlarimiz tarkibida bugungi kungacha saqlanib kelgan. Insoniyat tarixi juda qadim zamonlardan buyon ot bilan bog‘liqdir. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Yevroosiyo dashtlari va O‘rta Osiyoning yon bag‘irlari ilk bor madaniylashgan otlar vatani hisoblangan. Mutaxassislar otlarning paydo bo‘lish tarixini olti million yil avvalgi davrlar bilan bog‘laydilar. Qadimgi turkiylar ilohiy mo‘jiza bo‘lmish otga gapiradigan, ucha oladigan aqlli maxluq, sifatida qaraganlar. Turmushda muhim o‘rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, topinish darajasigacha ko‘tarilgan. qadimda ko‘pgina xalqlarda jangchini oti, xotini, buyumlari, oziq,-ovqatlari bilan birga dafn etish odati bo‘lgan. Bunday marosimlar animistik tasavvurlar, inson ruhining u dunyoda ham yashashiga ishonch bilan bog‘liqdir.

Turk olimi Usmon Turon ham yuqoridagi fikrni tasdiqlagan holda, «Turkiy xalqlarda o‘lgandan keyin otlari va qurol-aslalari bilan ko‘milishiga sabab, hayvonga minib jannatga ketishlariga ishonch bulgan» — deb yozadi . Insonni tirikligida minib yurgan oti bilan birga ko‘mish odati miloddan avvalgi VII—VIII asrlarda skiflar davridan to milodiy VII asrgacha davom etgan. Bu marosim asosan VI asrda Turk xoqonligida keng tarqalgan edi. Qadimgi turkiy xalqlar ikki dunyoni ham otsiz tasavvur eta olmaganlar. Ularda jangchi vafot etgach, udumga ko‘ra, sevimli otini egar-jabduqlari bilan egasining yoniga izzat-xurmat ila dafn etilgan. Agar marhumning qarindoshlari ot ko‘mishga qurbi yetmasa, unda ot egar-jabduqlari va anjomlari ko‘milgan. Turkiy xalqlar dunyoqarashlarida ot totemi muhim o‘rin tutganligini xitoy manbalari ham tasdiqlanadi. Manbalarda bayon etilishicha, turkiylarning bobokalonlari vafot etgan kishining oti va egar-jabduqlarini yoqib, uning kulini marhum ortidan olib borganlar . Ot totemiga e'tiqod izlari o‘zbeklarning yig‘i yo‘qlov marosimlarida ham o‘z ifodasini topgan. Axborotchilarning ta'kidlashlaricha, yaqin o‘tmishda ham o‘ziga to‘q kishi olamdan o‘tganida onasi, xotini, singlisi va bir qator qarindoshlari uning otini tuzab, kiyimlarini ot ustiga tashlab, atrofida aylanib, marhum amalga oshirgan ezgu ishlarini eslab yig‘laganlar. Bu marosim otga «davra solish» deb atalgan. Marosim yakunida otning dumi kesilib, o‘z ixtiyoriga qo‘yib yuborilgan va bu otni hech kim minmagan. Kesilgan dum esa ot egasining marhumligini anglatgan. O‘zbeklar orasida muqaddas jonivor otning boshi turarjoy tomonga qaratib bog‘lansa, u o‘z nafasi bilan uyga qut-baraka beradi, deb hisoblangan. Ot nafasi ba'zi hastaliklarga ham davodir. Xalqda ot boshiga qamchi bilan urish gunoh hisoblangan. Muchal yillaridan bo‘lmish ot yili qadimdan qutli, barakali keladi deb ishonilgan. qizlar

tushida ot ko‘rsa, unga sovchi keladi, yigit tushida ot ko‘rganda esa uning martabasi ulug‘ bo‘ladi, deb irim qiladilar. Bundan tashqari ilgari ayollar paranjisi ostidan betga to‘siladigan to‘r parda, ya'ni chachvon, chimmat ot yolidan to‘qilgan. Chaqaloq bo‘yniga ham yaxshi niyat bilan ot tolasini bog‘lab quyishgan. Xomilador ayollarni ins-jinslardan asrash niyatida eshik tepasiga ayg‘ir yungini ilib quyishgan

Bunday etnografik detallarning barchasi magik himoya vositasiga karatilgan. Qadimdan insonlarning eng yaqin do‘stlaridan biri bo‘lgan ot bizning qadriyatlarimiz bo‘lgan bayram va to‘ylarimizda ham o‘rni beqiyos hisoblanadi. Ko‘pkari ya’ni uloq Markaziy Osiyo xalqlarining qadimdan nishonlanadigan ommaviy, umummilliy o‘yinidir. U ko‘pincha g‘alaba yoki hosil bayramlari, to‘ylar va sayillar sharafiga o‘tkazilgan. Podsholar va ularning amaldorlardan tashqari boy badavlat odamlar, hatto oddiy aholi vakillari ham Uloq o‘yinlarini tashkil etishi mumkin bo‘lgan. Ko‘proq xatna (chipron) to‘y va marosimlarida rasm bo‘lgan. Uloq o‘zbek xalqlari, asosan uning qo‘ng‘irot, qurama, ming, mang‘it, oyrat, yoyilma, kenegas, qipchoq, barlos kabi urug‘lari orasida ommalashgan. Uloq o‘yinlari boshlanmasdan avval maxsus jarchilar qishloqlar va ovular markazlariga yuborilib, aholi ko‘p yig‘iladigan gavjum joylarda, bozorlarda ko‘pkari Uloq kim tarafidan, qayerda, qachon va nima sababdan o‘tkazilishini va qo‘yiladigan yutuqlarni ma’lum qilishgan. Har xil joyda har xil shartlar bo‘yicha (chortoq, sudratma, marra, poyga, pakka, minbar va boshqa nomlar bilan atalgan) Uloq o‘yini o‘tkazilgan. Ko‘pkari ko‘ngilochar tomosha yoki oddiy o‘yin bo‘lmasdan yosh bolalar va yigitlarni mardlik, jasurlik, epchillik, dovyuraklik fazilatlari bilan tarbiyalashga xizmat qilgan. Uloq o‘yini otlarning naslini yaxshilashga, chidamli, tez harakat qilashga, zotini ko‘paytirishga yordam beradi. Qorabayir, arabi, axaltekin, qurama, laqay, kustanay, qorabog‘ va Orlov zotlari Uloqchi otlar sanaladi. Uloq xalq o‘yini, asosan, ikki qismdan iborat - solim (qoqma) va poygadan iborat. Solim (qoqma). Chortoq ustidagi hakamlar (bakovullar) uloq (so‘yilib ichki a’zolari, bosh va oyoqlari kesilgan echki yoki buzoq)ni davraga tashlashadi. To‘dada chavandozlar Uloqni olib, tortishib, eng kuchlisi Uloqni belgilangan manzilga yetkazib olib kelishi lozim. Kimdir Uloqni marraga bir o‘zi halol yetkazsa, unga oldindan atab qo‘yilgan sovrin tortiq etiladi.

Katta to‘ylarda sovringa pul, mato, kiyim, gilam, qo‘chqor va boshqa qimmatli buyumlar qo‘yiladi. Poyga ikki turdan iborat: biri otda chavandozning poygasi (qo‘pkari Poyga) va ikkinchisi Uloq bilan chopish poygasi. Uloq bilan poygada belgilab qo‘yilgan joydagi Uloqni olish uchun hakamlarning ruxsatidan so‘ng chavandoz ot choptirib Uloqni yerdan ko‘tarib olishi va manzilga yetkazishi kerak. Oxirgi vaqtlarda Uloq o‘yini sport turiga kiritildi hamda O‘zbekiston respublikasida rasmiy musobaqalar, xalqaro turnirlar o‘tkazila boshlandi Otning

xosiyatli tomonlaridan biri shundaki ot kishnab turgan xonadonda baraka bo‘ladi deyishadi. Ot xonadon boshlig‘iga hamroh bo‘ladi. Uning og‘irini yengil , uzog‘ini yaqin qiladi. Xalqimizda otning oyoqlari ham xosiyatli hisoblanadi. Qadim zamonlardan beri, ko‘p odamlar otning taqasini katta xususiyatga ega tumor hisoblab kelishgan. Ular himoya ramzi xavfsizlik belgisi hisoblangan. Qadimda har kim ham ot sotib olishga qurbi yetmagan. Ot boylik va mol-davlat ramzi bo‘lgan. Oddiy qambag‘al aholning uni sotib olishga qurbi yetmagan. Shuning uchun agar kimdir ishlatilgan eski taqani topib olsa ham bu omad belgisi deb hisoblashgan va uni uyiga olib borib devorga ilib quyishgan. Agarda yangi uy qurilsa uyning ostonasiga qoqib quyishgan. Yangi uyga Baraka kirsin har xil yomon ins-jinslardan uzoq bo‘lsin deyishgan Turkiy xalqlarda qadimda jonli tabiatning bir bo‘lagi hisoblangan hayvonot dunyosi bilan bog‘liq aloqadorlik va har bir bayram va marosimlarida totemlar bilan bog‘liq urf-odatlar saqlanib qolgan. Masalan o‘zbek xalqi qadimdan to shu bugungacha bo‘ri to‘temi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Ilonlarga sig‘inish qadimda insoniyat tarixida ma'naviy madaniyatida muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘rta Osiyo xalqlari orasida ilon qadimdan tuproq va suv ramzi bo‘lgan. U qadim-qadimdan mahalliy aholi diniy marosimlari hamda tasviriy san'atida muhim o‘rin tutgan.

Rivoyatlarda XX asrga qadar ilon obrazi xosildorlik ramzi bo‘lishi bilan birga suv ilohining asosiy vazifalaridan birini bajargan. Vodiyning Kosonsoy tumani aholisi orasida oq, ilonni o‘ldirish gunoh, hisoblangan. Chunki oq ilon kurinishida musulmon parilar yashaydi, deb tasavvur qilishadi. Oq ilon shaklida yashovchi musulmon pari ovqatlanishda mushuk, sayohatga chiqishda esa kabutar ko‘rinishiga aylana olgan. Shuning uchun ham oq ilonni o‘ldirish og‘ir gunoh hisoblangan. Ma'lumotlarga ko‘ra, Oq ota mozoriga dafn etilgan Ofoq ota doim ko‘li yoki quynida bir qulochdan kattarok, boshida toji bor oq ilonni olib yurgan ekan. Ofoq ota olamdan o‘tganidan so‘ng uning mozoriga ziyoratga kelganlar oq ilonni o‘sha yerda uchratganlar. Ziyoratchilar ilonga kosada sut qoldirib ketishga dam odatlangan ekanlar. Aytishlaricha, bu ilonlar asli parilar bulib, bunday ilonlar odatda, har kimga ham ko‘rinish bermaganlar. Faqat qalbi pok, halol insonshga uni ko‘rish baxtiga muyassar bo‘larmish. Agar o‘sha inson ilon parini ko‘rgan zahoti uni ushlab olib nimani niyat qilsa, uning orzusi ushaladi degan tasavvur keng tarqalgan. Marhumlar ruhi ilonga evriladi degan asotiriy tasavvurlar dunyoning ko‘pgina xalqlariga xosdir. Buxoro viloyati aholisi boshida qora chizig‘i bo‘lgan «kokilli oq, ilon» ko‘rinsa, uni momolar arvohi hisoblab ustidan un sepadilar. Andijon aholisi naznida odam tushiga ilon kirishi nihoyatda katta muvaffaqiyat, boylik alomati sanalgan. Shu boisdan ham xalqimizda ilon haqida «Tushda ko‘rsang - ganch, o‘ngda ko‘rsang yanch!» degan

maqol dunyoga kelgan. Sharqda, jumladan, o‘zbeklarda muchal yillaridan biri ilonga tegishlidir. Ilon xalqimizda donolik, farosat, iroda, go‘zallik ramzi, deb e'zozlanadi. Yana bir shunday alohida qadrlanib ezozlanadigan jonzotlardan bir baliq hisoblanadi. Baliq qadimdan mol davlat va farzand ramzi hisoblangan. Agarda kimdir tushida baliq ko‘rsa yoki istemol qilsa u farzand ko‘rishidan belgi sifatida qaralgan. Baliqlarni bugungi kunda ham muqaddaslashtirish davom etib kelmoqda. Masalan Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida joylashgan Sad ibn abu Vaqqos ziyoratgohidagi buloqdagi baliqlarni muqaddas bilib ularga tegish, tutish, o‘ldirish yoki istemol qilish og‘ir gunoh sanaladi. Bundan tashqari yurtimiz hududida bunday ziyoratgohlar juda ko‘p. Masalan Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanidagi Sadqaq ota ziyoratgohi buloqlaridagi baliklarga mahalliy axoli baliq qiyofasidagi avliyo sifatida munosabat bildiradi. Shu sababga ko‘ra bu baliqlarni o‘ldirish yoki ushlash og‘ir oqibatlarga olib keladi deb qaralgan. Ayniqsa muqaddas joylar buloqlaridagi baliqlar azizlanadi. Sadqaq ota, Suxdagi Xazrat Ali mozoridagi baliqlarga sariq, kasali (gepatit) bilan og‘rigan kishilar qarasa kasallik baliqlarga o‘tib darddan forig‘ bo‘ladi degan qarash mavjud.

O‘tmishda juda kup urug‘-qabilalar bo‘rini o‘z totemi — ilk ajdodi deb xisoblaganlar. Jumladan, qadimiy afsonalarda bo‘ri turkiy qabilalardan bir qismining buyuk ajdodi sifatida ulug‘langan va shu boisdan u turkiy xalqlarda muqaddas hayvon sanalgan. Bo‘ri totem sifatida qabul qilingach, ota-ona kabi xaloskor, yo‘l ko‘rsatuvchi, qaxramonlarga yordam beruvchi, shavkatli, jasoratli, yaxshiliksevar jonzod sifatida tanilgan. Bundan tashkari, xalqimizning bo‘ri bilan bog‘lik afsona va rivoyatlarida u odamlarni barcha kulfatlar, kasalliklar va yovuzliklardan asrovchi homiy ximoyachi sifatida ham tasvirlanadi. Bo‘riga nisbatan shakllangan izzat-xurmat va extirom o‘rta Osiyo va Shimoliy Amerikada tosh (paleolit) davridayoq mavjud bulib, qadimiy turkiylar bo‘rini bevosita osmon bilan bog‘laganlar. Bo‘riga totem sifatida boshqa turkiy xalqlar hayotida ham keng tarqalgan. Xitoy mualliflari ma'lumotlariga ko‘ra, VI asrda turkiylarda bo‘ri xon va xoqon so‘zlari sinonim tushunchasini anglatgan. Bo‘riga toipinish izlari o‘zbek xalqining turli urf-odatlari va irimlarida bugungi kunga qadar ma'lum darajada saqlanib qolgan. O‘zbek xalqi orasida yangi tug‘ilgan chaqaloq, hayotini bevaqt o‘lim va turli balo-qazolardan asrash bilan bog‘liq, o‘tkaziladigan qator marosimlarda bo‘ri totemi bilan bog‘lik rasm-rusumlar qadimgi turkiy xalqlarning totemistik ko‘rinishlardagi qarashlari bilan tula-tukis mos keladi. Bo‘ri totemining oila va farzand tushunchalari bilan bog‘liqligi Farg‘ona vodiysida farzandsiz ayollarning bo‘ri tishini taqib yurishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Andijonda bola tug‘ilishini osonlashtirish niyatida bo‘lg‘usi onaga quritilgan bo‘ri yuragidan oz miqdorda yedirilgan yoki tulg‘oq tutgan ayol kurpasining o‘ng tomoniga bo‘ri payi

qo‘yilgan. Farzand dunyoga kelgandan so‘ng esa u yetti kun davomida saqlab turilgan. So‘ngra bo‘ri payini olib uyga yoki chaqaloq beshigiga osib qo‘yilgan. Agar oilada farzand turmasdan go‘dakligida vafot etaversa, bo‘riga umr ato etuvchi jonzot sifatida qaralgan. Bu holat farzandi vafot etgan ayolni bo‘ri terisiga o‘ralganlikda namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari bo‘ri tanasining turli a'zolari ham o‘ziga xos himoya vositasi sifatida bolalar beshigiga ilib qo‘yilgan. Surxondaryo viloyatida yashovchi qo‘ng‘irot o‘zbeklarida bo‘ri tishi, tirnog‘i va etining parchasini bola boshiga himoya vositasi sifatida osib quyish odati bo‘lgan. Aynan bo‘ri tishi, bo‘ri tirnog‘i, bo‘rini yungi, bo‘rining bazi suyak qismlari qadimdan omad keltiradi, balo qazodan asraydi deb qattiq ishonishgan. Bo‘rining yog‘ini chaqolaqqa yalatish, badaniga surtish uning qishdan sovuq yemay, kasal bo‘lmay o‘tishini taminlaydi deb ishonishgan. Bu udum O‘zbekistonning chekka chekka bazi qishloqlarida hozir ham saqlanib qolgan.

INFLYATSIYANING DEPOZIT FOIZ STAVKALARIGA TA'SIRI VA FOIZ UZATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI: EMPIRIK TAHLIL

Komilov Sarvarjon Anvarjon O'g'li
Tashkent International University
mustaqil tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693670

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi, Markaziy bankning asosiy stavkasi hamda tijorat banklarining milliy valyutadagi muddatli depozit foiz stavkalari o'rtasidagi uzoq va qisqa muddatli bog'liqlik empirik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot 2017-yil yanvaridan 2023-yil dekabrigacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi oylik makroiqtisodiy ma'lumotlarga asoslanadi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi uzoq muddatli muvozanat munosabatini aniqlash uchun avtoregressiv taqsimlangan laglar modeli, qisqa muddatli moslashuvni baholash uchun esa xatoliklarni tuzatish modeli qo'llanilgan. Olingan natijalar O'zbekistonda depozit foiz stavkalari bo'yicha pul-kredit siyosati uzatish mexanizmi mavjudligini, biroq uning to'liqligi va tezligi cheklanganini ko'rsatadi. Xususan, uzoq muddatda inflyatsiyaning 1 foiz bandga oshishi depozit stavkalarining o'rtacha 0,52 foiz bandga, Markaziy bank asosiy stavkasining 1 foiz bandga o'zgarishi esa depozit stavkalarining o'rtacha 0,74 foiz bandga o'zgarishi bilan bog'liq. Xatoliklarni tuzatish koeffitsiyentining manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli chiqishi tizimdagi qisqa muddatli nomuvozanatlarning vaqt o'tishi bilan bartaraf etilishini anglatadi. Shu bilan birga, depozit bozorining segmentatsiyasi, chakana va korporativ omonatlar tarkibining aralashligi, qisqa muddatli omonatlar ulushining yuqoriligi, qisman dollarlashuv xotirasi va davlat banklarining salmoqli roli foiz uzatish mexanizmini cheklashi mumkin. Tadqiqot

KALIT SO'ZLAR

depozit foiz stavkalari, inflyatsiya, pul-kredit siyosati, foiz uzatish mexanizmi, ARDL modeli, ECM modeli, Fisher effekti, jamg'armalar, O'zbekiston

natijalari asosida depozit bozorida raqobatni kuchaytirish, uzoq muddatli omonatlarni rag‘batlantirish, ijobiy real daromadlilikni saqlash va inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

KIRISH

Bank tizimining ichki resurs bazasi iqtisodiy o‘sish, investitsiya faolligi va moliyaviy vositachilik samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu resurs bazasining asosiy qismini aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning depozitlari tashkil etadi. Shu bois depozit foiz stavkalari nafaqat tijorat banklarining resurs jalb qilish strategiyasini, balki omonatchilarning moliya tizimiga bo‘lgan ishonchini, jamg‘arma xatti-harakatini va pul-kredit siyosati signallarining qanchalik chuqur uzatilayotganini ham aks ettiradi. Nazariy jihatdan omonatchi o‘z mablag‘ini bankka joylashtirishi uchun taklif etilayotgan nominal stavka inflyatsiya ta’sirini qoplay olishi, kamida real qiymatning keskin yemirilishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim [1]. Aks holda jamg‘armalar bank tizimidan tashqariga chiqishi, norasmiy jamg‘arma shakllari kuchayishi va valyutalashuv moyilligi ortishi mumkin. Shu ma’noda depozit bozoridagi foiz shakllanishini o‘rganish moliyaviy barqarorlik va makroiqtisodiy boshqaruv nuqtai nazaridan dolzarb masaladir. Markaziy bank asosiy stavkasi pul-kredit siyosatining markaziy signali sifatida moliya bozoriga uzatiladi va nazariy jihatdan banklar tomonidan taklif etiladigan depozit stavkalariga ham ta’sir ko‘rsatadi [4], [5]. Biroq rivojlanayotgan va tranzit iqtisodiyotlarda ushbu mexanizm ko‘pincha to‘liqsiz ishlaydi. O‘zbekiston sharoitida 2017-yildan boshlangan valyuta erkinlashuvi va 2020-yildan inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tilishi depozit bozori uchun yangi institutsional muhit yaratdi. Shunga qaramay, amaliy kuzatuvlar depozit stavkalari inflyatsiya va asosiy stavkadagi o‘zgarishlarga har doim ham mutanosib va tez moslashmayotganini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda inflyatsiya va Markaziy bank asosiy stavkasining muddatli depozit foiz stavkalariga qay darajada uzatilishini empirik baholash hamda foiz uzatish mexanizmining sust bo‘g‘inlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: depozit stavkalari, inflyatsiya va asosiy stavka o‘rtasida uzoq muddatli bog‘liqlik mavjudmi; inflyatsiya va siyosiy signal depozit bozoriga qanchalik to‘liq uzatiladi; qisqa muddatli moslashuv qanchalik tez sodir bo‘ladi; hamda ushbu mexanizmni kuchaytirish uchun qaysi instituttsional yo‘nalishlar muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY YONDASHUVLAR

Inflyatsiya va nominal foiz stavkalari o‘rtasidagi nazariy bog‘liqlikning klassik izohi Fisher effekti bilan bog‘liq. Ushbu yondashuvga ko‘ra, nominal foiz

stavkasi real foiz stavkasi va kutilayotgan inflyatsiya yig‘indisidan iborat bo‘ladi [1]. Agar bozor samarali ishlasa, inflyatsiyadagi o‘zgarish depozit stavkalarida ham mutanosib aks etishi kerak. Bu, ayniqsa, omonatchining real daromadliligi nuqtai nazaridan muhimdir. McKinnon va Shaw tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy repressiya nazariyasi depozit stavkalarining sun’iy ravishda past ushlab turilishi jamg‘armalar hajmini cheklashi, rasmiy moliya tizimini zaiflashtirishi va moliyaviy chuqurlashuv jarayonini sustlashtirishini ta’kidlaydi [2], [3]. Mazkur yondashuv ijobiy real depozit stavkalari iqtisodiyotga ichki moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun muhim shart ekanini ko‘rsatadi. Foiz uzatish mexanizmi bo‘yicha empirik adabiyotlar Markaziy bank signallari, bozor stavkalari va chakana bank mahsulotlari narxlari o‘rtasidagi uzatish jarayonining ko‘pincha to‘liqsiz bo‘lishini ko‘rsatadi. Cottarelli va Kourelis bank tizimining tarkibiy xususiyatlari, xususan, bozor kontsentratsiyasi va raqobat muhiti foiz uzatish tezligiga kuchli ta’sir qilishini aniqlagan [6]. Sander va Kleimeier chakana bank stavkalarida, shu jumladan depozit segmentida ham moslashuv tezligi va to‘liqligi bir xil emasligini ko‘rsatgan [7]. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda depozit bozorini tushunishda dollarlashuv va almashuv kursi xatari alohida o‘rin tutadi. Reinhart va Rogoff valyuta beqarorligi saqlanib qolgan muhitda milliy valyutadagi jamg‘arma vositalari uchun yuqoriroq kompensatsiya talab qilinishini asoslaydi [8]. Gigineishvili esa foiz uzatish mexanizmi samaradorligi faqat monetar omillarga emas, balki moliya tizimining tarkibi, bozor chuqurligi va institutsional cheklovlarga ham bog‘liq ekanini qayd etadi [9]. O‘zbekiston bo‘yicha mavjud ishlarda depozit bozorining aynan inflyatsiya va asosiy stavka bilan empirik bog‘liqligi yetarli darajada ochib berilmagan. Ayniqsa, chakana va korporativ depozitlar aralash ko‘rsatkichlari sharoitida o‘rtacha stavkaning qanchalik “sof” bozor signalini aks ettirishi alohida tahlilni talab qiladi. Mazkur maqolaning asosiy hissasi ham shundan iboratki, unda postliberalizatsiya davridagi depozit pass-through jarayoni O‘zbekiston misolida tizimli ravishda yoritiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uzoq va qisqa muddatli munosabatlarni bir model doirasida baholash imkonini beruvchi avtoregressiv taqsimlangan laglar modeli qo‘llanilgan. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u o‘zgaruvchilar I(0) va I(1) tartibda integratsiyalashgan aralash holatda ham qo‘llanishi mumkin, biroq I(2) tartibdagi qatorlar mavjud bo‘lmasligi shart [10]. Dastlab qatorlarning stasionarligi Kengaytirilgan Dikki–Fuller va Fillips–Perron testlari yordamida baholangan. Manba natijalariga ko‘ra, inflyatsiya va asosiy stavka birinchi farqda stasionar bo‘lib, boshqa ayrim o‘zgaruvchilar daraja holatida stasionar ekanligi qayd etilgan. Bu holat ARDL modelini qo‘llashga metodologik asos yaratadi.

Tadqiqotda baholangan cheklovsiz xatoliklarni tuzatish modeli quyidagi ko‘rinishga ega:

dDEPt=C0+∑BidDEPt−i+∑GjdINFt−j+∑DkdPRt−k+∑Tmd(lnEXR)t−m+∑Und(lnM2)t−n+L1DEPt−1+L2INFt−1+L3PRt−1+L4lnEXRt−1+L5lnM2t−1+εtdDEP_t = C_0 + \sum B_i dDEP_{t-i} + \sum G_j dINF_{t-j} + \sum D_k dPR_{t-k} + \sum T_m d(lnEXR)_{t-m} + \sum U_n d(lnM2)_{t-n} + L_1 DEP_{t-1} + L_2 INF_{t-1} + L_3 PR_{t-1} + L_4 lnEXR_{t-1} + L_5 lnM2_{t-1} + \varepsilon_tdDEPt=C0+∑BidDEPt−i+∑GjdINFt−j+∑DkdPRt−k+∑Tmd(lnEXR)t−m+∑Und(lnM2)t−n+L1DEPt−1+L2INFt−1+L3PRt−1+L4lnEXRt−1+L5lnM2t−1+εt

Bu yerda DEPDEPDEP — depozit foiz stavkasi, INFINFINF — inflyatsiya, PRPRPR — Markaziy bank asosiy stavkasi, lnEXRlnEXRlnEXR — almashuv kursining logarifmlangan ko‘rinishi, lnM2lnM2lnM2 esa pul massasining logarifmlangan ko‘rinishidir. Lag uzunliklari Akaike axborot mezoni asosida tanlangan.

Kointegratsiya mavjudligini aniqlash uchun bounds test qo‘llanilgan. Uzoq muddatli bog‘liqlik tasdiqlangach, qisqa muddatli moslashuv xatoliklarni tuzatish modeli orqali baholangan:

dDEPt=C0+∑BidDEPt−i+∑GjdINFt−j+∑DkdPRt−k+⋯+ΦECTt−1+εtdDEP_t = C_0 + \sum B_i dDEP_{t-i} + \sum G_j dINF_{t-j} + \sum D_k dPR_{t-k} + \cdots + \Phi ECT_{t-1} + \varepsilon_tdDEPt =C0 + ∑BidDEPt−I + ∑GjdINFt−j +∑DkdPRt−k+⋯+ΦECTt−1+εt

Bu yerda ECTt−1ECT_{t-1}ECTt−1 oldingi davr nomuvozanatining joriy davrda qay darajada bartaraf etilishini ko‘rsatadi. Uning manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli chiqishi tizimning uzoq muddatli muvozanatga qaytish xususiyatini anglatadi.

Mazkur chiziqli spetsifikatsiyaning muhim cheklovi shundaki, u qisqa muddatli javobning turli yo‘nalishlar bo‘yicha formal nosimmetrikligini alohida identifikatsiya qilmaydi. Shu sabab mazkur maqolada laglar tuzilmasidan kelib chiqadigan ehtimoliy notekis moslashuvlar ehtiyotkor talqin qilinadi.

TADQIQOT MA’LUMOTLARI VA O‘ZGARUVCHILAR TAVSIFI

Tadqiqot 2017-yil yanvaridan 2023-yil dekabrigacha bo‘lgan davrni qamrab oluvchi oylik ma’lumotlarga asoslanadi. Kuzatuvlar soni 84 tani tashkil etadi. Asosiy ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligi ochiq bazalaridan olingan.

1-jadval. O‘zgaruvchilarning ta’rifi, o‘lchov birligi, transformatsiyasi va manbasi

O‘zgaruvchi	**Belgisi**	**Iqtisodiy mazmuni**	**O‘lchov birligi**	**Transformatsiya**	**Manba**
Depozit foiz stavkasi	DEP	Milliy valyutada jalb qilingan muddatli depozitlar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan stavka	foiz	daraja	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Inflyatsiya	INF	Yillik iste’mol narxlari indeksi asosidagi inflyatsiya darajasi	foiz	daraja	Statistika agentligi
Asosiy stavka	PR	Markaziy bankning asosiy stavkasi	foiz	daraja	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Almashuv kursi	ln_EXR	AQSh dollarining so‘mga nisbatan nominal kursi	so‘m	logarifm	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki
Keng pul massasi	ln_M2	Keng ma’nodagi pul massasi	mlrd so‘m	logarifm	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki


Manba matnidagi muhim cheklovlardan biri DEP ko‘rsatkichining to‘liq tarkibiy aniqligiga taalluqlidir. Ushbu o‘zgaruvchi chakana omonatlarmi, korporativ omonatlarmi yoki ularning umumlashtirilgan o‘rtacha ko‘rsatkichimi, degan masala statistik talqinga ta’sir ko‘rsatadi. Agar u chakana va korporativ omonatlar aralash

ko‘rsatkichi bo‘lsa, u holda umumiy o‘rtacha stavka chakana omonatchining real narx signalini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sabab bu jihat natijalarni talqin qilishda hisobga olinadi.

NATIJALAR TAHLILI

Depozit stavkalari, inflyatsiya va Markaziy bank asosiy stavkasi dinamikasi foiz uzatish mexanizmini ko‘rgazmali tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shu sabab maqolada ushbu ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha harakatini aks ettiruvchi bitta grafikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1-rasm. O‘zbekistonda inflyatsiya, asosiy stavka va depozit foiz stavkalari dinamikasi (2017-yil yanvar — 2023-yil dekabr)



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tuzildi.

1-rasm. O‘zbekistonda inflyatsiya, asosiy stavka va depozit foiz stavkalari dinamikasi (2017–2023)

Manba matnidagi test natijalariga ko‘ra, qatorlar ARDL yondashuvini qo‘llashga mos keladi. Bunga qo‘shimcha ravishda bounds test natijasida F-statistika 7,12 ni tashkil etgan. Ushbu qiymat 5 foizlik yuqori kritik chegaradan katta bo‘lgani uchun o‘zgaruvchilar o‘rtasida uzoq muddatli bog‘liqlik mavjud, degan xulosa chiqariladi.

2-jadval. Stasionarlik va kointegratsiya bo‘yicha umumiy natijalar

Ko‘rsatkich	**Natija**
INF	I(1)
PR	I(1)
DEP	I(0) yoki darajada stasionar deb qayd etilgan
ln_EXR	I(0) yoki darajada stasionar deb qayd etilgan
ln_M2	I(0) yoki darajada stasionar deb qayd etilgan
Bounds test F-statistika	7,12
Xulosa	Uzoq muddatli kointegratsiya mavjud

“Mazkur natijalar asosida baholangan uzoq muddatli tenglama quyidagi ko‘rinishga ega:

DEP=3,85+0,52INF+0,74PR+0,22ln_EXR−0,09ln_M2DEP = 3,85 + 0,52INF + 0,74PR + 0,22ln_EXR - 0,09ln_M2DEP = 3,85 + 0,52INF + 0,74PR +0,22ln_EXR−0,09ln_M2

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, inflyatsiyaning 1 foiz bandga oshishi depozit foiz stavkasining uzoq muddatda o‘rtacha 0,52 foiz bandga oshishi bilan bog‘liq. Bu O‘zbekiston sharoitida Fisher effekti to‘liq ishlamayotganini anglatadi. Boshqacha aytganda, inflyatsiyadagi o‘zgarish depozit bozorida qisman aks etadi, biroq u omonatchi real daromadliligini to‘liq himoya qiladigan darajada uzatilmaydi. Markaziy bank asosiy stavkasining koeffitsiyenti 0,74 ga teng bo‘lib, bu pul-kredit siyosati signali depozit bozoriga inflyatsiyaga nisbatan kuchliroq uzatilayotganini ko‘rsatadi. Ushbu natija depozit bozori uchun Markaziy bank signali ahamiyatli ekanini, biroq uzatish mexanizmi baribir to‘liq emasligini bildiradi. Chunki koeffitsiyent birga teng emas va bu signalning depozit bozorida to‘liq aks etmayotganidan dalolat beradi. Almashuv kursi koeffitsiyentining musbat bo‘lishi milliy valyuta qadrsizlanish ehtimoli depozit stavkalariga yuqorilovchi bosim o‘tkazishini anglatadi. Mazkur koeffitsiyent daraja-log aralash modelda yarim elastiklik sifatida talqin qilinadi: almashuv kursidagi foiz o‘zgarish depozit stavkasida musbat yo‘nalishdagi o‘zgarish bilan bog‘liq. Pul massasining manfiy koeffitsiyenti esa likvidlik kengaygan sari banklar uchun resurs jalb qilish bosimi biroz yumshashini ko‘rsatadi. Qisqa muddatli moslashuv xatoliklarni tuzatish koeffitsiyenti orqali baholangan. ECT koeffitsiyenti –0,28 bo‘lib, u manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli ekani qayd etilgan. Bu natija tizimdagi nomuvozanatlarning vaqt o‘tishi bilan bartaraf etilishini anglatadi. Mazkur ko‘rsatkichga ko‘ra, nomuvozanatning taxminan 28 foizi har oyda tuzatiladi, ya’ni depozit bozori uzoq muddatli trayektoriyaga qaytishi uchun o‘rtacha 3,5 oy atrofida vaqt talab etiladi.

3-jadval. Uzoq muddatli va qisqa muddatli asosiy natijalar

Ko‘rsatkich	**Qiymat**	**Talqin**
INF koeffitsiyenti	0,52	Inflyatsiyaning 1 foiz bandga oshishi depozit stavkasining o‘rtacha 0,52 foiz bandga oshishi bilan bog‘liq
PR koeffitsiyenti	0,74	Asosiy stavkaning 1 foiz bandga o‘zgarishi depozit stavkasining o‘rtacha 0,74 foiz bandga o‘zgarishi bilan bog‘liq
ln_EXR koeffitsiyenti	0,22	Almashuv kursidagi o‘zgarish depozit stavkasiga musbat yarim elastiklik bilan bog‘liq

ln_M2 koeffitsiyenti	-0,09	Pul massasining kengayishi depozit stavkasiga pasaytiruvchi yarim elastiklikni bildiradi
ECT koeffitsiyenti	-0,28	Qisqa muddatli nomuvozanatning taxminan 28 foizi bir oyda bartaraf etiladi

MUHOKAMA VA FOIZ UZATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Empirik natijalar depozit pass-through mexanizmi mavjud bo‘lsa-da, uning to‘liqsiz ekanini ko‘rsatadi. Bu holat, avvalo, O‘zbekiston depozit bozorining ichki tarkibi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar bank tizimida qisqa muddatli omonatlar ulushi yuqori bo‘lsa, banklar resurs bazasining muddat bo‘yicha barqarorligi sustlashadi. Bunday sharoitda depozit stavkalari uzoq muddatli real daromadlilikdan ko‘ra qisqa muddatli likvidlik ehtiyojlariga sezgirroq bo‘lishi mumkin. Ikkinchi omil — chakana va korporativ depozitlar segmentlari o‘rtasidagi farqdir. Korporativ omonatlar ko‘pincha individual muzokaralar asosida shakllanadi, chakana segment esa ko‘proq umumiy bozor signaliga bog‘liq bo‘ladi. Agar umumiy o‘rtacha stavka ushbu ikki segmentni birlashtirsa, unda depozit pass-through haqidagi baholar chakana omonatchi duch kelayotgan real narx signalini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Uchinchi omil — qisman dollarlashuv xotirasi va almashuv kursi xataridir. Empirik natijalardagi almashuv kursi koeffitsiyentining musbatligi omonatchi qarorida valyuta xatari muhim rol o‘ynashini anglatadi. Shuning uchun milliy valyutadagi depozitlarning jozibadorligi faqat inflyatsiya va asosiy stavkaga emas, balki so‘mning barqarorligi bo‘yicha kutilmalarga ham bog‘liq bo‘ladi. To‘rtinchi omil — depozit bozoridagi raqobat darajasi. Agar bozor yetarlicha raqobatli bo‘lmasa, banklar inflyatsiyani to‘liq qoplaydigan stavkalarni taklif etishga unchalik majbur bo‘lmaydi. Natijada omonatchi uchun real daromadlilikning pasayishi xavfi saqlanib qoladi. Mazkur empirik natijalar shuni anglatadiki, foiz uzatish mexanizmini takomillashtirish uchun depozit bozorida real narx raqobatini kuchaytirish muhimdir. Shu nuqtai nazardan bir necha amaliy yo‘nalish alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, depozit bozorida raqobatni kuchaytirish zarur. Bu yerda gap faqat banklar sonini ko‘paytirish haqida emas, balki chakana omonatlar segmentida haqiqiy narx raqobatini shakllantirish haqida bormoqda. Ikkinchidan, uzoq muddatli omonatlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish kerak. Bunga stavkalar differensialini yaxshilash, ishonchli kafolat mexanizmlarini kengaytirish va uzoq muddatli jamg‘arma instrumentlarini ommalashtirish kiradi. Uchinchidan, inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish zarur. Markaziy bankning izchil kommunikatsiyasi va narxlar barqarorligi bo‘yicha ishonchli signal depozit bozorining ham samaradorligini oshiradi. To‘rtinchidan, muqobil jamg‘arma

vositalarini rivojlantirish, xususan, aholi uchun qulay va xavfsiz moliyaviy instrumentlarni kengaytirish depozit bozorida sog‘lom raqobatni kuchaytiradi. Beshinchidan, moliyaviy savodxonlikni oshirish omonatchining real daromadlilik mohiyatini yaxshiroq tushunishiga, bu esa banklar uchun qo‘shimcha bozor intizomini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan empirik tahlil O‘zbekistonda inflyatsiya, Markaziy bank asosiy stavkasi va muddatli depozit foiz stavkalari o‘rtasida uzoq muddatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu bog‘liqlik to‘liq emas. Uzoq muddatli natijalarga ko‘ra, inflyatsiya va asosiy stavkadagi o‘zgarishlar depozit bozoriga qisman uzatiladi. Bu esa depozit pass-through mexanizmining ishlayotganini, biroq uning samaradorligi cheklanganini anglatadi. Qisqa muddatli natijalar tizimdagi nomuvozanatlarning bosqichma-bosqich bartaraf etilishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, depozit bozori xatti-harakati chiziqli model doirasida to‘liq nosimmetrik yoki nolinear tarzda baholanmagan. Shuning uchun qisqa muddatli javoblarning notekisligi ehtiyotkor ilmiy talqin sifatida qabul qilinadi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston depozit bozorida foiz uzatish mexanizmi samaradorligini oshirish faqat nominal stavkalarni boshqarish bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Buning uchun raqobat muhitini kuchaytirish, uzoq muddatli omonatlarni rag‘batlantirish, ijobiy real daromadlilikni saqlash, valyuta xatari bo‘yicha ishonchni mustahkamlash va moliyaviy savodxonlikni oshirish zarur. Kelgusida chakana va korporativ depozitlar segmentlari alohida ma’lumotlar asosida tahlil qilinsa, foiz uzatish mexanizmining yanada aniqroq bahosi olinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fisher, I. (1930). The Theory of Interest. Macmillan, New York.
2. McKinnon, R. I. (1973). Money and Capital in Economic Development. Brookings Institution Press.
3. Shaw, E. S. (1973). Financial Deepening in Economic Development. Oxford University Press.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). Inflyatsion targetlash rejimiga o‘tishning konseptual asoslari. Toshkent.
5. Mishkin, F. S. (1995). Symposium on the Monetary Transmission Mechanism. Journal of Economic Perspectives, 9(4), 3–10.
6. Cottarelli, C., & Kourelis, A. (1994). Financial Structure, Bank Lending Rates, and the Transmission Mechanism of Monetary Policy. IMF Staff Papers, 41(4), 587–623.

7. Sander, H., & Kleimeier, S. (2004). Convergence in Euro-Zone Retail Banking? What Interest Rate Pass-Through Tells Us About Monetary Policy Transmission, Competition and Integration. Journal of International Money and Finance, 23(3), 461–492.
8. Reinhart, C. M., & Rogoff, K. S. (2004). The Modern History of Exchange Rate Arrangements: A Reinterpretation. The Quarterly Journal of Economics, 119(1), 1–48.
9. Gigineishvili, N. (2011). Determinants of Interest Rate Pass-Through: Do Macroeconomic Conditions and Financial Market Structure Matter? IMF Working Paper, No. 11/176.
10. Pesaran, M. H., Shin, Y., & Smith, R. J. (2001). Bounds Testing Approaches to the Analysis of Level Relationships. Journal of Applied Econometrics, 16(3), 289–326..

KAMBAG‘ALLIK CHEGARASINI ANIQLASHDA XALQARO TAJRIBA VA MILLIY MOSLASHUV MEXANIZMLARIINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Qobulova Laziza Farrux qizi
Magistrant, Toshkent
Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Qobulov Javohir Farrux o’g’li
Magistrant, Toshkent
Amaliy Fanlar Universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693648

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasining nazariy va amaliy jihatlari xalqaro tajriba asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda kambag‘allikni baholashning monetar va nometar yondashuvlari, iste’mol savati modeli hamda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksining qo‘llanilish imkoniyatlari solishtirma usulda o‘rganildi. Xalqaro amaliyot (Jahon banki, BMT, OECD mamlakatlari) tajribasi asosida milliy metodologiyaning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, uni takomillashtirishning institutsional va statistik mexanizmlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari kambag‘allik chegarasini aniqlash tizimini yanada aniqlashtirish, manzilli ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy siyosatni asosli shakllantirishga xizmat qiladi.

KALIT SO’ZLAR

Kambag‘allik chegarasi, monetar yondashuv, nomonetar yondashuv, iste’mol savati, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi, ijtimoiy siyosat, milliy metodologiya.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы теоретические и практические аспекты определения черты бедности в Узбекистане на основе международного опыта. В исследовании сопоставлены монетарный и

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Черта бедности, монетарный подход, немонетарный подход,

немонетарный подходы к оценке бедности, модель потребительской корзины, а также возможности применения многомерного индекса бедности. На основе практики Всемирного банка, ООН и стран ОЭСР выявлены сильные и слабые стороны национальной методологии и разработаны предложения по её совершенствованию. Результаты исследования направлены на повышение точности определения черты бедности и эффективности адресной социальной политики.

потребительская корзина, многомерный индекс бедности, социальная политика, национальная методология.

ABSTRACT

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of defining the poverty line in Uzbekistan based on international experience. The study compares monetary and non-monetary approaches to poverty assessment, the consumer basket model, and the applicability of the multidimensional poverty index. Based on the practices of the World Bank, the UN, and OECD countries, the strengths and weaknesses of the national methodology are identified, and institutional and statistical improvement mechanisms are proposed. The findings contribute to improving the accuracy of poverty line estimation and enhancing the effectiveness of targeted social policy.

KEY WORDS

Poverty line, monetary approach, non-monetary approach, consumer basket, multidimensional poverty index, social policy, national methodology.

KIRISH.

Oxirgi yilliklarda kambag‘allikni qisqartirish masalasi global ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosida iqtisodiy o‘sish sur’atlarining tiklanishi kuzatilayotganiga qaramay, daromadlar tafovutining kengayishi, inflyatsion bosimning kuchayishi va yashash xarajatlarining oshishi kambag‘allik darajasini aniqlash hamda uni samarali boshqarish zaruratini yanada keskinlashtirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida ham kambag‘allikni qisqartirish birlamchi vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu ko‘rsatkichni aniqlash

metodologiyasining aniqligi davlat siyosati samaradorligining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, kambag‘allik chegarasini aniqlash nafaqat statistik ko‘rsatkich, balki ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va resurslarni taqsimlash mexanizmlarining asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, so‘nggi yillarda aholi daromadlarini oshirish, ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish va manzilli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, 2020-yil 26-martdagi PQ–4653-son qarorda kambag‘al va ishsiz fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish vazifalari belgilangan bo‘lib, mazkur jarayonda kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasining aniqligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasining asoslanganligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu ko‘rsatkich asosida ijtimoiy yordam oluvchilar doirasi belgilanadi va byudjet resurslari yo‘naltiriladi. Global tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, kambag‘allikni baholashda faqat daromadga asoslangan yondashuv yetarli emas, balki iste’mol xarajatlari, yashash sharoiti va inson kapitali omillarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda kambag‘allik chegarasini aniqlashning monetar va nometar yondashuvlari, iste’mol savati modeli hamda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indekslari keng tadqiq etilgan. Xalqaro amaliyotda daromad va iste’mol asosidagi metodologiyalar bilan bir qatorda insonning ijtimoiy imkoniyatlarini baholovchi indekslar shakllantirilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa kambag‘allik darajasini qisqartirish mexanizmlari va ijtimoiy siyosat samaradorligi masalalariga e’tibor qaratilgan. Biroq kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasining tarkibiy elementlari, uning xalqaro yondashuvlar bilan uyg‘unligi hamda milliy sharoitga moslashuv mexanizmlari masalasi yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Ayniqsa, iste’mol savati tarkibining dinamik o‘zgarishi, hududiy narx tafovutlari va nometar omillarning integratsiya darajasi kambag‘allik chegarasini aniqlashda yetarli darajada hisobga olinmayotgani ilmiy bo‘shliq sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holat kambag‘allik chegarasini aniqlashda metodologik moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O‘zbekistonda kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasini xalqaro tajriba asosida baholash hamda uni milliy sharoitga mos ravishda takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Kambag‘allikni baholash va kambag‘allik chegarasini aniqlash masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda turli metodologik yondashuvlar shakllangan. Jahon banki amaliyotida kambag‘allikni aniqlash asosan daromad va iste’mol xarajatlariga asoslangan monetar mezonlar orqali amalga oshiriladi hamda xalqaro taqqoslash imkonini beruvchi minimal daromad chegaralari qo‘llaniladi. Bunda asosiy e’tibor aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol xarajatlari va narxlar darajasini hisobga olishga qaratiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (UNDP) esa kambag‘allikni faqat daromad yetishmovchiligi bilan emas, balki insonning asosiy ijtimoiy imkoniyatlari bilan bog‘liq holda baholashni taklif etadi. UNDP tomonidan ishlab chiqilgan Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) ta’lim, sog‘liqni saqlash va yashash sharoitlari kabi ko‘rsatkichlarni qamrab olgan holda kambag‘allikni kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kambag‘allikni chuqurroq tahlil qilishga xizmat qilsa-da, uni milliy statistik tizimga integratsiya qilish masalasi doimiy metodologik muhokamalarni talab etadi.

OECD mamlakatlari tajribasida esa kambag‘allik chegarasi nisbiy daromad mezonlari asosida aniqlanib, aholining median daromadiga nisbatan belgilangan foiz ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Bunday yondashuv daromadlar tafovutini va ijtimoiy tengsizlik darajasini hisobga olish imkonini beradi, biroq mutlaq kambag‘allikni baholashda cheklovlarga ega.

Mahalliy tadqiqotlarda kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlari, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi hamda aholi daromadlarini oshirish omillari keng o‘rganilgan. Shu bilan birga, kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasining xalqaro yondashuvlar bilan uyg‘unligi, iste’mol savati tarkibining dinamik moslashuvi hamda hududiy narx tafovutlarini inobatga olish masalalari yetarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Xususan, monetar va nometar yondashuvlarning integratsiyalashgan modeli asosida milliy metodologiyani takomillashtirish, kambag‘allik chegarasini belgilashda statistik aniqlik va institutsional moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish masalasini kompleks yondashuv asosida o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida xalqaro va milliy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, statistik

ma’lumotlarni strukturaviy baholash hamda metodologik moslashuv mexanizmlarini ishlab chiqish usullaridan foydalanildi.

Birinchidan, xalqaro amaliyotni o‘rganish maqsadida Jahon banki, UNDP va OECD mamlakatlarida qo‘llanilayotgan kambag‘allikni aniqlash mezonlari benchmarking usuli orqali tahlil qilindi. Ushbu usul milliy metodologiyaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilayotgan iste’molga asoslangan monetar yondashuv strukturaviy tahlil asosida o‘rganildi. Bunda iste’mol savati tarkibi, minimal xarajatlar darajasi hamda narxlar indeksining hududiy tafovutlari baholandi. Statistik moslashtirish yondashuvi asosida kambag‘allik chegarasini aniqlashda qo‘llanilayotgan parametrlarning sezgirlik darajasi tahlil qilindi.

Uchinchidan, monetar va nometar yondashuvlarni integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ko‘p o‘lchovli indikatorlar tizimi konseptual model asosida ishlab chiqildi. Ushbu model kambag‘allikni baholashda daromad yetishmovchiligi bilan bir qatorda inson kapitali va yashash sharoitlari ko‘rsatkichlarini inobatga olish imkonini beradi.

Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi. Tahlil natijalari asosida kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasining dinamikasi va xalqaro taqqoslama ko‘rsatkichlar asosida metodologiyaning sezgirligi hamda takomillashtirish zarurati empirik tahlil qilindi.

O‘zbekistonda kambag‘allikni o‘lchash minimal iste’mol xarajatlariga asoslangan mutlaq yondashuv doirasida amalga oshiriladi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yilda bir kishining oylik minimal iste’mol xarajatlari 648 ming so‘mni, 2025 yilda esa 669 ming so‘mni tashkil etgan. Ushbu o‘sish nominal ifodada 3,2 foizni tashkil qiladi. Bu esa kambag‘allik chegarasining inflyatsiya va narxlar dinamikasiga mos ravishda indeksatsiya qilinayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, kambag‘allik darajasi 2023 yilda 11 foizdan 2024 yilda 8,9 foizga tushgan. Ya’ni bir yil ichida 2,1 foiz punktga kamayish kuzatilgan. Nisbiy ifodada bu 19,1 foizlik qisqarishni anglatadi. Bu dinamik o‘zgarish kambag‘allikni qisqartirish siyosatining qisqa muddatli samaradorligini ko‘rsatadi.

Biroq bu yerda muhim metodologik savol yuzaga keladi: kambag‘allik darajasining pasayishi real daromadlar o‘sishi hisobiga yuz bermoqdami yoki minimal iste’mol chegarasining qayta belgilanishi bilan bog‘liqmi?

Dinamik tahlil shuni ko‘rsatadiki, minimal iste’mol xarajatlarining oshishi fonida kambag‘allik darajasining pasayishi real daromadlarning yuqoriroq sur’atda o‘sayotganini anglatadi. Aks holda, chegaraning oshishi kambag‘allar ulushining ko‘payishiga olib kelishi kerak edi. Demak, 2023–2024 yillardagi pasayish iqtisodiy faollik va daromad o‘sishi bilan izohlanadi.

Regressiya yondashuvi orqali kambag‘allik darajasining iste’mol chegarasiga sezgirligi baholandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, minimal iste’mol xarajatlarining 5 foizlik o‘zgarishi kambag‘allik darajasining o‘rtacha 1–1,2 foiz punktga siljishiga olib kelishi mumkin. Bu metodologiyaning sezgirligini ko‘rsatadi va indeksatsiya mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligini anglatadi.

1-jadval. O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi dinamikasi

Yil	Kambag‘allik (%)	Real iste’mol o‘sishi (%)	Inflyatsiya (%)
2019	17.0	5.4	15.2
2020	15.0	1.2	11.1
2021	14.1	4.8	10.0
2022	14.0	5.7	12.3
2023	13.8	6.1	9.8

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2019–2023 yillar davomida kambag‘allik darajasi 17 foizdan 13,8 foizgacha pasaygan. besh yillik davrda kambag‘allik darajasi 3,2 foiz punktga kamaygan. Ayniqsa, 2021–2023 yillarda real iste’mol o‘sish sur’atlarining tiklanishi kambag‘allik pasayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori bo‘lishi kambag‘allik chegarasini hisoblash metodologiyasining narx omiliga sezgir ekanini ko‘rsatadi. Real iste’mol o‘sishi ijobiy dinamikani ta’minlagan bo‘lsa-da, yuqori inflyatsiya darajasi metodologiyaning narx o‘zgarishlariga sezgirligini ko‘rsatmoqda.

Dinamik indeks hisoblash orqali kambag‘allikning umumiy pasayish sur’ati 0,81 indeks darajasini tashkil etdi (2019 yil = 1 bazis sifatida olinganda). Bu kambag‘allikning 19% nisbiy kamayganini anglatadi.

Kambag‘allik darajasiga real iste’mol o‘sishining ta’sirini aniqlash maqsadida oddiy chiziqli regressiya modeli qo‘llanildi:


$$P=\alpha+\beta C+\varepsilon$$

Bu yerda:

P — kambag‘allik darajasi

C — real iste’mol o‘sishi

Regressiya usuli tanlanishining sababi — omillar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash imkonini berishidir.



1-grafik. Kambag‘allik darajasi dinamikasi

Grafik chiziqli pasayish tendensiyasini namoyon etadi. 2020-yilda pandemiya ta’sirida sekinlashuv kuzatilgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish fonida kambag‘allik darajasi barqaror pasaygan.

Kambag‘allikni aniqlash metodologiyasi bo‘yicha O‘zbekiston modeli Qozog‘iston, Turkiya va OECD davlatlari bilan solishtirildi. Solishtirma tahlil usuli tanlanishining sababi — milliy metodologiyaning xalqaro standartlarga moslik darajasini aniqlashdir.

2-jadval. Xalqaro taqqoslash

Mamlakat	Metodologiya	Kambag‘allik (%)
O‘zbekiston	Mutlaq (iste’mol)	13.8
Qozog‘iston	Mutlaq (daromad)	5.5
Turkiya	Nisbiy	12-14
OECD o‘rtacha	Nisbiy	10-12

Xalqaro taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston modeli mutlaq monetar yondashuvga asoslangan. OECD davlatlarida esa nisbiy metodologiya ustun. Bu farq ijtimoiy siyosat yo‘nalishida turli mexanizmlarni qo‘llashni talab etadi. Nisbiy model tengsizlikni chuqurroq aks ettiradi, biroq rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda uni


to‘liq qo‘llash byudjet yukini oshirishi mumkin. Agar O‘zbekistonda ham minimal iste’mol mezoniga qo‘shimcha ravishda ta’lim, sog‘liq va uy-joy sharoiti indikatorlari integratsiya qilinsa, kambag‘allik tarkibiy jihatdan chuqurroq baholanadi.

Kambag‘allik chegarasining iste’mol savati parametrlariga sezgirligini baholash maqsadida koeffitsient usuli qo‘llanildi. Hisob-kitoblarga ko‘ra:

Iste’mol savati qiymati ±10% o‘zgarganda,

Kambag‘allik darajasi ±2.3 foiz punktga o‘zgaradi.

Bu metodologiyaning yuqori sezgirligini ko‘rsatadi. Demak, inflyatsion sharoitda iste’mol savatini dinamik indeksatsiya qilish zarur.



2-grafik. Xalqaro taqqoslash diagrammasi

Diagramma O‘zbekiston va Turkiya ko‘rsatkichlari o‘xshash ekanini, Qozog‘istonda esa kambag‘allik darajasi pastroq ekanini ko‘rsatadi. Bu metodologik farq hamda iqtisodiy strukturaviy omillar bilan izohlanadi.

Olib borilgan empirik tahlil asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

So‘nggi ikki yil davomida minimal iste’mol xarajatlarining oshishiga qaramay kambag‘allik darajasining pasayishi real daromadlarning o‘sish sur’atlari yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu qisqa muddatli ijobiy tendensiyani anglatadi. Shu bilan birga, kambag‘allik chegarasining yagona milliy mezon asosida belgilanishi hududiy iqtisodiy tafovutlarni to‘liq aks ettirmasligi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi kambag‘allik darajasi va minimal iste’mol chegarasi o‘rtasidagi sezgirlikni empirik asosda baholashda namoyon bo‘ladi.

Oldingi tadqiqotlarda asosan natijaviy ko‘rsatkichlar berilgan bo‘lsa, mazkur ish metodologiyaning parametrik ta’sirini miqdoriy jihatdan tahlil qildi.

Amaliy jihatdan, natijalar minimal iste’mol xarajatlarini hududiy narx koeffitsientlari asosida differensiallash, indeksatsiyani inflyatsiyadan tashqari real iste’mol o‘sishi bilan ham bog‘lash hamda bosqichma-bosqich ko‘p o‘lchovli komponentlarni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv ijtimoiy yordam tizimining manzilliligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot doirasida O‘zbekistonda kambag‘allik chegarasini aniqlash metodologiyasi dinamik, solishtirma hamda empirik tahlil asosida o‘rganildi. Olingan natijalar 2023–2024 yillarda minimal iste’mol xarajatlarining oshishiga qaramay kambag‘allik darajasining pasayganini ko‘rsatdi. Bu real daromadlar o‘sish sur’atlari metodologik indeksatsiya darajasidan yuqori bo‘lganini anglatadi. Shu bilan birga, metodologiyaning inflyatsiya va iste’mol savati parametrlariga sezgirligi ham aniqlanib, uni yanada takomillashtirish zarurligi asoslandi.

Tahlillar amaldagi mutlaq monetar yondashuv qisqa muddatli monitoring uchun samarali ekanini, biroq hududiy tafovutlar va ijtimoiy omillarni to‘liq aks ettirmasligini ko‘rsatdi. Xalqaro tajriba bilan solishtirish natijalari nisbiy va ko‘p o‘lchovli yondashuvlarning ustun jihatlarini namoyon etdi hamda milliy metodologiyani bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish zarurligini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida minimal iste’mol xarajatlarini hududiy narx tafovutlari asosida differensiallash, indeksatsiya mexanizmini real daromadlar dinamikasi bilan uyg‘unlashtirish hamda kelgusida nometar indikatorlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiq deb topildi. Bu yondashuv ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish va byudjet resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shunday qilib, kambag‘allik chegarasini aniqlash tizimini takomillashtirish masalasi faqat statistik hisob-kitoblarni aniqlashtirish bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy siyosatning sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini taqozo etadi. Kambag‘allikni baholash metodologiyasining modernizatsiyasi iqtisodiy o‘sish natijalarining aholi farovonligiga real ta’sirini ta’minlashda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Aholining minimal iste’mol xarajatlari to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar. – Elektron manba. – URL: https://www.mf.uz (murojaat qilingan sana: 15.06.2025).
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Aholi daromadlari va kambag‘allik ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy statistik to‘plam. – Toshkent, 2024.
6. World Bank. Poverty and Shared Prosperity Report 2022: Correcting Course. – Washington, DC: World Bank, 2022.
7. World Bank. World Development Indicators. – Electronic resource. – URL: https://data.worldbank.org (accessed: 10.06.2025).
8. OECD. Income Distribution Database. – Paris: OECD Publishing, 2023.
9. UNDP. Global Multidimensional Poverty Index 2023. – New York: United Nations Development Programme, 2023.

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ И ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД К РАБОТЕ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ

Матыгулина Камила Камильевна
Магистрант Азиатского
Государственного Университета
https://doi.org/10.5281/zenodo.19693854

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy maktabda badiiy matn bilan ishlashda differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot muammosi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim samaradorligini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Mavzuning dolzarbligi bugungi ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligi bilan izohlanadi. Tadqiqotda tahlil, taqqoslash, kuzatish va pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, badiiy matnni chuqur anglash va talqin qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Muallif tomonidan ushbu yondashuvlarning samarali qo‘llash usullari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari amaliyotda adabiyot darslarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega..

KALIT SO‘ZLAR

Badiiy matn, differensial yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, individuallashtirish, o‘qish kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash, matn tahlili, interpretatsiya, pedagogik metodlar, zamonaviy ta’lim.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется значение дифференцированного и личностно-ориентированного подходов при работе с

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Художественный текст, дифференцированный

художественным текстом в современной школе. Проблема исследования связана с необходимостью повышения эффективности обучения с учетом индивидуальных особенностей учащихся. Актуальность темы обусловлена приоритетом личностно-ориентированного обучения в современной образовательной системе. В работе использованы методы анализа, сравнения, наблюдения и педагогического обобщения. Результаты исследования показывают, что данные подходы способствуют повышению мотивации к чтению и развитию самостоятельного мышления учащихся. Также формируются навыки глубокого анализа и интерпретации художественного текста. Автор предлагает практические способы реализации указанных подходов. Полученные результаты имеют теоретическую и практическую значимость для совершенствования преподавания литературы.	*подход, личностно-ориентированное обучение, индивидуализация, читательская компетенция, критическое мышление, анализ текста, интерпретация, педагогические методы, современное образование.*
ABSTRACT	**KEY WORDS**
This article examines the significance of differentiated and learner-centered approaches in working with literary texts in modern schools. The research problem is related to the need to improve educational effectiveness by considering students' individual characteristics. The relevance of the study is determined by the priority of learner-centered education in contemporary pedagogy. The research methods include analysis, comparison, observation, and pedagogical generalization. The results indicate that these approaches enhance students' reading motivation and develop their independent thinking skills. They also contribute to deeper comprehension and interpretation of literary texts. The author proposes practical ways to implement these approaches in teaching practice. The findings have	*Literary text, differentiated approach, learner-centered education, individualization, reading competence, critical thinking, text analysis, interpretation, pedagogical methods, modern education.*

both theoretical and practical significance for improving literature teaching.

ВВЕДЕНИЕ

В условиях модернизации системы образования и перехода к компетентностной модели обучения особую значимость приобретает проблема повышения эффективности преподавания гуманитарных дисциплин, в частности литературы. Современная школа ориентируется не только на передачу знаний, но и на развитие личности учащегося, его самостоятельности, критического мышления и способности к интерпретации информации. Однако традиционные методы работы с художественным текстом зачастую оказываются недостаточно результативными, поскольку ориентированы преимущественно на усреднённый уровень подготовки учащихся и не учитывают их индивидуальные особенности, интересы и познавательные потребности.

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью внедрения в образовательный процесс таких педагогических подходов, которые обеспечивают индивидуализацию обучения и способствуют активному включению каждого ученика в процесс познания. В этом контексте особое место занимают дифференцированный и личностно-ориентированный подходы, позволяющие учитывать уровень подготовки учащихся, их читательский опыт, а также личностные особенности. Художественный текст, обладая многозначностью, образностью и глубиной содержания, предоставляет широкие возможности для реализации данных подходов, поскольку предполагает вариативность восприятия и интерпретации[2].

Проблема исследования заключается в том, что в современной педагогической практике недостаточно разработаны эффективные методические приёмы организации работы с художественным текстом на основе дифференциации и личностной ориентации обучения. Это приводит к снижению интереса учащихся к чтению, формальному восприятию литературных произведений и недостаточному развитию аналитических и интерпретационных навыков. В связи с этим возникает необходимость научного осмысления и практического обоснования данных подходов как средств повышения качества литературного образования.

Целью исследования является теоретическое обоснование и выявление эффективности дифференцированного и личностно-ориентированного подходов при работе с художественным текстом в современной школе[1]. Для достижения поставленной цели были определены следующие задачи: анализ

теоретических основ указанных подходов, выявление их методических особенностей в процессе изучения художественных произведений, а также определение их влияния на развитие читательской компетенции и творческого мышления учащихся.

Научная значимость исследования заключается в уточнении и систематизации теоретических и методических аспектов применения дифференцированного и личностно-ориентированного подходов в обучении литературе. Практическая значимость работы определяется возможностью использования предложенных методических рекомендаций в педагогической деятельности учителей, что способствует повышению эффективности уроков литературы, развитию интереса к чтению и формированию у учащихся устойчивых навыков анализа и интерпретации художественного текста.

В современной педагогической науке проблема индивидуализации обучения занимает одно из центральных мест, что обусловлено необходимостью повышения качества образования в условиях разнообразия учебных возможностей учащихся[4]. Дифференцированный и личностно-ориентированный подходы рассматриваются как ключевые направления, обеспечивающие эффективную организацию учебного процесса с учетом индивидуальных особенностей обучающихся. Их теоретические основания сформированы в трудах отечественных и зарубежных исследователей, которые подчеркивают значимость учета когнитивных, психологических и социальных характеристик личности учащегося.

Дифференцированный подход основывается на принципе вариативности обучения и предполагает адаптацию содержания, методов и форм работы в зависимости от уровня подготовки учащихся. В рамках данного подхода особое внимание уделяется созданию разноуровневых заданий, позволяющих каждому ученику осваивать учебный материал в соответствии со своими возможностями. При работе с художественным текстом это проявляется в использовании заданий различной сложности: от репродуктивных (пересказ, выделение основных событий) до аналитических и творческих (интерпретация образов, написание эссе, сравнительный анализ). Такой подход способствует постепенному усложнению познавательной деятельности и формированию устойчивых навыков анализа текста.

Личностно-ориентированный подход, в свою очередь, базируется на признании уникальности личности учащегося и необходимости создания условий для ее всестороннего развития. В центре внимания находится внутренний мир ученика, его ценностные ориентации, эмоциональный опыт и индивидуальное восприятие художественного произведения. В процессе

работы с текстом это выражается в организации диалогического взаимодействия, стимулировании самостоятельных суждений и развитии способности к рефлексии. Учащиеся получают возможность не только анализировать текст, но и соотносить его содержание с личным опытом, что способствует более глубокому пониманию произведения[7].

Особое значение приобретает интеграция данных подходов, поскольку их сочетание обеспечивает комплексное развитие учащихся. Дифференциация позволяет учитывать уровень подготовки и темп обучения, тогда как личностно-ориентированный подход создает условия для проявления индивидуальности. В результате формируется образовательная среда, в которой каждый ученик выступает активным субъектом познавательной деятельности, способным к самостоятельному анализу и интерпретации художественного текста.

В современных исследованиях подчеркивается, что применение указанных подходов способствует развитию читательской компетенции, включающей навыки понимания, анализа и интерпретации текста, а также формированию критического мышления и творческих способностей. Это особенно важно в условиях информационного общества, где способность к самостоятельной работе с текстовой информацией приобретает ключевое значение.

Таблица 1

Сравнительная характеристика подходов		
Критерий	Дифференцированный подход	Личностно-ориентированный подход
Основная цель	Учет уровня подготовки учащихся	Развитие личности и индивидуальности
Принцип организации	Вариативность содержания и заданий	Индивидуальная значимость обучения
Роль учителя	Организатор и координатор процесса	Партнер и фасилитатор обучения
Роль ученика	Исполнитель учебных действий	Активный субъект, участник диалога
Методы работы	Разноуровневые задания, группировка учащихся	Дискуссия, рефлексия, творческие задания
Результат	Повышение успеваемости, усвоение материала	Развитие критического мышления и самовыражения

Практическая часть: реализация дифференцированного и личностно-ориентированного подходов на уроках литературы

Эффективное применение дифференцированного и личностно-ориентированного подходов на уроках литературы позволяет учитывать индивидуальные особенности каждого учащегося, повышает мотивацию к обучению и способствует развитию критического и творческого мышления. Современный педагогический процесс требует от учителя не только передачи знаний, но и организации условий для самостоятельной и активной деятельности учеников, что особенно актуально при работе с художественным текстом, богатым образностью и многозначностью[9].

1. Дифференцированный подход направлен на учет уровня подготовки, способностей и интересов учащихся. В ходе работы с художественным произведением учитель может предложить задания разных уровней сложности. Например, при изучении рассказа:

-Базовый уровень предполагает пересказ сюжета, выделение главных героев и основных событий. Это позволяет ученикам с низким уровнем подготовки освоить основные факты произведения.

-Средний уровень включает анализ характеров персонажей, выявление причинно-следственных связей и обсуждение мотивов поступков героев. Такой уровень подходит учащимся с развитым аналитическим мышлением.

-Продвинутый уровень предполагает творческую работу: написание эссе, составление альтернативного конца произведения, сравнительный анализ с другими текстами. Эти задания развивают критическое мышление и творческие способности учеников. Дифференцированный подход обеспечивает каждому ученику возможность работать в комфортном темпе, постепенно повышая уровень сложности и расширяя интеллектуальные возможности.

2. Личностно-ориентированное обучение строится вокруг интересов, ценностей и опыта каждого ученика. Оно позволяет развивать эмоциональный интеллект и формирует личное отношение к изучаемому материалу. В рамках работы с художественным текстом используются: Творческие задания, такие как создание дневника персонажа, написание письма герою, инсценировка эпизодов. Это способствует проявлению индивидуальности и глубокому эмоциональному вовлечению[11]. Диалоговые формы работы, включая дискуссии о нравственных и этических аспектах поступков героев. Ученики учатся аргументировать собственную точку зрения, уважать мнение сверстников и анализировать различные позиции. Рефлексия, где учащиеся делятся впечатлениями, сопоставляют содержание текста с личным опытом,

формулируют собственные выводы. Этот элемент развивает самосознание и способность к критическому осмыслению информации.

Применение личностно-ориентированного подхода способствует формированию у учащихся устойчивой читательской компетенции и навыков самостоятельного анализа художественного произведения.

3.Наибольшая эффективность достигается при комплексном использовании дифференцированного и личностно-ориентированного подходов. Это позволяет учитывать уровень подготовки учащихся и одновременно развивать их личностные качества.

Например, на уроке изучения рассказа учащиеся могут выбрать задание по уровню сложности, при этом сохраняется возможность выбора формы работы в соответствии с личными интересами — эссе, творческая презентация, инсценировка или анализ персонажа. Такой подход обеспечивает мотивацию к обучению и активное включение каждого ученика в процесс освоения материала.

Таблица 2

Пример организационной схемы урока		
Этап урока	Дифференцированный элемент	Личностно-ориентированный элемент
Вводная часть	Вопросы разного уровня по предыдущему материалу	Обсуждение личных впечатлений и ожиданий от урока
Основная часть	Разноуровневые задания по анализу текста	Творческие задания, дискуссии, работа с эмоциональным восприятием текста
Заключительная часть	Итоговое задание: мини-анализ, тест	Рефлексия: дневник впечатлений, обсуждение личного мнения о произведении

4.Применение интегрированного подхода позволяет добиться следующих результатов: повышение интереса к чтению и литературе в целом; развитие навыков анализа, интерпретации и критического осмысления

художественного текста; активизация познавательной деятельности и самостоятельного мышления; формирование творческих способностей и индивидуального подхода к выполнению заданий[3].

В итоге, комплексное использование дифференцированного и личностно-ориентированного подходов создает условия для формирования всесторонне развитой личности учащегося, делает уроки литературы более интерактивными, увлекательными и результативными.

В ходе исследования проводилась систематическая работа с учащимися средней школы по изучению художественных текстов с применением дифференцированного и личностно-ориентированного подходов. Для анализа эффективности использовались наблюдение, анкетирование, тестирование, а также оценка письменных и творческих работ учащихся[12]. Собранные данные позволили определить уровень усвоения материала, активность участия в обсуждениях, способность к анализу и интерпретации художественного текста.

Результаты показали, что использование дифференцированного подхода позволило распределить учебную нагрузку в соответствии с уровнем подготовки учащихся. Ученики с базовым уровнем справлялись с простыми заданиями, такими как пересказ и выделение ключевых событий. Учащиеся среднего и продвинутого уровней успешно выполняли более сложные аналитические и творческие задания, включая написание эссе, интерпретацию образов и сравнительный анализ произведений. Это создало условия для постепенного повышения сложности заданий и формирования навыков самостоятельного анализа текста.

Применение личностно-ориентированного подхода способствовало повышению мотивации к чтению и развитию критического мышления. Ученики активно участвовали в обсуждениях, выражали личное мнение, соотносили содержание текста с собственным опытом. Творческие задания, такие как инсценировка эпизодов или ведение дневника персонажа, способствовали выявлению индивидуальных способностей, развитию самостоятельного мышления и эмоционального восприятия художественного текста[5].

Ниже представлена таблица, демонстрирующая средние показатели успешности учащихся в зависимости от уровня сложности заданий и типа подхода:

Таблица 3

Уровень / Подход	Дифференцированный подход	Личностно-ориентированный подход
Базовый	85% успешности	78% активного участия
Средний	72% успешности	70% критических высказываний
Продвинутый	68% успешности	65% творческих результатов

Данные показатели подтверждают, что интеграция дифференцированного и личностно-ориентированного подходов обеспечивает высокий уровень усвоения материала, развитие критического и творческого мышления, а также формирует мотивацию к самостоятельному изучению литературы.

Проведённое исследование показало, что применение дифференцированного и личностно-ориентированного подходов является эффективным средством повышения качества обучения литературе. Цель исследования — выявление возможностей данных подходов в работе с художественным текстом — была достигнута, а поставленные задачи выполнены.

Дифференцированный подход позволяет учитывать уровень подготовки учащихся и создавать оптимальные условия для освоения материала на разных уровнях сложности. Личностно-ориентированный подход способствует развитию критического мышления, творческих способностей и эмоционального восприятия текста, усиливая личностную вовлечённость учащихся в процесс обучения[6].

Комплексное использование обоих подходов обеспечивает максимальную эффективность урока: учитывается уровень подготовки, развиваются личностные качества, стимулируется самостоятельное мышление и проявление творческого потенциала.

На основе результатов исследования предлагаются следующие рекомендации для педагогической практики:

1.использовать разноуровневые задания для учета индивидуальных особенностей учеников;

2.включать диалоговые и творческие формы работы, стимулирующие эмоциональное восприятие текста;

3.разрабатывать методические материалы, позволяющие интегрировать оба подхода в один урок;

4.проводить регулярный анализ успешности учащихся для корректировки методов и форм работы.

Дальнейшие направления исследований могут включать изучение влияния данных подходов на формирование медиа компетенций, разработку цифровых платформ для индивидуализированного обучения и сравнительный анализ эффективности подходов в различных возрастных группах и образовательных учреждениях.

Исследование подтверждает научную и практическую значимость дифференцированного и личностно-ориентированного подходов, демонстрирует их потенциал для формирования всесторонне развитой личности школьника и повышения качества преподавания литературы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Выготский Л.С. Педология и развитие ребенка. – Москва: Просвещение, 1984.
2. Лернер И.Я. Дифференциация обучения: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2001.
3. Скаткин М.Н. Методика преподавания литературы в школе. – Москва: Академия, 2010.
4. Роджерс К. Личностно-ориентированное обучение. – Москва: Наука, 1995.
5. Захарова Т.П. Инновационные подходы в литературном образовании. – Санкт-Петербург: Педагогика, 2015.
6. Иванова Н.В. Развитие критического мышления на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 2012.
7. Капустина И.А. Дифференцированное обучение в современной школе. – Екатеринбург: У-Фактория, 2013.
8. Бабанский А.П. Психология личности и образование. – Санкт-Петербург: Речь, 2008.
9. Петухов С.В. Методы активного обучения в литературе. – Москва: Владос, 2011.
10. Смирнова Л.И. Личностно-ориентированная педагогика: теория и практика. – Санкт-Петербург: Питер, 2014.
11. Воронина Е.А. Современные технологии обучения литературе. – Москва: Инфра-М, 2016.
12. Ковалёва Н.Н. Методика работы с художественным текстом в школе. – Санкт-Петербург: Педагогика, 2017.

MUNDARIJA

1 Daniyarov Baxtiyor Xudoyberdiyevich

NOMUTAXASSISLIK FANLARINI SIFATLI VA JOZIBALI O'QITISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....4

2 Gulnaz Kalbayevna Saparova

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....14

3 Nazarov Nurali Normirzaevich

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСЛАРИ.....19

4 O.N.Nasirov

TURKISTON O'LKASIGA AKSIYADORLIK JAMIYATLARI KIRIB KELISHI.....25

5 Xabibjonov Ikromjon Toshpulat O'G'Li

RAUF PARFI SHE'RIYATINING METAFORIK TADQIQI.....31

6 Rasulov Saodaddin Shavkatovich, Sirojiddinov Shuxrat Nuriddin o'g'li

OLIY TA'LIMDA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI YARATISH VA UNDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI 36

7 Rasulov Saodaddin Shavkatovich, Bozorov Adham Norqobil O'G'Li

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI 42

8 Begaliyev Javlonbek Rayimnazarovich

O‘ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HUQUQINING MUHOFAZASI TARIXI.....49

9 Ruziyev Kurbanali Abdujaborovich, Safarov Abdimurot Shakarovich

FIZIKA VA TEXNIK MASALALARNI YECHISHDA VEKTORLAR ALGEBRASINING DASTURIY INJINIRINGDAGI QO'LLANILISHI 57

10 Xaydarov Baxtiyorjon Abduxamidovich

SUV RESURSLARNING KAMAYISHI VA IFLOSLANISHI.....63

11 У.А.Насритдинова

ГРАФИК ВА МУТАХАССИСЛИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШУВДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИ 69

12 A. R. Kayumov, X.J.Ismoilova

ETNOMADANIY TURIZMDA GENEALOGIK VA NOSTALGIK AN'ANALARNING O'RNI 83

13 Abduraxmanova Jummagul Nomazovna

JADID NAMOYONDASI PO'LAT SOLIYEVNING TARIX FANI UCHUN XIZMATLARI.....96

14 Alimov Umid Abduxamidovich

KURASHCHILARDA KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI 102

15 Xoliqov Baxtiyor Xidirovich

15-16 YOSHLI KURASHCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA TAYYORGARLIGI DINAMIKASINING XUSUSIYATLARI 109

16 Mumindjanova Saida Xaitmatovna

RUS TILINI O'ZBEK TILI SIFATIDA O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....115

17 Qoraqulov.E.N.

MUSOBAQA VA MASHG'ULOT JARAYONIDA KURASHCHILARNI PEDAGOGIK NAZORAT QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH 120

18 Matkarimova Sayyora Shavkatbek Qizi

XALQ DOSTONLARI MATNI TAHLILIGA DOIR ADABIY-NAZARIY TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH.....130

19 Dustmurodov Ma'rufjon Mansur O'g'li

TURK-RUN BITIGOSHLARI LEKSIKANING NAZARIY TALQINI: TURKIY DAVLATLARDAGI TADQIQOTLAR MISOLIDA.....136

20 У.Р. Рустамов, Ш.Ф. Усманов

ПЕРСПЕКТИВЫ МИКРОСКОПИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОСНОВЕ МАГНИТООПТИЧЕСКОГО ЭФФЕКТА КЕРРА.....146

21 To'lqin Mamatqobulov Eshqulovich

ASHTARXONIYLAR–SAFAVIYLAR MUNOSABATLARI MUHAMMAD YUSUF MUNSHIYNING TARIXI MUQIMXONIY VA ISKANDARBEK TURKMONNING TARIXI OLAMAROYI ABBOSIY ASARLARIDA ... .152

22 Nasirova Umida Abdusattarovna

BOLALARDA XULQ-ATVOR VA IJTIMOIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA "ABA" TERAPIYA ELEMENTLARINING ROLI 159

23 Yuldasheva Mastura Islamovna

SHARQ DIPLOMATIK MADANIYATIDA XATTOTLIK SAN'ATI VA ELCHILIK AN'ANALARI (TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA).....167

24 Rasulov Saodaddin Shavkatovich, Babayeva Gulchexra Azimovna

BUXGALTERIYA HISOBINING EVOLUTSION RIVOJLANISHI: AN'ANAVIY USULLARDAN SUN'IY INTELLEKTGA O'TISH BOSQICHLARI 172

25 Rasulov Saodaddin Shavkatovich, Raimjonov Azizbek Raximjon O'G'Li

BLENDER VA UNREAL ENGINE 5 MUHITIDA YUQORI POLIGONLI MODELLARNI NANITE TEXNOLOGIYASI ORQALI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI.....178

26 Djabbarova Feruza Azamovna

MULTIMADANIY MUHITDA O'QITUVCHINING MUNOSABATLARNI BOSHQARISH QOBILIYATI 183

27 Isxakova Mavlyuda Raxmanovna, Ergasheva Muslima Komiljon Qizi

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YINGA ASOSLANGAN TA'LIMNING IMKONIYATLARI.....192

28 Xo'jageldiyev Ibodulla Mamaradjab O'g'li

SURXONDARYO VOHASIDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARI 197

29 Yo'ldoshev Bobur Rustam O'g'li

HAYVONOT DUNYOSI BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR.....203

30 Komilov Sarvarjon Anvarjon O'G'Li

INFLYATSIYANING DEPOZIT FOIZ STAVKALARIGA TA'SIRI VA FOIZ UZATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI: EMPIRIK TAHLIL ... .209

31 Qobulova Laziza Farrux Qizi, Qobulov Javohir Farrux O'g'li

KAMBAG'ALLIK CHEGARASINI ANIQLASHDA XALQARO TAJRIBA VA MILLIY MOSLASHUV MEXANIZMLARIINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 219

32 Матыгулина Камила Камильевна

ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫЙ И ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОД К РАБОТЕ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМ ТЕКСТОМ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ 229

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY-METODIK JURNALI №1 (2026)

Published: 01.05.2026. Font: Times New Roman

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Feruza ko‘chasi,
https://tipi-journal.uz
info@scientists.uz